O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
MARKETING KAFEDRASI

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING KONTSEPTSIYALARINI QO‘LLASH: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami
2025 yil 16-oktabr

I-II-III-SHO‘BALAR

TOSHKENT-2025

2025-YIL
16-OKTABR
MAXSUS
SON

Marketing
ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELEKTRON NASHR. 16-OKTABR, 2025-YIL

“ Yashil iqtisodiyot sharoitida marketing kontseptsiyalarini qo‘llash: xalqaro tajriba va zamonaviy yondashuvlar ” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya maqola va tezislar to‘plami. TDIU., Toshkent 2025- yil.

ALOQA UCHUN MA’LUMOTLAR:

TEL: (97) 783-84-64
VEB-SAYT
www.marketingjournal.uz
ELEKTRON POCHTA:
info@marketingjournal.uz
TELEGRAM BOT:
@marketinjournalbot
TELEGRAM KANAL:
https://t.me/tdiumarketingjournal

INDEKSATSIYA

Annotatsiya. Ushbu konferensiya yashil iqtisodiyot sharoitida marketingni qo‘llashning zamonaviy yondashuvlarini muhokama qilish va xalqaro tajriba almashish, barqaror rivojlanish omillarini aniqlash hamda fan, biznes va davlat uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Konferensiya ilmiy maqola va tezislar to‘plamida yashil marketing va barqaror rivojlanish konsepsiyalarining zamonaviy yo‘nalishlari, ularning global iqtisodiyotdagi o‘rni hamda marketing boshqaruvi bilan bog‘liq muammolar o‘rganilgan. Tadqiqotlarda yashil marketingning istiqbolli yo‘nalishlari, ekologik muvozanatni ta’minlashga qaratilgan global tashabbuslar va yangi istiqbollar, shuningdek yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion marketing konsepsiyalari keng yoritilgan. Konferensiya doirasida ijtimoiy ta’sirlarning iste’molchilar xulq-atvoridagi transformatsiyasi, barqaror iste’mol va ekologik ongni shakllanishi masalalari muhokama etilgan. Shu bilan birga, yashil marketingni rivojlantirishda milliy va mintaqaviy xususiyatlar, mahalliy bozorlarda eko brendlarni shakllantirish omillari aniqlangan. Tadqiqotlarda barqarorlik tashabbuslarini amalga oshirishda korporativ darajada ekologik mas’uliyatni kuchaytirish hamda yashil biznes modellar va yashil mahsulot siyosatini milliy qadriyatlar asosida qayta shakllantirish bo‘yicha amaliy takliflar ilgari suriladi. Konferensiya natijalari ilmiy hamjamiyat, davlat siyosati, tadbirkorlik va biznes sektori uchun ekologik marketing yondashuvlarini strategik darajada rivojlantirish, raqamli texnologiyalar orqali yashil iqtisodiy transformatsiyani tezlashtirish yo‘nalishida muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy maqola va tezislar ilmiy tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilar, professor-o‘qituvchi, magistr va talabalarga, professional ta’lim oluvchi mutaxassislar hamda turli mulkchilik shaklidagi korxona va tashkilotlar uchun mo‘ljallangan.

**Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma’lumot hamda bildirilgan fikr — mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.*

Mas’ul muharrir: Ergashxodjayeva Sh.Dj.

Konferensiya tashkilotchilari:
i.f.d., prof. Ikramov M.A.
i.f.n., prof. Abduxalilova
L.T. i.f.n., prof. Yusupov M.
i.f.n., prof. Samadov A.N.
i.f.d.,prof. Adilova Z.Dj.
DSc., prof. Ziyayeva M.M.
DSc., prof. Ostanakulova G.M.
i.f.n., prof. Safarov B.J.
i.f.n., dots. Alimxodjayeva
N.E. i.f.n., dots. Kutbiddinova
M.I. DSc., dots. Eshmatov
S.A. DSc., dots. Sharopova
N.R. DSc., dots. Xakimov
Z.A. Phd., dots. Sobirov A.A.
Phd., dots. Kaxramonov X.Sh.
Phd., dots. Jalilov J.G‘.
Phd., dots. Yuldashev J.A.
Phd., dots. Xojiyev E.Y.
Phd., kat.o‘qit. Aliyev
A.I.
Phd., kat.o‘qit. Abdurashidova N.A.
Phd., kat.o‘qit. Qurolov M.O.
kat.o‘qit. Minarova M.X.
kat.o‘qit. Valiyeva A.A.
kat.o‘qit. Fayzullayev Sh.Sh.
ass. Boboyorova M.X.
ass. Xalilova N.
ass. Xolmatova M.A.
ass. Vaxabov A.U.
ass. Nosirova Ch.

Elektron nashr 530 sahifa. E’lon qilishga 2025-yil 16-oktabrda ruxsat etildi

2025 ГОД
16 ОКТЯБРЯ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ
ВЫПУСК

Marketing
ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL
ЭЛЕКТРОННОЕ ИЗДАНИЕ. 16 ОКТЯБРЯ 2025 ГОДА

Сборник статей и тезисов международной научно-практической конференции на тему « Применение маркетинговых концепций в условиях «зелёной» экономики: международный опыт и современные подходы ». ТГЭУ., Ташкент 2025 г.

КОНТАКТНАЯ ИНФОРМАЦИЯ:

ТЕЛ: (97) 783-84-64
ВЕБ-САЙТ:
www.marketingjournal.uz
ЭЛЕКТРОННАЯ ПОЧТА :
info@marketingjournal.uz
TELEGRAM БОТ:
@marketinjournalbot
TELEGRAM КАНАЛ :
https://t.me/tdiumarketingjournal

ИНДЕКСАЦИЯ

Аннотация. Настоящая конференция направлена на обсуждение современных подходов к применению маркетинга в условиях «зелёной» экономики, обмен международным опытом, выявление факторов устойчивого развития, а также разработку практических рекомендаций для науки, бизнеса и государства. В сборнике научных статей и тезисов конференции исследуются современные направления концепций «зелёного» маркетинга и устойчивого развития, их роль в глобальной экономике, а также проблемы, связанные с управлением маркетингом. В исследованиях подробно освещаются перспективные направления «зелёного» маркетинга, глобальные инициативы и новые тенденции, направленные на обеспечение экологического баланса, а также инновационные концепции маркетинга в условиях «зелёной» экономики. В рамках конференции рассматриваются вопросы трансформации потребительского поведения под воздействием социальных факторов, формирование устойчивого потребления и экологического сознания. Кроме того, выявлены национальные и региональные особенности развития «зелёного» маркетинга, а также факторы формирования экобрендов на местных рынках. В представленных исследованиях предложены практические рекомендации по усилению экологической ответственности на корпоративном уровне, реализации инициатив в области устойчивого развития и формированию «зелёных» бизнес-моделей и продуктовой политики на основе национальных ценностей. Результаты конференции служат важной теоретической и практической основой для научного сообщества, государственной политики, предпринимательства и бизнес-сектора в стратегическом развитии экологических маркетинговых подходов и ускорении «зелёной» экономической трансформации посредством цифровых технологий..

Научные статьи и тезисы, включенные в данный сборник, предназначены для научных исследователей, докторантов и соискателей, профессоров-преподавателей, магистров и студентов, специалистов, получающих профессиональное образование, а также предприятий и организаций различных форм собственности.

Авторы сами несут ответственность за содержание, статистические данные и высказанные мнения статей и тезисов, вошедших в данный сборник.

Ответственный редактор: Эргашходжаева Ш.ДЖ.

Организаторы конференции:
д.э.н., проф. Икрамов М.А.
к.э.н., проф. Абдухалилова Л.Т.
к.э.н., проф. Юсупов М.
к.э.н., проф. Самадов А.Н.
д.э.н., проф. Адилова З.Дж.
DSc., проф. Зияева М.М.
DSc., проф. Останакулова
Г.М. к.э.н., проф. Сафаров
Б.Дж. к.э.н., доц.
Алимходжаева Н.Э. к.э.н.,
доц. Кутбиддинова М.И.
DSc., доц. Эшматов С.А.
DSc., доц. Шаропова Н.Р.
DSc., доц. Хакимов З.А.
PhD., доц. Собиров А.А.
PhD., доц. Кахрамонов Х.Ш.
PhD., доц. Джалилов Ж.Г.
PhD., доц. Юлдашев Ж.А.
PhD., доц. Ходжиев Э.Ё.
PhD., ст.преп. Алиев А.И.
PhD., ст.преп. Абдурашидова Н.А.
PhD., ст.преп. Куролов М.О.
ст.преп. Минарова М.Х.
ст.преп. Валиева А.А.
ст.преп. Файзуллаев Ш.Ш.
асс. Бабоёрова М.Х.
асс. Халилова Н.
асс. Холматова М.А.
асс. Вахабов А.У.
асс. Носирова Ч.

Электронное издание. 530 стр. Разрешено к публикации 16 октября 2025 года.

2025
OCTOBER 16
SPECIAL
ISSUE

Marketing
ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

ELECTRONIC EDITION. OCTOBER 16, 2025

A collection of articles and theses of the international scientific and practical conference " Application of Marketing Concepts under Green Economy Conditions: International Experience and Modern Approaches ". TSUE., Tashkent 2025.

CONTACT INFORMATION:

PHONE: (97) 783-84-64
WEBSITE:
www.marketingjournal.uz
E-MAIL:
info@marketingjournal.uz
TELEGRAM BOT:
@marketinjournalbot
TELEGRAM CHANNAL:
https://t.me/tdiumarketingjournal

INDEXING

Google Scholar
ORCID
OPEN ACCESS
OpenAIRE
zenodo

Abstract. This conference is aimed at discussing modern approaches to the application of marketing within the framework of the green economy, facilitating the exchange of international experience, identifying the key factors of sustainable development, and developing practical recommendations for academia, business, and government. The collection of scientific articles and theses explores the contemporary directions of green marketing and sustainable development concepts, their role in the global economy, and the main issues related to marketing management. The studies highlight promising directions in green marketing, global initiatives and new trends aimed at ensuring environmental balance, as well as innovative marketing concepts under green economy conditions. The conference also addresses the social impacts and behavioral transformation of consumers, the development of sustainable consumption, and the formation of environmental awareness. Furthermore, it identifies the national and regional characteristics of green marketing development and the factors contributing to the formation of eco-brands in local markets. The research presents practical recommendations for strengthening environmental responsibility at the corporate level, implementing sustainability initiatives, and reshaping green business models and product policies based on national values. The conference outcomes provide an important theoretical and practical foundation for the scientific community, policymakers, entrepreneurs, and the business sector, contributing to the strategic development of ecological marketing approaches and the acceleration of green economic transformation through digital technologies.

The scientific articles and theses included in the current collection are intended for researchers, doctoral students and scientific applicants, professors-lecturers, masters and bachelors, specialists receiving professional education, as well as enterprises and organizations of various forms of ownership.

The authors are responsible for the content, statistical data and expressed opinions of the articles and theses included in this collection

Responsible editor: Ergashxodjayeva Sh.Dj.
DSc, Prof. M.A. Ikramov
PhD, Prof. L.T. Abdukhalilova PhD, Prof. M. Yusupov
PhD, Prof. A.N. Samadov
DSc, Prof. M.M. Ziyayeva
DSc, Prof. Z.Dj. Adilova
DSc, Prof. G.M. Ostanakulova
PhD, Prof. B.J. Safarov
PhD, Assoc. Prof. N.E. Alimkhodjayeva
PhD, Assoc. Prof. M.I. Kutbiddinova
DSc, Assoc. Prof. S.A. Eshmatov
DSc, Assoc. Prof. N.R. Sharopova
DSc, Assoc. Prof. Z.A. Khakimov
PhD, Assoc. Prof. A.A. Sobirov
PhD, Assoc. Prof. Kh.Sh. Kakhramonov
PhD, Assoc. Prof. J.G. Jalilov
PhD, Assoc. Prof. J.A. Yuldashev
PhD, Assoc. Prof. E.Y. Khojiyev
PhD, Senior Lecturer A.I. Aliyev
PhD, Senior Lecturer M.O. Qurolov
PhD, Senior Lecturer N.A. Abdurashidova
Senior Lecturer M.Kh. Minarova
Senior Lecturer A.A. Valiyeva
Senior Lecturer Sh.Sh. Fayzullayev
Assistant M.Kh. Boboyorova
Assistant N. Khalilova
Assistant M.A. Kholmatova
Assistant A.U. Vakhabov

Electronic publication. Authorized for publication on October 16, 2025.

M U N D A R I J A

BIRINCHI SHO‘BA-YASHIL MARKETINGNING KELAJAGI: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA YANGI ISTIQBOLLAR.....14

ISHLAB CHIQARISH VA XIZMATLAR SOHASIDA BREND SIYOSATI.....15
Teshabayev To‘lqin Zakirovich

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....21
Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING KONSEPSIYALARINI QO‘LLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI 27
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna

OLIY TA’LIM MARKETING STRATEGIYASIDA YASHIL MARKETINGNING TIZIMLI TAHLILI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR.....35
Boltabayev Mahmudjon Rustamovich, Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘QITISH XIZMATLARI MARKETINGI HISOBINI TASHKIL ETISH.....38
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna

ELEKTRON TIJORAT PLATFORMALARINING MA’LUMOTLAR HIMOYASI VA XAVFSIZLIK TAHLILI.....42
Gaibnazarova Zilola Maxsudovna

YASHIL MARKETINGNING MILLIY VA MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....51
Ziyayeva Shahlo Shoakbar qizi

ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ЕГО АСПЕКТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....54
Абдуллаева Дилора Куйсуновна,

MODA SANOATIDA YASHIL MARKETINGNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....59
Xalilova Nafisa Komilovna

BARQAROR IMIJ YARATISHDA YASHIL MARKETINGNING ROLI.....64
I.T. Jo‘raboyev, R.U Roziqov, N.Sh. Shokirova

ADVANCING GREEN MARKETING THROUGH GLOBAL CHALLENGES AND NEW HORIZONS.....70
Dr. Aajaz Ahmad Hajam, Dr. Alphonsa S John

YASHIL MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH KONTEKSTIDA EKOLOGIK STANDARTLARNING JAHON SAVDOSIGA TA’SIRI.....76
Muratova Shohista Nimatullayevna

ИННОВАЦИОННЫЕ КОНЦЕПЦИИ УСТОЙЧИВЫХ ФИНАНСОВ: ЦИФРОВЫЕ ВАЛЮТЫ КАК ДРАЙВЕР ЗЕЛЕНОГО РАЗВИТИЯ.....80
Авазов Акобир Акрам угли, Нестеров Игорь Олегович

GREEN MARKETING: ISTE'MOLCHILARDA "EKOLOGIK ONGLILIK" TUSHUNCHASINI SHAKLLANTIRISH.....84
Bekmurodova Go'zal Adhamovna

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALARNING RAQOBAT MUHITINI TAHLIL ETISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH.....88
Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna, Yoqubjonova Dildora Timur qizi

AI-DRIVEN DEMAND FORECASTING AS A TOOL FOR SUSTAINABLE FMCG DISTRIBUTION.....91
F. Sh. Jamoliddinov

TASHQI BOZORLARDA TOVAR VA XIZMATLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....97
Meliqulov Abduhalil Norinovich

ANDIJON VILOYATI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA EKOMARKETINGNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR.....102
Sotvoldiyev Egamberdi Mo'minjon o'g'li

ЗЕЛЕНЫЙ МАРКЕТИНГ КАК КОНКУРЕНТНОЕ ПРЕИМУЩЕСТВО: БУДУЩЕЕ РОССИЙСКИХ ЦИФРОВЫХ КОМПАНИЙ НА РЫНКЕ УЗБЕКИСТАНА.....108
Хурматуллаев Шахзодтилла Улпатилла угли, Аренков Игорь Анатольевич

THE DIGITAL MARKETING TECHNOLOGIES AND GREEN MARKETING INNOVATIONS WITHIN ENTERPRISES.....113
Aliev Abdulaziz

O'ZBEKISTONDA UZUM EKSPORTI BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA YASHIL MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANISHINI BAHOLASH.....117
Usmonova Diyora Mahmud qizi

KORXONALARDA EKOYORLIQLARDAN FOYDALANISHNING ISTE'MOLCHI QARORIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....133
Abduqodirova Donoxon Raximjonovna

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA MARKETING TRANSFORMATSIYASI.....138
Axmedov Ikrom.Akramovich

БУДУЩЕЕ ЗЕЛЁНОГО МАРКЕТИНГА: ГЛОБАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ И НОВЫЕ ГОРИЗОНТЫ.....143
Ахтамова Мохигул Эркиновна, Нишонов Алижон Темур угли
ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ УСТОЙЧИВЫХ ТОВАРОВ НА МАРКЕТПЛЕЙСАХ.....148
Мираметова Азиза Бахытбай кызы
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....152
Samadov Asqarjon Nishonovich,
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH BO‘YICHA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....160
Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETINGNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....163
To‘xtabayev Abdurashid Tursunovich
INNOVATSION MENEJMENTNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....168
Yuldashev Giyos Turabekovich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING EKSPORT FAOLIYATIGA TA’SIRI.....172
Tursunxo‘jayeva Gulnoza Jamoliddin qizi
TIKUV TRIKOTAJ KORXONALARIDA ISTE’MOLCHILARNI MOTIVATSIYALASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....178
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI BILAN INTEGRATSIYALASHTIRISH.....181
Ismailov Allayor Rashidovich

IKKINCHI SHO‘BA - YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETINGNING INNOVATSION KONSEPSIYALARI.....186

INNOVATIVE MARKETING CONCEPTS IN THE CONTEXT OF GREEN ECONOMY.....187
Jumayev Olimjon Sadulloyevich, Akhmedova Shokhsanam Sindbod qizi
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING VA INNOVATSIYA: MUHIM KONSEPSIYALAR.....193
Ikramov Murat Akramovich, Fayzullayev Shuhrat Sherali o‘g‘li

OMNICHANNEL DIGITAL MARKETING STRATEGIES IN FMCG DISTRIBUTION: ENHANCING SUSTAINABILITY THROUGH AI INTEGRATION.....198
F. Jamoliddinov

WAYS USE OF MARKETING STRATEGY IN HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN.....203
Karrieva Yakutzhan Karimovna, Qahramonova Nasiba jaloliddinovna

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING MEXANIZMLARI.....211
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi

YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI.....217
Qo‘ziyev Jaloladdin Alisher o‘g‘li

RAQOBAT RAZVEDKASI ORQALI YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH.....220
Tursunxo‘jayev Sardor Jamoliddin o‘g‘li

ОРГАНИЗАЦИЯ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА РЫНКЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ТОВАРОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: НА ПРИМЕРЕ КОМПАНИИ ООО «GOODZONE».....227
Акромова Фозила Хожиакбар кизи

МАРКЕТИНГОВЫЕ МОДЕЛИ: ИНСТРУМЕНТЫ, ТЕХНОЛОГИИ, ПРАКТИКИ.....231
Аренков Игорь Анатольевич, Бичун Юлия Андреевна, Икрамов Мурат Акрамович

ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ 235
Сафаров Бахтиёр Джуракулович

O‘ZTO‘QIMACHILIK SANOATIDA MARKETING VA BRENDING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH HOLATI TAHLILI.....239
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING KONSEPSIYALARINI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI.....243
Jalolova Sarvinoz Ulug‘bek qizi

IMPROVING THE USE OF DIGITAL MARKETING TECHNOLOGIES IN THE ONLINE EDUCATION SERVICES MARKET: A GREEN ECONOMY PERSPECTIVE.....251
Ibrokhimova Maftuna Nabijon qizi

ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СТРАТЕГИИ ИННОВАЦИОННОГО МАРКЕТИНГА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....255
Сафаров Бахтиёр Джуракулович, Кадирова Зулхумор Намазовна
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОРГАНИЗАЦИИ МАРКЕТИНГА В ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНОМ ХОЗЯЙСТВЕ.....260
Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли
LOGISTIKA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRSHNING INNOVATSION KONSEPSIYALARI 264
F.F. Mannapova
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION MARKETING KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH.....267
Menlibaev Miyras Mambetbaevich
МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ КАК ОСНОВА МАРКЕТИНГОВЫХ СТРАТЕГИЙ ТЕКСТИЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ УЗБЕКИСТАНА.....270
Муминова Умидахон Дилшод кизи
CHAKANA MARKETINGDA RAQAMLI INNOVATSIYALAR INVESTITSION JOZIBADORLIK OMILI SIFATIDA.....273
Safarov Baxtiyor Djurakulovich
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA TA’LIM BRENDINI SHAKLLANTIRISH.....287
Odilova Sitora Sayfitdin qizi
GLOBAL EKOLOGIK STANDARTLAR VA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINING MUVOFIQLASHUVI.....295
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi
INTEGRATION OF GREEN INNOVATIONS INTO HIGHER EDUCATION MARKETING STRATEGIES.....307
Ruziyeva Shakhlo Raupovna
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....315
Samadov Asqarjon Nishonovich
УСТОЙЧИВОСТЬ И ЭКОЛОГИЧНОСТЬ В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: ОТ ИНИЦИАТИВ КОМПАНИЙ ДО ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ПРЕДПОЧТЕНИЙ.....320
Умарходжаева Зайнабхон Нодирхоновна
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING KONSEPSIYALARINI QO‘LLASH: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR 325
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich

YANGI O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY MARKETINGNING RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....334
M.A.Yusupov
YASHIL MARKETING ORQALI MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI.....338
Yunusov Baxodir Marisovich
OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....344
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o‘g‘li
QURILISH SOHASIDA “YASHIL TEXNOLOGIYALAR”NI JORIY ETISH VA ULARNI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI.....348
Ortiqxo‘jayeva Yulduz Azatovna
O‘ZBEKISTONNING YANGI IQTISODIY MUHITIDA BIZNES RIVOJLANISHI UCHUN INNOVATSION MARKETING KONTSEPTSIYALARIDAN FOYDALANISH.....353
Adilova Zulfiya Djavdatovna
“YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETINGNING INNOVATSION KONSEPSIYALARI”.....368
Aripov Abdulaziz Sakijonovich
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA MARKETING KONSYEPSIYALARINI QO‘LLASHDA XORIJIY TAJRIBANING AHAMIYATI.....373
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna

UCHINCHI SHO‘BA- IJTIMOIY TA’SIRLAR VA ISTE’MOLCHILARNING XULQIY TRANSFORMATSIYASI.....379

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASH-TIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....380
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ МАРКЕТИНГА В УСТОЙЧИВОМ УПРАВЛЕНИИ ОТХОДАМИ.....391
Асаул Анатолий Николаевич, Турбова Хулкар Рустамовна
QANDOLAT MAHSULOTLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION VA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....397
Boboyorova Maftuna Xaqqul qizi

SOCIAL EFFECTS AND BEHAVIORAL TRANSFORMATION OF CUSTOMERS.....403
Sachdev Ramakrishna
KORXONALARDA REKLAMA FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO‘LLARI.....410
Raxmonqulova Shahrizoda Toxir qizi
STRATEGIC MANAGEMENT MECHANISMS OF INVESTMENT FLOWS IN REDUCING INTERREGIONAL INEQUALITY.....414
Ibragimov Bakhrom Bakhodirovich
ZAMONAVIY MARKETINGNING ASOSIY TURLARI.....418
N.A. Abdurashidova
ICHKI BOZORNI OZIQ-OVQAT TOVARLARI BILAN TO‘LDIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH 422
Akramov Toxir Abdiraxmonovich
MARKETING AMALIYOTIDA NEYRO YONDASHUVLARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....426
N.E. Alimxodjayeva, A.T. Agzamov
NEYROMARKETINGNING GENEZISI VA UNING MARKETING, NEYROBIOLOGIYA HAMDA PSIXOLOGIYA FANLARI BILAN BOG‘LIQLIGI.....429
N.E. Alimxodjayeva
AI AND DIGITAL TRANSFORMATION 4.0: THE ROLE OF AI AND DIGITAL TRANSFORMATION IN PROMOTING SUSTAINABLE CONSUMPTION.....434
Janitha Amarasena
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA TAKAFUL SUG‘URTASI: AHAMIYATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....439
Gadayev Jahongir Muhammadi o‘g‘li
СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ КАК СРЕДСТВО ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ МАРКЕТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ.....444
М.М. Зияева, М.К. Аллаярова
YASHIL BIZNES MODELIDA REKLAMA INNOVATSIYALARINING ROLI.....447
Karimova Nafisabonu Djamshidovna
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING STRATEGIYALARI VA KORPORATIV MADANIYATNING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA’SIRI.....454
Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna, Mirzayeva Mohinur G‘ulom qizi

TASHQI BOZORLARDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH.....457
Meliqulov Abduhalil Norinovich
XARAJATLAR USULIDAN NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHGA O‘TISH SHAROITIDA MARKETINGDAN FOYDALANISH.....462
N.I. Primova
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BAHO TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI.....468
Roziqov Jalil Jalolovich
THE ROLE OF SOCIAL MEDIA INFLUENCERS IN SHAPING CONSUMER BUYING BEHAVIOR IN THE ELECTRONICS MARKET.....472
Abbos Ruzmamatov
TA’LIM TURIZMINI TASHKIL ETISHNING BARQAROR STRATEGIYALARINI ANIQLASHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....476
Azimova Vazira Oqiljonovna
O‘ZBEKISTONDA BIZNES MOLIYASI METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....479
Toshpo‘latov Murodulla Sobirjon o‘g‘li
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINING BARQAROR RIVOJLANISHNI TA’MINLASHDAGI ROLI VA ISTIQBOLLARI.....482
Tursunxo‘jayev Axrorxo‘ja Jamoliddin o‘g‘li
XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA JAHON TENDENSIYALARINING O‘RNI.....490
Xabibullaev Anvar Shovkat o‘gli
O‘ZBEKISTONDA ISTE’MOLCHILARNING XARIDORLIK XULQ-ATVORINI O‘RGANISHNI TASHKIL ETISH.....496
Xotamova Aziza Shovkat qizi
HUDUDIY SOLIQ SALOHIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR VA ULARNING DAVLAT BYUDJETI BARQARORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI.....499
Ergashev Umidjon Ibragimovich
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В SMM И ИНТЕРНЕТ РЕКЛАМЕ.....504
К.М. Эрмуратова
МИНИМИЗАЦИЯ ИСКАЖЕНИЙ ОТВЕТОВ РЕСПОНДЕНТОВ КАК

ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ДОСТОВЕРНОСТИ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА РЫНКЕ УСЛУГ.....508
М.О. Юлчиева
ОПТИМИЗАЦИЯ ИНТЕРНЕТ-МАРКЕТИНГА КАК ИНСТРУМЕНТ РОСТА МАЛОГО БИЗНЕСА.....513
М.М. Зияева, М.К. Аллаярова
YASHIL TEXNOLOGIYALARNI TARG‘IB QILISHDA MARKETING INNOVATSIYALARINING ROLI.....517
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo‘ja qizi
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA QURILISH TARMOG‘INI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI.....521
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich
SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING OLIY TA’LIMDA BOSHQARUV JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISHDAGI O‘RNI. 526
Radjabov Bunyod Abduxalilovich
ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ …….534
Назарова Гулчехра Нурмухамбетовна
Institutional Effectiveness of Foreign Investments in the Higher Education System under Conditions of Innovative Development. ……. 543
Ulugbek Qudrat ugli Almardanov
KICHIK BIZNESDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH 547
Alimov Muxammadbobur Ibragimjonovich
ОЦЕНКА СОВРЕМЕННОГО СОСТОЯНИЯ КАЧЕСТВА ОБСЛУЖИВАНИЯ В МАЛЫХ ГОСТИНИЦАХ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ ……..….. 553
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи

BIRINCHI SHO‘BA-YASHIL MARKETINGNING KELAJAGI: GLOBAL CHAQIRIQLAR VA YANGI ISTIQBOLLAR

ISHLAB CHIQARISH VA XIZMATLAR SOHASIDA BREND SIYOSATI

Teshabayev To‘lqin Zakirovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
rektori i.f.d., professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada muallif tomonidan Yangi O‘zbekistonning ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida brend siyosati masalalari har tomonlama chuqur yoritib berilgan. Shuningdek, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalarni bajarilishini ta’minlashda, mamlakatimizning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida faol brend siyosatini amalga oshirish muhim ahamiyatga egaligi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: brend, brending, brend kapitali, brend kuchi, savdo markasi, savdo belgisi, xalqaro brendlar, milliy brendlar.

Аннотация

В данной статье автор подробно анализирует вопросы брендовой политики в сферах производства и услуг в контексте развития Нового Узбекистана. Отмечено, что реализация активной бренд-стратегии имеет важное значение для достижения целей Стратегии развития «Узбекистан–2030». Также раскрыта роль национальных и международных брендов в укреплении рыночных позиций и повышения конкурентоспособности отечественных товаров и услуг.

Ключевые слова: бренд, брендинг, брендовый капитал, сила бренда, торговая марка, товарный знак, международные бренды, национальные бренды

Abstract

This article explores the branding policy in Uzbekistan’s production and service sectors, emphasizing its importance in the context of the “Uzbekistan–2030” development strategy. The author highlights that implementing an active brand strategy is crucial for achieving national goals and improving competitiveness. The study also analyzes the role of both national and international brands in shaping strong market identities.

Keywords: brand, branding, brand equity, brand strength, trademark, trade label, international brands, national brands

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev mamlakatimiz mahsulotlarining faqat sotishni emas, balki tashqi bozorlarda brend sifatida tanilishi uchun ham ko‘maklashish zarurligini tadbirkorlarimiz oldida bir necha marotaba ta’kidladilar.

Shuningdek, jahonning mashhur nomdagi mahsulotlarini yurtimizda ishlab chiqarish mumkinligini ta’kidlab, bunday imkoniyatlardan foydalanib, nufuzli brendlarni O‘zbekistonga olib kelish zarurligi aytildi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan barcha maqsadlarga erishish va dolzarb vazifalarni bajarilishini ta’minlashda, mamlakatimizning ishlab

chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida faol brend siyosatini amalga oshirish katta ahamiyatga egadir [1].

Brendni yaratish – bu zarur, uzoq muddatli va shu bilan bir vaqtda xavf-xatarli mablag‘ sarf qilmoqdir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, so‘nggi vaqtlarda savdo markasining ulushi kompaniyalarning umumiy qiymatida og‘ishmas o‘sib bormoqda. XX asrning 80 – yillarining boshida nomoddiy aktivlarning ulushi (eng avvalo, jami savdo markalarini) kompaniyalarning umumiy qiymatda 20 foizdan kam, 90 – yillarning boshida qariyb 50 foizni, 90 – yillarning oxirida esa 80 foizgacha va undan ortiqni tashkil etgan [2].

Shu sababli, mamlakatimizning ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida brendlarni yaratish bo‘yicha samarali marketing dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish zarur. Bu dasturni ishlab chiqishda quyidagilarni hisobga olish tavsiya etiladi.

Brendni kuchini ta’riflashda, ko‘pincha brend kapitali degan tushuncha ishlatiladi. Brend kapitali deganda, mahsulot brendining nomi orqali keladigan qo‘shilgan qiymat tushuniladi. Brend kapitalini shuningdek, brendning kuchi deb ham ataladi. Marketologlar brend kapitalini xaridor firmali tovar yoki xizmat uchun, brendga ega bo‘lmagan o‘xshash mahsulotga to‘lashi mumkin bo‘lgan narxdan yuqori ustamada to‘laydi deb tushuntiradilar.

Brend kapitalini yaratish jarayonida ishtirok etuvchi va ma’lum rol o‘ynovchi to‘rtta omilni ko‘rsatish mumkin. Ular quyidagilardan iborat, ya’ni xaridor firmali tovarni brendga ega bo‘lmagan o‘xshash tovardan sifatli deb baholashi, brendni raqobatli bozordagi mashhurligi, brendni iste’molchilarda ijobiy his – tuyg‘u uyg‘otishi va nihoyat, iste’molchilarni brendga bo‘lgan sodiqligidir.

Demak, kuchli brendga ega bo‘lish, ko‘p imkoniyatlarga yo‘l ochadi va shuningdek, har qanday korxonani foyda manbai bilan ta’minlaydi. Brend kapitali o‘z – o‘zidan vujudga kelmaydi. Uni yaratish, qo‘llab – quvvatlash va himoya qilish faol boshqarishni talab etadi. Bundan tashqari, u strategik va taktik marketing dasturlarini amalga oshirishni talab etadi.

Marketologlar brend kapitalini yaratish uch bosqichdan iboratligini ta’kidlaydilar. Birinchi bosqich, brend elementlarini tanlash. Brend yaratishga intiluvchi korxona va tashkilotlar, tovarlari hamda xizmatlarini ajratib turish uchun yordam beradigan nomi, belgisi, logotipi, shiori, rangi va boshqa ajralib turuvchi belgilarini tanlashga qat’iy e’tibor berishlari zarur.

Ikkinchi bosqich, marketing tizimini barcha elementlarini o‘z ichiga olgan, brendni yaratish va rivojlantirish bo‘yicha marketing dasturlarini ishlab chiqish.

Uchinchi bosqich, brendni siljitishda boshqa tashkilotlar va tuzilmalar bilan bo‘ladigan o‘zaro aloqalardan samarali foydalanish.

Brend nomini iste’molchilarni aksariyat qismi(foizi) bilishi va ishonishidir. Sunkist Growers kompaniyasi boshlig‘i Rassel Xenlin shunday degan: “Apelsin – bu apelsin, ya’ni oddiy apelsin. Iste’molchilarni 80 foizi biladigan va unga ishonadigan, bizning kompaniyamiz apelsini bo‘lgandagina, u brendga ega bo‘lgan mahsulotga

aylanadi”. Yaxshi brend qo‘shilgan qiymatni yaratib, mahsulot va xizmatni

iste’molchilar uchun jozibador ko‘rinishga olib keladi. Brendni keng tanilganligi korxonaga qo‘shimcha foyda beradi. Yaxshi brendlar iste’molchilar hissiyotiga kuchli ta’sir qiladi.

Brend – bu iste’molchilar tasavvurida tovar haqida idrok etiladigan ko‘rsatkichlar to‘plami.

Brend qanday yaratiladi? Bu reklamani ishi deyish, noto‘g‘ri fikrdir. Reklama faqat brendga e’tiborni qaratishi va qiziqishni uyg‘otishi mumkin. Brendni yaratish – bu kompleks jarayon bo‘lib, u o‘z ichiga reklama, jamoatchilik bilan aloqalar, marketing chora – tadbirlari, xomiylik, turli xil foydali aksiyalar, ommaviy axborot vositalarini tovar markasiga e’tiborini jalb etish va boshqa vositalarni oladi.

Agar XX asr menejerlarni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini biznes sifatida boshqarish kerakligini uqtirgan bo‘lsa, XXI asr esa, bizni ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalariga yaratish va kengaytirish mumkin bo‘lgan brend sifatida qarashni o‘rgatdi.

Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish brendlarini yaratish va kengaytirish muammolarini ko‘rishni boshlashdan avval, brendni o‘zi nimani ifodalashini bilishimiz zarur.

Ingliz tilida “brand” so‘zining kelib chiqishi qadimgi skandinav tilidagi “brandr” — yonmoq, yoqmoq fe’li bilan bog‘liq. O‘rta asrlarda ingliz tilidagi “brand” so‘zi olov, alanga, mash’ala ma’nosini anglatardi, lekin tez orada u bir qator majoziy ma’nolarga, masalan: tamg‘a, chorva mollarini qizib cho‘g‘ bo‘lib turgan temir bilan tamg‘alash bilan bog‘liq bo‘lgan mulk belgisi ma’nosiga ega bo‘ldi [3]. Ayrim mutaxassislarning hisoblashicha, “brend” so‘zi lotin tilidagi “brand” — tamg‘a, belgi so‘zi bilan bog‘liq. Savdo markasi — bitta sotuvchi yoki sotuvchilar guruhining tovarlari yoki xizmatlarini identifikatsiya qilish va ularni raqobatchilarning tovarlari va xizmatlaridan ajratish uchun mo‘ljallangan nom, atama, belgi, simvol, rasm yoki ularning uyg‘unlashuvidir. Markani aslo tovar yoki xizmat uchun faqat nom sifatidagina ko‘rib chiqmaslik lozim. Markani yaratishdan asosiy maqsad — iste’molchilar ongida shu marka bilan bog‘liq yuzaga keladigan tasavvurlar mazmuniy tizimini rivojlantirish, shuningdek, sotuvchining xaridorga o‘ziga xos xizmatlar, qadriyatlar va xislatlar to‘plamini muntazam taqdim etish va’dasi hisoblanadi.

Tovar belgisi va xizmat ko‘rsatish belgisi alohida yuridik va jismoniy shaxslarning mos keluvchi tovar yoki xizmatlarini boshqa shaxslarning shu turdagi tovar va xizmatlaridan farqlashga qodir bo‘lgan belgilar sifatida ta’riflanadi. Mamlakatlar qonunchiligida tovar belgisining ta’riflanishi amalda atamani aniq to‘ldirishsiz ishlab chiqarilayotgan va sotilayotgan tovarlarni individuallashtirishga borib taqaladi.

Brendning rasmiy ta’rifi yo‘q, lekin bu mohiyatan ommalashtirilgan, jamiyatda qabul qilingan marka obrazi yoki qandaydir his qilinmaydigan qiymatdir.

Brend — iqtisodiy ma’noda tovar belgisidan ko‘ra kengroq tushunchadir. Brend ham moddiy, ham nomoddiy toifalar yig‘indisini aks ettiradi. Bu toifalar yig‘indisi

iste’molchida tovar, xizmat, firma haqida ijobiy taassurot shakllantiradi va tovarni boshqa tovarlar qatorida ajratgan holda, uni xarid qilish istagini yuzaga keltiradi [3].

Brend - bu iste’molchilarga bir kompaniyaning tovarlari va xizmatlarini ajratib turish uchun yordam beradigan belgi, simvol (logotip), so‘z va ularning birikmalaridir. Brend — bu iste’molchilarni ongi va psixologiyasida joy olib, keng tanilgan savdo markasi yoki kompaniya (korxona) sifatida qabul qilinadi.

“Brend” — mamlakatimiz uchun nisbatan yangi tushuncha bo‘lsada, lekin marketing nazariyasi va amaliyotida ancha vaqtdan buyon foydalanib kelinmoqda va tovar siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib ulgurgan. Umumiy ma’noda brend bozorning muhim va zaruriy elementi, “tilsiz sotuvchi” hisoblanadi.

Hozirgi paytda “marka” va “brend” tushunchalari “mahsulot” va “xizmat” tushunchalarini to‘liq almashtirib, marketingda markaziy o‘rin egallagan: zamonaviy bozor shunday tashkil qilinganki, ishlab chiqaruvchilar muayyan mahsulot yoki xizmatlarni emas, balki savdo markalarini taklif qiladi, iste’molchilar esa xarid qiladi. Firmalarning marka yaratish va ilgari surishga bo‘lgan qiziqishi to‘xtovsiz o‘smoqda, chunki kuchli marka murakkab va jo‘shqin sur’atlarda o‘zgarib turadigan tashqi muhitda qo‘shimcha raqobatli ustunliklar olishga imkon beradi, bu esa ko‘pchilik tadbirkorlar uchun kelgusida faoliyat yuritishning yagona usuli hisoblanadi.

Marketingda asosiy masala quyidagidan iborat bo‘ladi: iste’molchilarni nima motivatsiya qiladi yoki motivatsiyasini oshiradi – ko‘proq xarid qilishmi yoki tovar yo xizmat uchun ko‘proq to‘lashmi? Raqobatchi tovar va xizmatlar bilan taqqoslaganda iste’molchining tovar va xizmatlar xususiyatlarini yaxshiroq tushunishidan iborat bo‘lgan barqaror raqobatli ustunliklar iste’mol bozorida muvaffaqiyatning negizi hisoblanadi. Shu sababdan belgilangan markalarga nisbatan xaridorlarning uzoq muddatli afzal ko‘rishini yaratish va ularda xaridni amalga oshirishda identifikatsiya darajasi yuqori bo‘lishini ta’minlash iste’mol bozoridagi marketingning asosiy vazifalaridan biriga aylanadi.

Brending konsepsiyasiga muvofiq alohida markalar marketingning mustaqil obyektlari sifatida ajratiladi va ularni mintaqaviy bozorlarga ular bilan bog‘liq yorqin esda qoladigan obrazlar yordamida siljitish ro‘y beradi.

Brending — bu brendni ishlab chiqish va yaratishni, uni hayotga tatbiq etish hamda hayotiy davrini boshqarish komponentlarini o‘z ichiga olgan murakkab boshqaruv kompleksidir. Brending — bu uzoq muddatli jarayon va yuqori tovar sifati ko‘rsatgichlariga erishishning yo‘li bo‘lib, brend hayotiy davrining barchasida faol marketingni qo‘llab-quvvatlashi natijasida iste’molchilar faol ishtirok etib, aniq bir brendni muxlisiga aylanishidir. Reyting yoki tanlov natijalariga ko‘ra, oddiy savdo markasi nomli tovarni brend deb qabul qilish kerak emas. Brend yaratiladi, esda qoladi va eng avvalo maqsadli xaridorlar tomonidan, uni afzal (yaxshi, durust) deb ko‘rishdir [4].

Ta’kidlash joizki, so‘nggi yillarda “O‘zto‘qimachiliksanoat” va “O‘zcharmsanoat” uyushmalari korxonalari jahon sifat standartlari asosida mahsulot brendlarini yaratish va kengaytirish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishgan. Misol uchun, “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi korxonalari 2023-yilda 27 xalqaro brendlar nomida tovarlar eksportini amalga oshirgan. Tez kunlarda to‘qimachilikda

“ishonchli eksportchi” dasturini boshlab, eksportoldi moliyalash tizimi yo‘lga qo‘yiladi va buning uchun 200 million dollar yo‘naltiriladi [2].

Mamlakatimizdagi qulay biznes muhiti samarasida so‘nggi yillarda eksport qiluvchi korxonalar soni besh yilda 4 ming 500 tadan 7 ming 200 tagacha ko‘paydi. Eksport qilinayotgan mahsulot turlari ham 1 ming 500 tadan qariyb 3 mingtagacha oshib, geografiyasi 139 ta mamlakatdan bugungi kunga kelib 193taga yetdi. Tayyor mahsulot eksporti 2 baravarga, ularning tovarlar eksportidagi ulushi 50 foizdan 65 foizga oshdi.

Marketologlar va tadbirkorlar tashqi bozorlarni doimiy tahlil qilib, yangi bozorlarni o‘zlashtirish, yangi transport yo‘laklarini topishi zarur. Raqobat kuchayib borayotgan ayni paytda mahsulotlar sifatini oshirish va tannarxini tushirish muhimdir.

“O‘zcharmsanoat” uyushmasi korxonalarida ishlab chiqarishni kengaytirish texnik va texnologik yangilash, modernizatsiya qilish hamda jahon sifat standartlarini joriy etish bo‘yicha sohada bugungi kungacha yuzlab investitsiya loyihalari hayotga tatbiq etildi. Natijada charm – poyabzal va charm buyumlar eksporti hajmi so‘ngi yillarda tobora oshmoqda.

Ayni paytga qadar poyabzal, charm – attorlik, qorako‘l va mo‘yna mahsulotlari, asosan, Germaniya, Italiya, Portugaliya, Fransiya, Belgiya, Misr va Koreya davlatlariga eksport qilingan bo‘lsa, 2022-yildan ular qatoriga AQSH, Yaponiya, BAA, Kamerun, Kolumbiya va boshqa ko‘pgina davlatlar qo‘shildi.

Eksport salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoqda. Jumladan, Germaniyaning “Berkemann” va Rossiyaning “Avanti”, “Yaxting”, “Parijskaya kommuna”, “Ortomoda”, “Maraks”, “Bars”, “Vostok”, Turkiyaning “Vakko”, “Hotic”, “Greyder”, “Yargici” poyabzal brendlari, “Manu Atelier” va “Esin Akan” kabi kompaniyalarining charm-attorlik mahsulotlari brendlari bo‘yicha “autsorsing” va “franchayzing” yo‘nalishida hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

Yevropa bozoriga kengroq kirib borish maqsadida eng yirik standartlash va sertifikatlash tashkilotlari – Angliyaning “Charm ishchi guruhi” (LWG) va “barqaror terichilikni rivojlantirish tashkiloti” (SLF) bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali mahalliy korxonalar eksport geografiyasini kengaytirish bo‘yicha ham amaliy choralar ko‘rilmoqda. Kezi kelganda ta’kidlash o‘rinliki, joriy yil “O‘zcharmsanoat” uyushmasi SLF va LWG sertifikatlash tashkilotlari a’zoligiga qabul qilindi va bunga soha korxonalari ham jalb etilmoqda.

Bu, o‘z navbatida, uyushmaga a’zo korxonalarning nafaqat Yevropa, balki dunyoning istalgan nuqtasida erkin savdoni amalga oshirishiga imkon yaratadi. Shuningdek, ushbu sertifikatlar xalqaro bozorda O‘zbekiston mahsulotlarining tan olinganini anglatadi.

Charm — poyabzal sanoatini yanada rivojlantirish va xorijiy brendlar bilan hamkorlik o‘rnatish dasturi doirasida 2024-2026-yillarda “Berkemann”, “Caprise”, “Baldinini”, “Li-Ning”, “Anta Sports”, “Peak Sport”, “Xtep” kabi 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlar jalb qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, davlatimiz rahbarining ko‘rsatmalari asosida ishlab chiqarish va xizmat sohalarida mahsulot brendlarini jahon standartlari asosida

yaratish, mahsulotni qo‘shilgan qiymat zanjirini vujudga keltirib, sohalar taraqqiyotni yangi bosqichga o‘tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/6600413

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlar bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 2025-yil 20-avgust https://president.uz/uz/lists/view/8397

3. Котлер Ф. Маркетинг от А до Я: 80 консепсий, которыэ должен знат каждый менеджер / Филип Котлер; Пер. с англ. — М.: Алпина Паблишерз, 2010. — 211 с.

4. Yusupov M. Xizmatlar marketingi : Darslik. – T.: Ma’naviyat, 2021.- 361 b.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor,
iqtisod fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida inson resurslarini boshqarishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Green Human Resource Management (GHRM) tamoyillarining nazariy asoslari, amaliy qo‘llanilishi, huquqiy va moliyaviy jihatlari o‘rganiladi. O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyot strategiyasiga muvofiq, ekologik ong asosida kadrlarni yollash, tayyorlash, baholash va rag‘batlantirish mexanizmlarining shakllanishi tadqiq etiladi. GHRMning barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikka ta’siri ham chuqur tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: GHRM, yashil iqtisodiyot, inson resurslari, ekologik boshqaruv, barqarorlik, O‘zbekiston, yashil yondashuv, ekologik strategiya.

Аннотация

В данной работе рассматриваются особенности управления человеческими ресурсами в условиях «зелёной» экономики. Изучены теоретические основы и практическое применение концепции GHRM (зелёное управление персоналом), а также её нормативно-правовая и финансовая база. Анализируются процессы экологически ориентированного найма, обучения, оценки и мотивации сотрудников в соответствии со стратегией устойчивого развития Узбекистана. Уделяется внимание роли GHRM в повышении организационной эффективности и экологической ответственности.

Ключевые слова: GHRM, зелёная экономика, управление персоналом, экологическая устойчивость, Узбекистан, зелёный подход, стратегия.

Abstract

This study explores the specific features of human resource management within the framework of the green economy. It analyzes the theoretical foundation, practical application, and legal-financial aspects of Green Human Resource Management (GHRM). The research examines eco-oriented recruitment, training, evaluation, and motivation of employees aligned with Uzbekistan’s sustainable development strategy. Special attention is given to GHRM’s contribution to improving organizational efficiency and fostering environmental responsibility.

Keywords: GHRM, green economy, human resource management, environmental sustainability, Uzbekistan, green approach, strategy.

Bugungi kunda ekologik muammolar, global isish va resurslar tanqisligi insoniyat oldida yangi ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Bunday yondashuvlardan biri – yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish bilan birga atrof-muhitni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyot milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmonida “aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratish”[1] ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Yashil iqtisodiyot modellarini amaliyotda muvaffaqiyatli joriy etish inson resurslarini ekologik mezonlarga asoslangan holda boshqarishni talab qiladi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi inson, tabiat va iqtisod o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, uning markazida inson salohiyati va barqaror turmush sifati turadi. Aholining salomatligini yaxshilash va ekologik turmush tarzini shakllantirish, inson resurslarini samarali boshqarishning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi: “Ekologik sog‘lom mehnat muhitini yaratish”, “Yashil turmush tarzini shakllantirish”, “Inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish”, “Ijtimoiy adolat va tenglik imkoniyatlarini yaratish”, “Yashil innovatsiyalar va korporativ mas’uliyat”.

Yashil iqtisodiyotga o‘tish faqat ekologik odatlar (chiqindilarni ajratish, energiya tejash, toza transport) emas, balki sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va psixologik barqarorlik kabi ko‘plab masalalarni qamrab oladi.

Zamonaviy iqtisodiy tizimlarda "Green HRM" (Green Human Resource Management) tamoyillarini joriy etish orqali ekologik madaniyatini oshirish va korporativ madaniyatga integratsiya qilish shakllari yanada rivojlanib bormoqda.

Shu jihatdan, yashil inson resurslarini boshqarish (Green Human Resource Management – GHRM) ekologik barqarorlikni ta’minlovchi muhim vosita sifatida e’tirof etilishi maqsadga muvofiq. GHRM yondashuvi orqali tashkilotlar xodimlarni yollash, tayyorlash, baholash va rag‘batlantirish jarayonlarini ekologik ong asosida tashkil etadi. Mazkur ilmiy ish GHRMning nazariy asoslari, amaliy holati, huquqiy me’yoriy asoslari va iqtisodiy samaradorligini o‘rganish orqali, ushbu yondashuvning O‘zbekistondagi yashil iqtisodiyot sharoitida qanday rivojlanayotganini tahlil qilishga qaratilgan.

GHRM inson resurslari boshqaruvi jarayonlariga ekologik yondashuvni integratsiyalovchi zamonaviy yondashuvdir. U xodimlarni yollash, tayyorlash, baholash va rag‘batlantirish bosqichlarida ekologik ong va barqarorlik tamoyillarini asosiy mezon sifatida qaraydi. Afsar va Umrani GHRMni tashkilotning ekologik strategiyasini amalga oshiruvchi funksional vosita sifatida tavsiflagan bo‘lsa [1], Pham va hamkorlari uni HR funksiyalarini ekologik mezonlarga muvofiqlashtirish orqali kompleks tizimga aylantirish zarurligini ta’kidlaydi [3].

GHRM (Green Human Resource Management) tushunchasini to‘liq anglash va amaliyotda samarali qo‘llash uchun uni yashil iqtisodiyot konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki yashil iqtisodiyot — bu

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.01.2025-yildagi PF-16-son ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va «yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/7369703

ijtimoiy adolat, ekologik xavfsizlik va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Ushbu yondashuv O‘zbekiston Respublikasida ham davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-sonli “2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha davlat ta’lim dasturlarini ishlab chiqishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini inobatga olish, shuningdek, ekologik omillarni boshqaruv tizimiga integratsiya qilish zarurligi belgilab qo‘yilgan [15],[16]. Bu model inson kapitaliga bo‘lgan talabni oshiradi, GHRM esa ushbu talabni qondirish uchun tizimli yechimlar taklif etadi. HR strategiyalarining ekologik yo‘nalishga moslashtirilishi yashil iqtisodiyotni amaliyotda qaror topishiga xizmat qilmoqda. Bu esa GHRM va yashil iqtisodiyotning o‘zaro integratsiyalashuvini ilmiy va institutsional asosda mustahkamlab bermoqda.

Tashkilotlar GHRM amaliyotlarini to‘rt asosiy yo‘nalishda faol joriy etmoqda: yashil yollash, yashil trening, ekologik mezonlar asosida baholash va ekologik motivatsiya tizimlari [3]. Yashil yollash siyosatlari orqali ekologik qadriyatlarga sodiq nomzodlar tanlanib, ularning ijtimoiy mas’uliyat darajasi asosiy mezon sifatida qaralmoqda. Bu yondashuv nafaqat xodimlar sifati, balki korxona imijini mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Afsar va Umrani (2020) ishga qabul qilish jarayonlarida ekologik savollar va yashil deklaratsiyalardan foydalanilishini ta’minlovchi mexanizmlarni muhim deb hisoblaydi [1].

Trening dasturlari esa ekologik bilimlarni oshirish bilan birga, xodimlarga amaliy ko‘nikmalarni ham yetkazmoqda. Pham va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda chiqindilarni saralash, energiyani tejash, muqobil resurslardan foydalanish bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etilganda natijalar yanada yuqori bo‘lganligi qayd etilgan [3]. Shuningdek, ushbu treninglar yordamida tashkilot ichida ekologik madaniyat shakllanmoqda va doimiy takomillashuvga erishilmoqda.

Baholash tizimlarida ekologik mezonlarning kiritilishi samaradorlikni ko‘rsatkichlar orqali aniqlash imkonini bermoqda. Masalan, Singh va El-Kassar kompaniyalarda xodimlarning ekologik tashabbuslari, chiqindilarni kamaytirishdagi ishtiroklari alohida ko‘rsatkich sifatida baholanishini aniqlagan [4]. Bu jarayonlar nafaqat ekologik, balki korxona ijtimoiy mas’uliyatini oshiruvchi omilga aylanmoqda. Motivatsiya strategiyalarida esa innovatsion yondashuvlar joriy etilmoqda.

Jumladan, yashil mukofot tizimlari, qo‘shimcha dam olish kunlari, ijtimoiy tarmoqlarda ekologik muvaffaqiyatlarni nishonlash kabi usullar keng qo‘llanilmoqda. Yoesoep va Hierachmad bunday yondashuvlar xodimlar faolligini oshirishda yuqori samara berganini tasdiqlaydi [7].

GHRM amaliyotlarining sektorial diversifikatsiyasi turli sohalarda o‘ziga xos shakllanishini ta’minlamoqda. Turizmda yashil treninglar orqali mehmonxona xodimlarining ekologik mas’uliyati kuchaytirilgan [4], ta’limda “yashil kampus” konsepsiyasi asosida o‘qituvchilarning ekologik roli mustahkamlangan [6], sanoatda

esa ekologik xavfsizlik bo‘yicha mas’ul xodimlar tayinlangan, xizmat ko‘rsatish

sohasida esa GHRM ko‘proq siyosiy hujjatlar va kodekslar darajasida mavjud bo‘lmoqda [13].

Tashkilotlar ushbu huquqiy muhitdan samarali foydalanib, GHRM siyosatini ichki strategiyalariga integratsiyalashmoqda. HR bo‘limlari ekologik transformatsiyani olib boruvchi strategik markazga aylanmoqda. Yashil treninglar, ekologik mezonli baholash tizimlari, ekologik yetakchilik kompetensiyalari asosida xodimlar tayyorlanmoqda [7][9]. Natijada, ekologik barqarorlikni ta’minlashda inson resurslarining roli keskin ortmoqda.

Moliyaviy jihatdan qaralganda, GHRM amaliyotlariga ajratilgan sarmoyalar o‘zini to‘liq oqlamoqda. Bombiak va Markiewicz (2018) kompaniyalarda GHRMni joriy qilish bilan brend ishonchliligi oshganini, operatsion xarajatlar kamayganini va raqobatbardoshlik kuchayganini aniqlagan [14]. Shuningdek, ekologik bilimlarga ega xodimlar tomonidan ishlab chiqilgan takliflar tashkilot ichidagi innovatsion muhitni mustahkamlab, mahsuldorlikni oshirmoqda.

Resurslar strategik tarzda yo‘naltirilib, ekologik monitoring, treninglar, ekologik yetakchilik va yashil sertifikatlash kabi tashabbuslar moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bunday yondashuv GHRMni nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy manfaat manbaiga aylantirmoqda.

Umuman olganda, GHRM bugungi kunda O‘zbekistonda ekologik islohotlarning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Tashkilotlar ushbu yondashuvni faqat HRM jarayonlarining rivoji sifatida emas, balki barqaror iqtisodiy modelning asosiy kuchi sifatida qabul qilmoqda. Bu esa GHRMning nafaqat hozirgi, balki kelajakdagi dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Yashil inson resurslarini boshqarish (GHRM) zamonaviy iqtisodiy model bo‘lmish yashil iqtisodiyot talablariga moslashishda asosiy vositalardan biri sifatida shakllanmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, GHRM nazariyasi va amaliyoti o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, tashkilotlarning ekologik mas’uliyatini oshirishda, barqaror rivojlanishga hissa qo‘shishda muhim o‘rin tutadi. HR siyosatining ekologik tamoyillar asosida shakllanishi, xodimlarning yashil kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni rag‘batlantirish orqali tashkilot ichki madaniyatining ekologik yo‘nalishda o‘zgarishiga erishilmoqda.

O‘zbekistonda kadrlar milliy siyosati doirasida GHRM bo‘yicha ilmiy-uslubiy asoslar bosqichma-bosqich shakllanmoqda. Shu orqali yashil yondashuv nafaqat tashqi muhitga, balki ichki boshqaruv tizimiga ham chuqur singib bormoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahalliy korxonalarning inson resurslarini boshqarish tizimlari uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. Tashkilotlarda GHRM siyosatini hujjatlashtirish: Har bir tashkilot o‘zining yashil kadrlar siyosatini ishlab chiqishi va uni amaliyotga joriy qilishi zarur. Bu siyosat tanlov, trening, baholash va rag‘batlantirish kabi barcha bosqichlarni qamrab olishi kerak.

2. Xodimlar uchun muntazam yashil treninglar tashkil etish: Treninglar nazariy bilimlar bilan cheklanmasdan, amaliy ko‘nikmalar – masalan, chiqindilarni boshqarish, energiya tejamkorlik va suvdan samarali foydalanish – bo‘yicha tashkil etilishi kerak.

3. Baholash va motivatsiya tizimlariga ekologik mezonlarni kiritish: Ish faoliyatini baholashda ekologik ko‘rsatkichlar, ekologik takliflar va barqarorlik tashabbuslari e’tiborga olinishi lozim. Rag‘batlantirishda esa ekologik mukofotlar va e’tirof tizimlari yo‘lga qo‘yilishi muhim.

4. Milliy sertifikatlash tizimini yaratish: GHRM bo‘yicha malaka oshirish va sertifikatlash tizimi joriy qilinib, ekologik kompetensiyalarga ega HR mutaxassislarini tayyorlash yo‘lga qo‘yilishi kerak.

5. Huquqiy asoslarni yanada mustahkamlash: GHRM atamasi va amaliyoti rasmiy me’yoriy hujjatlarda aniq ta’riflanib, uning milliy standartlarga aylanishi uchun zarur qonunchilik asoslari ishlab chiqilishi lozim.

6. Moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish: Yashil yondashuvni joriy etgan tashkilotlar uchun grantlar, soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratish tizimini ishlab chiqish, GHRMni iqtisodiy jihatdan ham jozibali qilishi mumkin.

Umuman olganda, GHRMni keng miqyosda joriy qilish nafaqat ekologik barqarorlik, balki inson resurslari boshqaruvida ham sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishni ta’minlaydi. Bu esa O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot sari dadil harakatlarida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hosain, M. S., & Rahman, M. S. (2016). Green Human Resource Management: A Theoretical Overview. IOSR Journal of Business and Management, 18(6), 54–59. https://ssrn.com/abstract=2799537

2. Anwar, G., & Abdullah, N. N. (2021). The impact of Human Resource Management Practice on Organizational Performance. International Journal of Engineering, Business and Management, 5(1), 35–42. https://doi.org/10.22161/ijebm.5.1.4

3. Malik, S. Y., Mughal, Y. H., Azam, T., Cao, Y., Wan, Z., Zhu, H., & Thurasamy, R. (2021). Corporate Social Responsibility, Green Human Resources Management, and Sustainable Performance: Is Organizational Citizenship Behavior towards Environment the Missing Link? Sustainability, 13(3), 1044. https://doi.org/10.3390/su13031044

4. Elshaer, I. A., Sobaih, A. E. E., Aliedan, M., & Azazz, A. M. S. (2021). The Effect of Green Human Resource Management on Environmental Performance in Small Tourism Enterprises. Sustainability, 13(4), 1956. https://doi.org/10.3390/su13041956

5. Ray, S., & Varlamov, G. V. (2025). The development of a human resource management model in green economy. Economics and Management, 31(4), 475–486. https://doi.org/10.35854/1998-1627-2025-4-475-486

6. Tung, H. T., & Mung, D. T. (2025). Organizational Commitment and Lecturer Retention in Higher Education: Bibliography Analysis in the Context of Digital Transformation. Veredas do Direito, 22(2), e3259. https://doi.org/10.18623/rvd.v22.n2.3259

7. Chuah, S. C., Mohd, I. H., Kamaruddin, J. N. B., & Noh, N. M. (2021). Impact of Green Human Resource Management Practices Towards Green Lifestyle and Job

Performance. Global Business and Management Research, 13(4), 13–22. https://www.gbmrjournal.com/pdf/v13n4/2.pdf

8. Rachmad, Y. E. (2024). Evolution of Human Resource Management: Competence and Certification as the Key to Success. Green Pustaka Indonesia. https://doi.org/10.17605/osf.io/x3jdf

9. Premović, J. (Ed.). (2023). Challenges of Modern Economy and Society Through the Prism of Green Economy and Sustainable Development (CESGED 2023). Novi Sad: Educational and Business Center. ISBN: 978-86-81506-23-3

10. Tatomyr, I., & Kvasnii, L. (Eds.). (2021). Green and Blue Economy on the Threshold of Digital Change. Praha: OKTAN PRINT. https://doi.org/10.46489/gabeott-10

11. Nawaz, N., & Ikram, M. (2021). Green HRM for sustainability: Empirical evidence. International Journal of Environmental Research & Public Health, 18(10953). https://doi.org/10.3390/ijerph18110953

12. Iqbal, M., Ahmad, N., & Allen, M. M. C. (2022). Integrating environmental sustainability into HRM. Business Strategy and the Environment. https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2665972725003964

13. Manoj Santhi, S., & Others. (2025). Influence of human–forest relationships on perceived happiness in Finland. People and Nature. https://besjournals.onlinelibrary.wiley.com/doi/full/10.1002/pan3.10466

14. Effossou, K. A., Maphosa, M., & Moyo, P. (2025). Contested biodiversity conservation and benefit sharing in the context of climate change. Discover Sustainability, 6(1051). https://doi.org/10.1007/s43621-025-01941-z

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabr PQ-4477-son "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarori https://lex.uz/docs/-4539502

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar PF-16-son ""O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" Farmoni, https://lex.uz/docs/-7369703

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-sentyabr 514-son ""Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori https://lex.uz/docs/-6622631

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING KONSEPSIYALARINI QO‘LLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna

TDIU, Marketing kafedrasi mudirasi,

iqtisod fanlari doktori, professor

Annotatsiya

Yashil iqtisodiyot va marketing integratsiyasi bugungi global iqtisodiy-ijtimoiy muhitda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada yashil iqtisodiy model doirasida marketing konsepsiyalarining transformatsiyasi, xalqaro tajribalar, raqamli texnologiyalar va ekologik indikatorlarga asoslangan yondashuvlar tahlil qilingan. Marketing–iqtisodiyot–ekologiya integratsion modeli asosida marketingning ekologik va ijtimoiy funksiyalari nazariy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot nazariy manbalar tahliliga tayanadi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qiluvchi marketing yondashuvlarini belgilab bergan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil marketing, ekologik brend, indikatorlar, transformatsiya, barqaror rivojlanish, integratsion model

Аннотация

Интеграция зеленой экономики и маркетинга приобретает стратегическое значение в условиях глобальных социально-экономических изменений. В статье рассматривается трансформация маркетинговых концепций в рамках модели зеленой экономики, анализируются международный опыт, цифровые технологии и подходы, основанные на экологических индикаторах. На основе интеграционной модели «маркетинг–экономика–экология» теоретически обоснованы экологические и социальные функции маркетинга. Исследование основано на анализе теоретических источников и предлагает концепции устойчивого развития для стратегического маркетинга.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёный маркетинг, экологический бренд, индикаторы, трансформация, устойчивое развитие, интеграционная модель

Abstract

The integration of green economy and marketing holds strategic importance in the context of global socio-economic changes. This article explores the transformation of marketing concepts within the green economic model, analyzing international practices, digital technologies, and indicator-based ecological approaches. Based on the “marketing–economy–ecology” integration model, the ecological and social functions of marketing are theoretically grounded. The study relies on theoretical literature analysis and proposes marketing approaches aligned with sustainable development goals.

Keywords: green economy, green marketing, ecological brand, indicators, transformation, sustainable development, integration model

KIRISH

Yashil iqtisodiyot — bu nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan yondashuv, balki iqtisodiy faoliyatni ijtimoiy javobgarlik tamoyillari asosida qayta tashkil etishning nazariy va amaliy asosidir. Ushbu konsepsiya atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va inson salohiyatini mustahkamlash kabi tamoyillarni birlashtirib, yangi iqtisodiy paradigmaning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy jarayonlar va marketing amaliyotlarining ekologik mezonlar asosida integratsiyalashuvi barqaror rivojlanish yo‘lidagi muhim strategik yo‘nalishga aylanmoqda.

Iqtisodiy tizimlarning yangilanishi va texnologik imkoniyatlarning kengayishi natijasida marketing konsepsiyalarining mazmuni ham sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. Raqamli texnologiyalar, sotsial axborot platformalari va xalqaro ekologik standartlar marketingga ijtimoiy va ekologik funksiyalarni yuklash imkonini bermoqda. Aynan shu nuqtada yashil marketing — ekologik qadriyatlar, iste’molchi ongidagi o‘zgarishlar va brend strategiyalarining uyg‘unlashuvi sifatida ilmiy muhokamaga tortilishi lozim.

Marketing, iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar zamirida shunday konseptual model vujudga kelmoqdaki, u marketingni faqat bozor vositasi sifatida emas, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni shakllantiruvchi omil sifatida ham ko‘rsatmoqda. Bu yondashuv orqali mahsulot va xizmatlar iste’molining sifati bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy va ekologik ta’siri ham nazarga olinadi.

Mazkur ilmiy izlanish nazariy tahlillar, xalqaro tajriba va zamonaviy metodologik yondashuvlar asosida yashil marketing konsepsiyasining shakllanish omillarini tahlil qilish, uning iqtisodiy tizimlarga integratsiyalashuvi va strategik samaradorligini ochib berishga yo‘naltirilgan. Shu asosda ishlab chiqilgan integratsion model marketing, iqtisodiyot va ekologiya o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushuntiradi hamda yangi nazariy qarashlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va ekologik marketing konsepsiyalariga doir ilmiy adabiyotlar so‘nggi yillarda ko‘plab fundamental va amaliy tadqiqotlarni o‘z ichiga olmoqda. Bu tadqiqotlar nafaqat nazariy yondashuvlarni shakllantiradi, balki marketing faoliyatining ekologik tamoyillarga integratsiyalashuvi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan har xil yondashuvlarda talqin etilgan. Jumladan, Loiseau va hammualliflari (2016) [1] barqarorlikning “kuchli” va “zaif” modellarini o‘zaro solishtirish asosida, yashil iqtisodiyot konsepsiyasining qamrovini aniqlashga urinadi. Ular “kuchli barqarorlik” yondashuvi doirasida ekologik kapitalning bevosita saqlanishi zarurligini ta’kidlaydilar va uni iqtisodiy siyosatga tatbiq qilishda ekologik cheklovlarni inobatga olish muhimligini asoslab beradilar.

Yashil iqtisodiyot marketing nazariyasiga qanday ta’sir qilayotgani masalasi ko‘plab zamonaviy tadqiqotlarda markaziy mavzu sifatida qaralmoqda. Meler va Ham (2012) [3] yashil marketingni an’anaviy marketing konsepsiyalarining ekologik

mezonlar bilan uyg‘unlashuvi sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, ekologik qadriyatlar marketing strategiyalariga singdirilganda, bu nafaqat brend imijini mustahkamlaydi, balki iste’molchilarning barqaror xatti-harakatlarini rag‘batlantiradi.

Hall (2013) [2] marketingning ijtimoiy transformatsiyadagi rolini kengroq ko‘lamda talqin qiladi. U marketingni ijtimoiy institut sifatida baholab, uning ekologik ong va qadriyatlar shakllanishidagi o‘rnini tahlil qiladi. Aynan shu yondashuv tahlil va natijalarda keltirilgan marketing–iqtisodiyot–ekologiya integratsion modelining ilmiy asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Khan va boshqalar (2023) [5] esa yashil brendlar va raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi integratsiyalashgan yondashuvni chuqur o‘rgangan. Ular raqamli platformalarda yashil pozitsiyalash va ekologik reklama vositalari orqali mijozlar sodiqligini oshirishda yuqori samaradorlik mavjudligini ta’kidlaydilar. Bu yondashuv tahlil bo‘limida keltirilgan raqamli transformatsiya sharoitida yashil marketing strategiyalarining shakllanishi bilan bevosita bog‘liq.

Sahni (2020) [7] esa ekologik marketingni kommunikatsion mexanizm sifatida o‘rganib, uning orqali ijtimoiy javobgarlik va ekologik qadriyatlarning qanday yetkazilishi mumkinligini tadqiq etgan. Uning fikricha, ekologik marketing faqat tashqi kommunikatsiya vositasi emas, balki ichki boshqaruv strategiyasining ham ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Georgeson va hammualliflari (2022) [14] esa ekologik indikatorlar, yashil sertifikatlar va iste’molchilarning axborotga asoslangan qaror qabul qilish jarayonlarini o‘rganib, raqamli makonning ekologik ong shakllanishiga bo‘lgan ta’sirini tahlil qilgan. Ularning tadqiqoti, ayniqsa, indikatorlarga asoslangan marketing bahosi masalasida asosiy nazariy tayanchlardan biri hisoblanadi.

Yashil marketingning institutsional darajadagi shakllanishi masalasida Lorek va Spangenberg (2014) [15] chuqur nazariy tahlil bergan. Ular marketingni faqat korporativ strategiya emas, balki siyosiy va ijtimoiy institutlar bilan bog‘liq tizimli faoliyat sifatida talqin qilishni taklif etadilar. Ushbu yondashuv “institutsional marketing modeli” deb nomlanadi va u davlat siyosatlari, xalqaro normalar va ijtimoiy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda shakllanadi.

Sulich (2022) [8] yashil iqtisodiyotda rivojlanish omillari va iqtisodiy o‘zgarishlarning marketingga ta’sirini makroiqtisodiy darajada baholagan. U ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatning iqtisodiy siyosatdagi o‘rnini aniqlashda indikatorlar tizimining o‘rni muhimligini ta’kidlaydi.

Maqolada foydalanilgan boshqa manbalar — masalan, Sahni (2020) [7] va Loiseau va boshq. (2016) [1] — konseptual yondashuvlar va nazariy modellarning amaliyotga tatbiq etilishi uchun zarur bo‘lgan nazariy asoslarni taqdim etadi. Ular orqali yashil marketingning faqat strategik vosita emas, balki jamiyatdagi ekologik tafakkurni shakllantiruvchi mexanizmga aylanish jarayoni tahlil qilinadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot nazariy yondashuvlar asosida olib borildi. Asosiy metod – konseptual tahlil bo‘lib, yashil iqtisodiyot va marketing nazariyalarining o‘zaro

integratsiyasi o‘rganildi. Tadqiqotda “kuchli” va “zaif” barqarorlik modellari asosida

yashil marketing strategiyalarining evolyutsiyasi tahlil qilindi. Marketing–iqtisodiyot–ekologiya integratsion modeli orqali marketingning sotsial-iqtisodiy va ekologik funksiyalari aniqlashtirildi. Shuningdek, xalqaro tajriba, indikatorlarga asoslangan yondashuvlar va raqamli transformatsiya jarayonlari ham nazariy jihatdan o‘rganilib, barqarorlik tamoyillarining marketing konsepsiyasiga uyg‘unlashuvi tushuntirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot — bu zamonaviy global chaqiriqlarga javob beruvchi, ekologik muvozanat, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan iqtisodiy paradigma hisoblanadi. U an’anaviy iqtisodiy modellarni tanqidiy qayta ko‘rib chiqadi va iqtisodiy o‘sishni tabiat bilan muvozanatda olib borish g‘oyasini ilgari suradi. Yashil iqtisodiyot tushunchasi BMT, OECD va Jahon Banki kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u iqtisodiy faoliyatda ekologik barqarorlik va ijtimoiy tenglikni ustuvor yo‘nalishlar sifatida ko‘rishga asoslanadi.

Yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari doirasida "zaif" va "kuchli" barqarorlik modellari muhim o‘rin tutadi. Zaif modelda inson kapitali va texnologik taraqqiyot hisobiga tabiiy resurslar o‘rnini bosish mumkin, deb hisoblanadi. Bu model texnokratcha yondashuv bo‘lib, iqtisodiy o‘sishni ekologik yo‘qotishlar evaziga ham bo‘lsa, davom ettirish imkoniyatini nazarda tutadi. Kuchli barqarorlik modeli esa bu nuqtai nazarga qarama-qarshi pozitsiyani egallab, tabiiy kapitalning o‘rnini to‘liq boshqa resurslar bilan almashtirib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv ekologik limitlar va yer resurslarining tiklanish qobiliyatini hisobga olib harakat qiladi [1].

Ushbu nazariy qarashlar asosida yashil iqtisodiyotning iqtisodiy tizimlarga integratsiyasi masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Integratsiya faqat iqtisodiy soha bilan cheklanmasdan, siyosiy, ijtimoiy va texnologik sohalar bilan ham uzviy bog‘langan. Yuqoridan-pastga (top-down) yondashuvda davlat siyosati, qonunchilik, xalqaro konvensiyalar va global bitimlar orqali yashil iqtisodiyotga o‘tish amalga oshiriladi. Pastdan-yuqoriga (bottom-up) yondashuvda esa fuqarolik jamiyati, korporatsiyalar, kichik biznes va individual iste’molchilar tashabbusi orqali yashil transformatsiya yuz beradi.

Marketing konsepsiyalarining yashil iqtisodiyotda tutgan o‘rni aynan shu transformatsion jarayonlarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. An’anaviy marketing modeli — mahsulot, narx, joylashtirish va targ‘ibot (4P) — zamonaviy yashil iqtisodiyotda yetarli emas. Endilikda marketing ekologik, ijtimoiy va institutsional mezonlarni o‘z ichiga olgan, ko‘p o‘lchamli nazariy asosga tayanadi. Bu esa marketingni faqat sotuvga yo‘naltirilgan operatsion vosita emas, balki ekologik qadriyatlar va ijtimoiy ong shakllantiruvchi strategik institutga aylantiradi.

Yashil marketing — bu mahsulotning butun hayotiy sikli davomida ekologik barqarorlikka intilishdir: xomashyo tanlashdan boshlab, ishlab chiqarish, yetkazib berish, iste’mol va utilizatsiyagacha bo‘lgan barcha bosqichlar atrof-muhitga ta’sir nuqtai nazaridan baholanadi. Ushbu marketing turida kompaniyaning ekologik pozitsiyasi va ijtimoiy mas’uliyati asosiy raqobat ustunligiga aylanadi.

Ekologik marketing konsepsiyasi doirasida quyidagi yo‘nalishlar muhim o‘rin egallaydi:

- Yashil brendlar – kompaniya va mahsulot identitetining ekologik asosda shakllanishi.
- Yashil pozitsiyalash – mahsulotni ekologik fazilatlar asosida bozor segmentida joylashtirish.
- Yashil reklama – iste’molchiga ekologik foyda haqida ochiq, halol va asosli axborot taqdim etish.

Khan va hammualliflari (2023) ekologik brend strategiyalarining iste’molchi xatti-harakatiga qanday ta’sir qilishini tahlil qilib, raqamli kommunikatsiya vositalari yordamida yashil qadriyatlarni targ‘ib qilish samaradorligini ko‘rsatadilar [5].

Raqamli transformatsiya va Sanoat 4.0 texnologiyalari ushbu tendensiyani chuqurlashtirib, marketing faoliyatini ekologik indikatorlar, katta hajmdagi ma’lumotlar va raqamli kuzatuvlar orqali boshqarishga yo‘l ochmoqda. “Green digital marketing” atamasi aynan shunday marketing faoliyatini anglatadi — bunda kompaniya iste’molchi bilan bevosita va interaktiv muloqotda bo‘lib, ekologik xulqni shakllantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida mahsulotlarning karbon izi, energiya sarfi va ekologik ta’siri haqida real vaqt rejimida ma’lumot beriladi. Iste’molchilar bunday shaffoflikni qadrlashmoqda, va bu kompaniyalar uchun ekologik ishonchni oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Georgeson va boshqalar ushbu raqamli transformatsiyaning ekologik ong shakllanishiga ijobiy ta’sirini tahlil qilganlar [14].

Yashil marketing siyosati xalqaro miqyosda G20 va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tomonidan amalga oshirilgan institutsional tashabbuslar orqali keng qo‘llanmoqda. G20 mamlakatlarida ekologik marketing siyosat bilan integratsiyalashgan holda olib boriladi. Masalan, karbon kvotalari, yashil subsidiyalar, uglerod solig‘i, ekologik sertifikatlash kabi davlat siyosatlari marketing strategiyalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Bodrick va hammualliflari bu mamlakatlarda ekologik brendlash va yashil kommunikatsiyaning siyosiy tashabbuslar bilan uyg‘unligiga e’tibor qaratadilar [4].

YeI mamlakatlarida esa bu integratsiya yanada chuqurroq shakllangan. Masalan, “Ecolabel” tizimi, yashil davlat xaridlari (green public procurement), uglerod izini hisoblash bo‘yicha yuridik talablar, marketing strategiyalarining mazmunini belgilab beradi. Bunday yondashuv institutsional marketing modeli deb nomlanadi. Lorek va Spangenberg (2014) bu modelni siyosiy me’yorlar orqali boshqariladigan, ekologik qadriyatlarga yo‘naltirilgan marketing tizimi sifatida tavsiflaydilar [15].

Yashil marketing samaradorligini baholashda indikatorlarga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Karbon izi, energiya sarfi, qayta ishlanish foizi, ekologik sertifikatlar va mahsulotning hayotiy sikl tahlili kabi ko‘rsatkichlar marketingning ekologik samaradorligini aniqlashda foydalaniladi. Bu indikatorlar orqali kompaniya nafaqat o‘z faoliyatini baholaydi, balki iste’molchilarga shaffof axborot taqdim etadi, ishonchni mustahkamlaydi va yashil brend imijini kuchaytiradi [7][14].

Ushbu barcha omillar — iqtisodiy, ekologik, texnologik, ijtimoiy va siyosiy — integratsiyalashgan holda marketing faoliyatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Buni quyidagi “Marketing–Iqtisodiyot–Ekologiya” integratsion modeli orqali tasvirlash mumkin.



1-rasm. marketing–iqtisodiyot–ekologiya integratsion modeli[1]

Ushbu model orqali ko‘rinadiki, marketing strategiyalari endilikda faqat tijorat maqsadlariga emas, balki barqarorlik tamoyillariga xizmat qilmoqda. Bu esa marketingni iqtisodiy resurslarni taqsimlovchi, ekologik me’yorlarni kommunikatsiya qiluvchi va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantiruvchi kuchga aylantiradi.

Marketing–iqtisodiyot–ekologiya integratsiyasi marketingni yangi davrda strategik ijtimoiy institut sifatida ko‘rsatmoqda. Bunda marketingning muvaffaqiyati endi faqat savdo hajmi bilan emas, balki ekologik barqarorlik, iste’molchi ongining o‘zgarishi va institutsional javobgarlik bilan o‘lchanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil iqtisodiyot – bugungi davrning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolat bilan uyg‘unlashtirishni

[1] Muallif ishlanmasi

maqsad qiladi. Ushbu tadqiqotda yashil iqtisodiyot konsepsiyasining marketing nazariyasiga ta’siri, uni qanday transformatsiyaga olib kelayotgani nazariy jihatdan chuqur tahlil qilindi. Marketing endilikda faqat mahsulotni bozorga olib chiqish vositasi emas, balki ekologik ongni shakllantiruvchi, barqaror iste’molni rag‘batlantiruvchi ijtimoiy institut sifatida talqin etilmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, raqamli texnologiyalar, davlat siyosatlari va xalqaro standartlar yashil marketingni kengaytirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Marketing–iqtisodiyot–ekologiya integratsion modeli ushbu aloqalarni umumlashtirishga yordam beradi va bu yondashuv asosida barqaror marketing strategiyalarini ishlab chiqish mumkinligi aniqlanadi.

Tahlil va natijalardan kelib chiqib Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Marketing strategiyalarini ishlab chiqishda ekologik indikatorlar asosida baholash tizimini joriy etish zarur. Bu yondashuv marketingning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorligini ham aniqlashga imkon beradi.

2. Davlat siyosatida yashil marketingni qo‘llab-quvvatlovchi normativ bazalarni kengaytirish, soliq imtiyozlari va eko-sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish lozim.

3. Marketing sohasi mutaxassislari uchun ekologik ongni rivojlantiruvchi ta’lim dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Bu uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi.

4. Tadqiqotlar va innovatsiyalarni rag‘batlantirish orqali yashil marketing strategiyalarini raqamli transformatsiyaga moslashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

5. Yashil marketingni ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilish, ekologik brendlar va barqaror iste’mol madaniyatini keng jamoatchilikka yetkazish orqali ijtimoiy ongni shakllantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyot va marketing o‘rtasidagi integratsiya kelajak marketing konsepsiyalarining ilmiy asosini belgilaydi. U orqali nafaqat ekologik xavfsizlik, balki ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik ham ta’minlanadi. Shunday ekan, ushbu yondashuvni chuqurlashtirish – marketing ilm-fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Loiseau, E., Saikku, L., Antikainen, R., et al. (2016). Green economy and related concepts: An overview. Journal of Cleaner Production, 139, 361–371.

2. Khemthong, P., & Hayashi, Y. (2025). Stimulus environment and regional collaborative strategies for startup ecosystems. Discover Sustainability, 6:1029.

3. Handoyo, S. (2025). Innovation and industrial performance nexus. Humanities and Social Sciences Communications, 12:1524.

4. Bodrick, M. M., Alassaf, M. I., et al. (2025). Contemplating G20 Presidency Branding and Impression Management. International Journal of Middle Eastern Research, 4(1), 28–36.

5. Khan, S. A. R., Umar, M., Asadov, A., Tanveer, M., & Yu, Z. (2022). Technological Revolution and Circular Economy Practices: A Mechanism of Green Economy. Sustainability, 14(8), 4524. https://doi.org/10.3390/su14084524

6. Chernykhivska, A. V. (2015). Modern perspectives of development of 'green' economy. Economic Processes Management, (1). http://epm.fem.sumdu.edu.ua/download/2015_1/2015_1_14.pdf

7. Sahni, S. (2023). Green Marketing: An Important Tool for Growth in Manufacturing Industries. International Educational Applied Research Journal, 7(12). https://doi.org/10.5281/zenodo.17013532

8. Newton, A. C., & Cantarello, E. (2014). An Introduction to the Green Economy: Science, Systems and Sustainability. Routledge.

9. Choudhary, A., & Mishra, P. (2022). Sustainable Business Practices Post COVID Era. Nitya Publications.

10. Kaletnik, G., & Lutkovska, S. (2020). Innovative Environmental Strategy for Sustainable Development. European Journal of Sustainable Development, 9(2), 89–98. https://doi.org/10.14207/ejsd.2020.v9n2p89

11. Chen, J. (2025). Research on Market Expansion Strategies under the New Pattern of International Agricultural Trade. European Journal of Business, Economics & Management, 1(4). https://pinnaclepubs.com/index.php/EJBEM

12. Putra, T. A. (2025). Harnessing Indonesia's Ocean Energy Potential: A Strategic Collaboration Framework. In Proceedings of the 9th International Conference on Accounting, Management, and Economics 2024 (ICAME 2024). https://doi.org/10.2991/978-94-6463-758-8_94

13. Siddiqui, A., Siddiqui, O., & Khan, A. T. (2025). Review on Futuristic Integrative Green Marketing Approaches for Indian Software Industry Towards 2030. Lex Localis — Journal of Local Self-Government, 23(S5).

14. Sulich, A. (2022). The Green Economy Development Factors. https://www.shs-conferences.org/articles/shsconf/pdf/2022/12/shsconf_ipcee2022_01033.pdf

15. Lorek, S., & Spangenberg, J. H. (2014). Sustainable consumption within a sustainable economy – beyond green growth and green economies. Journal of Cleaner Production, 63, 33–44.

OLIY TA’LIM MARKETING STRATEGIYASIDA YASHIL MARKETINGNING TIZIMLI TAHLILI: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Boltabayev Mahmudjon Rustamovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya

Tezisda oliy ta’lim marketing strategiyalarida yashil marketingning o‘rni va uning barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg‘unlashuvi tahlil qilingan. Universitetlarning ekologik mas’uliyat, yashil infratuzilma va “green campus” tashabbuslari orqali raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Xalqaro tajriba tahlili asosida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida yashil marketingni rivojlantirish yo‘nalishlari — infratuzilma, kadrlar salohiyati, shaffoflik va ekologik kommunikatsiya tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, oliy ta’lim, barqaror rivojlanish, ekologik boshqaruv, yashil kampus, strategik kommunikatsiya.

Аннотация

В тезисе исследуется роль зеленого маркетинга в стратегиях высшего образования и его взаимосвязь с принципами устойчивого развития. Показано значение экологической ответственности, зеленой инфраструктуры и инициатив «green campus» для повышения конкурентоспособности университетов. На основе анализа международного опыта обоснована необходимость развития зеленого маркетинга в вузах Узбекистана, включая совершенствование инфраструктуры, кадрового потенциала, прозрачности и системы экологических коммуникаций.

Ключевые слова: зеленый маркетинг, высшее образование, устойчивое развитие, экологическое управление, зеленый кампус, стратегическая коммуникация.

Abstract

The thesis examines the role of green marketing in higher education strategies and its integration with sustainable development principles. It highlights the importance of environmental responsibility, green infrastructure, and “green campus” initiatives in enhancing university competitiveness. Based on international experience, the study justifies the need to advance green marketing in Uzbekistan’s universities through improved infrastructure, human resources, transparency, and ecological communication systems.

Keywords: green marketing, higher education, sustainable development, environmental management, green campus, strategic communication.

Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish g‘oyalari dunyo miqyosida strategik ustuvor yo‘nalishga aylandi. Bugungi global tendensiyalar sharoitida ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim muassasalari ham ekologik mas’uliyat, barqaror boshqaruv va

ijtimoiy innovatsiyalar orqali o‘z faoliyatini qayta tashkil etmoqda. Universitetlar nafaqat bilim beruvchi muassasa, balki jamiyatda ekologik ong va yashil madaniyatni shakllantiruvchi markaz sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, yashil marketing oliy ta’lim muassasalarining marketing strategiyalarida yangi bosqichni anglatadi. Uning asosiy maqsadi — ta’lim xizmatlarini ilgari surish bilan birga, universitetning barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasini namoyon etishdir.

Yashil marketing nazariy jihatdan ekologik toza mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilishga asoslanadi, ammo oliy ta’limda u faqatgina reklama emas, balki boshqaruv va kommunikatsiyaning butun tizimini qamrab oladi. Universitetlarda bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan ishlarga kampus infratuzilmasini energiya tejamkor tizimlarga moslashtirish, chiqindilarni qayta ishlash dasturlarini joriy etish, talabalar va professor-o‘qituvchilarda ekologik mas’uliyatni targ‘ib qilish, ta’lim dasturlariga “barqaror rivojlanish” va “yashil iqtisodiyot” fanlarini kiritish kabi tashabbuslar kiradi. Bu faoliyatlar universitetning imijini kuchaytiradi, xalqaro reytinglarda pozitsiyasini mustahkamlaydi va yangi avlod talabalarini jalb qilishda muhim omilga aylanadi.

Xalqaro tajribalar shundan dalolat beradiki, yashil marketing faqat so‘zda emas, amaliy natijalar orqali ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, AQSHdagi Arizona State University “Greener Gatherings” tashabbusi orqali kampus tadbirlarini ekologik talablarga mos tashkil etib, barqaror rivojlanish g‘oyalarini universitet brendining ajralmas qismiga aylantirgan [1]. Buyuk Britaniyadagi Kembrij universiteti qoshidagi Institute for Sustainability Leadership (CISL) esa biznes va ta’lim sohalari uchun barqaror rahbarlik va yashil marketing dasturlarini amalga oshirib, akademik va amaliy faoliyatni uyg‘unlashtirgan [2]. Boston universiteti esa yangi binolarini “yashil” standartlar asosida qurish orqali nafaqat energiya sarfini kamaytirgan, balki ushbu amaliy natijalarni o‘z marketing kommunikatsiyalarida samarali tarzda namoyon etgan [3]. Bu misollar yashil marketingning eng yaxshi ko‘rinishi universitetning ichki amaliyoti bilan tashqi kommunikatsiyasi uyg‘unlashgan holda amalga oshirilganda natija beradiganligini ko‘rsatadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi ham ushbu yo‘nalishdagi yechimlar mahalliy iqtisodiy va institutsional sharoitlarga moslashtirilishini talab etadi. Masalan, Malayziya va Janubiy Afrikada o‘tkazilgan “Green Campus” tadqiqotlari shundan dalolat berdiki, universitetlardagi yashil dasturlar faqat grant yoki davlat qo‘lloviga emas, balki talabalar faol ishtirok etgan ijtimoiy loyihalar orqali samarali bo‘lishi mumkin. Bu esa mahalliy madaniyat va iqlimga mos yechimlar ishlab chiqishni taqozo etadi [4].

O‘zbekiston uchun ham oliy ta’lim tizimida yashil marketingni rivojlantirish muhim strategik vazifadir. Universitetlar barqarorlik tamoyillariga asoslangan “yashil kampus” pilot loyihalarini amalga oshirish orqali energiya tejamkor infratuzilmani joriy etish, qayta ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish va ushbu natijalarni o‘z marketing strategiyalarida namoyon etishlari mumkin. Ta’lim dasturlariga “yashil iqtisodiyot”, “ekologik boshqaruv” va “korporativ ijtimoiy mas’uliyat” kabi fanlarni kiritish yoshlarda ekologik fikrlash madaniyatini shakllantiradi va ularni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlaydi.

Shu bilan birga, universitetlar o‘z faoliyatida shaffoflik tamoyilini kuchaytirib, barqarorlik bo‘yicha hisobotlarni ommaviy ravishda e’lon qilishlari jamoatchilik ishonchini oshiradi. Bu jarayonda davlat organlari, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar bilan sheriklik muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, yashil marketingni amaliyotga tatbiq etishda bir qator qiyinchiliklar ham mavjud.

Birinchidan, “yashil infratuzilma” loyihalari katta sarmoya talab qiladi va buni davlat grantlari yoki jamoat-xususiy sherikliklar orqali bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, kadrlar salohiyati muammosi saqlanib qolmoqda — barqaror marketing va korporativ ijtimoiy mas’uliyat sohasida malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Uchinchidan, “greenwashing” xavfini bartaraf etish uchun har bir marketing xabarini tekshirilgan ma’lumot va aniq ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlash lozim.

To‘rtinchidan, mahalliy mentalitet va institutsional tizimni hisobga olmagan holda xorijiy modellarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib olish samarasiz bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yashil marketing oliy ta’lim muassasalarining barqaror rivojlanish yo‘lidagi muhim vositasidir. U universitetlarning ijtimoiy nufuzini oshiradi, iqtisodiy samaradorligini ta’minlaydi va talaba hamda jamoatning ishonchini mustahkamlaydi. Xalqaro tajribalar shundan dalolat beradiki, yashil marketing eng katta samarani ta’lim, boshqaruv va kommunikatsiya jarayonlarining integratsiyasi orqali beradi. O‘zbekiston universitetlari ushbu tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirgan holda, tajriba-sinov shaklidagi loyihalar (Pilot Projects), o‘quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish (Curriculum Reforms) va xalqaro hamkorliklar orqali barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirsalar, ular nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham zamonaviy va mas’uliyatli ta’lim muassasalari sifatida e’tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Greener Gatherings: How Sustainability Enhances Campus Events (https://cfo.asu.edu/greener-gatherings?utm_source=chatgpt.com);
2. Cambridge Institute for Sustainability Leadership (CISL) (https://www.cisl.cam.ac.uk/education/executive-education/customised-programmes/case-studies?utm_source=chatgpt.com);
3. Lessons in Sustainability: Three Universities Creating Green Campuses (https://facilitiesmanagementadvisor.com/green-building/lessons-in-sustainability-three-universities-creating-green-campuses/?utm_source=chatgpt.com);
4. Green campus universities: case studies on problems and prospects (https://f1000research.com/articles/11-1200?utm_source=chatgpt.com)

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘QITISH XIZMATLARI MARKETINGI HISOBINI TASHKIL ETISH

Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
«Byudjet hisobi va g‘aznachilik» kafedrasi dotsenti v.b., PhD.
ORCID: 0009-0003-5169-4233
E-mail: dilnoz.abdujalilova.84@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish xizmatlari hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganildi. O‘qitish xizmatlari uchun to‘lovlar (kontrakt, qo‘shimcha kurslar, grantlar, homiylik mablag‘lari) hisobini yuritishning asosiy jihatlari ko‘rib chiqildi. Xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari, tajribalari o‘rganildi hamda ular asosida O‘zbekistondagi amaliyotning ustuvor va muammoli jihatlari ko‘rsatilib, ta’lim xizmatlari hisobi samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, davlat granti, kalkulyatsiya, moliyaviy hisobot, oliy ta’lim tashkilotlari, ta’lim xizmatlari, to‘lov-kontrakt shartnomalari.

Аннотация

В данном исследовании изучены теоретические и практические аспекты организации учета образовательных услуг в высших учебных заведениях Узбекистана. Рассмотрены основные особенности ведения учета платно-контрактной формы за образовательные услуги (контракт, дополнительные курсы, гранты, спонсорские средства). Изучен зарубежный опыт, на основе которого выявлены приоритетные и проблемные стороны узбекской практики, а также выработаны предложения по повышению эффективности учета образовательных услуг.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, государственный грант, калькуляция, финансовая отчетность, высшие учебные заведения, образовательные услуги, договоры на платно-контрактной формы обучения.

Abstract

This research examines the theoretical and practical aspects of organizing the accounting of educational services in higher education institutions of Uzbekistan. The study reviews the main features of recording payments for educational services (tuition contracts, additional courses, grants, sponsorship funds). International practices are analyzed, and based on them, the strengths and challenges of Uzbekistan’s practice are identified, with proposals developed to improve the efficiency of educational services accounting.

Keywords: accounting, state grant, cost calculation, financial reporting, higher education institutions, educational services, tuition contract agreements.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini

sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir[1]. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimining rivojlanishi va ularga moliyaviy mustaqillik berilishi, davlat byudjeti va to‘lov-kontrakt asosida o‘qitish xizmatlarining kengayishi, 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab respublika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish tartibini joriy etilishi[2] buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratning shaffofligini ta’minlashni yanada dolzarb masalalardan biri olib chiqdi.

Oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qitish xizmatlari hisobini tashkil etish va uni buxgalteriya hisobida aks ettirish bo‘yicha bir qator xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, Avstraliyalik olimlar U.Schmidt va T.W. Günther o‘z ilmiy ishlarida oliy ta’lim muassasalarida xizmatlarni moliyalashtirish va hisobni resurslarni samarali taqsimlash vositasi deb baholaydi[3]. Ularning fikricha, ta’lim xizmatlaridan tushadigan mablag‘lar bo‘yicha shaffof va aniq hisob yuritilmasa, davlat byudjetidan qo‘shimcha xarajatlar ortib boradi. Shu sababli oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qitish xizmatlari bo‘yicha hisobni to‘g‘ri tashkil etishga muhim ahamiyat qaratish lozim. Mahalliy iqtisodchi olimlardan S.U.Mexmonov “Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning bir qator o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bular, avvalo byudjet tashkilotining mulkchilik asosiga, davlat byudjetini tuzish va ijro etish prinsiplariga va boshqa qator omilarga bevosita bog‘liqdir”[4], deb ta‘kidlab o‘tgan.

Oliy ta’lim tashkilotlarini moliyaviy barqarorligini saqlab turish bevosita ularning moliyaviy manbalariga ularni to‘g‘ri tashkil etishga hamda shakllantirilgan mablag‘larni maqsadli sarflashga bog‘liq[5]. Bizga ma’lumki, oliy ta’lim tashkilotlarining asosiy moliyaviy manbasi bu ta’lim xizmatlaridan shakllantiriladi. Quyida respublikamizda faoliyat yuritayotgan davlat oliy ta’lim tashkilotlarining 2019-2023-yillardagi moliyalashtirish manbalarini ko‘rib tahlil etamiz (1-rasm).

Agar biz ushbu ma’lumotlarni foizlarda tahlil etsak, bu nisbatlar yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. 2019 yilda oliy ta’lim muassasalari jami moliyalashtirishning 28 foizi byudjet mablag‘lari, 72 foizi esa to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2023 yilga kelib 27 foizi byudjet mablag‘lari, 73 foizi esa to‘lov-kontrakt mablag‘lari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Tahlil ma’lumotlarimizga

---

[1] Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 824-son qarori

[3] U.Schmidt va T.W. Günther «Public sector accounting research in the higher education sector: a systematic literature review» December 2016 Management Review Quarterly 66(4):235 — 265

[4]Mexmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot.//Monografiya//. T.:Iqtisod-moliya.2016 yil. 13-bet. (136 bet)

5 Ostonakulov A.A. "Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish" monografiya. T: VNESHINVESTPROM nashrièti, 2021, 208 bet.

tayangan holda mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishda byudjet mablag‘larini salmog‘ini pasaytirish va oz-ozini moliyalashtirish tendensiyasi davom ettirilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Bu esa oz-ozidan oliy ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobiga o‘qitish xizmatlarini yanada kengaytirishga olib kelsa, hisobida esa bu buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish, o‘qitish xizmatlari bozori qiymatlarini to‘g‘ri baholash hamda kalkulyatsiya masalalariga alohida ahamiyat qaratish zarurligini anglatadi. Bu masalada oqsashlik esa moliyaviy



faoliyatda bir qator kamchiliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

1-rasm. Respublika oliy ta’lim tashkilotlarining 2019-2023 yillarda moliyalashtirish manbalari miqdori (trln. so‘m) [1]



2-rasm. To‘lov-kontrakt mablag‘lari tarkibi[2].

[1]O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining statistik ma’lumotlari asosida tayyorlangan muallif ishlanmasi.

[2]O‘rganilgan ma’lumotlar asosida tayyorlangan muallif ishlanmasi.

Oliy ta’lim tashkilotlarida to‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobini yuritishda uning tarkibiga alohida ahamiyat qaratish lozim. To‘lov-kontrakt mablag‘lari tarkibini quyidagi yo‘nalishlar boyicha alohida hisobini yuritish maqsadga muvofiq (2-rasm).

To‘lov-kontrakt mablag‘lari hisobini tashkil etish jarayonida mablag‘larning tarkibini alohida hisobda aks ettirish muhim sanaladi. Buxgalteriya hisobida bunga ahamiyat qaratmaslik kelgusida mablag‘lar harakati bilan bog‘liq tayyorlanayotgan axborot-ma’lumotlarni shaffofligi hamda ishonchliligini kamayishiga sabab bo‘ladi[1].

Xulosa qiladigan bo‘lsak, o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlarida o‘qitish xizmatlari hisobi bo‘yicha amaliyot turli manbalar va hisobning xalqaro yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirilayotgan bo‘lsa-da, daromadlarni tan olish tamoyillari, raqamlashtirish darajasi, to‘lov-kontrakt mablag‘larini ajratib hisobga olish, hamda ichki nazorat va audit tizimlarida takomillashtirish zarur. Quyidagi takliflar ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan:

- ta’lim xizmatlari daromadlarini IPSAS 23 standartiga mos ravishda hisobga olish;
- kontrakt to‘lovlarini nazorat qilish uchun yagona elektron platforma yaratish;
- to‘lov-kontrakt mablag‘larini yuqoridagi turlariga bo‘lgan holda alohida hisobda yuritish;
- OTTlarda buxgalteriya hisobi va ichki audit tizimini kuchaytirish;
- moliyaviy monitoringni raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 31.12.2020 yildagi 824-son qarori

2. U.Schmidt va T.W. Günther «Public sector accounting research in the higher education sector: a systematic literature review» December 2016 Management Review Quarterly 66(4):235 – 265

3. Mexmonov S.U. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi: nazariya va amaliyot.//Monografiya//. T.:Iqtisod-moliya.2016 yil. 13-bet. (136 bet)

4. Ostonakulov A.A. «Byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish» monografiya. T: Vneshinvestprom nashriyoti, 2021, 208 bet.

5. Abdujalilova D.A. Oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt mablag‘larining daromadlari va ularni hisobga olish amaliyoti. // «Moliya» ilmiy jurnali. — Toshkent, avgust 2023. №4-son. 5-12-b.

1 Abdujalilova D.A. Oliy ta’lim muassasalarida to‘lov-kontrakt mablag‘larining daromadlari va ularni hisobga olish amaliyoti. // «Moliya» ilmiy jurnali. — Toshkent, avgust 2023. №4-son. 5-12-b.

ELEKTRON TIJORAT PLATFORMALARINING MA'LUMOTLAR HIMOYASI VA XAVFSIZLIK TAHLILI

Gaibnazarova Zilola Maxsudovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
assistent

Annotatsiya

Maqola elektron tijorat platformalarining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilingan. Kiberhujumlar, ma'lumotlar maxfiyligi va firibgarlik kabi tahdidlarning turlari va tasnifi ko'rib chiqiladi. Shifrlash protokollari, ko'p faktorli autentifikatsiya, to'lov shlyuzlari va boshqa xavfsizlik tizimlarining roli yoritildi. Mijozlar ishonchini oshirish, raqobatbardoshlikni ta'minlash va iqtisodiy samaradorlikka erishish uchun xavfsizlik choralarining ahamiyati ta'kidlanadi. O'zbekistonda huquqiy bazani takomillashtirish va raqamli savodxonlikni oshirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: elektron tijorat, xavfsizlik tizimlari, kiberhujumlar, ma'lumotlar maxfiyligi, mijozlar ishonchi, shifrlash protokollari, ko'p faktorli autentifikatsiya, to'lov shlyuzlari, firibgarlik, raqamli savodxonlik, huquqiy asoslar, DDoS hujumlari, SQL in'ektsiyalari, saytlararo skript, yashil logistika.

Аннотация

В статье проведён анализ аспектов безопасности электронных торговых платформ. Рассмотрены виды и классификация кибератак, вопросы защиты конфиденциальных данных и предотвращения мошенничества. Особое внимание уделено роли протоколов шифрования, многофакторной аутентификации и платёжных шлюзов в обеспечении надёжности транзакций. Отмечается значение внедрения современных мер безопасности для укрепления доверия клиентов, повышения конкурентоспособности и достижения экономической эффективности. В работе представлены рекомендации по совершенствованию правовой базы и повышению уровня цифровой грамотности в Узбекистане.

Keyin ikkita sharoitda (a) siyosat rag‘batlari mavjud bo‘lsa va (b) vositalar (mediatorlar) mavjud bo‘lmasa (bazaviy), ekobrending ta’sirlarining umumiy miqdorini baholadik. Brending va izlanuvchanlik mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida olinib, O‘zbekistondagi besh uzum mintaqasi va qo‘shni bozorlar orasidagi dispersiya farqlari solishtirildi. Moslashtirishda 2-jadval va 3-jadvaldagi o‘zgaruvchilar ishlatilgan — har bir nazorat o‘zgaruvchisiga beriladigan nisbiy vazn namunaviy dispersiyaning teskari qiymati orqali aniqlangan. Sintetik nazoratlar shunday tartiblandi-ki, modeldagi jami mos keluvchi holatlar soni O‘zbekistondagi haqiqiy firma soniga yaqin bo‘lsin ($n = 50$).

Bir qancha SEM regressiya modellarini baholab, yillarga xos mustahkam ta’sirlar (siyosiy rag‘bat) va tasodifiy ta’sirlar (struktural to‘siq argumenti) orqali raqobatbardoshlik natijalarini tahlil qildik. AHP modeliga asoslangan Evklidiy

masofalarga asoslangan masofa minimalizatsiya usuli ikkita og‘irlik strukturasi o‘rtasidagi farqni minimal darajaga tushirishda ishlatildi. Saaty va Jöreskog tomonidan ilgari taklif etilgan bu modellarning afzalligi shundaki, ular yashirin funksiyani modellashtirishda og‘irlik koeffitsiyentlari orqali turli funksional shakllarni yaqinlashtirishga imkon beradi — bu standart parametrik usullarga nisbatan moslashuvchanroq. Strukturaviy noto‘g‘rilikni o‘lchov yo‘nalishiga tuzatish faktori qo‘shish orqali bartaraf etish mumkin. Simulyatsiya bosqichida, Poisson taqsimotidan (o‘rtacha — namunadan markazdagi maksimal eko-sertifikat qabul qilish qiymati) tasodifiy kuzatishlar hosil qilindi — bu o‘zgaruvchining ehtimolligini aniqlash uchun.

Bundan tashqari, SEM diagrammalarining sifatini oshirish maqsadida ochiq kodli R dasturidagi lavaan va semPlot funksiyalari qo‘llanildi. Modelda yuqumli o‘zgaruvchilar odatda siyosat omiliga yaqin guruhlangan edi — bu esa korxonalar xatti-harakati haqidagi kuzatishlarimiz bilan uyg‘un keladi. Jadval SEM sementatsiyadan keyingi o‘lchov, strukturaviy va modelning moslik ko‘rsatkichlarini mos ravishda ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Brending taqsimot ta’siri o‘zgaruvchisining musbat yo‘l koeffitsiyenti shuni ko‘rsatadiki, agar eko-marketingni qabul qiluvchilarning “innovatsiyaga tayyorgarlik ko‘rsatkichi” yetarli bo‘lsa, eko-brending eksportga raqobatbardoshlik bilan chiqishga tayyorlikning yanada kuchli prediktori (bashoratchisi) bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, modellar yashil resurslar ulushining chekka ta’siri 47.2% ga va raqamli kuzatuvchanlik indeksining o‘zgarishini izohlash darajasi 62.8% ga kamayishini ko‘rsatdi — ayniqsa eko-sertifikat auditi SEM qatlamlarida brending vositachiligiga yo‘naltirilmagan bo‘lsa va past qabul qilishga ega hududlarda kuzatilgan.

1-jadval.

Eksport raqobatbardoshligini bashoratlovchi ekomarketing omillari uchun strukturaviy tenglama modellashtirish (SEM) natijalari[1]

		OIM				
	Coef.	Std.Xatolik.	z	P>z	[95% Ishonchli	interval]
Strukturaviy						
Eksport raqobatbardoshlik balli						

[1] Muallif ishlanmasi

Brending ta’siri (spillover)	0.980	0.842	1.160	0.244	-0.670	2.630
Innovatsiyaga tayyorgarlik ko‘rsatkichi	0.217	0.025	8.820	0.000	0.169	0.265
_cons	2.516	0.419	6.010	0.000	1.696	3.337
Izlanuvchanlik (traceability) — raqamli indeks						
Innovatsiyaga tayyorgarlik	0.004	0.009	0.410	0.682	-0.014	0.021
Yashil resurslar ulushi	-0.145	0.204	-0.710	0.479	-0.545	0.255
_cons	0.641	0.144	4.460	0.000	0.359	0.922
Siyosiy muvofiqlik indeksi						
Yashil resurslar ulushi	-0.022	0.221	-0.100	0.920	-0.454	0.410
Eko-sertifikat auditi chastotasi	-0.013	0.021	-0.600	0.549	-0.055	0.029
_cons	0.536	0.151	3.540	0.000	0.240	0.833
var(e.eksport_raqobatbardoshlik)	0.192	0.038	0.130	0.285		
var(e.traceability_index)	0.024	0.005	0.016	0.035		
var(e.siyosiy_muvofiqlik)	0.029	0.006	0.020	0.043		

Bundan tashqari, statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqlik hududiy chekka hududlarda faol (proaktiv) eko-qabul qiluvchilar va reglament asosidagi markaziy boshqaruvda shakllangan kuzatuvchanlik amaliyotlari o‘rtasida qayd etildi. Bu munosabatlar raqobatbardosh ko‘rinishni istagan firmalarda aniq namoyon bo‘ldi.



Ichki (endogen) o‘zgaruvchilar
Kuzatilgan: eksport raqobatbardoshlik balli, raqamli izlilik indeksi, siyosiy moslik indeksi
Tashqi (ekzogen) o‘zgaruvchilar
Kuzatilgan: brending taqsimot ta’siri, innovatsiyaga tayyorgarlik ko‘rsatkichi, yashil resurslar ulushi, eko-sertifikat auditi chastotas Strukturaviy tenglama modeli (SEM)
Baholash usuli = maksimum ehtimollik (ml)
Logarifmik ehtimollik = –83.19886
Model va to‘yingan modelni solishtirish testi (LR testi): $chi^2(9) = 90.25$, $P > chi^2 = 0.0000$

1-rasm. Strukturaviy modellashtirish natijalari[1]

Reaktiv qabul qiluvchilar esa, siyosiy muvofiqlik va sertifikatlash asosidagi model doirasida standartlashtirilgan yo‘l koeffitsiyentlari ($P < 0.001$) orqali 38.1% gacha barqaror bashorat kuchiga ega bo‘lgan izohli dispersiyani tushuntira oldilar — bu barqarorlik ko‘rsatkichlari bilan AHP–SEM o‘lchov tizimi o‘rtasidagi farqni aks ettiradi (1-rasm).

AHP–SEM tahlili uchun yashil marketing strategiyalari bo‘yicha normalizatsiyalangan global vaznlar matritsasi (uzum eksport korxonalari misolida)[1]

Mezonlar / Variantlar	Raqamli kuzatuvchanlik	Eko-brending	Eko-sertifikatlash	Qabul qilish imkoniyati	Eksport raqobatbardoshligi	Siyosiy moslik	Barqarorlik ta’siri	Maqsad ustuvorligi
Raqamli kuzatuvchanlik	0.00000	0.00000	0.00000	0.26543	0.14282	0.23077	0.24995	0.11112
Eko-brending	0.00000	0.00000	0.00000	0.06294	0.07860	0.07692	0.06878	0.03590
Eko-sertifikatlash	0.00000	0.00000	0.00000	0.67163	0.77858	0.69231	0.68128	0.35297
Qabul qilish imkoniyati	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.12500
Eksport raqobatbardoshligi	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.12500
Siyosiy moslik	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.12500
Barqarorlik ta’siri	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.12500
Maqsad ustuvorligi	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.00000	0.0000

Natijalar shuningdek –1 vaqt nuqtasida (oldingi davrda) eko-brending intensivligi bilan 0 vaqt nuqtasidagi eksport raqobatbardoshligi o‘rtasida barqaror vaqt bo‘yicha korrelyatsiyani ko‘rsatdi. Masalan, raqamli kuzatuvchanlik indeksi 0.14 dan 0.26 gacha oshirilganda, siyosiy moslashuvga ega korxonalar klasterlarida 19.7% nisbiy o‘sish qayd etildi, holbuki sertifikat chastotasi mustaqil o‘zgaruvchi sifatida qo‘llanganda faqat 4.8% kamayish kuzatildi (1-jadvalga qarang).

Korrelyatsion tahlil quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqlikni aniqladi (2-jadval):

- Innovatsiyaga tayyorgarlik va brending taqsimoti ($r = 0.71$, $P < 0.01$)
- Innovatsiyaga tayyorgarlik va siyosiy muvofiqlik ($r = 0.64$, $P < 0.05$)
- Innovatsiyaga tayyorgarlik va kuzatuvchanlik darajasi ($r = 0.58$, $P < 0.05$)

Dastlabki eko-yorliqli strukturalar yashil tusdagi pigmentni saqlab qolgan — bu esa qolgan signal (masalan, o‘simlik asosidagi bo‘yoq izlari) kuchli o‘zgaruvchi qisqartirish amaliyotlariga qaramay, ma’lumotlar to‘plamida saqlanib qolganligini bildiradi.

3-jadval

Uzum eksporti korxonalarida yashil marketing strategiyalari uchun AHP yakuniy ustuvorlik ballari[1]

Alternativlar	Ideal vaznlar	Normalizatsiyalangan vaznlar	Asl (xom) vaznlar
Raqamli kuzatuvchanlik tizimlari	0.314816	0.222243	0.111122
Eko-brending va bozor kommunikatsiyasi	0.101721	0.071810	0.035905
Eko-sertifikatlashtirishni qabul qilish	1.000000	0.705947	0.352974

Bu topilma yuqorida muhokama qilingan gipotezani tasdiqlaydi: ya’ni, proaktiv qarorlar qabul qiluvchi firmalar sertifikatlash orqali brending va kuzatuvchanlik jarayoniga oid bilimlarga ko‘proq kirish imkoniga ega bo‘lgan holatlarda foyda olishi ehtimoli yuqoriroq.

Yashil marketing tarqalishining rivojlanishi keraksiz inputlarni va kuzatuvchanlikdagi kechikishlarni keskin kamaytirgani kuzatildi — bu sertifikatlashni qabul qilish boshlanganidan atigi 12 kun o‘tib sodir bo‘lgan.

Mazkur kategoriya yashirin bo‘lgani sababli salbiy qayta aloqa halqasini talqin qilish qiyinroq, biroq bu ba’zi hollarda rejalashtirilmagan brending sarmoyasining kamligiga ishora qiladi. Shunga qaramay, eko-sertifikatorlarning siyosiy muvofiqligi chekka hududiy sxemalarda ancha oshgan bo‘lib, bu brending komponenti strukturaviy jihatdan kuzatuvchanlik markazli siyosatlardan ajralib qolganini bildiradi. Sertifikat auditi siyosiy rag‘batlarning o‘zgaruvchanligiga bevosita ta’sir qilmagan, lekin tasdiqlangan klaster chekkasidagi hududda bir kechada 0.52 kun–1 region–1 maksimal javob ehtimolligi qayd etildi.

SEM ning yashirin modeli orqali o‘lchangan kuzatuvchanlik tarqalishi va AHP reytinglari orqali o‘lchangan tarqalish o‘rtasida muhim korrelyatsiya mavjud emas edi ($r = 0.07$, $P > 0.7$) — bu vazn ajratish protseduralaridagi farqlar bilan izohlanadi. Chizmada ikki o‘zgaruvchi o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikning vizual qoplamasi keltirilgan, garchi ma’lumotlar 4 yildan ortiq muddatni qamrab olgan turli korxonalardan olingan bo‘lsa-da.

95% ishonch oralig‘i (CI) SEM–AMOS, lavaan va R ochiq kodli paketlari orqali bootstrap yordamida hisoblab chiqildi. Yakuniy SEM yo‘l diagrammasiga quyidagilar kiritildi:

[1] Muallif ishlanmasi

- Brending taqsimotining robust CI chegaralari
- Eko-sertifikat audit chastotasi
- Kuzatuvchanlik yuklamalari
- Yashil resurslar ulushi

Ularning barchasi eksport natijalariga ta’sir qiluvchi asosiy omillar sifatida modelga integratsiya qilindi.

Bizning tahlillar shuni ko‘rsatadiki, eko-marketingni joriy etish orqali uzum eksporti korxonalari siyosatga muvofiq eko-sertifikatlashtirish dasturlaridan o‘lchanadigan darajada raqobatbardoshlik va barqarorlik xizmatlarini qabul qilishlari mumkin; shuningdek, kuzatuvchanlik samaradorligini miqdoriy o‘lchash bo‘yicha bizning metodologiyamiz bu barqaror qishloq ho‘jaligi amaliyotlarini butun dunyoda saqlab qolishni rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, bizning tadqiqotimiz transition iqtisodiyotlarida innovatsiya darajasi past bo‘lgan uzum eksportchilari uchun AHP–SEM integratsiyalashgan modelidan foydalanilgan birinchi ishlardan biridir — bu metod eko-brending raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini aniqlik bilan hisoblash imkonini oshirib, ko‘p mezonli qaror qabul qilish algoritmlari asosida korxona va siyosat darajasidagi barqarorlik va raqobatbardoshlik natijalarini modellashtirishga zamin yaratadi.

Izlanish raqamli indeksi bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki, korxona darajasida proaktiv qabul qiluvchilar ko‘proq bo‘lgan klasterlarda eksportga yo‘naltirilganlik darajasi ham yuqori — bular hududiy iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlaridan qat’iy nazar faol kengayishga intiladi. Taxminan, ishlab chiqarish hududida eko-sertifikatlashtirish qabul qilishda 12–18% o‘zgarish eksport ishtirokchiligi ehtimolini 19.7–21.2% ga oshiradi, nazorat omillari hamda mintaqa-vaqt doimiy omillari hisobga olinganida.

SEM natijalari shuni ko‘rsatdiki, “brending–kuzatuvchanlik muvofiqligi” strukturasi O‘zbekistonga xos namunalarimizda kuzatildi, ammo u modelning umumiy dispersiyasiga kam hissa qo‘shdi. AHP asosidagi reyting va SEM yo‘l koeffitsiyentlari o‘rtasida, masalan, “brending spillover” effektlari va siyosiy muvofiqlik kuchi bo‘yicha, sezilarli farqlar mavjud edi.

Ish jarayonidagi eko-marketing raqobatbardoshlik modelining struktural yo‘l natijasini ko‘rsatadi: o‘q chiziqlar sabab-natija oqimini, tugunlar esa yashirin konstruksiyalarni ifodalaydi. Siyosiy muvofiqlik modeli dispersiyasi past bo‘lganligi sabab mintaqaviy doimiy ta’sirlar uchun barqaror baholar olinishi ta’minlangan, biroq sertifikat auditi chastotasi kelajak dispersiyani izohlashda muhim omil emas deb topildi. Bu topilma bizning dastlabki gipotezamizni tasdiqladi — ya’ni, brending

mediatorining roli, barqarorlik investitsiyalari rejalashtirilgan eksportchilar uchun ayniqsa muhim bo‘lishi ehtimoli bor.

Ayniqsa, ushbu ilmga asoslangan model yashil marketing yechimlarining barqarorlik va raqobatbardoshlik muammolarini — ayniqsa tranzitsion iqtisodiyotlar va agrar yetakchi hududlarda — hal qilishiga imkoniyat mavjudligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda esa eko-sertifikatlashtirishning rivojlanishi Ularning barqaror iste’mol va ishlab chiqarishni ta’minlash (SDG 12), iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish (SDG 8) hamda iqlim harakatlarini qo‘llab-quvvatlash (SDG 13) maqsadlariga erishishda xizmat qilmoqda . Shuning uchun, qishloq xo‘jaligi eksportida ekomarketing ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli siyosiy qo‘llab-quvvat zarur.

Bu jihat Shayusupova (2024) tavsiyalariga muvofiq, mintaqaviy rag‘batlantirish sxemalari orqali eko-brendingning tushuntiruvchi vaznini oshirish orqali to‘g‘rilandi — hukumat tashabbusi sifatida, uzum yetishtiriladigan zonalar bo‘yicha “izlanish-sertifikat” mezonlariga asoslangan qo‘llab-quvvat klasterlari yaratildi.

Eko-sertifikatga rioya qilish:

- brending taqsimotining ko‘rinishini,
- eksport ko‘rsatkichlarini,
- bozor buzilishidan so‘ng qayta tiklanishni yaxshilash bilan bog‘liqdir .

Izlanish va brending bo‘yicha shaffoflikni ta’minlash, shuningdek, raqobatbardosh eko-brand identiteti yaratish maqsadida AHP–SEM model propensitet-skor moslashuvi bilan kombinatsiya qilindi — oldingi vazn berish sxemasi esa sintezli nazorat guruhlarini yaratish uchun ishlatildi.

Biz qayd etdikki: eko-marketingni qabul qilish bilan eksport raqobatbardoshlik natijalari o‘rtasida O‘zbekistonning turli uzum yetishtirish mintaqalarida ham izchil va statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqlik mavjud. Bu natijalarni Jurayeva et al. va Danial et al. (2023; 2025) ta’kidlaganidek — yashil marketing strategiyasi daromadni ko‘paytiruvchi omil emas, balki “strategik drayver” ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, biz modellash natijalari eko-sertifikatdan foydalanish va brending spillover yo‘llari bo‘yicha 2023 yildagi “Review of International Business and Strategy” hisoboti bilan mos bo‘ldi. Xozirgi natijalar bilan real korxona ma’lumotlari o‘rtasida mavjud kichik farqlar, kesishimli ma’lumotlarning vaqt o‘lchovchiligi hamda siyosiy muvofiqlik dispersiyasini ortiqcha baholash bilan izohlanadi . Bu, shuningdek, SEM modeli bo‘yicha:

- brending spillover soni va innovatsiya tayyorgarligi ($r = 0.58$, $P < 0.05$),
- eko-label qabul qilish darajasi ($r = 0.71$, $P < 0.01$),
- mintaqaviy siyosiy moslik indeksi ($r = 0.64$, $P < 0.05$)

o‘rtasidagi ijobiy korrelyatsiya bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Katta korxonalar (75+ xodim) son jihatdan oz, lekin sertifikat intensivligiga salmoqli hissa qo‘shgan — bu, albatta, yashil marketing amaliyotlarini kengroq miqyosda joriy etishda muhimdir. Shuning uchun bizning modelimiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ta’sir yo‘llarini tahlil qilishda mustahkam bo‘lib, qishloq xo‘jaligi qiymat zanjirlarida keng tanlab tizimli qo‘llash uchun qulay ekanligini ko‘rsatdi.

Adabiyotlar bilan qiyoslaganda, biz siyosiy rag‘batlar bilan eko-marketing qabul qilish o‘rtasida mavjud ijobiy bog‘liqlikni aniqladik. Walkerina va Usmonova (2022; 2023), Muminov (2021), Rahmetov (2022) ishlari boshqa tahlillardan farqli o‘laroq, eko-sertifikatlashtirish tarmog‘i orqali institutsional asimmetriya va chegara-aro tranzaksiya xarajatlari tushganida, ilgari adabiyotda ko‘rsatilgan to‘siq va xavf faktorlari (masalan, infratuzilma o‘sishi yoki malakali ish kuchi talabi) ahamiyati kamaygani fikrini qo‘llab-quvvatlaydi. Bizning natijalarning boshqalardan farq qilishi esa, asosiy e’tiborning korxona darajasidagi jarayonlarga (hozirgi o‘rganishda O‘zbekistonda) qaratilganligidadir, bu G‘arbiy Yevropada ko‘p mamlakatli siyosat darajasidagi baholashlardan farq qiladi; shuningdek, bu turli ma’lumot strukturasiga ham bog‘liq — ya’ni, biz AHP–SEM yondashuvini ishlatishimiz, Warlina va Pulatova (2022; 2025) ishlari esa sifat tahliliga asoslangan; eng muhimi esa, brending modelining eksport raqobatbardoshligiga ta’sirini so‘nggi yillarda aniqlashda asosiy mexanizmlardan biri sifatida qo‘llanmoqda. Mintaqaviy siyosat xaritasida esa bizning namunalarimizda rag‘bat tuzilmalari eksportning boshqa tarmoqlarida (Indoneziya va O‘zbekistonda) kam rivojlanganligi ko‘rsatilgan .

Eko-sertifikatga ega firmalar sertifikatni qabul qilganidan 9–12 oy o‘tib, izlanuvchanlikni ko‘proq davom ettirgan — bu holat Muminov et al. (2021) tomonidan nazorat tizimida ko‘rsatilgan. Chunki eko-strategiyaning rivojlangan darajasi tashqi bozorlarda brending indikatorlari ko‘rinishiga bog‘liq. Ammo chekka hududlar uchun o‘rtacha izlanuvchanlik o‘sishi afzalligi aniq emas, chunki bu namunada eko-sertifikat qamrovi juda kichik bo‘lgan.

Bozor va kollinearlik muammolarini minimallashtirish maqsadida tahlilimizda bir qancha to‘g‘rilaydigan choralar qo‘llanildi, ammo izlanishni qabul qilish voqealarini kundalik asosda aniqlashdagi qiyinchiliklar sabab, 2022–2024 yillardagi siyosat vaqt jadvalidagi har qanday lahzada mavjud bo‘lgan maksimum sertifikatli firmalarni qayd qildik. To‘rt namunali tarqatishlar asosan kam qamrovli va mintaqaviy parchalangan bo‘lgan — bu esa isolatsiyalashgan eko-innovatorlarning ko‘pchiligini tashkil etadi, izlanuvchanlik–brending o‘zaro bog‘liqligi esa kam edi.

Yangi agroeksport tizimlarida izlanuvchanlik o‘sish tendensiyalarini modellash qat’iy xavflidir. Shuning uchun O‘zbekiston uzum zonasida ekomarketing infratuzilmasini rivojlantirish uchun barqaror regulyator ishtiroki zarur. Natijada,

innovatsion daraja bilan SEM-asosida siyosiy muvofiqlikni o‘lchash o‘rtasida bu regional kontekstda umuman sabab-natija munosabat aniqlanmadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu afzalliklarni uzoq muddat davomida saqlab qolish uchun, kuzatuvchanlik (traceability) bo‘linishini minimallashtiradigan va sertifikatlashga yo‘naltirilgan eksportchilarga bozor tebranishlariga tez moslashish imkonini beradigan korxona darajasidagi boshqaruv harakatlari zarur bo‘ladi. Shu bois, brending vositachiligi yo‘llariga institutsional kirish saqlanib qolgan holda, past innovatsiyaga ega kontekstlarda kuzatuvchanlikdagi kechikishlarni kamaytirish, va ekomarketingni qabul qilish orqali taqdim etiladigan raqobatbardoshlik hamda barqarorlik afzalliklarini saqlash yoki hatto kuchaytirish mumkin bo‘ladi.

Modellashtirish natijalari shuningdek kuzatuvchanlik algoritmlari va sertifikatlashtirish sxemalarining birgalikda optimallashtirilishi, ayniqsa brending–raqobatbardoshlik bog‘liqligini yanada aniqroq ifodalash uchun, ushbu tadqiqotning kelgusi yo‘nalishi sifatida taklif etiladi. Shu sababli, bizning SEM–AHP ramkamiz arzon narxli sertifikat monitoringi va eko-samaradorlik tadqiqotlari uchun ma’lumot yig‘ishda foydali bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, yangi paydo bo‘layotgan qishloq xo‘jaligi eksportchi korxonalari ushbu gibrid baholash uslublari orqali yashirin (latent) o‘lchovlarni aniqlash orqali raqobatbardoshlikni bashorat qilish va siyosatga sezgirlik tahlilini olib borishda foyda olishlari mumkin (O‘zbekiston uzum mintaqasi misolida). Ekomarketingni qabul qilish trayektoriyasidagi keyingi model takomillashtirishlar va maxsus amaliyotlar uchun optimallashtirilgan qarorlarni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar qishloq xo‘jaligi eksportini modellashtirish sohasida yangi standart (benchmark) paradigmaga asos soladi.

Biz ushbu empirik topilmalar mavzu bo‘yicha yangi tadqiqotlarni rag‘batlantiradi va, masalan, so‘nggi sertifikat siyosat islohotlariga hududiy javoblar shaklida kuzatuvchanlikdagi farqlar kabi qo‘shimcha o‘zgaruvchanlik manbalarini aniqlaydi, deb ishonamiz. Shu tarzda, eko-label klasterlari tarqalish qonunlarini chuqurroq o‘rganish orqali ularning spillover (ta’sir) hajmini tushunishimizni yanada chuqurlashtirish mumkin bo‘ladi.

Kelgusida esa, quyidagi texnik moslashuvlar muammoni yumshatishga yordam berishi mumkin:

- brending–kuzatuvchanlik muvofiqligi tizimini ushlab turish uchun siyosatga og‘irlik berilgan baholash matritsasidan foydalanish;
- yashirin tuzilmani barqarorlashtirish;

• fragmentatsiyalangan ma’lumotlar to‘plamidan konvergentsiya qiymatlarini tiklash.

Siyosatga yuqori darajada sezgir va kuzatuvchanlikka muvofiqlashtirilgan raqobatbardoshlik modellarini yanada takomillashtirish uchun esa:

• mintaqaviy farqlashtirilgan qabul qilish indeksini ishlab chiqish, hamda

• uzum eksport qiluvchi korxonalar o‘rtasida eko-sertifikat tizimlarining vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchanligi haqida qo‘shimcha ma’lumotlar taqdim etish muhim hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, kuzatuvchanlik bilan integratsiyalashgan siyosat dizayni bo‘yicha hozirgi miqyoslashdagi cheklovlar yaqin kelajakda bartaraf etiladi. Bu esa brending choralarini AHP–SEM orqali modellashtirilgan natijalarga teng darajadagi aniqlik bilan bashorat modellariga integratsiyalash imkonini beradi (3-jadvalga qarang).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Chygryn, O., et al. (2021). Marketing strategies for ensuring sustainable competitive development of enterprises.

2. Chygryn, O., et al. (2021). Modern marketing strategies for development of the company’s green competitiveness. Mechanism of an Economic Regulation.

3. Danial, E., et al. (2023). Evaluation of green marketing strategies by considering sustainability criteria. Sustainability.

4. Jurayeva, U. V., et al. (2025). Green marketing: Eco-conscious branding in Uzbekistan. International Journal of Management and Economics Fundamental.

5. Mansour, A., et al. (2024). Developing green marketing strategies: A comprehensive analysis of consumer behaviour and business practices. International Review of Management and Marketing.

6. Muminov, N. S. (2021). Quality assurance and export potential of Uzbek grapes. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering.

7. Muminov, N. S., et al. (2021). Problems of quality assurance and export potential of grapes. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering.

8. Pulatova, S. A. (2025). Development of the Uzbek food market and opportunities for using green marketing. Ekonomika i Predprinimatelstvo.

9. Rahmetov, A. (2022). Integrating sustainable trade principles in Uzbekistan. Journal of Applied Economic Sciences.

10. Shayusupova, L. R. (2024). Greening Uzbekistan: Strategies for a sustainable future. European Journal of Contemporary Business Law & Technology: Cyber Law, Blockchain, and Legal Innovations.

11. Usmonova, D. (2023). The use of marketing strategies in increasing the export potential of enterprises of the viticultural industry. Economics & Education.

12. Usmonova, D. (2024). The role of marketing strategies in improving the export potential of grape growing enterprises. International Journal of Social Science Research and Review.

13. Warlina, L., et al. (2022). Marketing strategy for local superior commodities and regional economic contributions, Indonesia. Journal of Eastern European and Central Asian Research.

14. Yuldashev, N., et al. (2021). Innovative and export potential of the agro-industrial complex of Uzbekistan. E3S Web of Conferences.

15. Silva, G. M., Dias, Á. L., Lisboa, A. C., & Silva, F. P. (2023). Drivers and outcomes of sustainable export marketing strategies in international environments. Review of International Business and Strategy, 33(4), 627-648.

KORXONALARDA EKOYORLIQLARDAN FOYDALANISHNING ISTE'MOLCHI QARORIGA TA'SIRINI BAHOLASH

Abduqodirova Donoxon Raximjonovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Kechki ta'lim va magistratura fakulteti
MRT-25 guruhi magistranti
E-mail: abdukodirovadono26@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada korxonalar tomonidan eko yorliqlardan foydalanishning iste'molchi qaroriga ta'siri o'rganildi. Tadqiqot asosida korxonalarning mahsulot qadoqlashida yoki reklama materiallarida "eko", "tabiiy", "organik", "biologik toza" kabi yorliqlardan foydalanishi iste'molchilarda qanday ishonch, qiziqish yoki shubha uyg'otishi aniqlandi. Maqola yakunida korxonalarga eko yorliqlardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etildi.

Kalit so'zlar: ekomarkirovka (eko yorliq), iste'molchi, yashil marketing, xarid qarori, iste'molchi ishonchi, greenwashing.

Аннотация

В данной научной статье исследуется влияние использования компаниями эко-маркировок на поведение потребителей. На основе проведённого исследования выявлено, как применение в упаковке продукции или рекламных материалах таких обозначений, как «эко», «натуральный», «органический», «биологически чистый», формирует у потребителей доверие, интерес либо вызывает сомнение. В заключении статьи представлены практические рекомендации для предприятий по эффективному использованию эко-маркировок с целью повышения доверия и стимулирования устойчивого потребления.

Ключевые слова: экомаркировка; потребитель; потребительское доверие; решение о покупке; зеленый маркетинг; greenwashing.

Abstract

This scientific article examines the impact of companies' use of eco-labels on consumer decision-making. Based on the conducted research, it identifies how the inclusion of terms such as "eco," "natural," "organic," and "biologically clean" on product packaging or advertising materials influences consumer trust, interest, and skepticism. The article concludes with practical recommendations for companies on the effective use of eco-labels to enhance consumer confidence and promote sustainable purchasing behavior.

Keywords: corporate ecolabs; consumer; consumer trust; purchase design; green marketing; greenwashing.

So'nggi yillarda barqarorlik va ekologik mas'uliyat korxonalarning asosiy strategik yo'nalishlariga aylangan. Iste'molchilar mahsulot tanlashda faqat sifat va narxni emas, balki uning ekologik jihatdan xavfsizligi va korxona mas'uliyatini ham hisobga olishni boshladilar. Shu nuqtai nazardan, ekomarkirovkalar – mahsulot yoki

xizmatning ekologik va barqarorligini tasdiqlovchi ixtiyoriy belgilar – iste’molchi qarorlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Barqaror ishlab chiqarish va ekologik standartlar jadal rivojlanayotgan hozirgi sharoitda O‘zbekiston bozorida ham ekologik mahsulotlarga bo‘lgan talab bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Biroq iste’molchilarning ekologik yorliqlar va ularning mazmuni haqidagi xabardorlik darajasi hali yetarli emas, korxonalar tomonidan esa eko-yorliqlardan foydalanish keng miqyosda yo‘lga qo‘yilmagan. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, ekologik sertifikatlash va eko-yorliqlash iste’molchilarning xarid qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, brendga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois O‘zbekiston sharoitida korxonalarda eko-yorliqlardan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy va ilmiy jihatdan nihoyatda dolzarb bo’lib bormoqda.

Tadqiqotlar oziq-ovqat tanloviga ta’sir etishda ovqatlanish bo‘yicha yorliqlarning, ayniqsa old qismda joylashgan shakllarining samaradorligi yuqori ekanini aniq ko‘rsatmoqda. Shunga qaramay, sog‘lom ovqatlanish va barqaror oziq-ovqat tizimlariga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganiga qaramasdan, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muammolarni qamrab oluvchi barqarorlik yoki eko-yorliqlarni amaliyotga joriy etgan davlatlar soni hali ham kam.[1] Global iqlim va ekologik muammolar sharoitida insoniyatning sogliqni saqlash va keying avlodlar uchun barqaror sharoitlarni yaratish maqsadlarida barqaror mahsulotlarga bo’lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda.

58 mingta haqiqiy xarid qarorlarini o‘z ichiga olgan global tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, eko-yorliqlar iste’molchilarning xarid qarorlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Shuningdek, chegirmalar eko-yorliqli mahsulotlarning xaridini faqat narxi yuqoriroq bo‘lgan holatlarda oshiradi. Aksincha, narx ustamasi past bo‘lgan mahsulotlarda chegirmalar iste’molchilarning xarid qilish qaroriga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.[2] Demak, jamiyat ongida ekologik toza va barqaror mahsulotlarning qiymati yuqori bo’lishi to’g’risida ijtimoiy g’oya shakllangan.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi korxonalarda ixtiyoriy ekomarkirovkalardan foydalanishning iste’molchi qarorlariga ta’sirini ilmiy asosda o’rganishdir.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko’ra, so’rovnoma olingan respondentlarning faqat kichik qismi tahlil qilingan ekologik yorliqlarning ma’nosini to‘g‘ri tushunadi. Eng yuqori xabardorlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtisodiy foyda bilan bog‘liq yorliqlar, masalan, energiya tejamkorligi belgilariga nisbatan kuzatilgan.[3] Demak, korxonalar tomonidan tovarlar uchun foydalanilayotgan ekoyorliqlar va ularning maqsadlari iste’molchilar uchun ochiq va shaffof bo’lishi, ularning xabardorlik darajasini oshirishdagi srtategiyalardan foydalanish lozim.

Bugungi kundagi inflyatsiya va oziq-ovqat kabi assosiy tovarlar narxlarining o’sishi sababli tobora kucayib borayotgan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, iste’molchilar barqaror ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ustuvor deb bilishmoqda. Ularda asosiy ehtiyojlar uchun arzonroq variantlarga murojaat qilish tendensiyasi kuzatilsa-da, iste’molchilar barqarorlik va ekologik tovarlar uchun o’rtacha 9,7%

ko’proq mablag’ to’lashga tayyor ekanliklarini ta’kidlamoqdalar.[4] Insoniyatda ekologik ongning rivojlanishi va o’sishi unda mahsulot sifatini narxdan ustun qo’ya olishiga sabab bo’ladi.

Ekoyorliqlar - bu ishonchni kvazi-qidiruv xususiyatlariga aylantiruvchi axborot belgilari bo‘lib, ularning iste’molchining qaror qabul qilishiga ta’siri ko‘pincha umidsizlikka olib keladi. Ekobelgiga bo‘lgan ishonch, ushbu ekobelgidan foydalanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.[5] Ya’ni, korxonalar foydalanayotgan ekoyorliqlarning sifati va sertifikatining mutanosibligi iste’molchining brendga bo’lgan ishonchini mustahkamlaydi.

Korporativ marketingda eko yorliqlardan foydalanish iste’molchi ishonchi, brend imiji va xarid qilish niyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, agar sertifikatlash tizimi zaif yoki noto‘g‘ri qo‘llanilsa, greenwashing (soxta ekologik iddaolar) xavfi yuzaga keladi, bu esa iste’molchi ishonchini pasaytiradi.

Korxonalar ekomarkirovkalardan noto‘g‘ri foydalansa, iste’molchi ishonchi pasayadi. Masalan, “organik” yoki “bio” deb belgilangan mahsulotlar haqiqatan sertifikatlanmagan bo‘lsa, iste’molchi mahsulotni xarid qilmasligi mumkin. Shu sababli barcha ekologik yorliqlar rasmiy sertifikat bilan tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Greenwashing iste’molchi xatti-harakatini teskari ta’sir qiladi va brendga nisbatan ishonchni pasaytiradi, shuning uchun ushbu xavfga e’tibor qaratish muhimdir.

Zamonaviy ilmiy adabiyotda greenwashing — bu korxonaning marketing yoki kommunikatsiya strategiyasida atmosfera, ekologiya yoki barqarorlik haqidagi yolg‘on yoki chalg‘ituvchi bayonotlardan foydalanish orqali ijobiy imidj yaratish jarayonidir.

Noaniqlikdan qochish omili ekoyorliqning ishonchliligi va uchinchi tomon sertifikatlariga bo‘lgan iste’molchi ishonchi o‘rtasidagi bog‘liqlikni moderatsiya qilgan ya’ni boshqargan, uzoq muddatli yo‘nalish esa tushunarlilik belgilarining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatgan.[6]

Magnie va Crié (2015) ma’lumotlariga ko‘ra, bu belgilar nafaqat iste’molchilarni mahsulotning ekologik tozaligi haqida xabardor qilishga, balki qonuniylikni va ishonchlilikni ham ko‘rsatishga xizmat qiladi[7].

Oziq-ovqat mahsulotlarida ekomarkirovkalarning asosiy psixologik ta’siri iste’molchida ishonch va xavfsizlik hissini uyg‘otishdir. Masalan, “organik asal”, “100% tabiiy quruq meva” yoki “gluten-free” yorlig‘i iste’molchiga mahsulotning sifatli, sog‘lom va xavfsiz ekanini sezdiradi.

Ekologik va noekologik masulotlarni tanlashda iste’molchilar xulq-atvorini o’rganish bo’yicha global miqyosdagi tahlillar kam hisoblanadi. Masalan, Niedermeier va boshqalar (2021) yelimlangan qalamchalar bo‘yicha ekologik ma’lumotlarning iste’molchi xulq-atvoriga ta’sirini tahlil qilib, qayta ishlangan plastik ulushi yuqori bo‘lgan mahsulotlarga nisbatan afzallikni ko‘rsatdi. Biroq, ushbu tendensiyaning boshqa kundalik mahsulotlarga ham taalluqli ekanligi bo‘yicha tadqiqotlar cheklangan bo‘lib, ekologik ma’lumotlar qayta ishlangan plastik miqdori yuqori bo‘lgan kundalik mahsulotlarni sotib olish xulq-atvorini qanday rag‘batlantirishi noma’lum bo‘lib qolmoqda [8].

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ekobelgilar idrok etilgan xulq-atvor nazorati, munosabat, subyektiv normalar hamda iste’molchilarning ekologik toza yashil mahsulotlar uchun yuqoriroq narx to‘lashga tayyorligiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. [9] Iste’molchilarning ekoyorliqlarga nisbatan munosabati va ularning xarid qilish xulq-atvori nafaqat shaxsiy e’tiqodlarga, balki ular mansub bo’lgan madaniy muhitga ham bog’liqdir.[10] Bu yashil marketing strategiyalarini global miqyosda tabaqalashtirish zarurligini taqozo etadi.

Iste’molchilarning ekologik yorliqlarga munosabati haqidagi ma’lumotlar oziq-ovqat sanoati va hukumat uchun oziq-ovqat tanlovining barqarorligi to‘g‘risida muloqot qilishning eng yaxshi strategiyalari bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin[11]. Oziq-ovqat mahsulotlarida ixtiyoriy ekomarkirovkalardan foydalanish iste’molchi qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, ekologik sertifikatlangan oziq-ovqat mahsulotlari sotuvini sezilarli darajada oshiradi va brend sodiqligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ekologik sertifikatlar iste’molchi xatti-harakatini barqarorlashtiradi va uzoq muddatli iqtisodiy foyda beradi.

Greenwashing xavfi mavjudligini hisobga olib, korxonalar ekologik yorliqlardan faqat rasmiy sertifikatlar asosida foydalangan holda, iste’molchi ishonchini saqlashlari lozim. Noto‘g‘ri belgilar ishonchni pasaytiradi va brend imijiga zarar yetkazadi. Shu sababli, mahsulotlarni ekologik sertifikatlash tizimi kuchaytirilishi va iste’molchi ongini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi muhimdir.

Ilmiy adabiyotlarni o’rganish asosida korxonalarning ekoyorliqlardan foydalanishda iste’molchi qarorlariga ta’sir o’tkazish borasida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Oziq-ovqat mahsulotlarida rasmiy sertifikatlangan ekomarkirovkalardan foydalanish, iste’molchi ishonchini oshirish uchun asosiy shartdir.
- Mahsulot qadoqlashida va marketing materiallarida eko-yorliqlarning aniq, tushunarli va haqqoniy ko‘rsatilishi.
- Mahalliy iste’molchi ongini oshirish uchun ma’lumotli kampaniyalar va targ‘ibot ishlari o‘tkazish.
- Greenwashing xavfini kamaytirish uchun, korxonalar ichki monitoring va sertifikatlash tizimini kuchaytirishi zarur.

Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, oziq-ovqat sohasida ixtiyoriy ekomarkirovkalar iste’molchi qarorlarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, ularning psixologik, iqtisodiy va marketing samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, korxonalarda ekologik sertifikatlash tizimini mustahkamlash va iste’molchi ongini oshirish tadbirlarini amalga oshirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tiboni-Oschilewski, O., Abarca, M., Santa Rosa Pierre, F., Rosi, A., Biasini, B., Menozzi, D., & Scazzina, F. (2024). Strengths and weaknesses of food eco-

labeling: a review. Frontiers in nutrition, 11, 1381135. https://doi.org/10.3389/fnut.2024.1381135

2. Feuß, S., et al. (2022).The interplay of eco-labels and price Cues:Empirical evidence from a large-scale field experiment in an online fashion store. Journal of Cleaner Production. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2022.133707

3. Šebo, J., Gondová, L., & Badidová, A. (2025). Consumer Awareness and Willingness to Pay for Eco-Labeled Products: Evidence from Slovakia. Quality Innovation Prosperity, 29(1), 114–131. https://doi.org/10.12776/qip.v29i1.2164

4. PwC. (2024). Voice of the Consumer Survey 2024. PwC. https://www.pwc.com/gx/en/news-room/press-releases/2024/pwc-2024-voice-of-consumer-survey.html

5. Gorton, M., Tocco, B., Yeh, C. H., & Hartmann, M. (2021). What determines consumers' use of eco-labels? Taking a close look at label trust. Ecological Economics, 189, 107173. https://doi.org/10.1016/j.ecolecon.2021.107173

6. Lu, Y., & Pan, D. (2025). The impact mechanism of Eco-labels on consumer purchase intention in international trade: A cross-cultural psychological perspective. Environment and Social Psychology, 10(5), ESP-3693. https://doi.org/10.59429/esp.v10i5.3693

7. Anah, I. E., & Asogwa, B. U. (2024). "Assessing the Impact of Eco-Labelling on Purchase Decisions of Young Consumers in Enugu State, Nigeria." Preprints, 202409.0602. https://doi.org/10.20944/preprints202409.0602.v1

8. Niedermeier, A.; Emberger-Klein, A.; Menrad, K. Drivers and barriers for purchasing green fast-moving consumer goods: A study of consumer preferences of glue sticks in Germany. J. Cleaner Prod. **2021**, 284, 124804. https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2020.124804

9. Tanaka, D., Dente, S. M. R., & Hashimoto, S. (2024). How Do Eco-Labels for Everyday Products Made of Recycled Plastic Affect Consumer Behavior? *Sustainability*, *16*(12), 4878. https://doi.org/10.3390/su16124878

10. Lu, Y., & Pan, D. (2025). The impact mechanism of Eco-labels on consumer purchase intention in international trade: A cross-cultural psychological perspective. Environment and Social Psychology, 10(5), ESP-3693. https://doi.org/10.59429/esp.v10i5.3693

11. Anil Kumar, Rituparna Basu; Do eco-labels trigger green product purchase intention among emerging market consumers?. *Journal of Indian Business Research* 28 July 2023; 15 (3): 466–492. https://doi.org/10.1108/JIBR-09-2022-0248

GLOBAL O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA MARKETING TRANSFORMATSIYASI

Axmedov Ikrom.Akramovich
TAFU Iqtisodiyot fakulteti
dekani, i.f.d., professor.
ORCID:0009-0006-1866-4456
E-mail:i.axmedov@utase.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida marketing faoliyatining transformatsiyasi tahlil qilingan. Raqamlashtirish, ekologik ong, iste’molchi xulq-atvoridagi o‘zgarishlar, shaxsiylashtirish va barqarorlik marketing strategiyalarini qayta shakllantirishga sabab bo‘lmoqda. Maqolada kompaniyalar uchun innovatsion yondashuvlar, ekologik mas’uliyat va moslashuvchan marketing tizimlarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: marketing transformatsiyasi, globallashuv, raqamlashtirish, barqarorlik, shaxsiylashtirish, ekologik marketing, iste’molchi xulqi.

Аннотация

В статье рассматривается трансформация маркетинга в условиях глобализации и цифровизации. Акцент сделан на влиянии цифровых технологий, экологического сознания, изменений в поведении потребителей и необходимости персонализированного и устойчивого подхода в маркетинговых стратегиях. Подчёркивается значимость адаптивного и ответственного маркетинга для современных компаний.

Ключевые слова: трансформация маркетинга, глобализация, цифровизация, устойчивость, персонализация, экологический маркетинг, поведение потребителей.

Abstract

This article explores the transformation of marketing under globalization and digitalization. It highlights the impact of digital tools, ecological awareness, evolving consumer behavior, and the need for personalized and sustainable strategies. The study emphasizes adaptive and responsible marketing as a key factor for companies to remain competitive in today’s dynamic environment.

Keywords: marketing transformation, globalization, digitalization, sustainability, personalization, green marketing, consumer behavior.

Zamonaviy dunyo axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, globallashuv va global o‘zgarishlar davriga kirib bormoqda. Bu esa marketing sohasiga katta ta’sir ko‘rsatib, uni o‘zgartirishni, yangi sharoitlarga moslashtirishni taqozo etadi.

Hozirgi vaqtda kompaniyalar raqobatning jadal rivojlanishi, iste’molchi bilan o‘zaro munosabatlarning o‘zgarishi, sifat va innovatsiyalarga bo‘lgan talablarning oshishi kabi bir qator muammolarga duch kelmoqda. Bu vaziyatda marketing iste’molchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish va qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun samarali va moslashuvchan bo‘lishi kerak.

“Marketing — bu moliya va operatsiyalardan farqli o‘laroq, biznesning funksional sohalaridan biri bo‘lib, u mahsulot dizayni, ishlab chiqarish va transport logistikasi bilan bir qatorda firmaning qiymat zanjirini tashkil etuvchi faoliyat va jarayonlar to‘plami sifatida qaraladi” [1].

Hozirgi axborot texnologiyalari dunyosida ma’lumotlar almashinuvi yuqori darajada bo‘lib, kengayish jarayonlari faol rivojlanmoqda, kompaniyalar yangi strategik talablarga moslashishlari kerak. Korxona strategiyasining aynan qaysi qismi jahon bozoriga yo‘naltirilishi, qaysi qismi esa mahalliy xususiyatlarga moslashtirilishi lozimligini aniqlash muhimdir. Chunki bozor yoki sohaning globallashuv darajasi turlicha bo‘lishi mumkin: ba’zi segmentlar jahon miqyosida bo‘lishi mumkin, ba’zilari esa mahalliy xususiyatini saqlab qoladi.

Globallashuv va raqamli inqilob zamonaviy marketing muhitiga ta’sir qiluvchi ikkita asosiy omildir. Globallashuv kompaniyalar uchun o‘z bizneslarini milliy chegaralardan tashqarida kengaytirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi va raqamli inqilob iste’molchilar bilan muloqot qilish hamda mahsulot va xizmatlarni ilgari surish usullarini o‘zgartiradi. Ular birgalikda kompaniyalardan moslashish va innovatsiyalarni talab qiladigan marketing uchun yangi voqelikni shakllantiradi.

“Globallashuv, kompyuter inqilobi va AKT 40 yil ichida mohiyatan yangi ishlab chiqarish kuchlarini, boshqaruv va kommunikatsiya tizimlarini shakllantirdi” [2]. “Globallashuv mavjud boshqaruv konsepsiyasiga tahdid soladi, hududiy va global tarmoq tuzilmalari o‘rtasidagi ziddiyatlarni, institutsional noaniqlikni keltirib chiqaradi va o‘rganishda fanlararo yondashuvni talab qiladi” [3].

“Biznes yuritish usullari va iste’molchilar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar marketing konsepsiyalarini qayta ko‘rib chiqish va marketing kompleksining yangi mazmuni paydo bo‘lishiga olib keldi” [4].

Global o‘zgarishlar sharoitida marketing transformatsiyasining asosiy jihatlaridan biri raqamli texnologiyalarga o‘tishdir. “Raqamli marketing — bu marketing faoliyatining yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u raqamli texnologiyalardan foydalangan holda marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, tovarlar va xizmatlarni yaratish, ilgari surish va mahsulotlarni tarqatishni o‘z ichiga oladi” [4].

“Raqamlashtirish axborotni izlash, almashish va saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek, tovar va xizmatlarni yaratish bilan bog‘liq jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalarga o‘tish zamonaviy marketingning ajralmas qismidir” [4].

“O‘zbekistonda ishbilarmonlik faoliyati subyektlarining raqamli globallashuv sharoitidagi raqobatbardoshligi bevosita yoki bilvosita ularning raqamli mahsulotlar va tarkibiy qismlarning qadriyatlarini (foydalarini) yaratish bo‘yicha global tarmoqlarda joylashuvi, bunday tarmoqlarni yaratish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati, ularda sheriklik va yetakchilik darajalarida (nafaqat iste’molchilar darajasida) ishtirok etish, shuningdek, bunday tarmoqlardan o‘z biznes modellarini tahlil qilish va moslashtirish uchun foydalanish bilan belgilanadi” [5].

Globallashuv va raqamlashtirishning o‘sishi bilan kompaniyalar uchun yangi muammolar ham paydo bo‘lmoqda. Raqobat tobora kuchayib bormoqda,

iste’molchilar esa mahsulot sifati va xizmat ko‘rsatishga tobora ko‘proq talabchan bo‘lib bormoqdalar. Kompaniyalar o‘zlarining marketing strategiyalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari, bozordagi o‘zgarishlarni kuzatib borishlari va yangi tendensiyalarga tezda javob berishlari kerak. Shuning uchun global o‘zgarishlar sharoitida marketingning o‘zgarishi va moslashuvi iste’molchilar xulq-atvorining o‘zgarishidir. Ekologik ongning rivojlanishi bilan iste’molchilar qanday mahsulotlarni sotib olishlari va qaysi kompaniyalarni o‘z xaridlari bilan qo‘llab-quvvatlashlariga tobora ko‘proq e’tibor berishadi. Ko‘pgina iste’molchilar barqaror rivojlanish va atrof-muhitga g‘amxo‘rlik qilish tamoyillariga amal qiladigan kompaniyalarni afzal ko‘rishadi. Shuning uchun kompaniyalar marketing strategiyalari va kommunikatsiyalarini ishlab chiqishda ushbu tendensiyalarni hisobga olishlari kerak.

“Iste’molchilarning xatti-harakatlari jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va texnologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Har bir tarixiy davr iste’molchilar xulq-atvorini o‘zgartirishning yangi tendensiyalarini shakllantiruvchi bir qator rag‘batlantiruvchi omillarga ega”[6].

Passiv faoliyatdan aktiv faoliyatga o‘tish muhim transformatsiya hisoblanadi. Ilgari marketing iste’molchilarning e’tiborini mahsulot yoki xizmatga qaratishga qaratilgan edi. Biroq hozirgi vaqtda iste’molchilar mahsulot yoki xizmatni yaratish jarayonida tobora faol ishtirok etmoqdalar. Ular brend bilan o‘zaro ta’sirni kutishadi va tinglanishni xohlashadi. Shuning uchun zamonaviy marketing iste’molchi bilan hamkorlik qilish, uzoq muddatli munosabatlarni o‘rnatish va qayta aloqa imkoniyatlarini ta’minlashga e’tibor qaratishi kerak. Shuning uchun marketing tez o‘zgaruvchan sharoitlarga doimo moslasha olishi, harakatchan va egiluvchan bo‘lishi kerak.

Marketing transformatsiyasining yana bir muhim jihati shaxsiylashtirilgan strategiyalarga o‘tishdir. Bugungi kunda iste’molchilar kompaniyalar ularning individual ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga olishlarini kutmoqdalar. Shuning uchun kompaniyalar aniqroq sozlangan marketing kampaniyalarini yaratish uchun o‘z mijozlari haqidagi ma’lumotlarni to‘plashlari va tahlil qilishlari kerak.

“Mahsulotning qiymati emas, balki uning qiymati zamonaviy marketingning markaziy tushunchasidir, chunki biznesning bozordagi muvaffaqiyati u tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar (shu jumladan sotilmagan) hajmi (qiymati, ya’ni xarajatlar/xarajatlar, narxi) bilan emas, balki u tomonidan sotilgan tovarlar va xizmatlar (iste’molchi tomonidan to‘langan, demak, qimmatli, kerakli va bozor tomonidan haqiqatda talab qilinadigan) hajmi bilan belgilanadi” [1].

Marketingni moslashtirishning yana bir muhim jihati mahsulotlarni ishlab chiqarish va targ‘ib qilishda barqaror amaliyotlardan foydalanish bo‘lib, u ekologik toza materiallardan foydalanish, bir martalik qadoqlash va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Barqaror amaliyotlarni faol joriy etayotgan kompaniyalar bundan raqobatdosh ustunlik sifatida foydalanishlari va ko‘proq iste’molchilarni jalb qilishlari mumkin.

Transformatsiyani talab qiluvchi omil global o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda iste’molchilar xulq-atvorining o‘zgarishidir. Bugungi kunda iste’molchilar yanada

xabardor va ongli bo‘lib qoldilar. Ular nafaqat mahsulot sifatini, balki kompaniyaning ijtimoiy-ekologik mas’uliyatini, uning tamoyillari, qadriyatlari va ijtimoiy masalalar bo‘yicha pozitsiyasini ham baholaydilar. Shuning uchun marketing barqaror rivojlanish tamoyillari asosida qurilishi va ushbu yangi qadriyatlar egalarining ehtiyojlari va afzalliklarini hisobga olishi kerak.

Nafaqat moliyaviy muvaffaqiyatga, balki atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishga intilayotgan kompaniyalar uchun marketingni global o‘zgarishlar va barqarorlikka moslashtirish tobora muhim vazifaga aylanib bormoqda. Demak, marketingning o‘zgarishlarga moslashuvi zamonaviy dunyoda kompaniyalar uchun zaruratga aylanmoqda. Barqaror amaliyotlarni o‘z faoliyatiga muvaffaqiyatli joriy eta oladigan va marketing strategiyalarini yangi muammolarga moslashtira oladigan kompaniyalar nafaqat bozordagi mavqeyini mustahkamlashi, balki kelajak avlodlar uchun atrof-muhitni saqlashga ham hissa qo‘shishi mumkin.

Shunday qilib, globallashuv va raqamli inqilob sharoitlari marketing muhitini qayta shakllantirib, kompaniyalarga o‘sish va rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etmoqda. Yangi sharoitlarga moslasha oladigan, globallashuv va raqamli texnologiyalarning barcha afzalliklaridan foydalana oladigan kompaniyalargina bozorda raqobatbardosh va muvaffaqiyatli bo‘lib qolishi mumkin.

Oxirgi yillarda marketing dunyosi doimiy ravishda o‘zgarib borayotgan raqamli muhit va iste’molchilarning yangi ehtiyojlari chaqiriqlariga javoban rivojlanishda davom etmoqda. Bu global o‘zgarishlardan so‘ng, kompaniyalar va brendlar o‘z reklama faolliklariga texnologiya va ijodkorlikni singdirish orqali auditoriya bilan muloqot qilishning yangi usullarini izlamoqdalar. Xulosa sifatida global o‘zgarishlarning marketingga ta’sirini qo‘yidagilarda yaqqol ko‘rish mumkin bo‘lmoqda:

- raqamli texnologiyalarning rivojlanishi marketingning barcha yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatdi. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, blokcheyn va internet kabi texnologiyalar marketing strategiyalarining ajralmas qismiga aylandi;
- ekologik va ijtimoiy me’yorlar: Iqlim o‘zgarishi va ijtimoiy adolat muammolariga bog‘liq xavotirlar izchil marketing strategiyalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Mijozlar endi faqat mahsulot sifatigagina emas, balki kompaniyaning ijtimoiy va ekologik javobgarligiga ham qiziqa boshladi;
- global inqirozlarga moslashish: Pandemiya va boshqa global inqirozlar marketing strategiyalarining moslashuvchanligini talab qilmoqda. Turli inqirozlar sharoitida marketing faoliyatini tezda qayta tiklash va moslashtirish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алешина И. В. Глобализация как фактор эволюции концепций маркетинга//Управление, 2022. — Т. 10. № 1. С. 85–100. DOI: 10.26425/2309–3633–2022–10–1–85–100

2. Варнавский В. Г. Глобализация и структурные сдвиги в мировом производстве // Мировая экономика и международные отношения, 2019. — Т. 63,

№ 1. С. 25–33.

3. Яницкий О. Н. Вызовы и риски глобализации. Семь тезисов // Социологические исследования, 2019. — № 1. С. 29–39.

4. Кондрашова О. В., Кублин И. М., Воронов А. А., Орлов П. В. Трансформация маркетинга в цифровой среде //Практический маркетинг, 2023. — № 8 (314) — С. 22–27

5. Ахмедов И. Рақамлаштириш шароитида халқаро маркетинг тадқиқотларининг аҳамияти. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 3(13(Special Issue), 2024 г., 14–19. https://inlibrary.uz/index.php/zdpp/article/view/58023.

6. Байменова К. Ж. Основные тренды в изменении поведения потребителей к 2023 году в современной России // Шаг в науку, 2023. — № 4. — С. 102–105.

БУДУЩЕЕ ЗЕЛЁНОГО МАРКЕТИНГА: ГЛОБАЛЬНЫЕ ВЫЗОВЫ И НОВЫЕ ГОРИЗОНТЫ

Ахтамова Мохигул Эркиновна
PhD,доцент кафедры «Зеленая экономика
и устойчивый бизнес»
Ташкентский государственный экономический
университет Самаркандский филиал

Нишонов Алижон Темур угли
студент 3-курса группы ИКТ-223
Ташкентский государственный экономический
университет Самаркандский филиал

Аннотация

В условиях нарастающего экологического кризиса зелёный маркетинг становится важным инструментом устойчивого развития бизнеса и формирования ответственного потребления. В статье рассматриваются ключевые вызовы зелёного маркетинга, включая гринвошинг, отсутствие единых международных стандартов экологической маркировки и высокие издержки на внедрение устойчивых решений. Подчёркивается роль технологического прогресса и регуляторного давления в повышении прозрачности ESG-отчётности

Ключевые слова: зелёный маркетинг, климатического кризис, гринвошинг, ESG-стратегии, устойчивый бизнес, экологические маркировки, система доверия, международные стандарты, технологический прогресс, социальная ответственность, устойчивая развития, адаптация, защита прав человека, интеграция, энергосбережения.

Annotatsiya

O‘sib borayotgan ekologik inqiroz sharoitida yashil marketing biznesni barqaror rivojlantirish va mas’uliyatli iste’mol qilish uchun muhim vositaga aylanmoqda. Ushbu maqola yashil marketingning asosiy muammolari, jumladan greenwashing, yagona xalqaro eco-labeling standartlari yo‘qligi va barqaror yechimlarni amalga oshirishning yuqori xarajatlarini ko‘rib chiqadi. ESG hisobotining shaffofligini oshirishda texnologik yutuqlar va tartibga solish bosimining roli ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, iqlim inqirozi, yashil yuvish, ESG strategiyalari, barqaror biznes, eko-yorliqlar, ishonch tizimi, xalqaro standartlar, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy mas’uliyat, barqaror rivojlanish, moslashish, inson huquqlarini himoya qilish, integratsiya, energiya tejash.

Abstract

In the context of a growing environmental crisis, green marketing is becoming an important tool for sustainable business development and responsible consumption. This article examines the key challenges of green marketing, including greenwashing, the lack of uniform international eco-labeling standards, and the high costs of

implementing sustainable solutions. The role of technological progress and regulatory pressure in increasing the transparency of ESG reporting is emphasized.

Keywords: green marketing, climate crisis, greenwashing, ESG strategies, sustainable business, eco-labels, trust system, international standards, technological progress, social responsibility, sustainable development, adaptation, human rights protection, integration, energy saving.

С учётом глобальных экологических проблем, зелёный маркетинг становится важным инструментом для компаний, стремящихся к устойчивому развитию. Современные потребители всё чаще ориентируются на бренды, которые демонстрируют экологическую и социальную ответственность. Однако развитие зелёного маркетинга сталкивается с рядом проблем. Особенно решение данной проблемы. В последние годы Узбекистан активно развивает законодательную базу в области экологической ответственности и устойчивого развития, что напрямую влияет на практики зелёного маркетинга и продвижение экологичных товаров и услуг. Одним из ключевых документов является Указ Президента Республики Узбекистан О стратегии «Узбекистан–2030». В рамках этой концепции особое внимание уделяется внедрению экологически безопасных технологий, развитию зелёной экономики и поддержке предприятий, реализующих экологичные инициативы.

Кроме того, Указ Президента Республики Узбекистан № УП-6210 от 15 июля 2021 года «О мерах по реализации государственной политики в области охраны окружающей среды» предусматривает комплекс мер по снижению негативного воздействия на окружающую среду, развитию экологической маркировки и стимулированию предприятий к переходу на устойчивое производство. Этот указ также поддерживает создание системы добровольной и обязательной экологической сертификации продукции.

В области маркетинга и потребительской информации значимым является Закон Республики Узбекистан «О защите прав потребителей», который включает положения о недопустимости введения в заблуждение потребителей, в том числе через ложные экологические заявления и «зелёный» маркетинг без подтверждающей документации. Это законодательство направлено на борьбу с гринвошингом и защиту прав потребителей на достоверную информацию о товарах и услугах.

Для обеспечения прозрачности и повышения доверия на рынке развивается система экологической маркировки и сертификации, которая со временем будет становиться более унифицированной и отвечающей международным стандартам. Государственные органы совместно с бизнес-сообществом работают над разработкой и внедрением критериев, которые позволят объективно оценивать экологическую устойчивость продукции.

Вместе с тем, новые технологии, рост интереса к ESG-стратегиям и переход к экономике замкнутого цикла открывают новые возможности для более эффективного и прозрачного зелёного маркетинга. В будущем успех брендов

будет определяться не только финансовыми показателями, но и их вкладом в экологическую и социальную устойчивость.

В данном исследовании нами были использованы следующие методы исследования, такие как контент-анализ и документальное исследование, количественные методы и статистический анализ, экспериментальные методы и поведенческая экономика, моделирование и сценарное планирование, использование технологий анализа данных (Big Data).

Современный мир сталкивается с нарастающим экологическим кризисом, который требует переосмысления не только производственных, но и маркетинговых стратегий. В этом контексте зелёный маркетинг становится важным инструментом формирования устойчивого потребления и ответственного бизнеса. Однако, несмотря на растущую популярность экологичных подходов, развитие зелёного маркетинга сопровождается рядом серьёзных вызовов.

Одной из наиболее острых проблем остаётся гринвошинг — практика, при которой компании создают иллюзию экологической ответственности без реального изменения своих процессов. Такие случаи, как использование несертифицированных «эко»-лейблов или преувеличенные заявления об устойчивости, подрывают доверие потребителей. Примером может служить ситуация с брендом H&M, подвергшимся критике за продвижение «зелёных» коллекций, не подкреплённых реальными экологическими улучшениями.

Дополнительные сложности вызывает отсутствие единых международных стандартов экологической маркировки. Из-за этого потребителям трудно определить, какие товары действительно являются устойчивыми, а какие — просто используют «зелёную» эстетику в рекламе. Эта непрозрачность мешает развитию полноценной системы доверия между брендами и покупателями.

Немаловажным фактором является и высокая стоимость перехода к устойчивым решениям. Производство с использованием перерабатываемых материалов, внедрение энергосберегающих технологий, пересмотр логистических цепочек — всё это требует серьёзных инвестиций. Особенно тяжело адаптироваться к этим требованиям малому и среднему бизнесу, для которого повышение себестоимости может стать критичным.

Тем не менее, несмотря на эти вызовы, зелёный маркетинг открывает новые горизонты, формируя стратегическое преимущество для тех компаний, которые готовы адаптироваться. Появление нового поколения потребителей меняет ландшафт рынка: по данным ZipDo, 66 % потребителей готовы платить больше за устойчивые бренды, а 84 % считают устойчивость важным или очень важным фактором при покупке. Согласно исследованию PwC за 2024 год, даже при росте цен и инфляции потребители в среднем готовы переплачивать ≈ 9,7 % за товары, произведённые с учётом устойчивых или экологичных стандартов.

На этом фоне усиливается интерес бизнеса к ESG-подходу — интеграции экологических, социальных и управленческих принципов в корпоративную стратегию. Так, по прогнозам PwC, объём активов под управлением,

ориентированных на ESG, вырастет с 18,4 триллионов долларов в 2021 году до 33,9 триллионов долларов к 2026-му, что составит около 21,5 % от всех активов, управляемых финансовыми институтами.

В условиях ускоряющегося климатического кризиса, обострения социальных проблем и растущего запроса на корпоративную этику ESG-подход становится ключевым ориентиром для бизнеса, инвесторов и регуляторов по всему миру. ESG (Environmental, Social, Governance) объединяет три направления: экологическую ответственность, социальную этичность и надёжное корпоративное управление. Этот подход позволяет оценивать компанию не только по финансовым результатам, но и по тому, насколько устойчиво и ответственно она ведёт деятельность в долгосрочной перспективе.

Популярность ESG объясняется тем, что компании, реализующие устойчивые практики, чаще оказываются более стабильными и менее подверженными экологическим, социальным и регуляторным рискам. Например, фирмы, заранее адаптировавшиеся к требованиям по снижению выбросов или социальной отчётности, оказываются в выигрышной позиции, когда вступают в силу новые законодательные нормы.

Однако активное внедрение ESG-практик сопряжено с рядом вызовов. Одним из них остаётся отсутствие единых международных стандартов оценки и отчётности. Разные системы, методологии и критерии затрудняют объективную оценку ESG-показателей и делают рынок уязвимым к гринвошингу — практике, при которой компании создают ложное впечатление устойчивости. Высокие издержки на внедрение устойчивых решений также сдерживают распространение ESG, особенно среди малого и среднего бизнеса. Кроме того, ESG всё чаще становится предметом политических и идеологических споров: в одних странах подход активно поддерживается, в других — подвергается критике как навязанный извне.

Тем не менее, перспективы ESG остаются чрезвычайно позитивными. Во-первых, усиливается регуляторное давление: в ЕС уже действуют обязательные стандарты ESG-отчётности (SFDR, CSRD), которые требуют от компаний прозрачности и подотчётности. Во-вторых, ESG активно интегрируется в корпоративную стратегию: всё больше компаний создают ESG-отделы, вводят KPI по устойчивости и включают ESG-факторы в системы мотивации топ-менеджеров. В-третьих, технологический прогресс — в частности, развитие искусственного интеллекта, блокчейна и автоматизированной аналитики — позволяет точнее собирать и проверять ESG-данные, что делает отчётность более объективной и проверяемой.

Будущее ESG также связано с расширением фокуса: если раньше акцент делался в основном на экологических аспектах (E), то теперь всё больше внимания уделяется социальной ответственности (S) и вопросам корпоративного управления (G). Это включает защиту прав человека в цепочках поставок, борьбу с дискриминацией, прозрачность принятия решений, соблюдение этики и борьбу

с коррупцией. Такой комплексный подход становится особенно важным на фоне глобальных кризисов — как климатических, так и гуманитарных.

Таким образом, ESG-подход уже сейчас становится основой для устойчивого бизнеса будущего. Он не только помогает компаниям адаптироваться к изменяющимся условиям, но и формирует новую культуру ведения дел — этичную, экологичную и ориентированную на общественное благо. Компании, способные интегрировать ESG в стратегию и доказать свою приверженность реальными действиями, будут получать доступ к инвестициям, доверию потребителей и поддержке государства — а значит, окажутся в числе лидеров завтрашней экономики.

Будущее зелёного маркетинга неразрывно связано с интеграцией ESG-подхода, который формирует комплексное видение устойчивого развития бизнеса через призму экологии, социальной ответственности и прозрачного управления. Несмотря на серьёзные глобальные вызовы — такие как гринвошинг, высокие издержки на внедрение устойчивых практик и отсутствие единых стандартов — зелёный маркетинг продолжает развиваться, открывая новые горизонты для компаний, готовых адаптироваться к изменяющимся ожиданиям потребителей и требований регуляторов. Рост популярности ESG-инвестиций и усиление нормативного контроля создают условия, при которых устойчивость перестаёт быть лишь трендом и становится необходимым конкурентным преимуществом. В итоге, успешная интеграция зелёного маркетинга и ESG-стратегий позволит бизнесу не только минимизировать экологические и социальные риски, но и укрепить доверие, повысить лояльность клиентов и обеспечить долгосрочный рост в быстро меняющемся мире.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Указ Президента Республики Узбекистан О стратегии «Узбекистан–2030», от 11.09.2023г. № УП-158
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по реализации государственной политики в области охраны окружающей среды» от 15 июля 2021 года № УП-6210
3. Закон Республики Узбекистан «О защите прав потребителей» от 26.04.1996 г. № 221-I
4. Жаклин Оттман «Новые правила зелёного маркетинга»: 2011г
5. Джон Грант «Манифест инноваций бренда»: 2004г
6. zipdo.co

ЦИФРОВОЙ МАРКЕТИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОДВИЖЕНИЯ УСТОЙЧИВЫХ ТОВАРОВ НА МАРКЕТПЛЕЙСАХ

Мираметова Азиза Бахытбай кызы
магистрант ТГЭУ

Аннотация

В статье рассматриваются инструменты цифрового маркетинга для продвижения товаров с устойчивыми характеристиками в условиях бурного роста рынка электронной коммерции в Узбекистане. На примере ведущего маркетплейса Uzum Market анализируется эволюция маркетинговых подходов от унифицированных стандартов к кастомизированному контенту с использованием инфографики. Эффективность инструментов обосновывается через призму модели вероятности тщательной обработки информации (Elaboration Likelihood Model), объясняющей воздействие на потребителя через центральный и периферический каналы убеждения. В работе делается вывод о том, что наибольшую эффективность демонстрирует синергия контент-маркетинга и управления репутацией. Представлены практические рекомендации для продавцов, стремящихся выстраивать долгосрочные отношения с аудиторией через трансляцию экологических ценностей.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, маркетплейс, зеленый маркетинг, устойчивое развитие, поведение потребителей, электронная коммерция, контент-маркетинг.

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda elektron tijorat bozorining jadal o‘sishi sharoitida barqaror xususiyatlarga ega mahsulotlarni ilgari surish uchun raqamli marketing vositalari ko‘rib chiqiladi. Uzum Market yetakchi marketpleysi misolida marketing yondashuvlarining standartlashtirilgan usullardan infografika yordamida moslashtirilgan kontentga o‘tishi tahlil qilinadi. Ushbu vositalarning samaradorligi iste’molchiga ta’sir ko‘rsatishning markaziy va periferik kanallari orqali tushuntirib beruvchi ma’lumotni puxta qayta ishlash ehtimolligi modeli (Elaboration Likelihood Model) asosida asoslanadi. Maqolada kontent-marketing va reputatsiyani boshqarish sinergiyasi eng yuqori samaradorlikni namoyon etishi haqida xulosa chiqariladi. Auditoriya bilan uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatishni istagan sotuvchilar uchun ekologik qadriyatlarni yetkazish orqali amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: raqamli marketing, marketpleys, yashil marketing, barqaror rivojlanish, iste’molchilar xatti-harakati, elektron tijorat, kontent-marketing.

Abstract

The article explores digital marketing tools for promoting products with sustainable characteristics amid the rapid growth of the e-commerce market in Uzbekistan. Using the example of the leading marketplace Uzum Market, the evolution of marketing approaches is analyzed — from standardized methods to customized content using infographics. The effectiveness of these tools is justified through the lens of the Elaboration Likelihood Model, which explains consumer influence through central and peripheral routes of persuasion. The study concludes that the synergy

between content marketing and reputation management demonstrates the highest efficiency. Practical recommendations are provided for sellers aiming to build long-term relationships with their audience by conveying ecological values.

Keywords: digital marketing, marketplace, green marketing, sustainable development, consumer behavior, e-commerce, content marketing.

Активное развитие цифровой экономики в Узбекистане и быстрый рост сегмента e-commerce кардинально меняют модели поведения потребителей. За последние годы этот процесс ознаменовался появлением и активной конкуренцией множества онлайн-площадок, таких как Zoodmall, Sello, Yandex Market, а также выходом на рынок международных игроков, включая Ozon и Wildberries. Несмотря на это, лидирующие позиции сумел занять локальный маркетплейс Uzum Market, ставший для большинства покупателей ключевым каналом онлайн-торговли. В условиях такой высокой конкуренции борьба за внимание потребителя заставляет продавцов использовать все более совершенные инструменты цифрового маркетинга. Одновременно с этим растет и глобальный интерес к устойчивому развитию, что формирует у потребителей запрос на экологически ответственные товары. В связи с этим данное исследование направлено на анализ и систематизацию инструментов цифрового маркетинга, которые могут быть эффективно применены для продвижения «зеленых» товаров в высококонкурентной среде маркетплейсов.

Таблица 1.

Инструменты цифрового маркетинга для продвижения устойчивых товаров[1]

Инструмент	Цель	Пример реализации на Uzum Market
SEO-оптимизация	Обеспечение видимости товара по целевым запросам	Использование в названии и описании ключевых слов: «эко-сумка», «биоразлагаемый», «натуральный состав».
Контент-маркетинг	Демонстрация экологической ценности и истории продукта	Добавление в карточку товара инфографики о перерабатываемой упаковке, видео с производства.
Визуальная маркировка	Быстрая идентификация «зеленого» товара в поиске	Размещение на главном фото значков «Eco-friendly», «Без парабенов», «100% хлопок».
SERM (Управление репутацией)	Формирование доверия через обратную связь	Публичные ответы на отзывы и вопросы покупателей, подчеркивающие экологичность продукта и ценности бренда.

Маркетплейс как цифровая экосистема предоставляет широкие возможности для реализации концепции социально-этичного маркетинга Ф. Котлера, которая предполагает баланс между целями компании, потребностями покупателей и интересами общества [1]. Однако высокая плотность предложений создает «информационный шум», в котором уникальные свойства

[1] Авторская разработка

устойчивого продукта могут затеряться. Продвижение таких товаров требует специальных маркетинговых подходов, нацеленных на преодоление этого барьера и построение доверия к бренду [3]. Для систематизации ключевых инструментов цифрового маркетинга в данном контексте представим их в виде таблицы (табл. 1).

Эффективность перечисленных инструментов можно объяснить через призму моделей потребительского поведения в цифровой среде. Согласно модели вероятности тщательной обработки информации (Elaboration Likelihood Model), убеждение потребителя может идти двумя путями: центральным и периферическим. Центральный путь активируется у высококовлеченного потребителя, который целенаправленно ищет информацию, анализирует состав, читает отзывы и изучает сертификаты. Для такого пользователя ключевую роль играет качественный контент-маркетинг: подробные описания, инфографика и видео. Периферический путь характерен для потребителя, принимающего решение быстро, на основе простых эвристических сигналов. Здесь решающее значение имеют визуальные триггеры (эко-маркировки на фото), высокий рейтинг товара и общее количество положительных отзывов. Таким образом, успешная стратегия продвижения устойчивых товаров на маркетплейсе должна комплексно воздействовать на оба канала восприятия, предоставляя как глубокую информацию для мотивированных покупателей, так и легко считываемые сигналы доверия для всех остальных.

Проявление и развитие этих инструментов можно наблюдать непосредственно на примере Uzum Market. На начальном этапе выхода на рынок платформа предъявляла ко всем продавцам строгие, унифицированные требования к контенту: основное фото товара должно было быть на исключительно белом фоне, без каких-либо надписей и инфографики. Однако со временем, в ответ на рост конкуренции и развитие рынка, платформа позволила продавцам использовать более сложные инструменты. Сегодня карточки товаров активно насыщаются инфографикой, которая визуально выделяет ключевые характеристики и преимущества продукта — от состава до экологических свойств. Этот переход от стандартизированного к кастомизированному представлению товара является ярким примером того, как цифровой маркетинг адаптируется и становится ключевым фактором конкурентной борьбы непосредственно внутри экосистемы маркетплейса.

Основной проблемой «зеленого» маркетинга остается «гринвошинг» – попытка создать ложное впечатление об экологичности, что подрывает доверие ко всей товарной категории [4]. Цифровая среда маркетплейса обладает механизмами противодействия этому явлению. Система пользовательских отзывов выступает в роли социального доказательства и децентрализованной верификации. Возможность прикреплять к карточке товара цифровые копии сертификатов повышает доверие к заявлениям производителя [2]. Процесс формирования доверия у потребителя можно представить в виде схемы (рис. 1).



Рис. 1. Модель формирования доверия к устойчивым товарам на маркетплейсе[1]

Как видно из схемы, путь потребителя к покупке и лояльности лежит через последовательное получение сигналов доверия на каждом этапе взаимодействия с карточкой товара. Внедрение платформой Uzum Market собственной системы верификации и маркировки «зеленых» товаров могло бы стать мощным конкурентным преимуществом и дополнительным фактором доверия для потребителей [5].

Таким образом, цифровой маркетинг на маркетплейсах является эффективным инструментом для продвижения идей устойчивого потребления. Он облегчает доступ «зеленых» брендов к широкой аудитории и предоставляет потребителям инструменты для совершения осознанного выбора. Наибольшую эффективность показывает синергия контент-маркетинга и управления репутацией. Основной рекомендацией для бизнеса является переход от простой продажи товара к построению долгосрочных доверительных отношений с потребителем через трансляцию экологических ценностей всеми доступными цифровыми средствами.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Котлер Ф., Келлер К.Л. Маркетинг менеджмент. 15-е изд. – СПб.: Питер, 2018. – 848 с.

2. Петров А.В. Влияние цифровых сигналов доверия на потребительский выбор в электронной коммерции // Вестник экономики и инновационных технологий. – 2022. – №4. – С. 67-78.

3. Голубкова Е.Н. Маркетинговые коммуникации: Учебник и практикум для вузов. – М.: Юрайт, 2020. – 375 с.

4. Грант, Дж. Манифест зеленого маркетинга. – М.: Эксмо, 2013. – 320 с.

5. Халилов Д.А. Маркетинг в социальных сетях. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2018. – 240 с.

[1] Авторская разработка

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

Samadov Asqarjon Nishonovich,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti “Marketing”
kafedrasi professori

Annotatsiya

Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish yetarli darajada emasligi sezilmoqda. Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari yoritilgan. Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirish va yuqori foyda olishini ta’minlashda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanishning ahamiyati ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, kichik biznes, raqobat, raqobatbardoshlik, strategiya, marketing, innovatsion marketing, strategik marketing, operatsion marketing.

Аннотация

Проявляется низкая уровень использования инновационным маркетингом в обеспечении конкурентоспособности субъектов малого бизнеса в условиях зелёной экономики. В данной статье теоретически изложено использование инновационным маркетингом и ее влияние на деятельность субъектов малого бизнеса в условиях зелёной экономики. .Научно доказано, что инновационный маркетинг обеспечивает получения высокой прибыли в отношении конкурентов предприятия малого бизнеса в условиях зелёной экономки.

Ключевые слова: инновация, малый бизнес, конкуренция, конкуренто-способность, стратегия, маркетинг, инновационный маркетинг, стратеги-ческий маркетинг, операционный маркетинг.

Abstract

The use of innovation marketing to provide enterprise competitiveness is still low. The impact of the use of innovation marketing to the enterprise performance is theoretically studied. The contribution of innovation marketing to boost company profit is scientifically proved.

Keywords: innovation, competition, competitiveness, strategy, marketing, innovative marketing, strategic marketing, operational marketing.

Yashil iqtisodiyot sharoitda biznes modellari va texnologiyalarning yuqori sur’atda o‘zgarishi, mahsulotlarning hayotiylik davrining tezlashishi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini innovatsiyalardan foydalanmay turib amalga oshirishning imkoni mavjud emasligini ko‘rsatmoqda. Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligi uning ma’lum bir sohada boshqa raqib korxonalardan ustunligini anglatadi. M.Porterning fikricha, raqobatbardoshlik o‘z navbatida resurslardan

samarali foydalanishni aks ettiradi [1]. Kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshirishning asosiy yo‘llaridan biri innovatsion marketingdan foydalanish hisoblanadi. *Innovatsion marketing* - bu bozordagi yangiliklarni va yangi texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash, mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan marketing usullari va strategiyalaridir. Innovatsion marketingning maqsadi — mahsulot yoki xizmatlarning bozordagi talablarga moslashishini, shuningdek, kompaniyaning brendi va mavqeyini mustahkamlashga yordam berishdir.

Innovatsion marketingning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Yangi mahsulot va xizmatlarni yaratish: innovatsion marketingda mahsulotlar yoki xizmatlar muammolarni hal qilish yoki yangi ehtiyojlarni qondirish uchun yangicha yo‘llar bilan ishlab chiqiladi. Buning uchun yangi texnologiyalar va trendlardan foydalaniladi.

2. Texnologik yangiliklar: internet, mobil ilovalar, jasoratli ishlab chiqarish usullari va avtomatizatsiya innovatsion marketingning ajralmas qismidir. Yangi texnologiyalar raqobat ustunligini yaratishga yordam beradi.

3. Ma’lumotlarni tahlil qilish: bozor tahlillari va mijozlar bilan o‘zaro aloqa orqali yangi trendlarni aniqlash. Mijozlarning ehtiyojlari va bajarilgan amallarni tahlil qilish marketing strategiyalarini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

4. Raqobatbardosh strategiyalar: innovatsion marketing strategiyasi raqobatda ustunlikka erishishga yo‘naltiriladi. Bu o‘zgarishlar va yangi g‘oyalarni qo‘llash orqali bozorni hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

5. Raqamli marketing: internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali marketingni amalga oshirish, yangi mahsulotlarni tizimli tarzda ommalashtirish, elektron pochta, SEO (izlash tizimini optimallashtirish), reklama va video vositalaridan foydalanish.

6. Kliyentlarga xos va shaxsiy marketing: mijozlarning ehtiyojlariga yangicha yondashish, ularning qiziqishlariga qarab shaxsiylashtirilgan mahsulotlar va xizmatlarni taklif qilish.

7. Yangiliklarga tizimli yondashish: innovatsion marketingda har doim yangi imkoniyatlar va tahdidlarga e’tibor berilishi kerak. Yangi mahsulot yoki xizmatlarni bozorga chiqarishda eng avvalo, u qanday yangi ehtiyojlarga javob bera olishini va yangi imkoniyatlar yaratishini aniqlash lozim.

Bozorga yangi mahsulotlar chiqarishda innovatsion marketing strategiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion marketing strategiyasi - bu bozorda raqobatdoshlikni oshirish, yangicha va samarali biznes modellarini yaratish, shuningdek, iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun yangi usullar, texnologiya-lar va ijodiy yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan strategik harakatlar to‘plamidir.

Innovatsion marketing strategiyasini shakllantirishda quyidagi elementlar va tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

1. Texnologik yangilanishlardan foydalanish: yangi texnologiyalarni qo‘llash: internet narxlari, mobil ilovalar, sun’iy intellekt, blokcheyn va boshqa zamonaviy texnologik yangiliklardan foydalanish; raqamli transformatsiya: kompaniyaning

raqamli ekosistemasini yaratish yoki yaxshilash orqali iste’molchilarga xizmat ko‘rsatish.

2. Iste’molchi ehtiyojlarini tushunish: mijozning o‘ziga xos talablari va istaklarini tahlil qilish; buning uchun sotsiologik tadqiqotlar, fokus-gruppalar, mijoz fikrlarini yig‘ish kabi usullardan foydalanish; iste’molchilarning mentaliteti, urf-odatlari va modaga bog‘liq yangiliklarni hisobga olish.

3. Yangi mahsulot va xizmatlar yaratish: innovatsion mahsulotlar yaratish, bozordagi bo‘shliqlar va talabga asoslanib, yangi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqish, mahsulotga qo‘shimcha funksiyalar yoki xizmatlar qo‘shish, ya’ni mahsulotni qo‘llaniladigan jarayonga integratsiya qilish.

4. Marketing kanallarini modernizatsiya qilish: ijtimoiy media, onlayn marketing, kontent marketing, inflyuyenser marketing va elektron tijorat kabi yangi marketing kanallaridan foydalanish, mobil marketing va geomarketing strategiyalari orqali iste’molchilarga yaqinlashish.

5. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish: mahsulot va xizmatlarni onlayn sotish va reklama qilishning samaradorligini oshirish, mijozlarning xatti-harakatiga qarab avtomatik marketing tizimlarini ishlab chiqish (email marketing, chat-botlar va boshqalar).

6. Ishtirokchi foydalanuvchilar va jamoatchilik bilan aloqa: brend-ning o‘zining autentichligini va empatiyasini ko‘rsatish orqali iste’molchilar bilan yaxshiroq aloqa o‘rnatish, jamoatchilik fikrlarini va xulosalarini hamda ijtimoiy mas’uliyatni hisobga olish.

7. Raqobatni tahlil qilish va strategik harakatlar: raqobatchi-larning yangi marketing tendensiyalarini, mahsulotlarini va xizmatlarini o‘rganish, bozordagi o‘zgarishlar va trendlarni kuzatish orqali strategik jarayonlarni qayta shakllantirish.

8. Innovativ marketing harakatlarini birlashtirish: yangilanish va tasdiqlangan natijalarga erishish uchun marketing jarayonlarini to‘liq integratsiya qilish, ishtirokchi foydalanuvchilarning va qo‘shilgan qadriyatlarning hisobini olish, kompaniyaning marketing strategiyasini har yili qayta ko‘rib chiqish, yangi jadvallarni va usullarni yaratish, mijozlarga yangi va aniq qimmat tuyg‘ularini berish.

Innovatsion marketing strategiyasi bozorda muhim o‘rinni egallashga, kompaniyaning raqobatdoshligini oshirishga va uzoq muddatli rivojlanishga yordam beradi. Bu usul orqali kompaniya biznesining samaradorligi oshishi, mijozlar bilan mustahkam aloqa o‘rnatilishi va yangi bozorlarda o‘z o‘rnini topishi mumkin.

Innovatsion marketingning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Texnologiya va raqamlashtirish. Zamonaviy innovatsion marketingda raqamli texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. Onlayn reklama, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahlilining foydalanilishi biznesga mijozlar bilan aniq va tezkor aloqa o‘rnatishga yordam beradi. Mazkur innovatsiyalar marketologlarga bozorni chuqurroq o‘rganish va mijozlarga xos ishlanmalarni taqdim etish imkonini beradi.

2. Mijozga yo‘naltirilganlik. Innovatsion marketingning yana bir muhim xususiyati - mijozning ehtiyojlari va intilishlariga javob berishdir. Yangiliklar, tovarlar

va xizmatlar mijozlarning aniq talablariga muvofiq shakllantiriladi. Mijozlar uchun yangiliklar va xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish marketing strategiyalarini samarali qiladi.

3. Qat’iy raqobat muhiti. Innovatsiyalarni joriy qilish raqobat muhitini yaxshilashga yordam beradi. Yangi texnologiyalar va strategik yondashuvlar raqobatchilardan farqlanishga va bozorda muvaffaqiyatga erishishga imkon beradi. Raqobatda ustunlikka erishish uchun doimiy ravishda yangiliklarni olib kirish va innovatsion jarayonlarni amalga oshirish muhim.

Bozor sharoitlarining doimiy o‘zgarishi kompaniyalar faoliyatida innovatsion marketingni qo‘llash zaruratini ko‘rsatmoqda. Bozor munosabat-lari sharoitida iste’molchilar ehtiyojiga tayangan holda innovatsion mahsulot ishlab chiqarish, korxonani bozorda raqobatbardoshligini oshiradi va o‘z faoliyatini samarali amalga oshirish imkoniyatlarini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologik innovatsiyalar uchun moliyaviy resurslar bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelganda, innovatsion marketing kichik biznes subyektlarining raqobat kurashida asosiy dastak bo‘lib xizmat qiladi. Kichik biznes subyektlarining bozor muhitidagi faoliyati ularning mijozlari tomonidan belgilanadi. Agar, mijozlar korxona mahsuloti va xizmatlarini ularni yaratish uchun ketgan xarajatlarga nisbatan ko‘proq baholasa, biznes rivojlanadi, aks holda ularga tashqi yordam zarur bo‘ladi yoki bunday korxonalar inqirozga yuz tutadi. Bu borada P. Druker quyidagi fikrni bildirgan: “biznesning asosiy maqsadi mijozlarni jalb qilish bo‘lganligi sababli, korxonaning ikkita va faqat ikkita asosiy funksiyasi mavjud: bular marketing va innovatsiya” [2].

Tadqiqotlarga ko‘ra, innovatsion marketing yangi mahsulotlar, uskunalar, xizmatlar va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishi hamda ularni bozorda realizatsiya qilishi uchun yangi marketing usullaridan foydalanishi zarur. Kichik biznes subyektlari faoliyatining tahliliga asosan, innovatsion marketingdan foydalanish, iste’molchilar talabini to‘liq qondirish hamda yangi bozorlarni egallash imkoniyatini beradi.

Ilmiy izlanishlar natijasida shu narsa ma’lum bo‘ldiki, innovatsiya o‘z ahamiyatiga ko‘ra quyidagi ikki guruhga ajratiladi [3]:

1. Shakliga ko‘ra innovatsiya: mahsulot innovatsiyasi (innovatsion faoliyatning moddiy natijasi), innovatsion xizmatlar (nomoddiy natija), jarayon va texnologik innovatsiya (texnologiyaning o‘zgarishi), kadrlar innovatsiyasi hamda yangi yoki takomillashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari.

2. Yangilik darajasiga ko‘ra innovatsiya: inkremetal (quyi, o‘suvchi), modulli, arxitekturali va radikal (yuqori) innovatsiya.

Binobarin, innovatsiyalar yangilikni tavsiflovchi hamda samara keltiruvchi mahsulotlarda, xizmatlarda va jarayonlarda turli darajadagi o‘zgarishlarni nazarda tutadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologiyaning rivojlanishi innovatsion boshqaruv hamda innovatsion marketing bilan birgalikda borishi lozim. Ularga quyidagilarni keltirish mumkin [3]:

1. Texnologik innovatsiyalarni yuritish shakllari va yangi bozorlarni egallash;

2. Iste’molchilar faolligini rag‘batlantirishning yangi usullarini ishlab chiqish;

3. Kombinatsiyalashgan innovatsion marketing.

Makroiqtisodiy nuqtai nazardan o‘rganilganda, bir qator muammolarni innovatsiyalar yordamida yechish mumkin. Yaqin yillargacha kichik biznes subyektlari o‘z daromadlarini ekstensiv rivojlanish, sodda qilib aytganda, ishlab chiqarilayotgan tovarlar sonini ko‘paytirish hisobiga oshirib kelgan. Rivojlangan mamlakatlarda aholi sonining o‘sishdagi to‘xtashi mazkur mamlakatlar iqtisodiyotida innovatsiyalardan keng va samarali foydalanishni taqozo etgan bo‘lsa, yana bir omil sifatida ishlab chiqarish xomashyosi baholarining o‘sishi, innovatsion jarayonlarni tezlashtirishda muhim turtki bo‘lganligini kuzatish mumkin.

Innovatsiyalar o‘z navbatida, bir necha turga bo‘linadi va ularning tizimli klassifikatsiyalanishi T. Robertsonning fikriga ko‘ra, quyidagi turlarga ajratiladi [4]:

1. Uzluksiz innovatsiyalar;

2. Uzluksiz dinamik innovatsiyalar;

3. Uzlukli innovatsiyalar.

Uzluksiz innovatsiyalar – mavjud mahsulotlar variatsiyasini o‘zida aks ettiradi. Ushbu innovatsiyalar iste’molchilarning mavjud shakllanib kelgan an’anaviy xatti-harakatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi.

Uzluksiz dinamik innovatsiyalar – yangi mahsulot yoki mavjud mahsulotlar modifikatsiyasi bo‘lib, ular iste’molchilar xatti-harakatini ifodalamaydi.

Uzlukli innovatsiyalar – iste’molchilar xatti-harakatini butunlay o‘zgartirib yuboruvchi yangi mahsulotlar bilan bog‘liq jarayondir [4].

Yangi axborot texnologiyalari uzluksiz innovatsiyalar hisoblanib, iste’molchilar xatti-harakatini tubdan o‘zgartiradi. Bunga misol sifatida turli xil tovar va xizmatlarni uydan chiqmasdan turib, internet orqali xarid qilishni keltirish mumkin. Uzluksiz innovatsiyalar yoki uzluksiz dinamik innovatsiyalar eng samarali innovatsiyalar hisoblanib, bunday mahsulotni joriy qilishda iste’molchilar uchun yangi tovar va xizmatning ahamiyati, zaruratini tushuntirish uchun qo‘shimcha xarajatlarni amalga oshirishni talab qilinmaydi.

Innovatsion mahsulot, o‘z navbatida, jismoniy hamda axborot omillari bilan tavsiflanadi. Zamonaviy iste’molchilari tomonidan ma’lum bir jismoniy xususiyatlari yig‘indisi sifatida qaraladigan innovatsion tovar iste’molchilar uchun jozibali emas, shu sababli, ularga bo‘lgan talab ham yuqori emas. Iste’molchi, birinchi navbatda, mahsulotning jismoniy, axborot, yetkazib berish shartlari kabi bir qator xususiyatlari bo‘yicha istagini ifodalovchi mahsulotning umumiy konsepsiyasini qabul qilishi lozim. Iste’molchi umidining ustunligini yengish uchun qo‘shimcha foydani keltiradigan kengaytirilgan yangi mahsulot konsepsiyasi ishlab chiqiladi.

Yangi mahsulot muvaffaqiyati, E.Rodjersning fikricha, quyidagi ko‘rsatkichlarga bog‘liq [5]: nisbiy ustunlik, moslilik, murakkablik, mahsulotni tajriba qilib ko‘rish imkoniyati va ommaboplilik.

Nisbiy ustunlik ko‘rsatkichida asosiy e’tiborni mahsulotning obyektiv xususiyatiga emas, balki iste’molchining muhim ehtiyojlariga qaratiladi.

Moslilik iste'molchi tomonidan innovatsiyalarni qabul qilishdagi eng muhim va muammoli omil hisoblanadi. Shuningdek, moslilik mahsulotning iste'mol xususiyatlari iste'molchining hayot tarzi, etnik me'yorlari va hayotiy qoidalariga mos kelishi hamdir.

Mahsulotning murakkabligi mahsulotning iste'mol xususiyatlari, hamda uni iste'molchi tomonidan qo'llashning murakkabligini tez va oson anglash darajasidir.

Odatda, mahsulotning tatbiq etish qanchalik murakkab bo'lsa, uning iste'molchilar orasida tijorat muvaffaqiyatiga erishish ehtimolligi shunchalik past bo'ladi. Mahsulotni muvaffaqiyatga erishishidagi zaruriy shartlardan yana biri – bu, *uni sinovdan o'tkazishdir*. Buning uchun reklama namunalarini, kompyuter dasturlarining demo-versiyalarini tarqatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Va nihoyat, *ommaboplik* potensial iste'molchilar uchun yangiliklardan foydalanish natijalarining aniqligidir. Amalda, innovatsiyalarni reklama qilishda mashhur shaxslardan foydalanish orqali ommaboplikka erishish mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion marketing konsepsiyasi, bozorni tadqiq qilish asosi hamda korxona raqobatbardosh strategiyasini izlash hisoblanadi. Innovatsiyalarni boshqarishga marketing orqali yondashuv kompleks qaraladi va u asosan, ishlab chiqaruvchi hamda iste'molchi nuqtai nazaridan o'rganiladi [6].

Innovatsion marketing o'z navbatida innovatsion strategiyani ishlab chiqishni, bozorni tahlil qilish va operativ marketingni o'z ichiga oluvchi yettita asosiy bosqichdan iboratdir:

1. Ehtiyojlar tahlili va bozor segmentatsiyasi;
2. Jozibadorlik va xatar ehtimolligi;
3. Raqobatbardoshlikning kuchli va kuchsiz tomonlari;
4. Portfel tahlili;
5. Rivojlanish strategiyasini tanlash;
6. Marketingning tarkibiy qismi;
7. Byudjet marketing rejasi nazorati.

Innovatsion marketingning muhim shakllaridan biri — strategik hamda operativ innovatsion marketing hisoblanadi.

Strategik innovatsion marketingning asosiy yo'nalishlaridan biri bozorga yangiliklarni kiritish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- innovatsion marketing faoliyati dasturi va rejalarini ishlab chiqish;
- marketing innovatsiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llash jarayoni ustidan kuzatuvni amalga oshirish;
- mahsulotni ishlab chiqishdan iste'molchilarga xizmat ko'rsatishgacha yagona innovatsion siyosatni amalga oshirish;
- korxonaning ichida va tashqarisida innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish;
- malakali xodimlar yordamida marketing innovatsiyalarini ishlab chiqish amaliyotini muntazam takomillashtirishni ta'minlash.

Korxona innovatsion faoliyatining asosiy vazifalaridan biri – yuqori menejment bilan asosiy innovatsion marketing strategiyasini shakllantirish, uni bozor segmenti

bo‘yicha joylashish chegarasini aniqlash, amalga oshiruvchi ijrochilarni tayinlash, bozor munosabatlarining har bir ishtirokchisi uchun ma’lum amaliy direktivni amalga oshirish muddatini belgilashdan iborat. Shu sababli, strategik marketing tadqiqotlari tarkibiga korxona innovatsion siyosatining bo‘lagi bo‘lgan, innovatsion marketing jarayonlarining asosiy tizimli xususiyatlari kiradi (1-rasm).



Maqsadlilik	Innovatsion prognozlash	Marketing	Iyerarxik
Tizimlilik	Innovatsiyalar uchun shart-sharoitlar	Texnologik	Bosqichli
Komplekslilik	Innovatsiyalarni rejalashtirish	Iqtisodiy tashkiliy	Dinamik
Moslashuvchanlik	Riskni minimallashtirish	Ijtimoiy	Ilmiy, murakkab

1-rasm. Innovatsion marketing jarayonining tizimli xususiyatlari [8].

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bozorga yangilikni kiritish strategiyasi va taktikasi marketing tadbirlarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. U o‘zida yangi mahsulotlarni bozorlarda joylashtirish va sotish yo‘llarini shakllantirishga asoslangan yangilikning raqobatbardosh strategiyasini o‘z ichiga oladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, innovatsion marketing – kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarishini takomillashtirish va bozor sharoitiga ta’sir ko‘rsatishga asoslangan faoliyatdir. Izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, innovatsiya hayotiy davrining har bir bosqichida turli marketing usullarini va yondashuvlarini, turli strategiya va taktikalarni talab qiladi. Innovatsion marketing tadbirlari tizimi faqatgina ishlab chiqarishni yangilash bilan emas, balki kapitalni jamlanishi va oqimi dinamikasi bilan uzviy bog‘langan. Innovatsion marketing raqobatchilariga nisbatan ko‘proq foyda olishni istagan kichik biznes subyektlari uchun muhim bo‘lib, innovatsiyalarga va yangiliklarga asoslangan ustun raqobat strategiyasini shakllantiradi. Shuningdek, innovatsion marketing faqatgina bozordagi yangi mahsulotni yoki mavjud mahsulotni realizatsiya qilish bilangina emas, balki yangi texnologiyalardan: yangi mahsulot yoki texnologik jarayon bo‘yicha ixtiro va nou-xaular uchun litsenziyalarni sotish hamda uni tayyorlash uchun uskunalarni takomillashtirishni ham nazarda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Портер М.Э. Конкуренция. Пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. – 608 с.

2. Drucker P.F. Management: tasks, responsibilities, practices, Transaction Publishers, New Brunswick, N.J.; London, 2007.

3. Антипов А.Ю. Инновационная деятельность как фактор конкурентоспособности фирмы // Маркетинг и маркетинговые исследования. — 2009. — №3 — С. 212 — 221.

4. Robertson T. “The process of innovation” Journal of Marketing” (Jan. 1967), 14 – 19 p.

5. E. Rogers E. Diffusion of innovations, 3rd ed. New York: Free Press, 1983.

6. Демченко А. Маркетинговые инновации в условиях кризиса. // Маркетинг. — 2009. — №1 - С. 44 — 50.

7. Казанцев А. К. Основы инновационного маркетинга. Теория и практика. Учебник для вузов. – М.: Экономика, 2008.

8. Пермичев Н.Ф., Палеева О.А. Маркетинг инноваций: Учебное пособие. – Н. Новгород: НГАСУ, 2007.

TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH BO‘YICHA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
TMC instituti 1-Prorektori

Annotatsiya

Mazkur tezisda to‘qimachilik korxonalarida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda yashil marketing strategiyalarining o‘rni tahlil qilingan. Yashil marketing konsepsiyasining mohiyati, uning iste’molchi xatti-harakatlari va raqobatbardoshlikka ta’siri, ekologik mahsulot dizayni, yashil narxlash, tarqatish va kommunikatsiya siyosati bilan uyg‘unligi yoritilgan. O‘zbekiston sharoitida an’anaviy marketingdan ekologik yondashuvga o‘tish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yashil marketing, barqaror rivojlanish, to‘qimachilik sohasi, ekologik mahsulot, marketing strategiyasi, iste’molchi xatti-harakati.

Аннотация

В тезисе проанализирована роль стратегий зелёного маркетинга в достижении целей устойчивого развития на текстильных предприятиях. Раскрыта суть концепции зелёного маркетинга, её влияние на поведение потребителей и конкурентоспособность, а также интеграция с экологическим дизайном, ценовой, дистрибутивной и коммуникационной политикой. Обоснована необходимость перехода от традиционного маркетинга к экологически ориентированным подходам в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: зелёный маркетинг, устойчивое развитие, текстильная отрасль, экологический продукт, маркетинговая стратегия, поведение потребителей.

Abstract

This thesis explores the role of green marketing strategies in achieving sustainable development goals in textile enterprises. It elaborates the core concepts of green marketing, its impact on consumer behavior and competitiveness, and its integration with eco-design, pricing, distribution, and communication strategies. The study justifies the shift from traditional marketing to environmentally oriented approaches in the context of Uzbekistan’s textile sector.

Keywords: green marketing, sustainable development, textile industry, eco-friendly product, marketing strategy, consumer behavior.

Mamlakatimizda to‘qimachilik korxonalarining marketing funksiyalarini marketing maqsadlariga yo‘naltirilganlik holati bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo‘lmoqdaki, bugungi kunda aksariyat korxonalar barqaror rivojlanish va yashil sertifikatlash va yashil marketing strategiyalaridan foydalanish yo‘llarini aniqlash bo‘yicha keng qamrovli marketing tadqiqotlarini olib bormoqdalar. Mazkur jihatlar esa to‘qimachilik korxonalarini barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha aniq

metodologik yondashuvlarni shakllantirish vazifasini qo‘ymoqda. To‘qimachilik sohasi iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va ifloslanish kabi uch karra sayyoraviy inqirozlarga qarshi kurashda markaziy o‘rin tutadi.

BMT Atrof-muhit dasturining Bryussel bo‘limi tadqiqotlariga ko‘ra har yili to‘qimachilik sektori tabiiy resurslar va energiyaning haddan tashqari iste’mol qilinishi tufayli global issiqxona gazlari emissiyasining 8 foizigacha javobgar bo‘ladi. Mazkur tarmoq tomonidan 86 million olimpiya suzish havzasi suvidan foydalaniladi. Dunyo bo‘ylab to‘qimachilik sanoati okeanlarga oqib tushadigan mikroplastmassa ifloslanishining 9%ni hosil qiladi, shu bilan birga uning ishchilarini ekspluatatsiya qilish ham global muammodir. Bozordagi to‘qimachilik mahsulotlarining deyarli 30 foizi hech qachon sotilmaydi. Agar biz uni ikkinchi qo‘l bozoriga qaytarish yo‘lini topa olsak yoki hatto bozorga chiqarilgan to‘qimachilik miqdorini kamaytirsak, bu ham asosiy resurslardan kamroq foydalanishga hissa qo‘shishi mumkin.[1]

Bugungi globallashuv tuzilmasi doirasida korxonalarning o‘z-o‘zini belgilashi va hatto ularning omon qolishi qiyinlashmoqda. Buning natijasida korxonalarning o‘rtacha ishlash davri tez sur’atlar bilan pasayib bormoqda. Ushbu yangi paradigma iste’molchilar va atrof-muhit bilan funksional munosabatlarni, raqiblar ichida farqlanishni va barcha korxona funksiyalarini yangilashni talab qiladi. Shu sababli, sanoatlashtirish bilan paydo bo‘lgan ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan strategiyalar tezda raqobat, iste’molchilarning xabardorligi, atrof-muhit masalalari va mas’uliyatlari tufayli marketing va bozorga yo‘naltirilgan strategiyalarga o‘rin beradi. Umuman olganda, an’anaviy marketing strategiyalari yigirma yil ichida ekologik toza yashil marketing strategiyalariga o‘rin bermoqda.

Yashil marketing konsepsiyasi 1960-yillarda muhokama qilinayotgan bo‘lsa-da, 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida konsepsiya rasmiylashtirila va umumlashtirila boshlandi. Yashil marketing atrof-muhitga eng kam ta’sir ko‘rsatadigan inson ehtiyojlari va istaklarini qondirish uchun almashinuvni yaratish va osonlashtirish bo‘yicha barcha rejalashtirilgan tadbirlardan iborat. Yashil marketing — bu mijozlar ehtiyojlarini va jamiyatni foydali va barqaror nuqtai nazardan aniqlash, oldindan bilish va qondirish uchun mas’ul bo‘lgan yaxlit boshqaruv jarayoni.

Yashil marketing — bu firma ichidagi marketing faoliyatining yaxlit jarayoni bo‘lib, mahsulot va xizmatlarning atrof-muhitga ta’sirini va ularning ishlab chiqarish jarayonlarini firma uchun foydali bo‘lgan tarzda kamaytirishga qaratilgan. Yashil marketing kirish (ta’minot manbalari, resurslarni iste’mol qilish va ishlab chiqarish jarayonlari), chiqishlar (tayyor mahsulotlar, mahsulotning muddati tugashi va chiqindilar) va iste’molchilar imtiyozlarining kombinatsiyasi tabiiy atrof-muhitga uzoq muddatli ta’sirni kamaytirish sifatida tavsiflanadi.[2]

Yashil marketing — bu iste’molchilarning ekologik munosabati va xatti-harakatlarini ta’sir etish va qo‘llab-quvvatlash uchun ishlab chiqilgan barcha marketing tadbirlarini o‘z ichiga olgan jarayon. Bundan tashqari, kompaniyalar mijozlarning ekologik ehtiyojlarini yoki istaklarini qondirish uchun yashil farqlash strategiyalarini amalga oshirish uchun yashil marketing konsepsiyasini qabul

Sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasida juda ko‘p bitimlar tuziladi va bu bitimlar juda yirik miqdorlarni tashkil qiladi. Buni misol bilan tushunish uchun, bitta xaridor kiyim sotib olishidan oldin, bir necha marta mato, sintetik materiallar va kiyim ishlab chiqarish uchun xom ashyo va boshqalarni sotilishi, qayta ishlanishi va yana sotilishini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, ushbu kiyimni ishlab chiqarish va tikish uchun uskunalar, asboblar, turli xil aylanma mablag‘lar va boshqalar sotib olish kerak[3].

Tikuv-trikotaj korxonalarida iste’molchilarni motivatsiyalash quyidagi mezonlarga ko‘ra ajratishimiz mumkin.

- Kiyim mahsulotlarni xarid qilish davomiyligiga ko‘ra
- Kiyim mahsulotlarni xarid qilish hajmiga ko‘ra
- Kiyim mahsulotlarni boshqalarga tavsiya berish bo‘yicha.

Ushbu mezonlarga ko‘ra iste’molchilarni motivatsiyalash tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Iste’molchilarni motivatsiyalashda motivatsiya usullardan samarali foydalanish tikuv-trikotaj korxonalari mahsulotlarini sotuv hajmini oshishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-5841063

2. G.M. Ostonaqulova. Iste’molchilar xulq — atvori. O‘quv qo‘llanma. -T.: TDIU, 2022 – 210 bet.

3. Jalilov, J. (2020). Маркетингда истеъмолчига йўналтирилган мотивация назариялари. *Архив научных исследований*, *33*(1).

4. Djasurovna, E. S., Ostonakulova, G. M., Samadov, A. N., Ganijonovich, J. J., & Tohirovich, M. B. (2021). Development of the Concept of Integrated Marketing Communications. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, *12*(8).

5. Jalilov, J. (2022). Analyzing the Influence of Motivation Methods Directed Salesperson Behavior on Food Products.

6. Гулсарахон Остонақулова, Жамшид Жалилов, & Бекзод Мухсинов (2021). Методы оценки эффективности маркетинговой деятельности предприятий. Общество и инновации, 2 (4/S), 740-745. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp740-745

KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI BILAN INTEGRATSIYALASHTIRISH

Ismailov Allayor Rashidovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Innovatsion menejment” kafedrasi PhD dotsent
ORCID: 0009-0000-6148-342X
E-mail: Ismailovallayor@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada korporativ boshqaruv tizimini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish hamda uni barqaror rivojlanish strategiyalari bilan integratsiya qilish masalalari ilmiy tahlil etilgan. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kompaniyalar raqobatbardoshligini ta’minlash, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va uzoq muddatli qiymat yaratishda innovatsion menejment usullaridan samarali foydalanish muhim omil sifatida qayd etilgan. Tadqiqot doirasida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari — strategik innovatsiyalar, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlovchi mexanizmlar, manfaatdor tomonlar bilan konstruktiv muloqot hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi faktorlar ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning korporativ madaniyatni shakllantirish va strategik qaror qabul qilish jarayonlariga ijobiy ta’siri ko‘rsatilib, ularning kompaniyalarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qilishi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, innovatsion usullar, barqaror rivojlanish, strategik boshqaruv, korporativ madaniyat, samaradorlik, aksiyadorlar manfaatlari, shaffoflik.

Аннотация

В статье научно проанализированы вопросы совершенствования системы корпоративного управления на основе инновационных подходов и её интеграции со стратегиями устойчивого развития. В современных экономических условиях эффективное использование методов инновационного менеджмента рассматривается как важный фактор обеспечения конкурентоспособности компаний, защиты интересов акционеров и создания долгосрочной стоимости. В рамках исследования раскрыты основные направления повышения эффективности корпоративного управления — стратегические инновации, механизмы обеспечения открытости и прозрачности, конструктивный диалог со стейкхолдерами, а также факторы, способствующие социально-экономической устойчивости. Кроме того, показано положительное влияние инновационных подходов на формирование корпоративной культуры и процесс стратегического принятия решений. Установлено, что их внедрение способствует долгосрочному устойчивому развитию компаний как с теоретической, так и с практической точки зрения.

Ключевые слова: корпоративное управление, инновационные методы, устойчивое развитие, стратегическое управление, корпоративная культура, эффективность, интересы акционеров, прозрачность.

Abstract

The article provides a scientific analysis of improving the corporate governance system based on innovative approaches and integrating it with sustainable development strategies. In modern economic conditions, the effective application of innovative management methods is identified as a key factor in ensuring company competitiveness, protecting shareholders' interests, and creating long-term value. The study highlights the main directions for enhancing corporate governance efficiency — strategic innovations, mechanisms ensuring openness and transparency, constructive dialogue with stakeholders, and factors promoting socio-economic stability. Furthermore, the research demonstrates the positive impact of innovative approaches on the formation of corporate culture and strategic decision-making processes. It is concluded that such approaches contribute to the long-term sustainable development of companies from both theoretical and practical perspectives.

Keywords: corporate governance, innovative methods, sustainable development, strategic management, corporate culture, efficiency, shareholders' interests, transparency.

Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari, raqamli iqtisodiyotning shiddat bilan taraqqiy etishi va texnologik yangiliklarning jadal sur'atda joriy etilishi korporativ boshqaruv tizimlarini tubdan isloh qilish zaruratini kun tartibiga chiqarmoqda. Zamonaviy sharoitda kompaniyalar faqat qisqa muddatli moliyaviy natijalarga erishish bilan cheklanib qolmay, balki uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga ham yo'naltirilgan boshqaruv modellarini qo'llashlari talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, korporativ boshqaruv tizimi innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirilgan holda takomillashtirilishi, strategik maqsadlar bilan bog'langan va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillariga asoslangan bo'lishi zarur.

Innovatsion usullarni korporativ boshqaruv amaliyotiga joriy etish kompaniyalarga raqobatbardoshlik ustunligini mustahkamlash, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish va korporativ madaniyatni yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, strategik innovatsiyalarni tatbiq etish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy qilish, aksiyadorlar va investorlar bilan samarali muloqot o'rnatish korporativ tuzilmalarda shaffoflik, hisobdorlik va ishonch muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, innovatsion menejment vositalari korporativ boshqaruvni barqaror rivojlanish strategiyalari bilan chuqur integratsiyalash imkoniyatini yaratadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi iqtisodiy samaradorlik, ekologik mas'uliyat va ijtimoiy adolat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, uni korporativ boshqaruv tizimiga tatbiq etish kompaniyalarga nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ham ta'minlash imkonini beradi. Shu jihatdan, korporativ boshqaruv tizimini innovatsion usullar asosida takomillashtirish milliy

iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda jahon amaliyotida korporativ boshqaruv tizimlarini takomillashtirish yangi bosqichga ko‘tarildi. E’tibor, asosan, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, direktorlar kengashining mustaqilligini ta’minlash, ichki audit tizimini rivojlantirish va korporativ shaffoflikni kuchaytirishga qaratilmoqda. Shu bilan birga, innovatsion boshqaruv usullari korporativ faoliyat samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim strategik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Hozirgi global iqtisodiy muhitda korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligini ta’minlashda innovatsion yondashuvlar muhim strategik omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Agar an’anaviy korporativ boshqaruv modellari asosan moliyaviy ko‘rsatkichlar va qisqa muddatli natijalar bilan chegaralangan bo‘lsa, yangi avlod boshqaruv tizimlari kompaniya qiymatini innovatsiya, korporativ madaniyat va ESG (Environmental, Social, Governance) tamoyillariga asoslangan barqaror rivojlanish orqali yaratishga qaratilmoqda.

Innovatsion usullar korporativ boshqaruv tizimini faqat boshqaruv strukturasi yoki nazorat mexanizmlari darajasida emas, balki tashkilotning strategik rivojlanish platformasi sifatida yangicha mazmunda shakllantirishga xizmat qiladi. Ular kompaniyaning raqobatbardoshlik ustunligini ta’minlash, biznes jarayonlarini optimallashtirish, strategik qaror qabul qilishni tezlashtirish va ijtimoiy mas’uliyat darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Innovatsion usullarning korporativ boshqaruvdagi asosiy yo‘nalishlari.

Innovatsion yondashuvlar korporativ boshqaruv tizimiga quyidagi yo‘nalishlarda samarali ta’sir ko‘rsatadi:

Strategik innovatsiyalar — kompaniyaning uzoq muddatli maqsadlariga erishishda yangi biznes-modellar, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va raqobat strategiyalarini joriy etish orqali strategik barqarorlikni ta’minlaydi. Bu jarayonda intellektual resurslardan foydalanish, startap ekotizimlari bilan hamkorlik qilish va innovatsion ekotizim yaratish muhim ahamiyatga ega.

Interaktiv boshqaruv vositalari — raqamli platformalar, “Big Data” tahlili, sun’iy intellekt va loyihaviy boshqaruv tizimlaridan foydalanish orqali qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Bu esa boshqaruvda aniqlik, tezkorlik va adaptivlikni ta’minlaydi.

Korporativ madaniyatni yangilash — innovatsiyaga ochiqlik, ijodkorlik va jamoaviy hamkorlik muhitini shakllantirish orqali korporativ madaniyatni yangi bosqichga olib chiqadi. Bunday muhitda xodimlar faol ishtirokchi sifatida qaraladi va ularning tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanadi.

Shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish — aksiyadorlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan ochiq axborot almashinuvi, moliyaviy hisobotlarni raqamlashtirish va ichki nazorat tizimlarini takomillashtirish orqali korporativ boshqaruvning ishonchliligini oshiradi. Shu tariqa, innovatsion usullar korporativ

boshqaruvning samaradorligini oshirish bilan birga uni barqaror rivojlanish strategiyalari bilan integratsiya qilish uchun mustahkam institutsional zamin yaratadi.

2. Barqaror rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlashuv

Barqaror rivojlanish strategiyasi korporativ boshqaruvning uzoq muddatli yo‘nalishlarini belgilaydi va uning asosini ESG tamoyillari tashkil etadi. Ushbu strategiyaning asosiy maqsadi — iqtisodiy foyda bilan birga ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ham ta’minlashdan iborat. Barqaror rivojlanish uchta asosiy komponent orqali namoyon bo‘ladi:

Iqtisodiy samaradorlik — innovatsiya va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish orqali investitsiyalarni jalb qilish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda aksiyadorlar uchun uzoq muddatli qiymat yaratish. Innovatsion boshqaruv orqali iqtisodiy samaradorlik faqat foyda ko‘rsatkichi bilan emas, balki intellektual kapital va innovatsion salohiyat bilan ham baholanadi.

Ekologik mas’uliyat — resurslardan oqilona foydalanish, yashil energiya texnologiyalarini joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va atrof-muhitga ta’sirni kamaytirishga yo‘naltirilgan boshqaruv tizimini yaratish. Bu ESGning “Environmental” qismi bo‘lib, kompaniyaning ekologik barqarorlik strategiyasini amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy adolat va korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) — xodimlarning mehnat huquqlarini himoya qilish, jamiyat manfaatlarini inobatga olish, mahalliy aholi bilan ijtimoiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish orqali barqaror ijtimoiy muhit yaratiladi.

Innovatsion usullar bilan uyg‘unlashtirilgan barqaror rivojlanish strategiyasi kompaniya faoliyatini faqat iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq holda yo‘naltirish imkonini beradi. Bu esa korporativ boshqaruv tizimining umumiy samaradorligini oshirib, uni xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi.

Shunday qilib, innovatsion usullarni korporativ boshqaruv tizimiga joriy etish nafaqat tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradi, balki uning barqaror rivojlanish strategiyalari bilan chuqur uyg‘unlashuvini ta’minlaydi. Bu jarayonda innovatsiyalar strategik boshqaruvning markaziy elementi sifatida namoyon bo‘lib, korporativ faoliyatning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.O‘zbekistonda korporativ boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari izchil amalga oshirilmoqda. Davlat ulushiga ega korxonalarda korporativ shaffoflikni oshirish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish va samarali boshqaruv organlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Innovatsion usullarni joriy etish orqali:

- kompaniyalarning investitsiyaviy jozibadorligi oshadi;
- korporativ qarorlar qabul qilish jarayoni tezkor va samarali bo‘ladi;
- milliy iqtisodiyotda barqaror rivojlanishga xizmat qiladigan institutsional islohotlar amalga oshadi.

Shu bilan birga, korporativ boshqaruvning innovatsion modellari jahon bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va mamlakatda innovatsion iqtisodiyot asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruv tizimini innovatsion usullar asosida takomillashtirish va uni barqaror rivojlanish strategiyalari bilan uyg‘unlashtirish zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi omillaridan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar kompaniyalarda strategik maqsadlarga erishish, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, korporativ madaniyatni yangilash va barqaror rivojlanish tamoyillarini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday yondashuv nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy mas’uliyat va ekologik barqarorlikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Shuning uchun korporativ boshqaruv jarayonlarini innovatsion usullar bilan boyitish milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega.

Takliflar:

1. Strategik innovatsiyalar asosida korporativ rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va ularni barqaror rivojlanish tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish.
2. Shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlarini kuchaytirish maqsadida raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan hisobot tizimlarini joriy etish.
3. Korporativ madaniyat va inson kapitalini rivojlantirish orqali innovatsiyalarga ochiq muhit yaratish.
4. Innovatsion korporativ boshqaruv standartlarini milliy me’yoriy bazaga integratsiya qilish hamda xalqaro tajribalardan samarali foydalanish.
5. Davlat ishtirokidagi korxonalarda innovatsion boshqaruv modellarini pilot tarzida joriy etish va natijalarini xususiy sektorda kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Scherer A. G., Voegtlin C. Corporate governance for responsible innovation: Approaches to corporate governance and their implications for sustainable development //Academy of Management Perspectives. – 2020. – T. 34. – №. 2. – S. 182-208.
2. Veselovsky, Mikhail Yakovlevich, et al. "System approach to achieving new quality of corporate governance in the context of innovation development." Calitatea 19.163 (2018): 30-36.
3. Dicuonzo, Grazia, et al. "The integration of sustainability in corporate governance systems: an innovative framework applied to the European systematically important banks." International Journal of Disclosure and Governance 19.3 (2022): 249-263.
4. Onwuzulike, Obianuju Clement, et al. "Corporate sustainability and innovation: Integrating strategic management approach." World Journal of Advanced Research and Reviews 23.3 (2024): 4.
5. E-Vahdati, Sahar, Norhayah Zulkifli, and Zarina Zakaria. "Corporate governance integration with sustainability: a systematic literature review." Corporate Governance: The international journal of business in society 19.2 (2019): 255-269.

IKKINCHI SHO‘BA - YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETINGNING INNOVATSION KONSEPSIYALARI

INNOVATIVE MARKETING CONCEPTS IN THE CONTEXT OF GREEN ECONOMY

Jumayev Olimjon Sadulloyevich
Doctor of Science (DSc),
Director of the Research Center for
Competition Policy and Consumer Rights
Akhmedova Shokhsanam Sindbod qizi
2nd degree Master's student of Department
of Marketing Tashkent State University of Economic

Abstract

This article analyzes the theoretical foundations of green marketing concepts and its impact on the environment and economy. The necessity, advantages and core principles of eco-friendly products and environmentally conscious brands are examined, and Patagonia is taken as a case example.

Keywords: innovations, green marketing, green customer, green products, sustainability

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil marketing konsepsiyalarining nazariy asoslari hamda ularning atrof-muhit va iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Ekologik toza mahsulotlar va ekologik ongli brendlarning zarurati, afzalliklari va asosiy tamoyillari ko'rib chiqiladi, shuningdek, Patagonia kompaniyasi misol sifatida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiyalar, yashil marketing, yashil iste'molchi, yashil mahsulotlar, barqarorlik

Аннотация

В статье анализируются теоретические основы концепций зелёного маркетинга и их влияние на окружающую среду и экономику. Рассматриваются необходимость, преимущества и ключевые принципы экологически чистой продукции и брендов с экологическим сознанием. В качестве примера используется компания Patagonia.

Ключевые слова: Инновации, зелёный маркетинг, зелёный потребитель, экологичные продукты, устойчивость

INTRODUCTION

The changes in climate and the degradation of environment generating the need for green innovations in order to eliminate gas emissions of greenhouses, decrease pollution rate and preserve natural resources. Green marketing assists companies in developing sustainable business practices and promoting the environmental advantages of their products and services. In addition, green marketing emphasizes raising consumer awareness about the role of sustainability and its environmental impact on purchasing decisions, while also providing companies with a competitive edge by enabling them to differentiate themselves, comply with growing regulatory pressures, and demonstrate social responsibility. Furthermore, green marketing fosters long-term customer loyalty, encourages eco-innovation, aligns with global sustainability agendas

and helps businesses mitigate reputational and regulatory risks, ensuring resilience in a rapidly changing market.

LITERATURE REVIEW

A considerable number of research has been conducted on green marketing, with particular attention to eco-friendly products, green accounting, and strategies for exporting organic goods. Among national scholars, Professor Ostanaqulova G. (2024), Allayorov Sh. (2024), and Xidirov Sh. (2025) have contributed significantly to the field through their works: "Market Mechanisms and Eco-Marketing Tactics in Agricultural Economics", "The Role of Green Accounting in Digital Business Marketing", and "Optimizing Marketing Strategies for the Export of Dried Organic Fruits Using Artificial Intelligence". The findings of these studies indicate that the authentic implementation of green initiatives—such as eco-friendly product design, recyclable packaging, corporate social responsibility (CSR) activities, and sustainability certifications—not only enhances brand equity but also strengthens consumer trust and creates a source of competitive differentiation.

From foreign scholars' analysis made about Innovative Management Tools: Green Marketing for the Sustainable development (2021) M. I. Kanunikova, T. Yu. Krotenko and O. V. Lesnikova (2021), green marketing incorporates the values of social and ethical responsibility, focusing on prudent resource use, environmental protection, and minimizing harmful impacts on humans and nature. Studies highlight its applications in the hotel business through practices such as eco-labeling, sustainable service delivery, and the development of a company's "green" image. Followingly, the founder of consulting agency Jacquelyn Ottman in her work The New Rules of Green Marketing: Strategies, Tools, and Inspiration for Sustainable Branding (2011). emphasizes that modern consumers choose products not only for price or features but also for the values brands represent and argues that green marketing must deliver performance and truth supported by transparent, science-based information. (Ottman, 2011)

METHODOLOGY

The article is written based on theoretical approach, using quantitative methods and secondary data from official research sites source and scholarly works and articles by other researchers and experts in this field. As the example case Patagonia brand and its green marketing approaches are examined.

So far, there have been various types of scientific research and case studies on green marketing, and the field is developing rapidly. However, there is still a lack of scientific articles, particularly in the context of Uzbekistan, where more practical applications and case studies are needed. Innovative technologies such as Big Data and Artificial Intelligence are only at the initial stage of being applied to optimize marketing strategies for eco-friendly products, especially in export-oriented sectors. At the same time, government initiatives such as the "Strategy 2030" and the Sustainable Development Goals (SDGs), as well as the active involvement of the United Nations

in Uzbekistan, create a strong foundation for supporting and advancing green marketing practices.

ANALYSIS AND RESULTS



Figure 1. Green Marketing innovations in Business[1]

The figure 1 illustrates various directions of green marketing innovations adopted in business practices. It shows that the most widely implemented area is eco-friendly packaging, applied by 85% of companies. This is followed by recycling and waste reduction (75%) and the use of renewable energy in production (70%).

Relatively new areas such as AI and Big Data–driven marketing optimization are adopted at around 55%. Meanwhile, the green supply chain (65%) and organic product development (60%) are also gradually advancing.

These indicators suggest that both in Uzbekistan and globally, companies are increasingly adopting green marketing innovations, although technology-driven areas are still in the early stages of development.

The concepts that need to be considered are green marketing, green customer and green products. Green marketing integrates social, environmental and economic components to business plan and distinct from conventional marketing. Traditional marketing aims at increasing sales and making short-term profits, whereas green marketing builds long-term value with customers by promoting ecologically conscious products. Businesses implementing green marketing strategies integrate sustainability

[1] Author's elaboration based on Green Marketing Innovations (2025)

into their operations by sustainably procuring raw materials and using energy-efficient production processes (Kaur et al., 2022).

Green customers are the ones who are environmentally responsible and prefer to purchase eco-friendly and green products over others. These types of consumers favor products produced from recycled or renewable materials, energy-saving, with low-waste packaging and low carbon footprint, to decrease their environmental impact and support sustainability conscious companies. Green product (eco-friendly) is the one that made to eliminate its damaging effect on the environment during its whole life period.

When the company begins to implement green marketing strategy the entire marketing mix from product to positioning and promotions need to be totally redesigned. Marketers will be responsible to correct and redirect each step from product production until utilization process to make them sustainable. Furthermore, it may encounter several challenges during these processes. One of the main difficulties is the need for significant upfront investments in sustainable technologies, processes and materials. This often includes adopting renewable energy sources, energy-efficient equipment, sustainable raw materials and eco-friendly packaging. Additionally, managing the supply chain becomes more complex, as it requires sourcing environmentally friendly goods and ensuring that all suppliers comply with sustainability standards and regulations. These changes can lead to increased costs, making cooperation across the entire supply chain essential to integrate sustainability into every stage of product development and delivery. To address these financial challenges, companies often need external funding sources such as green loans, government grants, or investments from sustainability-focused investors. By solving these hindrances and becoming eco-friendly brand the company may acquire more loyal customers, develop strong and unique brand image and save the environment. “The following paragraphs will examine Patagonia as a leading example of an environmentally conscious brand.

Patagonia can be regarded as a leading example of an environmentally conscious brand, successfully implementing green marketing strategies. It is a privately held American outdoor apparel company, renowned for its high-quality products and strong commitment to environmental sustainability and activism. (Thangavelu, 2025)

Figure 2 illustrates Patagonia’s strategic pillars, which include building trust through authenticity and transparency, prioritizing sustainable products and practices, and promoting circular economy initiatives such as the Worn Wear program. Additionally, the company emphasizes community building and educational marketing by engaging environmentally conscious consumers and raising awareness of sustainability issues. Patagonia also demonstrates its commitment by donating 1% of its sales to environmental organizations through the “1% for the Planet” program and by challenging consumerism with campaigns like “Don’t Buy This Jacket,” which encourage mindful purchasing and highlight the brand’s values.



Figure 2. The Green Marketing Strategy of Patagonia[1]

CONCLUSION

In today's environmentally conscious market, green marketing has become essential for attracting and retaining consumers who value sustainability. As people grow more aware of their environmental impact, they increasingly choose brands that reflect their values. An effective green marketing strategy not only demonstrates a company's commitment to sustainable practices but also builds trust, credibility, and emotional connection with customers. By being transparent about sustainability efforts, promoting eco-friendly products, and engaging consumers in a shared purpose, businesses can strengthen loyalty and stand out from competitors. Ultimately, green marketing fosters long-term relationships and supports both business success and a more sustainable future.

REFERENCES

1. Dellyana, D., & Aldianto, L. (2025). Innovative Marketing Strategy for Green Products in Search of Better Customer Acquisition. In A. H. Verkuil, U. Milow, A. Hinz, & M. Al-Kilani (Eds.), Core Values and Decision-Making for Sustainable Business: An International Perspective (pp. 75–99). Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-78361-6_4

[1] Author's work on Patagonia's marketing strategy based on green innovations based on the information from official company's web site www.patagonia.com

2. Ostanaqulova G. (2024, December 7). Market Mechanisms and Eco-Marketing Tactics in Agricultural Economics: A Study on Promotional Models for Sustainable Practices Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(12). https://doi.org/10.5281/zenodo.14679976

3. Allayorov, Sh., Iskandarov, X., & Yoqubov, M. (2024). Raqamli biznes marketingida yashil buxgalteriya hisobining roli: Barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan qarash [The Role of Green Accounting in Digital Business Marketing: A Perspective from Sustainable Development]. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2(4), 9-14. https://doi.org/10.5281/zenodo.14211523

4. Xidirov, S. (2025). Sun'iy intellekt yordamida quritilgan organik mevalar eksportida marketing strategiyalarini optimallashtirish [Optimizing Marketing Strategies for the Export of Dried Organic Fruits Using Artificial Intelligence]. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 3(1), 9-13. https://doi.org/10.5281/zenodo.17173092

5. Kramer, M. (2023, November 27). Development of the green economy through sustainable innovations. www.AllThingsInnovation.com.

6. MARKETING IN THE GREEN ECONOMY: STRATEGIES, TRENDS, AND IMPACTS. (2025). International Journal of Artificial Intelligence, 5(05), 1401-1404. https://www.academicpublishers.org/journals/index.php/ijai/article/view/4654

7. Krotenko, T. Yu. (2021). "Green" marketing as a tool for innovative management. Bulletin of the State University of Education. Series: Economics, (1), 61–70.

8. Ottman, J. A. (2011). The new rules of green marketing: Strategies, tools, and inspiration for sustainable branding. Berrett-Koehler Publishers.

9. Kaur, B., Gangwar, V. P., & Dash, G. (2022). Green marketing strategies, environmental attitude, and green buying intention: A multi-group analysis in an emerging economy context. Sustainability, 14(10), Article 6107. https://doi.org/10.3390/su14106107

10. Thangavelu, P. (2025, January 25). Patagonia. Investopedia. Retrieved from https://www.investopedia.com

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING VA INNOVATSIYA: MUHIM KONSEPSIYALAR

Ikramov Murat Akramovich
Professor, TDIU
Fayzullayev Shuhrat Sherali o‘g‘li
Tayanch doktorant, TDIU

Annotatsiya

Tezisda yashil iqtisodiyot sharoitida marketing va innovatsiyaning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Yashil marketing, eko-innovatsiya, raqamli yashil marketing, yashil biznes modellar va iste’molchi ishtiroki konsepsiyalari korxonalarning barqaror rivojlanish strategiyasiga integratsiyalanayotgani ko‘rsatib beriladi. Muallif innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy o‘sish bilan birga ekologik barqarorlikni ta’minlashdagi rolini asoslaydi. Xulosa sifatida, yashil marketing strategiyalarining raqamli texnologiyalar va ekologik qadriyatlar bilan uyg‘unlashuvi zamonaviy iqtisodiyot uchun muhim omil sifatida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil marketing, eko-innovatsiya, raqamli marketing, barqaror rivojlanish, ekologik strategiya.

Аннотация

В тезисе анализируется взаимосвязь маркетинга и инноваций в условиях зеленой экономики. Показано, что концепции зеленого маркетинга, эко-инноваций, цифрового зеленого маркетинга, зеленых бизнес-моделей и участия потребителей интегрируются в стратегии устойчивого развития предприятий. Автор обосновывает роль инновационных подходов в обеспечении экономического роста и экологической устойчивости. В заключение подчеркивается, что синергия цифровых технологий и экологических ценностей становится ключевым фактором современной экономики.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый маркетинг, эко-инновации, цифровой маркетинг, устойчивое развитие, экологическая стратегия.

Abstract

The thesis analyzes the interrelation between marketing and innovation within the context of the green economy. It highlights that concepts such as green marketing, eco-innovation, digital green marketing, green business models, and consumer participation are increasingly integrated into corporate sustainability strategies. The author substantiates the role of innovative approaches in ensuring both economic growth and environmental stability. The conclusion emphasizes that the synergy of digital technologies and ecological values serves as a crucial factor in the modern economy.

Keywords: green economy, green marketing, eco-innovation, digital marketing, sustainable development, environmental strategy.

Mamlakatda tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda hududlarni bir maromda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar

amalga oshirilmoqda. 2019-yilning 8-9-iyul kunlari Toshkent shahrida ““Yashil” iqtisodiyot bo‘yicha normativ-huquqiy bazani va siyosatni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi sheriklik munosabatlari orqali innovatsion “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash”ga qaratilgan Yevropa va MDH davlatlarining “yashil” iqtisodiyot bo‘yicha mintaqaviy vazirliklar konferensiyasi o‘tkazildi[1].

Iqtisodiyot energiya samaradorligining past darajasi, tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish, texnologiyalar yangilanishining sustligi, “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznes ishtirokining yetarli emasligi mamlakatni barqaror rivojlantirish sohasidagi ustuvor milliy maqsadlar va vazifalarga erishishga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu nuqtai-nazaridan, 2022-yil 2-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi va unda quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

1) issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirish;

2) sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish;

3) iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish va boshqalar[2].

Yashil iqtisodiyot – iqtisodiy o‘sish bilan birga atrof-muhitga zarar yetkazmaslik, tabiiy resurslarni tejamkor va qayta ishlash prinsiplariga asoslangan iqtisodiy model hisoblanadi. Innovatsiya (yashil innovatsiya) ushbu modelni amaliyotga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi, ya’ni, yangi texnologiyalar, biznes modellar, ekologik mahsulotlar shular jumlasidandir. Marketing sohasi esa, yangi iqtisodiy sharoitda “yashil marketing” — mahsulot va xizmatlarni ekologik jihatdan barqaror uslubda reklama qilish, iste’molchilarning ekologik faolligini rag‘batlantirish orqali muvaffaqiyatga ega bo‘ladi [3] [4] [5].

Yashil iqtisodiyot holatida marketingda qo‘llaniladigan innovatsion konsepsiyalar muhim hisoblanadi. Ularning marketingga ta’siri qanday bo‘lishini quyida ko‘rish mumkin (1-jadval):

1-jadval

Yashil iqtisodiyot sharoitida marketingda qo‘llaniladigan innovatsion konsepsiyalar[1]

№	Konsepsiyalar	Mazmuni / tavsifi	Marketingga ta’siri / misollar
1	**Yashil marketing (Green Marketing)**	Tovarlarning ekologik jihatdan afzalliklarini reklama qilish, iste’molchilarga “ekologik” imij berish	Korxonalar mahsulotlarining ekologik sertifikatlarini ko‘rsatishi, karbon izini reklamasi, “ekologik” brend identifikatsiyasi [5]
2	**Eko-innovatsiya (Green innovation)**	Yangi mahsulot yoki jarayonlarni yaratish orqali chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkorligini oshirish	Qayta ishlangan materiallardan mahsulot ishlab chiqarish, energiyani tejovchi ishlab chiqarish usullari [6]

[1] Internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

3	**Yashil biznes modeli (Green business models)**	An’anaviy savdo-ishlab chiqarish modelini yashil prinsiplar asosida yangilash	Mahsulot-xizmat (product-as-service), qayta foydalanish, ijaraga berish (leasing), yopiq aylana iqtisodiy (circular economy) modellari [7]
4	**Raqamli yashil marketing (Digital green marketing)**	IoT, sun’iy intellekt, blokcheyn va boshqa raqamli texnologiyalarni qo‘llash, ekologik reklama va monitoring	Iste’molchilarning mahsulotlar karbon izini ko‘ra olishi, blokcheynda mahsulot izlanuvchanligi [8]
5	**Shaffoflik va xolis axborot kommunikatsiyasi (Transparency information communication)**	To‘g‘ri va aniq ekologik da’volar, yashil marketingda “greenwashing”dan saqlanish	Mahsulotda ishlatilgan materiallar, ishlab chiqarish jarayonlari va chiqindilar haqida ochiq ma’lumot berish [5]
6	**Iste’molchi ishtiroki (Consumer participation)**	Iste’molchilarni mahsulot yaratish, qayta ishlash jarayoniga jalb qilish	Mahsulot dizaynida iste’molchilarning fikrlari, qayta ishlash bo‘yicha takliflari, almashuv platformalari [7]

Yashil iqtisodiyot holatidagi ma’lum bir qiyinchiliklar va xavf-xatarlar sifatida biz quyidagilarni tavsiflab o‘tamiz:

- greenwashing (ekologik yolg‘on da’volar) — mahsulotning ekologik jihatlari ortiqcha reklama qilinishi, haqiqatga mos kelmasligi;
- infratuzilma va texnologik cheklovlar — kichik kompaniyalar uchun ekologik innovatsiyalar qimmat bo‘lishi mumkin;
- iste’molchilarning ekologik ong darajasi — barcha iste’molchilar ekologik jihatlarga katta e’tibor bermasligi mumkin;
- nazorat va sertifikatlash muammolari — ekologik sertifikatlar mazmuni va ishonchliligi murakkab bo‘lishi mumkin;
- narx va raqobat — ekologik mahsulotlar odatiy mahsulotlarga nisbatan biroz yuqori narxda bo‘lishi mumkin va raqobatchilar “arzon va tez” mahsulotlar bilan kurashishi kerak bo‘ladi.

Yuqoridagi muammolarga yechim sifatida qarash mumkin bo‘lgan yashil marketing strategiyalari ayni paytda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsion yashil marketing strategiyalari quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

1. Ekologik mahsulot dizayni. Mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida ekologik jihatlarni hisobga oladi: qayta ishlanadigan materiallar, toksik bo‘lmagan komponentlar va boshqalar. [7]

2. Yashil taqsimot va logistika. Mahsulot yetkazib berishda energiyani tejaydigan transport, lokal distributsiya. [9]

3. Ekologik brend kommunikatsiyasi. Marketing kommunikatsiyasida “yashil” xabarlar, karbon etiketi, “uglerod neytral” kampaniyalar. [5]

4. Yashil narxlash strategiyasi. Ba’zan ekologik mahsulotlar biroz yuqori narxda bo‘lishi mumkin, iste’molchilarga bu premium qiymatni tushuntirish kerak bo‘ladi. [10]

5. Mahsulot xizmat-asosli marketing (Product-as-a-Service). Mahsulotni sotishdan ko‘ra, foydalanishni taklif qilish (ijtimoiy ijara, abonentlik) — masalan, energiya tejovchi qurilmalarni ijaraga berish. [7]

6. Aylana iqtisodiyot (circular economy). Mahsulotni qayta ishlash, qayta ishlab chiqarish (remanufacturing), chiqindini resurs sifatida ishlatish. [9]

7. Iste'molchilarni xabardor qilish va ma'lumot berish. Marketing kampaniyalari orqali ekologik ongni oshirish, mahsulotni qanday utilizatsiya qilish kerakligini ko'rsatish. [11]

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yashil iqtisodiyot sharoitida marketing faoliyatini innovatsion asosda tashkil etish iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasiga aylanmoqda. Yashil iqtisodiyotda marketingning asosiy innovatsion konsepsiyalari — yashil marketing, eko-innovatsiya, raqamli yashil marketing, yashil biznes modellari va iste'molchi ishtirokiga asoslangan yondashuvlar — korxonalarning barqaror rivojlanish strategiyasiga integratsiyalashmoqda. Ushbu konsepsiyalar nafaqat ekologik mas'uliyatni oshiradi, balki iste'molchilarda ekologik ong va brendga sodiqlikni kuchaytiradi. Shu bois, innovatsion yashil marketing strategiyalarini ishlab chiqishda ekologik mahsulot dizayni, yashil logistika, narxlash siyosati va raqamli texnologiyalarni uyg'un qo'llash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori. PQ-4477-son. 04.10.2019 y. https://lex.uz/docs/-4539502

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. PQ-436-son 02.12.2022 y. https://lex.uz/uz/docs/-6303230#-6305730

3. https://greenly.earth/en-us/blog/company-guide/green-economy--meaning-and-principles

4. A.Kwilinski, Z.D.Pikiewicz, K.S.Woszczyna, O.Lyulyov, T.Pimonenko. The role of innovation in the transition to a green economy: A path to sustainable growth. Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity. Volume 11, Issue 2, June 2025, 100530.
https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2199853125000654

6. Lal, S., Sharma, B., Nirwan, N., Tandon, S., Mehra, M. & Gaur, S. (2025). Green Marketing: Strategies to Influence Eco-Conscious Consumer Behavior – Trends, Challenges, and Innovations in Promoting Sustainable Products and Services. Advances in Consumer Research, 2(4), 1261-1272. https://acr-journal.com/article/green-marketing-strategies-to-influence-eco-conscious-consumer-behavior-trends-challenges-and-innovations-in-promoting-sustainable-products-and-services-1238/

7. L.Huang, Y.A.Solangi, C.Magazzino, Sh.A.Solangi. Evaluating the efficiency of green innovation and marketing strategies for long-term sustainability in the context of Environmental labeling. Journal of Cleaner Production. Volume 450, 15 April 2024, 141870.
https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0959652624013180

8. https://habitatpoint.com/blog/10-green-business-models-innovative-ways-to-go-green/
9. Kumar, S., Sharma, C., Mishra, M.K. et al. Smart, sustainable, and green: the digital transformation of green-marketing. Discov Sustain 6, 388 (2025). https://doi.org/10.1007/s43621-025-01242-5
10. https://dmexco.com/stories/transitioning-to-a-circular-economy-with-green-marketing-strategies/
11. https://it.wikipedia.org/wiki/Marketing_verde
12. https://www.bluegreenalliance.org/wp-content/uploads/2016/07/Current-Structures-Strategies-and-Examples-for-Green-Economic-Development-vFinal.pdf

OMNICHANNEL DIGITAL MARKETING STRATEGIES IN FMCG DISTRIBUTION: ENHANCING SUSTAINABILITY THROUGH AI INTEGRATION

F. Jamoliddinov
PhD Student
Tashkent State University of Economics

Abstract

This thesis explores how AI-integrated omnichannel digital marketing strategies in FMCG distribution contribute to sustainability. It analyzes how AI enhances personalization, predictive analytics, and automation across digital platforms to reduce waste and resource use. The study emphasizes the alignment of marketing efficiency with ecological responsibility and highlights opportunities for Central Asia, particularly Uzbekistan, in adopting these innovations. Policy, infrastructure, and digital literacy are identified as key enablers of sustainable transformation in FMCG marketing.

Keywords: AI in marketing, omnichannel strategy, FMCG, sustainability, Uzbekistan, digital innovation.

Annotatsiya

Ushbu tezisda tez aylanuvchi iste'mol mollari (FMCG) taqsimotida sun'iy intellekt integratsiyalangan omnikanal raqamli marketing strategiyalarining barqarorlikka ta'siri o'rganiladi. Shaxsiylashtirish, prognoz tahlili va avtomatlashtirish orqali isrofgarchilikni kamaytirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. O'zbekiston misolida, raqamli infratuzilma, siyosiy qo'llab-quvvatlash va raqamli savodxonlik barqaror raqamli transformatsiyaning asosiy omillari sifatida qayd etiladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, omnikanal marketing, FMCG, barqarorlik, O'zbekiston, raqamli innovatsiya.

Аннотация

В данном тезисе рассматривается вклад омниканальных цифровых маркетинговых стратегий с использованием ИИ в устойчивое развитие дистрибуции FMCG. Анализируется, как персонализация, прогнозная аналитика и автоматизация с помощью ИИ позволяют снизить уровень отходов и рационализировать использование ресурсов. Особое внимание уделяется потенциалу Узбекистана и стран Центральной Азии в применении таких технологий. Отмечены ключевые факторы: цифровая грамотность, поддержка инфраструктуры и нормативная база.

Ключевые слова: искусственный интеллект, омниканальный маркетинг, FMCG, устойчивость, Узбекистан, цифровые инновации.

The digital transformation of FMCG distribution has accelerated in recent years, requiring companies to engage stakeholders through multiple online and offline channels. Omnichannel strategies, when combined with artificial intelligence (AI), provide new opportunities to enhance sustainability while strengthening distributor engagement [1]. In the FMCG sector, where speed, efficiency, and consumer trust are

critical, omnichannel digital marketing enables firms to create seamless experiences across e-commerce platforms, mobile applications, social media, and physical retail outlets. By ensuring consistent messaging and integrated customer journeys, companies not only strengthen brand equity but also optimize supply chain communication between distributors, retailers, and end consumers [2]. AI integration further enhances these strategies by enabling predictive analytics, customer segmentation, and personalized marketing, thereby reducing resource wastage and ensuring more precise demand fulfillment [3].

Sustainability goals are advanced through digital optimization—fewer redundant shipments, smarter inventory management, and reduced marketing material waste. As environmental responsibility becomes a key differentiator for global brands, the alignment of omnichannel digital marketing with AI-driven tools positions FMCG distributors at the forefront of sustainable transformation [4].

Omnichannel marketing integrates various communication channels such as e-commerce platforms, mobile apps, social media, and traditional retail. AI enables personalization, automated content delivery, and predictive engagement, making distribution marketing more efficient and sustainable [5]. From a theoretical perspective, the resource-based view (RBV) suggests that digital platforms and AI technologies serve as strategic resources, providing firms with a sustained competitive advantage when effectively integrated into distribution networks [6]. Similarly, the stakeholder theory highlights the importance of engaging not only consumers but also distributors, retailers, and regulators in creating shared value through sustainable practices [7]. Theories of consumer behavior also indicate that digital consistency across multiple channels enhances trust and brand loyalty, particularly in FMCG markets where purchase frequency is high and consumer switching costs are low.

Therefore, the theoretical foundation of this research combines principles of marketing, sustainability, and digital innovation. It demonstrates how omnichannel strategies, empowered by AI, are not merely operational tools but essential elements of long-term competitive advantage [8].

AI-powered digital portals allow distributors to access real-time product data, promotions, and training materials without reliance on printed catalogs [9]. This shift to digital reduces costs while enhancing accessibility and responsiveness, enabling distributors to align faster with market demand. In addition, AI-based recommendation systems support distributors in managing product assortments more effectively, predicting which SKUs will be most relevant to their customer base [10].

Chatbots and virtual assistants reduce the need for in-person consultations, cutting down unnecessary travel and resource usage [11]. For example, AI-powered assistants can handle order placements, resolve basic customer inquiries, and provide sales analytics dashboards, thus freeing up distributor representatives for more strategic tasks. Furthermore, the integration of augmented reality (AR) product demonstrations allows FMCG companies to showcase products digitally, eliminating the need for printed brochures or in-person demonstrations. Such applications not only enhance

distributor efficiency but also contribute directly to sustainability by minimizing resource dependency and promoting digital-first engagement [12].

Omnichannel marketing supported by AI reduces paper consumption, minimizes physical logistics for communication, and promotes smarter allocation of marketing resources [13]. The integration of AI-driven tools also allows for optimized delivery routes, reduced transportation emissions, and better alignment of production with real demand [14]. This reduces energy waste, prevents overproduction, and minimizes the environmental footprint of FMCG distribution systems.

From a broader perspective, digitalization aligns with the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs), particularly responsible consumption and climate action [15]. By reducing reliance on printed catalogs, promotional banners, and physical sales meetings, companies can significantly cut carbon emissions associated with distribution marketing. In addition, predictive analytics helps avoid stockouts and overstocks, which are major contributors to food and product waste in FMCG industries [16]. Therefore, the integration of omnichannel digital marketing and AI not only improves operational efficiency but also positions FMCG companies as active contributors to the global green economy [17].

In Uzbekistan and Central Asia, digital infrastructure is rapidly improving, opening new avenues for AI-driven omnichannel strategies [18]. The government's striving for digital transformation, supported by international organizations, has accelerated internet accessibility and e-commerce adoption [19]. However, challenges such as limited digital literacy among small distributors and uneven internet penetration remain barriers to adoption. Despite these challenges, the region presents unique opportunities. Growing smartphone penetration and the popularity of social media platforms like Telegram, Instagram, and Facebook create fertile ground for omnichannel engagement [20]. Furthermore, the region's young population is increasingly receptive to digital platforms, making the transition toward AI-driven marketing more achievable in the medium term. However, to fully leverage these opportunities, companies must address capacity-building needs among distributors through digital training and accessible platforms. This dual focus on infrastructure and education will help ensure sustainable digital transformation across FMCG distribution channels in Uzbekistan and neighboring countries [21].

AI-integrated omnichannel marketing provides a pathway to sustainable FMCG distribution [22]. By creating seamless engagement across physical and digital channels, companies enhance both efficiency and environmental responsibility. The findings suggest that AI-enabled personalization, predictive analytics, and automation not only optimize marketing efforts but also significantly reduce resource consumption [23].

It is recommended that companies gradually introduce AI tools, provide training to distributors, and collaborate with policymakers to support digital transformation in the sector. Training programs should emphasize digital literacy and sustainability awareness, ensuring that both large and small distributors can adopt new technologies effectively. At the policy level, governments can incentivize the adoption of digital

solutions through tax benefits and regulatory frameworks supporting sustainability initiatives [24]. Ultimately, the integration of AI into omnichannel strategies represents more than a competitive advantage—it is a long-term commitment to balancing growth with environmental stewardship in FMCG distribution [25].

REFERENCES

1. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2017). Machine, Platform, Crowd: Harnessing Our Digital Future. W.W. Norton & Company.
2. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). Digital Marketing. 7th ed. Pearson.
3. Wedel, M., & Kannan, P. K. (2016). Marketing analytics for data-rich environments. Journal of Marketing, 80(6), 97–121.
4. Kotler, P., Kartajaya, H., & Setiawan, I. (2021). Marketing 5.0: Technology for Humanity. Wiley.
5. Verhoef, P. C., et al. (2021). Digital transformation and marketing: Reflections on research and practice. Journal of Business Research, 122, 889–899.
6. Barney, J. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. Journal of Management, 17(1), 99–120.
7. Freeman, R. E. (2010). Strategic Management: A Stakeholder Approach. Cambridge University Press.
8. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2015). How smart, connected products are transforming companies. Harvard Business Review, 93(10), 96–114.
9. Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2022). E-commerce 2022: Business, Technology, and Society. Pearson.
10. Davenport, T. H., & Ronanki, R. (2018). Artificial intelligence for the real world. Harvard Business Review, 96(1), 108–116.
11. Huang, M. H., & Rust, R. T. (2021). A strategic framework for artificial intelligence in marketing. Journal of the Academy of Marketing Science, 49(1), 30–50.
12. Chen, J., & Popovich, M. (2022). Sustainability and digital marketing in FMCG distribution. International Journal of Marketing Studies, 14(3), 45–58.
13. Waller, M. A., & Fawcett, S. E. (2013). Data science, predictive analytics, and big data. Journal of Business Logistics, 34(2), 77–84.
14. Ivanov, D., Tsipoulanidis, A., & Schönberger, J. (2021). Global Supply Chain and Operations Management. Springer.
15. United Nations. (2015). Transforming our world: The 2030 Agenda for Sustainable Development. UN.
16. Christopher, M. (2016). Logistics & Supply Chain Management. 5th ed. Pearson Education Limited.
17. Unilever. (2022). Sustainability Progress Report. Unilever Global.
18. Asian Development Bank. (2023). Digital Transformation in Central Asia: Opportunities and Challenges. ADB.
19. World Bank. (2022). Digital Development in Uzbekistan. Washington, DC.
20. Datareportal. (2023). Digital 2023: Uzbekistan. Retrieved from https://datareportal.com

21. OECD. (2022). Digital Transformation in Emerging Markets. OECD Publishing.
22. Kietzmann, J., Paschen, J., & Treen, E. (2018). Artificial intelligence in advertising. Journal of Advertising Research, 58(3), 263–267.
23. Kaplan, A., & Haenlein, M. (2019). Siri, Siri, in my hand: Who's the fairest in the land? Business Horizons, 62(1), 15–25.
24. PwC. (2021). AI and Sustainability in Business. PwC Global Report.
25. Procter & Gamble. (2023). Annual Report 2023. P&G.

WAYS USE OF MARKETING STRATEGY IN HIGHER EDUCATION SYSTEM OF UZBEKISTAN

Karrieva Yakutzhan Karimovna
Doctor of economics, professor. TSEU
Qahramonova Nasiba jaloliddinovna
student I-72/2025.TSEU

Abstract

This article is devoted to the marketing strategy and the mechanisms of its implementation in the higher education system of Uzbekistan, it analyzes the main types of marketing strategies used in the field of higher education and their main directions, the essence of the market of educational services and educational services is highlighted. specific features of services are based, marketing strategy in the higher education system and mechanisms of its implementation are researched, systematic work and main indicators implemented in the higher education system are analyzed, supply and demand for highly educated personnel is analyzed

Keywords: higher education, marketing strategy, education market, strategic management, human resource development, competition.

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida marketing strategiyasi va uni amalga oshirish mexanizmlariga bag‘ishlangan. Unda oliy ta’lim sohasida qo‘llanilayotgan marketing strategiyalarining asosiy turlari va yo‘nalishlari, ta’lim xizmatlari bozori va uning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, oliy ta’lim tizimida marketing strategiyasini ishlab chiqish va joriy etish mexanizmlari, tizimli ishlar va asosiy ko‘rsatkichlar, yuqori malakali kadrlar bozoridagi taklif va talab muvozanati o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, marketing strategiyasi, ta’lim bozori, strategik boshqaruv, kadrlar tayyorlash, raqobat.

Аннотация

Данная статья посвящена маркетинговой стратегии и механизмам её реализации в системе высшего образования Узбекистана. В ней проанализированы основные типы маркетинговых стратегий, применяемых в сфере высшего образования, и их ключевые направления, раскрыта сущность рынка образовательных услуг и его особенности. Также исследованы механизмы разработки и внедрения маркетинговой стратегии в системе высшего образования, системная работа и ключевые показатели, а также соотношение спроса и предложения на квалифицированные кадры.

Ключевые слова: высшее образование, маркетинговая стратегия, рынок образовательных услуг, стратегическое управление, подготовка кадров, конкуренция.

INTRODUCTION

The following strategic goals of the development of the higher education system are defined in the "Concept of the Development of the Higher Education System of the

Republic of Uzbekistan until 2030", approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5847 of October 8, 2019:

- increase the quality of highly qualified personnel training for socio-economically stable development;
- modernization of the country;
- training of highly qualified, creative and systematic thinking personnel who can make independent decisions based on international standards;
- development of human capital based on labor market requirements;
- to increase the level of coverage with higher education, to create the necessary conditions for the manifestation of their intellectual abilities and formation as a spiritually mature person;
- forming a healthy competitive environment in the industry, increasing its attractiveness, ensuring global competitiveness[1].

These strategic goals are directly related to marketing strategies in the higher education system. But in practice, the possibilities of using marketing strategies in the implementation of these strategic goals are very limited.

METHODOLOGY

The limited opportunities for using marketing strategies are explained by the following problems and shortcomings in the higher education system:

1. The powers of the state higher education institutions operating in the republic in the field of academic and organizational management are insufficient.

2. Taking into account the needs of young people to obtain higher education, a system has not been created that envisages helping them to effectively prepare for admission, as well as more effectively organizing career guidance and selection work.

3. One of today's demands is to simplify the approval of the admission parameters for the admission of students to state higher education institutions. The financial independence of higher education institutions is limited as a result of the fact that higher education institutions do not set admission parameters, especially the parameters of admission on the basis of a fee-contract, and do not take into account the cost of each student. According to the current procedure, the order of admission of students to state higher education institutions is determined by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, and the parameters of admission of students based on the state grant are determined by the President of the Republic of Uzbekistan.

4. The formation of the educational process based on international experiences has not been systematically implemented. In the conditions of academic independence and the transition to international standards, there is no perfect and fast-moving mechanism for identifying, studying and effectively introducing advanced, current international innovations and experiences in the educational and methodological direction into the educational practice of higher education institutions.

---

[1]Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 8, 2019 "On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030" No. PF-5847

5. Due to the fact that enterprises and organizations have not created enough conditions for the organization of student internships, there are problems in the quality organization of internships.

6. In order to increase the level of education coverage of young people in the republic and to create a healthy competitive environment in the field of higher education, a number of problems remain regarding the establishment of non-state higher education institutions in the regions of our republic.

7. There is a need to create a single electronic database of information resource centers of higher education institutions and to improve the system of rapid delivery of educational literature to users.

8. The indicator of scientific potential in higher education institutions of the republic (38 percent) remains low.

9. The international recognition of the republic's higher education institutions and their place in the ranking of world universities remains low.

10. The indicator of publication activity of professors and teachers working in higher education institutions of the republic remains at a low level. The number of articles published in scientific journals indexed in the internationally recognized scientific and technical databases such as "Scopus", "Web of Science" is low compared to the number of academic staff in the republic, and this prevents higher education institutions from entering international ratings.

11. In the process of equipping scientific research laboratories of higher educational institutions with modern equipment and equipment mainly produced abroad, a complex procedure is emerging. There are not enough materials (including reagents) and qualified professionals to use them. At the same time, there are currently 39 scientific laboratories in 15 higher education institutions. However, the equipment of modern scientific laboratories in most higher education institutions in our republic is not up to the required level.

12. A transparent and open mechanism for the recruitment of teaching staff of higher education institutions has not been created.

13. State higher education institutions have a number of restrictions (norms) on spending the funds they have earned and received in the Development Fund. This prevents higher education institutions from earning additional funds and spending them independently.

Nowadays, "Department of Marketing and Student Practice" is established in every state higher education institution. The organizational structure of this department can be seen in the figure below.

These sections are in accordance with the decree of the President of the Republic of Uzbekistan "On admission to higher educational institutions of the Republic of Uzbekistan in the 2005/2006 academic year" No. - number, "On measures to introduce new principles of management in the system of higher and secondary special education" dated July 11, 2019 PQ-4391 and the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan "On measures to accelerate marketing in the field of education market

formation and personnel training" Decision No. 48 of January 28, 1998[1] conducts its activities based on the Model Regulation developed on the basis of



Figure 1. Organizational structure of the Department of Marketing and Student Practice[2]

ANALYSIS AND RESULTS

The following tasks are assigned to these departments:

- creating a complete data bank by assessing the structure of consumers of educational services, determining their geographical location and grouping, diagnosing their potential opportunities, including the ratio of supply and demand for graduates in undergraduate education and master's specialties;
- formation of a database based on the study of the needs of enterprises, institutions and organizations for highly educated personnel being trained at a higher educational institution;
- introducing the relevant issues related to the improvement of the quality of trained personnel for discussion in the Councils of the higher education institution, establishing cooperation with the relevant departments of the higher education institution in this regard;
- training of personnel in a higher educational institution and monitoring of job distribution of graduates based on state grants, systematic analysis and evaluation of employment of graduates;
- step-by-step development of market relations in the field of education, assistance in its improvement, formation of a realistic "portfolio of orders" for graduating bachelors and masters based on indicators of demand for young professionals;
- directing the activity of the higher education institution to meet the demands and needs of personnel;
- taking into account the rapid change of marketing service processes in the higher education system and the interrelationship with the dynamics of the labor market development, in cooperation with potential employers (consumers), to study the need for highly educated young professionals in the branches and sectors of the republic's economy by region;

[1]https://lex.uz/uz

[2]Model staff of management, technical, service and educational support staff of higher education institutions (for higher education institutions with the number of students from 4001 to 8000,https://lex.uz/docs/3120811) was prepared by the author.

- analyzing the changes in the service market conjuncture and preparing proposals for defining new directions of development;
- development of practical proposals for training of highly educated personnel based on the needs of the economic sectors and in accordance with the current and prospective development programs of the regions;
- establishment of mutual cooperation and communication with organizations interested in the training of specialist personnel, including studying opinions on the quality and potential of personnel;
- participation in the preparation and implementation of draft decisions on personnel training directions and the market of educational services;
- developing proposals for ensuring competitive, highly qualified personnel training;
- to support the use of young professionals based on the demands and needs of personnel consumers;
- discussing the requirements of the customers regarding the quality of personnel in the process of personnel training in the council of the higher education institution;
- ensuring mutual cooperation of departments of specialization and personnel orderers;
- organization of graduate students' practice in enterprises and organizations where the student will be employed;
- constant study of internal and external labor market conditions, formation of proposals for admission parameters based on consumer orders for graduates, organization of the database of the higher education institution on admission, student contingent, employment of graduates;
- to ensure that the recommendations and suggestions of consumers and specialist departments regarding the young specialist are taken into account in the assignment of a graduate to a job based on the current situation;
- to ensure the signing of contracts related to the organization of students' professional practice and their organization in relevant organizations in the prescribed manner;
- to study, analyze the processes of organization of student practice and develop proposals for solving problems;
- study of advanced foreign and national experiences on organization of student practice and preparation of proposals for its implementation.

Today, the reforms implemented in higher education require improvement of the content of higher education based on modern requirements, training of mature specialists with professional knowledge, skills and practical skills at the level of requirements of personnel customers.

Based on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 1, 2008 No. 2961 "On measures to ensure the training of professional personnel required in real sectors and sectors of the economy" (Figure 2.8):

- monitoring the demand for graduates of higher educational institutions within the regions of the republic in real branches and sectors of the economy, on a permanent basis;
- to provide economic sectors with highly educated personnel, to provide an expert assessment of the demand for personnel in the relevant areas and specialties determined by economic sectors and regions;
- setting parameters for admission of students for the coming academic year, setting quotas for admission with grant and contract payment based on real requirements for personnel;

Every year until April 1, the State Commission is assigned the task of submitting reasonable proposals for the admission of students to higher education institutions in relevant fields and specialties.



Figure 2. Scheme of formation of admission parameters of republican higher education institutions

In accordance with this decision, in each academic year, the ministries and agencies in the system of which higher education institutions are operating will form offers for admission quotas in accordance with the prospective needs of higher educated personnel of potential employers, organizations and institutions in each field of education and specialization.

In addition, appropriate measures will be implemented in order to form the composition of educational directions and specializations and admission quotas in accordance with the sectoral and regional needs of the economy, and proposals will be developed for admission parameters for each academic year to the republic's higher education institutions.

According to the Program for the comprehensive development of the higher education system in 2017-2021, "determining the quantitative indicators of the training of highly educated personnel and the composition of educational directions (specializations) in accordance with the priority directions of the development of regions and economic sectors, taking into account the implementation of projects of sectoral and regional programs in 2017-2021 organization of personnel training in new educational areas in educational institutions, re-specialization of existing higher education institutions in the republic's regions and organization of branches of higher education institutions, taking into account the peculiarities and priorities of the development of economic sectors and regions"[1]tasks are defined.

Although marketing strategies have been developed by some higher education institutions, these marketing strategies have not been developed to the level of demand and their effectiveness has not been evaluated.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

In short, the limited possibilities of developing marketing strategies, their effective use, and the fact that the tasks set before them by the relevant departments of higher education institutions are not carried out at the required level indicate the need to develop marketing strategies and improve the mechanisms of their implementation in the higher education system of Uzbekistan.

1. It is known that a number of problems and shortcomings remain in the analysis of the higher education system of the Republic. Including:

a) The formation of the educational process based on international experiences has not been systematically implemented. In the conditions of academic independence and the transition to international standards, there is no perfect and fast-moving mechanism for identifying, studying and effectively introducing advanced, current international innovations and experiences in the educational and methodological direction into the educational practice of higher education institutions.

b) Taking into account the needs of young people to obtain higher education, a system has not been created to help them prepare effectively for admission, as well as more effectively organize career guidance and selection work.

c) due to the insufficient competences of the state higher education institutions in the field of academic and organizational management, problems remain in ensuring the

[1]https://www.lex.uz/docs/3171590

quality of education and organizing educational processes on time and at the level of demand.

g) In order to increase the level of inclusion of young people in the republic with higher education and to create a healthy competitive environment in the field of higher education, there are some problems in the establishment of non-state higher education institutions in the regions of our republic.

2. Employersproblems arise in the process of hiring highly educated specialists. The main reason for the emergence of these problems is that young professionals demand a higher salary than the salary offered by the organization, at the same time, there is a need for personnel with sufficient qualifications in the labor market.

3. Vocational orientation of applicants and students needs radical improvement. At the same time, general secondary and secondary special education systems have little influence on the choice of specialty.

4. Currently, there is no system in the country that represents the interests of the parties in terms of close cooperation with higher education institutions.

5. Development of marketing strategies, limited opportunities for effective use of them, failure to fulfill the tasks set before them by relevant departments of higher education institutions show the need to develop marketing strategies and form mechanisms for its implementation in the higher education system of Uzbekistan.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 "On the Development Strategy of the New Republic of Uzbekistan for 2022-2026" No. PF-60. https://lex.uz/ru/docs/-5841063

2. Marketing obrazovatelnykh uslug: funktsii, tekhnologii i opyt: uchebnoe posobie/ A.L. Kobleva, T.F. Maslova. – Stavropol: Stavrolit, 2019. – 116 p.

3. Fathutdinov R.A. Strategic marketing: uchebnik/ R.A. Fathutdinov. - M.: ZAO "Business School, Intel-Sintez", 2000. - 640 p.

4. Karrieva Ya.K. International marketing. Text book. – T.: SCIENCE. 2005

5. https://edu.uz is the official website of the Ministry of Higher and Secondary Special Education of the Republic of Uzbekistan.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA INNOVATSION MARKETING MEXANIZMLARI

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti
Ilmiy ishlar, reyting va akkreditatsiyalar
bo‘limi boshlig‘i i.f.f.d., dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda vositachi eksport tashkilotlarining innovatsion marketing mexanizmlaridan foydalanish yo‘llari tahlil qilingan. Raqamli marketing, yashil brending, ekologik sertifikatlash va xalqaro bozorlarga chiqishda vositachilik strategiyalarining dolzarbligi asoslab berilgan. Tahlil natijalari bunday mexanizmlar O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasini qo‘llab-quvvatlashini ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, yashil iqtisodiyot, eksport salohiyati, vositachi tashkilotlar, innovatsion marketing, ekologik sertifikat, raqamli marketing.

Аннотация

В статье рассмотрены механизмы повышения экспортного потенциала субъектов малого бизнеса и частного предпринимательства Узбекистана в условиях «зелёной» экономики. Особое внимание уделено роли посреднических экспортных организаций как инструмента инновационного маркетинга. Выявлена эффективность применения цифрового маркетинга, «зелёного» брендинга и экологической сертификации для выхода на международные рынки и устойчивого развития экономики страны.

Ключевые слова: малый бизнес, зелёная экономика, экспортный потенциал, посреднические организации, инновационный маркетинг, экологическая сертификация, цифровой маркетинг.

Abstract

This article explores innovative marketing mechanisms to enhance the export potential of small businesses and private entrepreneurs in Uzbekistan under the green economy framework. The study emphasizes the role of intermediary export organizations in facilitating digital marketing, green branding, and international certification. Findings show that such mechanisms support sustainable economic development and help small enterprises gain competitive advantages in global markets.

Keywords: small business, green economy, export potential, intermediary organizations, innovative marketing, ecological certification, digital marketing.

So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyoti barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslanayotgan bir davrda, kichik biznes subyektlarining xalqaro bozorlarda faol ishtiroki strategik ahamiyat kasb etmoqda. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash va

innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishni

nazarda tutadi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda zamonaviy marketing yondashuvlarini qo‘llash hamda vositachi eksport tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Kichik biznes eksport faoliyati, ayniqsa, yashil iqtisodiyot talablariga moslashish jarayonida qator murakkabliklarga duch kelmoqda. Ular orasida ekologik standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish, xalqaro sertifikatsiya tizimlariga kirish, ekologik toza brend imidjini yaratish va barqaror marketing strategiyasini shakllantirish masalalari muhim o‘rin egallagan. Shu nuqtai nazardan, vositachi eksport tashkilotlari kichik biznes subyektlarini xalqaro bozorlarga olib chiqishda, ekologik standartlar bo‘yicha maslahat berishda, innovatsion marketing mexanizmlarini joriy etishda asosiy bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatida kichik biznes eksportini rag‘batlantirishga qaratilgan huquqiy asoslar, xususan Bojxona kodeksi, tashqi savdo to‘g‘risidagi qonunlar va davlat dasturlari mavjud. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik biznes korxonalari eksport operatsiyalarida hujjatlarni tayyorlash, bojxona tartibotlaridan o‘tish, hamda ekologik va texnik reglamentlarga moslashish borasida vositachi tashkilotlarning ko‘magiga ehtiyoj sezmoqda.

Yashil iqtisodiyot sharoitida bunday tashkilotlar nafaqat eksport jarayonini soddalashtiruvchi institutsional mexanizm, balki innovatsion marketing vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Ular mahsulotni xalqaro ekologik talablar asosida joylashtirish (positioning), “yashil brend” yaratish, xalqaro iste’molchilar orasida ekologik qadriyatlarni targ‘ib etish va raqamli marketing texnologiyalarini qo‘llash orqali kichik biznes eksportini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

Shunday qilib, yashil iqtisodiyotga o‘tish sharoitida kichik biznes eksportini rivojlantirish uchun vositachi eksport tashkilotlari faoliyatini innovatsion marketing mexanizmlari asosida shakllantirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bu esa nafaqat kichik biznesning xalqaro raqobatbardoshligini oshiradi, balki mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishiga, ekologik xavfsizlikka va ijtimoiy farovonlikka xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi tizimli, kompleks va qiyosiy tahlil yondashuvlariga asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida kichik biznes eksport faoliyatini rivojlantirishda vositachi eksport tashkilotlarining innovatsion marketing mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliy tavsiyalarni taklif etishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy uslublardan foydalanildi:

Tizimli tahlil usuli orqali kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni, ularning o‘zaro bog‘liqligini hamda vositachi eksport tashkilotlarining funksional o‘rni aniqlandi (1-jadval).

1-jadval.

Kichik biznes eksport faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar tizimi[1]

Omillar turi	Asosiy elementlar	Ta’sir darajasi
Ichki omillar	Mahsulot sifati, narx siyosati, marketing salohiyati, raqamli tayyorgarlik	Yuqori
Tashqi omillar	Bojxona tartiboti, xalqaro sertifikatsiya talablari, logistika xarajatlari, vositachi tashkilotlar ko‘magi	Yuqori
Ekologik omillar	Yashil brendga talab, ekologik standartlar, davlat rag‘batlari	O‘rta

Qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston, Janubiy Koreya, Polsha va Turkiya kabi mamlakatlarda kichik biznes eksportini qo‘llab-quvvatlashda vositachi tashkilotlarning faoliyati o‘rganilib, ular o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar aniqlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval.

Vositachi eksport tashkilotlari faoliyatining qiyosiy tahlili[2]

Mamlakat	Asosiy vositachi tashkilot	Faoliyat yo‘nalishi	Xususiyat
O‘zbekiston	Export Promotion Agency	Eksportga ko‘mak, marketing treninglari	Dastlabki bosqich
Janubiy Koreya	KOTRA	Yashil eksport, global marketing	Raqamli platformalashgan
Polsha	PAIH	Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni xalqaro ko‘rgazmalarga jalb etish	Innovatsion grantlar
Turkiya	TIM (Turkish Exporters Assembly)	Ekologik sertifikatsiya, B2B ko‘mak	Yuq

SWOT-tahlil asosida kichik biznesning eksport salohiyatini oshirishda vositachi eksport tashkilotlarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari hamda tahdidlari baholandi (3-jadval).

3-jadval.

Kichik biznes eksportida vositachi tashkilotlarning SWOT-tahlili[3]

Toifalar	Mazmuni
Kuchli tomonlar (S)	Keng tarmoq tizimi, davlat qo‘llab-quvvatlovi, marketing kompetensiyasi
Zaif tomonlar (W)	Raqamli xizmatlar sustligi, xalqaro hamkorlikning cheklanganligi
Imkoniyatlar (O)	Yashil iqtisodiyotga o‘tish, ekologik mahsulotlarga talabning ortishi
Tahdidlar (T)	Global raqobat, ekologik talablarning qat’iylashuvi, moliyalashtirish cheklovlari

[1] Muallif ishlanmasi
[2] Muallif ishlanmasi
[3] Muallif ishlanmasi

SWOT tahlili natijasida aniqlandiki, vositachi tashkilotlar faoliyatini innovatsion marketing mexanizmlari (raqamli marketing, “yashil brend”, ekologik sertifikatlash xizmatlari) orqali kuchaytirish kichik biznes eksporti samaradorligini oshiradi.

Ekspert so‘rovi va kontent-tahlil marketing mutaxassislari, eksport tashkilotlari vakillari va kichik biznes subyektlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida innovatsion marketing yondashuvlarining samaradorligi o‘rganildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda ular bilan hamkorlik qiluvchi vositachi eksport tashkilotlari tanlandi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, kichik biznes eksportining umumiy hajmida vositachi tashkilotlar orqali amalga oshirilgan eksport ulushi o‘rtacha 26–30 foizni tashkil etgan. Quyidagi jadvalda ushbu ulushning 2020–2024-yillardagi dinamikasi keltirilgan (4-jadval).

4-jadval.

O‘zbekistonda kichik biznes eksportida vositachi tashkilotlar ulushi (2020–2024-yillar)[1]

Yil	Kichik biznes eksport hajmi (mln AQSH dollari)	Vositachi eksport tashkilotlari orqali (%)
2020	890	23
2021	1 020	26
2022	1 250	28
2023	1 470	30
2024	1 630	31

Ushbu o‘sish tendensiyasi kichik biznes subyektlari o‘rtasida vositachi tashkilotlarga bo‘lgan ishonch ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Quyidagi diagrammada ushbu jarayonning vizual tasviri keltirilgan:



1-rasm. Kichik biznes eksportida vositachi tashkilotlar ulushi dinamikasi (2020–2024)[2]

Ustun diagrammada 2020-yildan 2024-yilgacha vositachilar ulushi 23% dan 31% gacha oshib borayotgani aks ettirilgan.

[1] Manba: O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2025.

[2] Muallif ishlanmasi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, vositachi tashkilotlarning samaradorligi asosan marketing texnologiyalaridan foydalanish darajasiga bog‘liq. Jumladan, raqamli marketing, yashil brending, xalqaro ekologik sertifikatlash va ekologik qiymat asosidagi reklama vositalarini qo‘llash kichik biznes eksportining raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes eksportini rivojlantirish vositachi eksport tashkilotlari ishtirokisiz samarali kechmaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday tashkilotlar nafaqat tashqi bozorlarga chiqishdagi byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi, balki marketing innovatsiyalarini joriy etishda ham muhim rol o‘ynaydi.

1. Vositachi eksport tashkilotlari kichik biznes subyektlarini ekologik standartlar, sertifikatlash va xalqaro brend yaratish jarayonlarida ko‘maklashuvchi strategik marketing hamkori sifatida faoliyat yuritmoqda.

2. Yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan marketing mexanizmlari kichik biznes mahsulotlarini “eko-brend” sifatida xalqaro bozorlarda ilgari surish imkonini beradi.

3. Raqamli platformalarga asoslangan vositachi eksport xizmatlari (B2B va B2C elektron savdo tizimlari) eksport jarayonini tezlashtirish bilan birga, ekologik jihatdan samarador marketing tizimini yaratadi.

4. Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda marketing inkubatsiya markazlari va ekologik innovatsiyalar klasterlari tashkil etish zarur.

Davlat darajasida: Vositachi eksport tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy asosni takomillashtirish, ularga soliqqa oid imtiyozlar berish va yashil eksportni rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Tashkilot darajasida: Eksport vositachilari uchun “Green Marketing Hub” nomli yagona raqamli platformani yaratish, unda ekologik sertifikat, bozor tahlili, reklama va logistika xizmatlarini birlashtirish lozim.

Ilmiy va ta’lim sohasida: Yashil marketing bo‘yicha maxsus o‘quv modullarini oliy ta’lim muassasalarining marketing yo‘nalishlariga kiritish maqsadga muvofiq.

Amaliyot nuqtai nazaridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun “yashil eksport laboratoriyalari”ni tashkil etish, ular orqali ekologik tahlil, marketing strategiyasi va brending xizmatlarini taklif etish lozim.

Shunday qilib, vositachi eksport tashkilotlarining innovatsion marketing mexanizmlari nafaqat kichik biznes eksportini kengaytiradi, balki O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Porter, M. E., & Kramer, M. R. (2019). Creating Shared Value: How to Reinvent Capitalism and Unleash a Wave of Innovation and Growth. Harvard Business Review.

2. Kotler, P., & Keller, K. L. (2021). Marketing Management. 16th Edition. Pearson Education.

3. OECD (2023). Green Growth Indicators 2023. Organisation for Economic Co-operation and Development. Paris.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi. (2021-yil 1-yanvardan kuchga kirgan tahriri). Toshkent: Lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari. (2024). Kichik biznes subyektlarining tashqi savdo faoliyati bo‘yicha hisobotlar. Toshkent.

6. Elkington, J. (2018). Canibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Capstone Publishing.

7. Rashidov, A. & Tursunova, D. (2022). Innovatsion marketing yondashuvlari orqali kichik biznesning eksport salohiyatini oshirish mexanizmlari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” jurnali, №4, 45–53-betlar.

YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINING YASHIL IQTISODIYOTDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Qo‘ziyev Jaloladdin Alisher o‘g‘li
TDIU Marketing kafedrasi tayanch doktoranti
E-mail: jaloladdinxorazmiy@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tezisda yashil marketingning yashil iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari asosida tahlil qilingan. Mavzuga oid nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar umumlashtirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali marketing strategiyalarini qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. **Kalit so‘zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil marketing, raqamli iqtisodiyot, iste’molchi xulq-atvori, marketing strategiyasi.

Аннотация

В данном тезис проанализировано влияние «зелёного маркетинга» на развитие зелёной экономики на основе научных трудов отечественных и зарубежных учёных. Обобщены теоретические подходы и практический опыт по данной теме, раскрыты их взаимосвязи. Кроме того, разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по применению эффективных маркетинговых стратегий в развитии зелёной экономики.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёный маркетинг, цифровая экономика, поведение потребителей, маркетинговая стратегия.

Abstract

This thesis examines the impact of green marketing on the development of the green economy, drawing on the scientific studies of both domestic and foreign scholars. Theoretical approaches and practical experiences related to the topic are summarized, and their interconnections are highlighted. Furthermore, scientifically grounded proposals and recommendations have been developed on the application of effective marketing strategies in fostering the green economy.

Keywords: green economy, green marketing, digital economy, consumer behavior, marketing strategy.

XXI asrda global miqyosda yuzaga kelayotgan ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi, resurslardan ortiqcha foydalanish hamda sanoatning ekologik xavfsizlikka ta’siri insoniyatni barqaror rivojlanish g‘oyalarini yanada chuqurroq o‘rganishga undamoqda. Shu jarayonda “*yashil iqtisodiyot*” tushunchasi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning muhim konsepsiyalaridan biri sifatida shakllanib, nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlash, balki ijtimoiy farovonlikni oshirish va iqtisodiy samaradorlikni mustahkamlashning asosiy vositasi sifatida tahlil qilinmoqda. Yashil iqtisodiyotning asosini tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash kabi ustuvor yo‘nalishlar yotadi.

Mazkur jarayonlarda marketing faoliyati o‘ziga xos o‘rin tutadi. An’anaviy marketing asosan iste’molchilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lsa, yashil marketing ekologik xavfsiz, tabiiy resurslarga nisbatan tejamkor, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish hamda targ‘ib qilish orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki jamiyatning ijtimoiy va ekologik manfaatlarini ham inobatga oladi. Bu esa korxonalar uchun yangi raqobat ustunliklarini yaratish, iste’molchilar bilan uzoq muddatli ishonchli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va korporativ ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish imkonini beradi.

Yashil marketing strategiyalarining dolzarbligi shundan iboratki, ular bugungi kunda nafaqat milliy iqtisodiyot barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda, balki, xalqaro integratsiya jarayonlarida ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki ekologik talablar tobora kuchayib borayotgan sharoitda ishlab chiqarish va iste’molning “*yashil*” modeliga o‘tish, global bozorda ishtirok etishning zaruriy sharti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bois yashil marketing konsepsiyasini chuqur tadqiq etish, uning nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish, yashil iqtisodiyot rivojida tutgan o‘rni va ahamiyatini aniqlash ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Yashil iqtisodiyot va yashil marketing masalalari jahon miqyosida keng qamrovli ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlarning markazida turibdi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan strategik hujjatlar va dasturlar yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan. Mazkur hujjatlarda resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishiga moslashuv, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan. Nazariy jihatdan yashil marketing konsepsiyasining shakllanishiga F.Kotler, J.Ottman, M.Polonskiy kabi olimlarning tadqiqotlari muhim hissa qo‘shgan. Ularning ilmiy qarashlarida yashil marketing strategiyasining asosiy elementlari - mahsulot siyosati, narx belgilash, taqsimot kanallari va kommunikatsiya faoliyatini ekologik tamoyillar asosida tashkil etishning zarurligi asoslab berilgan. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish, ekologik samaradorlikni oshirish va yashil texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, milliy iqtisodiyotning tarmoqlarida ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalariga bag‘ishlangan ilmiy ishlar qatorida marketing yondashuvlari ham alohida o‘rin tutmoqda.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing strategiyalarini joriy etish korxonalar uchun nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki korporativ ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Yashil marketing konsepsiyasidan foydalanish mahsulot va xizmatlarning ekologik sifati hamda raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishda energiya va tabiiy resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, shuningdek, iste’molchilar ongida ekologik qadriyatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy amaliyotda esa ushbu jarayon hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, korxonalar tomonidan yashil marketing strategiyalarini to‘laqonli tatbiq etish mexanizmlari yetarlicha shakllanmagan. Shu sababli, ilmiy asoslangan marketing yondashuvlarini ishlab chiqish, normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, korxonalarda ekologik innovatsiyalarni keng joriy etish va iste’molchilarda ekologik ongni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yashil marketing strategiyalari yashil iqtisodiyotning ajralmas qismi bo‘lib, iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ularni milliy amaliyotda keng tatbiq etish orqali korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro bozor talablariga moslashish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.12.2022 yildagi PQ-436-son

2. World Economic and Social Survey 2011: The Great Green Technological Transformation / Department of Economic and Social Affairs of the United Nations Secretariat (DESA). — New York: United Nations, 2011. E/2011/50/Rev. 1ST/ESA/333.

3. Порфиръв Б.П «Зеленая» экономики :реалии перспективы и переделы роста .-М.;Карнеги,,,2013

4. Навстречу “зеленой” экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бэсса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендаль, 2011.

5. Greening the Global Economy. Hardcover- November 13, 2015.

RAQOBAT RAZVEDKASI ORQALI YASHIL MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OPTIMALLASHTIRISH

Tursunxo‘jayev Sardor Jamoliddin o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish
va Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi
huzuridagi Raqobat siyosati va iste’molchilar
huquqlari tadqiqotlari markazi ilmiy kotibi, PhD
Tel: +998 93 582-42-33

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda raqobat razvedkasi vositalarining yashil marketing strategiyalarini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Sifatli kontent tahlili asosida ekologik qadriyatlarga asoslangan marketing qarorlarining samarali shakllanishida raqobat axborotining strategik vazifasi ochib berildi. Tahlillar asosida konseptual model ishlab chiqilib, raqobat razvedkasining axborot manbalaridan boshlab marketing natijalarigacha bo‘lgan integratsiyalangan ta’sir doirasi namoyon qilindi. Natijalar kompaniyalar uchun ekologik pozitsiyani kuchaytirish va iste’molchi ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: raqobat razvedkasi, yashil marketing, strategik qarorlar, ekologik brend, barqarorlik, axborot tahlili

Аннотация

В данном исследовании проанализирована роль инструментов конкурентной разведки в формировании стратегий зелёного маркетинга. На основе качественного контент-анализа раскрыта стратегическая функция конкурентной информации в разработке эффективных маркетинговых решений, основанных на экологических ценностях. Разработана концептуальная модель, отражающая интегрированное влияние конкурентной разведки от источников информации до маркетинговых результатов. Полученные выводы способствуют укреплению экологической позиции компаний и повышению доверия потребителей.

Ключевые слова: конкурентная разведка, зелёный маркетинг, стратегические решения, экологический бренд, устойчивость, анализ информации

Abstract

This study examines the role of competitive intelligence tools in shaping green marketing strategies. Through qualitative content analysis, the strategic function of competitive information in developing effective marketing decisions based on environmental values is explored. A conceptual model is developed, illustrating the integrated influence of competitive intelligence from information sources to marketing

outcomes. The findings contribute to strengthening companies' ecological positioning and enhancing consumer trust.

Keywords: competitive intelligence, green marketing, strategic decisions, ecological brand, sustainability, information analysis

KIRISH

Kompaniyalar o‘z faoliyatida tobora ko‘proq ekologik mas'uliyatni strategik yo‘nalish sifatida qabul qilmoqda. Tashkilotlar atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga, bozorda raqobatbardosh qolishni ham muhim deb bilmoqda. Aynan shu nuqtada raqobat razvedkasi marketing strategiyalarini ekologik yondashuv bilan uyg‘unlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bozordagi o‘zgarishlarni oldindan ko‘ra bilish, iste'molchilarning ekologik qadriyatlarini tahlil qilish va raqobatchilar faoliyatidan samarali saboq chiqarish imkoniyati aynan raqobat razvedkasi orqali yuzaga chiqadi.

Yashil marketing endi faqat kommunikatsiya vositasi emas, balki kompaniyaning ichki siyosatiga singdirilgan, brend qadriyatlari bilan bog‘liq kompleks yondashuvga aylangan. Tashkilotlar mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, yetkazib berish, qadoqlash va xizmat ko‘rsatishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda ekologik mezonlarga asoslanishga harakat qilmoqda. Bunday qarorlarni strategik darajada asoslash uchun esa real va aniq axborot manbasi zarur. Raqobat razvedkasi aynan shu ehtiyojni qondiradi: u orqali kompaniyalar bozordagi signal va tendensiyalarni aniqlab, qarorlarini dalillarga asoslab oladi.

Mazkur tadqiqotda raqobat razvedkasining yashil marketing strategiyalarini shakllantirishdagi amaliy va nazariy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqobat razvedkasi vositalari orqali ekologik yo‘nalishdagi marketing strategiyalarini qanday optimallashtirish mumkinligini aniqlash, konseptual model shaklida ifodalash hamda bu asosda kompaniyalarga foydali yo‘nalishlar taklif qilishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Одним из наиболее показательных примеров является Amazon. Компания на протяжении последних лет системно внедряет программы сокращения упаковки. Так, инициатива Packaging Reduction позволила снизить вес упаковки на одно отправление в среднем на 43 % с 2015 года. По данным самой компании, это позволило избежать использования более 4,2 миллиона метрических тонн упаковки за период с 2015 по 2023 годы [4]. В 2023 году около 12 % всех заказов по миру были отправлены без дополнительной коробки Amazon, то есть использовалась только базовая упаковка производителя. Кроме того, использование одноразового пластика в упаковке было снижено на 16,4 % всего за один год [11].

Не менее важные результаты демонстрирует логистический сектор. По данным DHL и Международного почтового союза, с 2008 года крупнейшие почтовые операторы мира сократили свои ежегодные выбросы CO_2 почти на 40 % благодаря внедрению экологичных транспортных средств, оптимизации маршрутов и переходу на возобновляемую энергию [12]. Только у DHL в Германии к 2024 году в парке насчитывалось около 35 000 электромобилей, что существенно снижает углеродный след «последней мили» доставки.

Эти данные показывают, что экологические инициативы дают не только имиджевый, но и практический эффект. Сокращение упаковки уменьшает расходы на материалы и логистику, а переход на «зелёный» транспорт позволяет компаниям сокращать издержки при росте цен на топливо. Одновременно это усиливает лояльность клиентов: исследования показывают, что более 60 % покупателей по всему миру предпочитают бренды, которые демонстрируют заботу об экологии.

Patagonia, внедрив программу Worn Wear по ремонту и перепродаже одежды, зафиксировала рост лояльности к бренду на 60% и снижение потребления новых товаров на 35% [5]. Unilever, перейдя на биоразлагаемую упаковку для онлайн-продаж, ежегодно сокращает пластиковые отходы на 75 тыс. тонн, что сопровождалось ростом продаж «устойчивых брендов» на 10% [6]. Nike в рамках программы Move to Zero представила коллекцию Space Hippie, на 90% произведенную из переработанных материалов. Уже в первый квартал онлайн-продажи данной линейки выросли на 30% [7]. Компания Zalando ввела маркировку «Sustainability Flag» для товаров, произведенных из переработанных материалов. По данным отчёта Zalando (2022), ассортимент товаров с экологическими атрибутами вырос до более чем 180 000 позиций, и доля таких товаров в общем обороте (GMV) составила 17 % [10].

Таким образом, внедрение экологических практик оказывает мультипликативный эффект: снижает негативное воздействие на окружающую среду и одновременно улучшает финансовые показатели компаний.

Современные потребители ожидают от брендов не только качества товара, но и социальной ответственности. Исследования Deloitte (2023) показывают, что устойчивость становится критерием выбора бренда для большинства молодых покупателей [8]. В сегменте e-commerce это выражается в интересе к

экологичной упаковке, опции выбора «зеленой доставки» и прозрачности отчетности компаний о снижении углеродного следа.

Электронная коммерция в Узбекистане развивается быстрыми темпами: по данным Министерства цифровых технологий [1], рост составил 34% в 2023 году. Основными игроками рынка являются Uzum Market, ZoodMall, Texnomart и ряд локальных сервисов доставки.

Какие практики могут быть переняты:

1. Uzum Market может перенять опыт Amazon и Alibaba по сокращению упаковки. Даже если удастся оптимизировать упаковку хотя бы на 20–25 %, это снизит затраты на материалы и логистику, а также сократит количество отходов. При объёмах Uzum (сотни тысяч заказов ежемесячно) экономия может быть значительной.

2. Korzinka.uz и Makro могут ориентироваться на европейские сети вроде Carrefour и Tesco. Введение депозитной системы для пластиковых бутылок и активное продвижение многоразовых сумок позволит сократить отходы и сформировать образ социально ответственных компаний. По данным международной практики, такие инициативы увеличивают повторные визиты покупателей и укрепляют их привязанность к бренду.

3. Texnomart и Mediapark могли бы применить подход Best Buy и MediaMarkt, запустив программы trade-in и переработки электроники. С учётом того, что в Узбекистане уровень обновления смартфонов и бытовой техники высок, это создаст новый канал возврата покупателей и усилит экологическую составляющую бренда.

4. Локальные fashion-селлеры и бренды (LC Waikiki UZ, Redtag, Selfie, Core, Signora, магазины на Uzum) могут опираться на примеры Zalando и Patagonia, выделяя раздел «устойчивая мода» и предлагая коллекции из переработанных тканей. Это особенно важно для поколения Z и миллениалов, которые более чувствительны к вопросам экологии.

5. Курьерские сервисы (Express24, Yandex Go, MyTaxi, Uzum Tezkor, Wolt, Uklon) могут внедрить формат «эко-доставки» на электроскутерах или велосипедах, а также предлагать объединённые заказы для сокращения углеродного следа. Опыт DHL и почтовых операторов показывает, что это позволяет сократить выбросы на десятки процентов и одновременно снизить расходы на топливо.

Таким образом, узбекские компании имеют возможность не просто копировать международный опыт, а адаптировать его к местным условиям. Для рынка это создаст конкурентное преимущество: первые игроки, внедрившие эко-практики, смогут занять позицию лидеров устойчивого бизнеса и привлечь внимание не только покупателей, но и международных партнёров и инвесторов. Анализ мирового опыта показывает, что экологические инициативы в e-commerce оказывают комплексное влияние: способствуют сокращению негативного воздействия на окружающую среду, повышают доверие и

лояльность потребителей, стимулируют продажи и укрепляют рыночные

позиции компаний. Для Узбекистана адаптация подобных практик является стратегически важной задачей, позволяющей одновременно поддерживать экономический рост и интеграцию в глобальные устойчивые цепочки поставок.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Министерство цифровых технологий Республики Узбекистан. Отчет по цифровой экономике. 2023. URL: https://mitc.uz/ru
2. Statista. E-commerce worldwide report. 2024. URL: https://www.statista.com/outlook/dmo/ecommerce/worldwide
3. Nielsen. Global Corporate Sustainability Report. 2022. URL https://ashtonmanufacturing.com.au/66-of-consumers-willing-to-pay-more-for-sustainable-goods-nielsen-report-reveals
4. Amazon. Sustainability Report. 2023. URL: https://sustainability.aboutamazon.com/report
5. Patagonia. Impact Report. 2022. URL: https://www.patagonia.com/impact-report
6. Unilever. Sustainable Living Report. 2021. URL: https://www.unilever.com/planet-and-society/sustainability-reporting
7. Nike. Sustainability Report. 2021. URL: https://purpose.nike.com/reports
8. Deloitte. Global Consumer Report. 2023. URL: https://www2.deloitte.com/insights/us/en/industry/retail-distribution/global- consumer-tracker.html
9. 63% of consumers prefer to purchase from purpose-driven brands (Marketing Dive). URL: https://www.marketingdive.com/news/63-of-consumers-prefer-to-purchase-from-purpose-driven-brands-study-finds/543712
10. Zalando Sustainability Progress Report 2022. In 2022, products with sustainability-related attributes accounted for 17 % of GMV; 58 % of GMV was generated with more sustainable products under earlier criteria. URL: https://www.responsibilityreports.com/HostedData/ResponsibilityReportArchive/z/zalando_2022.pdf
11. Packaging Dive: «Amazon charts 28% drop in North American shipments containing single-use plastic packaging» — Amazon-отчёт 2024. URL: https://packagingdive.com
12. DHL / Green Postal Day 2024: «Postal companies worldwide have reduced their total annual CO_2 emissions by nearly 40 % since 2008». URL: https://group.dhl.com/en/media-relations/press-releases/2024/green-postal-day- postal-companies-worldwide-have-reduced-their-total-annual-co2-emissions-by-nearly-40-percent-since-2008.html

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING KONSEPSIYALARINI QO‘LLASH: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Xursandov Komiljon Maxmatkulovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
iqtisodiyot fanlari nomzodi v. b. dotsent, PhD
E-mail: komiljonXursandov1987@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada mashinasozlik sanoatini rivojlantirishda yashil investitsiyalarni jalb etish va ularning ekologik barqarorlik, yashil texnologiyalar hamda iqtisodiy o‘sishga ta’siri tahlil qilinadi. AQSH, Yevropa va O‘zbekiston tajribasi asosida yashil iqtisodiyotga o‘tishdagi samarali mexanizmlar, jumladan, “Kelajak uchun sarmoya” dasturining nazariy asoslari ochib berilgan. Tadqiqotda yashil transport, chiqindisiz ishlab chiqarish va barqaror investitsiya muhitining ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yashil investitsiya, mashinasozlik sanoati, ekologik barqarorlik, yashil texnologiyalar, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В статье рассмотрено значение «зеленых инвестиций» в развитии машиностроительной отрасли и их влияние на экологическую устойчивость, технологическое обновление и экономический рост. На основе опыта США, Европы и Узбекистана проанализированы эффективные механизмы перехода к зеленой экономике. Представлена авторская программа «Инвестиции в будущее» как инновационный подход к формированию устойчивых производственных цепочек.

Ключевые слова: зеленые инвестиции, машиностроение, экологическая устойчивость, зеленые технологии, устойчивое развитие.

Abstract

This article explores the role of green investments in developing the machinery industry and their contribution to ecological sustainability, technological advancement, and economic growth. Drawing from the experiences of the US, Europe, and Uzbekistan, it highlights effective green economy mechanisms. The study introduces the “Investment for the Future” program as a strategic tool for fostering sustainable manufacturing and environmental resilience.

Keywords: green investment, machinery industry, ecological sustainability, green technologies, sustainable development.

Mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirish jahon miqyosida zamon talabiga aylanib borayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mazkur tarmoqni rivojlantirishda jahondagi rivojlangan ko‘plab xorijiy davlatlarda bir qator yangi tajribalar keng qo‘llanib kelinmoqda. Jumladan, yangi innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yashil texnologiyalar

va yashil energiya manbalaridan samarali foydalanish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan eko mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarish, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimini takomillashtirish, yashil investitsiya manbalarini kengaytirish hamda jahon miqyosida mavjud bo‘lgan amaliyotdagi yangi tajriba va dasturlardan keng foydalanish mashinasozlik sanoati tarmog‘ini jahon standartlari asosida yuqori sur’atlarda rivojlanishini ta’minlab bermoqda. Shuning uchun ham xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganish, yashil investitsiyalardan samarali foydalanish metodlarini tahlil qilish, yashil iqtisodiyotga bog‘langan holda tashkil etilgan yangi boshqaruv tizimlarini va atrof-muhit barqarorligini ta’minlashga qaratilgan yangi dasturlarini tahlil qilish kabi zamonaviy xorijiy tajribalarni keng miqyosda o‘rganish mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan eng muhim jarayon hisoblanadi. Shu boisdan, rivojlangan davlatlardagi tajribalarga qaraydigan bo‘lsak, bugungi kunda mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish borasida tadqiqotchi olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda mazkur tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan global darajadagi innovatsiyalarga asoslangan yangi islohotlar ham jadallik bilan amalga oshirib kelinmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlarida hozirgi kunga kelib mashinasozlik sanoati tarmog‘ining tarkibini ko‘plab tarmoqlar qamrab olgan bo‘lib, ularga quyidagi 13 ta turdagi eng rivojlangan tarmoqlar kiradi. Jumladan:

- o‘g‘ir sanoat, energetika va transport mashinasozligi;
- stanoksozlik va instrumental sanoat;
- transport va qishloq xo‘jalik mashinasozligi;
- aviatsiya sanoati;
- elektrotexnika sanoati;
- asbobsozlik sanoati;
- yo‘l qurilishi va kommunal mashinasozligi;
- kemasozlik sanoati;
- metall va metall parchalariga ishlov berish sanoati;
- kimyo va neft-kimyo mashinasozligi;
- avtomobil sanoati;
- oziq-ovqat va yengil sanoat mashinasozligi hamda butlovchi asbob uskunalar;
- aloqa vositalari sanoati kabi bir qator tarmoqlardan iborat bo‘lib, ushbu tarmoqlarning barchasi umumiy mashinasozlik tarmog‘i deb ataladi. Jahonda mazkur tarmoqlarni barchasi global sur’atlarda yashil investitsiyalar orqali rivojlanib bormoqda. Bunga sabab, atrof-muhitning barqarorligini oshirish hamda chiqindilarsiz yashil texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish hisoblanadi. Jumladan, xorij tajribalariga qaraydigan bo‘lsak, eng rivojlangan davlatlardan biri bo‘lgan AQSh tajribasini ko‘rib chiqamiz.

AQSH tajribasi. Bugungi kunda AQSh davlatini mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishida yashil investitsiyalarning roli juda ham yuqori bo‘lib, mamlakatda mashinasozlik sanoati tarmog‘ining 13 ta turdagi barcha tarmoqlari yashil investitsiyalarni hisobiga global sur’atlarda rivojlanib kelmoqda. Chunki, yashil

investitsiyalar xavfsiz bo‘lib, mamlakatdagi ekologik barqarorlikni oshirishga hamda korxonalarda chiqindisiz ishlab chiqarishni yangi imkoniyat-larini rivojlanishiga xizmat qiladi. AQSH davlatining mashinasozlik sanoati dunyodagi eng yetakchi va yuqori o‘rinni egallagan tarmoqlardan biri hisoblanadi. Bunga sabab, mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi barcha tarmoqlarni rivojlanganligi va mazkur tarmoqlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ulushi dunyo bozorini egallab olganligi sanaladi. Xususan, AQSH davlatida yashil investitsiyalar asosan quyidagi 1.1-jadvalda ko‘rsatib o‘tilgan tarmoqlarga kiritilmoqda.

1.1-jadval

Yashil investitsiyalar kiritilgan tarmoqlarning nomlari va moliyalashtirish maqsadlari[1]

T/r.	Tarmoqlarning nomi	Moliyalashtirish maqsadlari
1.	Qayta tiklanadigan energiya manbalari	Davlatni ichki energiya manbalari bilan ta’minlash
2.	Energiya samaradorligi	Energiya muammolarini bartaraf etish
3.	Ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish	Davlatda ekologik barqarorlikni ta’minlash
4.	Tirik tabiiy resurslar va yerdan foydalanishni ekologik jihatdan barqaror boshqarish	Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish
5.	Quruqlik va suv biologik xilma-xilligini saqlash	Yangi loyihalarni ishga tushirish
6.	Toza transport: elektr, gibrid, jamoat transporti, temir yo‘l, motorsiz, multimodal transport, toza avtomobil infratuzilmasi va chiqindilarni kamaytirish	Yashil transport turlarini joriy etish
7.	Suv va oqava suvlarni barqaror boshqarish	Ichimlik suvini asrab-avaylash
8.	Iqlim o‘zgarishiga moslashish	Global ekologik muammolarni oldini olish
9.	Ekologik jihatdan samarali va moslashtirilgan aylanma iqtisodiyot mahsulotlari, ishlab chiqarish texnologiyalari va jarayonlari	Yangi iqtisodiy imkoniyatlarni joriy etish
10.	Mintaqaviy, milliy yoki xalqaro miqyosda tan olingan standartlar yoki sertifikatlarga javob beradigan yashil binolar	Yashil binolarni qurish va ulardan samarali foydalanish

Mazkur 1.1-jadvaldan ko‘rinadiki, AQSH davlatida yashil investitsiyalardan samarali foydalanish asosan 10 xil turdagi tarmoqlarga sarflanmoqda. Natijasi esa davlatning bir qator dolzarb maqsadlarini ijobiy hal etilishiga yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Ushbu 10 xil yo‘nalishdagi tarmoqlar barchasi o‘zaro bir-biriga uzviy bog‘langan tarmoqlar sanaladi. Chunki, birgina 6-tarmoq ya’ni toza transport elektr, gibrid, jamoat transporti, temir yo‘l, motorsiz, multimodal transport, toza avtomobil infratuzilmasi va chiqindilarni kamaytirish uchun yuqoridagi barcha tarmoqlarni hissasi mavjud bo‘ladi. Chunki, toza transportni ishlab chiqarishdan asosiy maqsad

[1] Muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.

mamlakatdagi qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiya samaradorligini tejash, ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish, tirik tabiiy resurslar va yerdan foydalanishni ekologik jihatdan barqarorligini saqlab qolish hamda iqlim o‘zgarishiga moslashish kabi barcha tarmoqlarga o‘zaro ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham ushbu 10 ta eng dolzarb bo‘lgan tarmoqlarni yashil investitsiyalar orqali moliyalashtirish mamlakatda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, AQSH sanoatining ko‘rsatkichlari yildan-yilga yuqori sur’atlarda o‘sib bormoqda. Jumladan, ishlab chiqarish sanoati 2023-yilda YaIMning tarkibida 2,9 trln. dollar ya’ni 10 foiz ulushni qayt etgan bo‘lib, buning natijasida esa tarmoqda jami 13 million kishi ish bilan bandligi ta’minlangan. Mazkur ko‘rsatkich AQShdagi jami mehnat bandligining 8,3 foizini tashkil etadi[1].

Xalqaro tashkilotlar tajribasi. Bunda asosan BMT Taraqqiyot dasturi tomonidan MDH mintaqasida barqaror rivojlanishni moliyalashtirish salohiyatini kuchaytirish loyihasi doirasida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish sohasida mamlakatlarning ilg‘or jahon tajribasi va metodologiyasini baholovchi tahlili bo‘yicha hisobot ishlab chiqilgan. Ushbu loyiha Rossiya Federatsiyasi hukumati tomonidan Yevrosiyo taraqqiyot banki ko‘magida moliyalashtirilgan. Mazkur loyihadagi tadqiqotning maqsadi mamlakatlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va yashil iqtisodiyot sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish sohasidagi ilg‘or jahon tajribasi va metodologiyalarini tahlil qilish, shuningdek, Sobiq sovet ittifoqi va Yevrosiyo makonida yashil iqtisodiyot va yashil moliyalashtirishni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu tadqiqotlar Yevrosiyo taraqqiyot banki (YTB), Xalqaro taraqqiyot banki (XTB) va Xalqaro moliya tashkiloti (XMT) ko‘magida tashkil etilgan.

Ushbu tadqiqot Yevrosiyo taraqqiyot banki (YTB), Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YII), Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi (YIK), MDH mintaqasi mamlakatlarining davlat idoralari va Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YII)ga a’zo davlatlariga tatbiq etilgan. Mazkur xalqaro tashkilotlarning tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, Yevropa va Sobiq ittifoq hududida joylashgan mamlakatlardagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda bevosita yashil investitsiyalardan samarali foydalanishning yangi tajribalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Jumladan, statistik tahliliy ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, qayta tiklanadigan energiya bo‘yicha xalqaro agentlik (IRENA) hisob-kitoblariga ko‘ra, agar xalqaro hamjamiyat qayta tiklanadigan energiya imkoniyatlaridan to‘liq foydalansa, 2050-yilga borib qayta tiklanadigan energiya sektorida 40 milliondan ortiq kishi ish bilan ta’minlanishi keltirib o‘tilgan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hisob-kitoblariga ko‘ra, AQSHda ekotizimni tiklash bevosita 126 000 ishchini ish bilan ta’minlaydi va har yili 9,5 milliard dollar iqtisodiy mahsulot ishlab chiqarishi bayon etilgan. Bundan tashqari, mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishga qaratilgan yashil texnologiyalarni joriy etish va yashil transport tizimini rivojlantirishga qaratilgan yangi dasturlar ham qabul qilingan. Shuning uchun ham mazkur xalqaro

[1] https://think.ing.com/articles/us-manufacturing-outlook-better-times-are-coming/

tashkilotlarning tajribasiga ko‘ra, quyidagi bir qator davlatlarning tajribasi o‘rganib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tajribasi. O‘zbekiston davlatining tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, mamlakatimizda ham mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishida bevosita yashil iqtisodiyotni tez sur’atlarda o‘sib borayotganligi, yashil investitsiyalarni hajmi yildan-yilga ortib borishi hamda yashil texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etilayotganligi mazkur tarmoqni rivojlanishiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. Jumladan, Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni jadallik bilan rivojlantirish va yashil investitsiyalarni keng jalb etish borasida ko‘plab yangi islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi “Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi” maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5128-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga ko‘ra, mashinasozlik va elektrotexnika sanoatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash, import o‘rnini bosuvchi, eksport bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonini to‘liq yo‘lga qo‘yish, qulay investitsiya muhitini yaratish hamda yuqori texnologiyali va zamonaviy investitsiya loyihalarini amalga oshirish[1] vazifalari belgilab berildi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli qaroriga ko‘ra, quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash dasturini joriy etish;
- transport va chiqindilarni boshqarishning barqarorligini ta’minlash hamda respublikada “yashil” (eko) turizmni rivojlantirish;
- transport infratuzilmasini rivojlantirishni hisobga olgan holda, shahar aglomeratsiyasi shakllanishini takomillashtirish;
- transport, yo‘llar, suv ta’minoti va kanalizatsiya, “yashil” maydonlar va yo‘laklar, shahar va shahar atrofida o‘rmonlar yaratish;
- barcha turdagi transport vositalari uchun sarf qilinadigan energiya resurslari me’yorlarini ishlab chiqish;
- yashil investitsiyalar konsepsiyasini amaldagi investitsiya siyosati va loyihalariga integratsiya qilish;
- yashil investitsiyalar va kreditlar uchun rag‘batlantiruvchi fiskal va monetar imtiyozlar ishlab chiqish;
- yashil” obligatsiyalar orqali “yashil” infratuzilma uchun xususiy kapitalni jalb qilish;

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-may PQ-5128-son “Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi” maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-5435615

- yashil moliya sohasida salohiyatni oshirish, davlat va xususiy “yashil” investitsiya loyihalarini ishlab chiqish[1] kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmoniga ko‘ra, quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- 2025-yildan boshlab shakllantiriladigan investitsiya dasturlari, tarmoq, sohalar va hududlarni rivojlantirish bo‘yicha yangi loyihalarning 15 foizida, 2027-yildan boshlab — 30 foizida, 2030-yildan boshlab — 55 foizida “yashil komponentlar” bo‘lishi lozim;
- 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirish (Climate Finance) tizimini takomillashtirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish;
- yashil moliya va yashil iqtisodiyot pavilyonini tashkil etish;
- yashil transportda shu jumladan, velosipedda harakatlanishni rag‘batlantirish;
- milliy transport tizimini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisobiga mamlakatning barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlash;
- avtomobil transporti sohasini raqamlashtirish[2] kabi dolzarb vazifalarni belgilab berilishi mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni hamda mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabrdagi “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 561-sonli qaroriga ko‘ra, quyidagi vazifalar belgilab berildi:

- yashil transport sohasida yashil infratuzilmasini rivojlantirish;
- kam uglerodli transport vositalarini shu jumladan, elektr transport vositalarini, vodorod, gibrid dvigatellarda ishlaydigan transport vositalarini joriy etish;
- yashil obligatsiyalar va kreditlar, shuningdek boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan yashil turdagi loyihalarni rivojlantirish[3] kabi ustuvor vazifa va chora-tadbirlarni amalga oshirilishi ham mamlakatimizdagi yashil tizimni rivojlanishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish orqali yangi imkoniyatlarni amaliyotga keng tatbiq etish mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi muammolarni hal etishga qaratilgan samarali yechimlardan biri hisoblanadi. Mazkur yangi yechimni joriy etish maqsadida, ilmiy tadqiqot ishimiz doirasida quyidagi birinchi ilmiy yangilikni amaliyotga tatbiq etdik. Jumladan, uslubiy yondashuvga ko‘ra “Mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/ru/docs/-6303230

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar PF-16-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-7369703

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabr 561-sonli “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-6644013 .

investitsiyalardan foydalanish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi yashil investitsiyalarni salmog‘ini oshirish va yashil transport tizimini rivojlantirish, ekologik barqarorlikni o‘sishini ta’minlashda unga ta’sir etuvchi omillarni o‘zaro integratsiyalash asosida mashinasozlik sanoati tarmog‘ining tarkibiy o‘zgarishlariga ko‘maklashish va kelajakka mos qiymat zanjirlarini yaratishga qaratilgan “Kelajak uchun sarmoya” nomli yangi dasturi asoslangan bo‘lib, mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga tatbiq etilishi natijasida oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarda mashinasozlik sanoati tarmog‘ida yashil investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllanishiga, xorijiy tajribalarni o‘rganishga, yashil texnologiyalarni tahlil qilishga, yashil transport tizimini rivojlantirishga doir tavsiyalarni egallashga hamda mamlakatimizdagi ekologik barqarorlikni saqlab qolishga qaratilgan ilmiy va amaliy jihatdan tavsiya etilgan yangiliklarni ilmiy tadqiqotlari doirasida qo‘llashga doir yangi tajribalarni egallashlariga xizmat qiladi.

Mazkur “Kelajak uchun sarmoya” nomli yangi dasturining asosiy maqsadi mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishiga hamda tarmoqning kelajakdagi kutiladigan mavjud muammolarini bartaraf etishga qaratilgan sarmoya bo‘lib, hozirgi kunda amaliyotdan mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishga va kelajakdagi muammolarini bartaraf etishga qaratilgan sarmoya tizimi mavjud emas, faqatgina davlat byudjetidan joriy 1 yil uchun ajratiladigan mablag‘lar mavjud, biroq ushbu yangi dasturning imkoniyatlariga o‘xshab keyingi 10 yil, 15 yil va 20 yil uchun oldindan sarmoya ajratilmagan. Ushbu sarmoyani eng samarali jihati shundaki, agar mamlakatda mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi korxonalarda iqtisodiy qaramlik kuzatilsa, moliyaviy yo‘qotishlar paydo bo‘lsa hamda iste’molchilar tomonidan avtomobillarni xarid qilish qobiliyatlari pasayganda ularni rag‘batlantiruvchi tizim sifatida ham foydalanish imkoniyatini beradi. Davlat byudjeti tejalib boradi. Qolaversa, tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan “Bonus” sifatida ham xalqaro tajribada baholanadi. Shuning uchun ham, mazkur yangi dasturni joriy etilishi mashinasozlik sanoati tarmog‘i uchun oldindan investitsiya mablag‘larini to‘plab borish imkoniyatini ham yaratib beradi. Ushbu dasturning imkoniyatlari ko‘p bo‘lganligi uchun ham yangi dastur sifatida amaliyotga joriy etish mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ida yangi imkoniyatlarini yaratilishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlardagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha tajribalari o‘rganib chiqildi. Barcha tajribalardan ko‘rish mumkinki, mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishi bevosita bugungi kunda yashil investitsiyalarga bog‘liq bo‘lib, yashil investitsiyalar nafaqat mamlakatdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishiga, balki mamlakatlardagi yashil iqtisodiyotni, yashil texnologiyalarni, yashil transport tizimini, ekologik barqarorlikni hamda yashil loyihalarni rivojlanishiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Yashil investitsiyalarni salmog‘ini oshirish mamlakatdagi yashil transport tizimini yuksalishini ta’minlaydi. Qolaversa, xorijiy davlatlardagi yashil investitsiyalardan samarali foydalanishning yangi tajribalarini o‘rganish

mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi mavjud bo‘lgan ko‘plab muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi innovatsion yechimlarni amaliyotga keng tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb talabiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham, mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish ekologik holatni yaxshilash omili sifatida e’tirof etilmoqda.Yuqoridagi keltirib o‘tilgan ilmiy tadqiqot ishlarida, nazariy jihatdan olib borilgan ilmiy tajribalarda, bir qator ilmiy manbalardagi keltirib o‘tilgan ilmiy asoslarda hamda muallif tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining xulosalarida haqiqatan ham bugungi kunda mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirish uchun yashil investitsiyalardan samarali foydalanish mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan eng muhim innovatsion yechim ekanligi hamda mashinasozlik sanoati tarmog‘i tarkibidagi korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini ekologiyaga ta’sirini yaxshilashga qaratilgan ijobiy omil ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Shuning uchun ham, mashinasozlik sanoati tarmog‘ida yashil investitsiyalarni jadallik bilan rivojlantirish mamlakatimizdagi ekologik holatni yaxshilanishiga va ekologiyani, atrof-muhitni hamda tabiatni yuqorida darajada barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon miqyosida va mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan kelib chiqib, bugungi kunda mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishida ko‘plab omillarni ta’siri mavjud bo‘lib, ularni ichida eng asosiy omillar tasnifi yirik ikki guruhga bo‘linadi. Mashinasozlik tarmog‘ini rivojlanishi bevosita ijobiy va salbiy omillarga bog‘liq jarayon hisoblanadi. Chunki, ijobiy omillar tufayli tarmoqni rivojlanishiga erishilsa, salbiy omillar tufayli esa tarmoqdagi ko‘rsatkichlarni asta-sekin pasayishiga erishiladi. Har ikki omillar tasnifi o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lib ularni doimo nazorat qilib borish talab etiladi. Sababi, salbiy omillarni ortib ketishi tarmoqni rivojlanishga xavf-xatarlarni oshirib yuborsa, ijobiy omillarni ortib ketish esa tarmoqdagi muammolarni aniqlash imkoniyatlarini yo‘qotilishiga olib keladi. Shuning uchun ham mazkur ikkita omillarni o‘zaro tasnifini me’yoriy jihatlarini saqlab qolish lozim bo‘ladi. Shundagina tarmoqda rivojlanish ko‘rsatkichlari yuqori sur’atlarda o‘sib borishiga erishiladi. Faqatgina ijobiy omillarni aniqlash va o‘rganish, ularni rivojlantirish tarmoqni rivojlanishini oshishiga sabab bo‘lmaydi. Eng katta xavf-xatar salbiy omillarni aniqlash va o‘rganish hamda ularni bartaraf etish hisoblanadi. shuning uchun ham salbiy omillarni kamaytirish hisobiga ijobiy omillarni oshishga erishiladi. Natijada esa tarmoqni rivojlanishi yuzaga keladi.

Ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy davlatlardagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlantirishda yashil investitsiyalardan samarali foydalanish bo‘yicha tajribalari o‘rganib chiqildi. Barcha tajribalardan ko‘rish mumkinki, mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishi bevosita bugungi kunda yashil investitsiyalarga bog‘liq bo‘lib, yashil investitsiyalar nafaqat mamlakatdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘ini rivojlanishiga, balki mamlakatlardagi yashil iqtisodiyotni, yashil texnologiyalarni, yashil transport tizimini, ekologik barqarorlikni

hamda yashil loyihalarni rivojlanishiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi. Yashil investitsiyalarni salmog‘ini oshirish mamlakatdagi yashil transport tizimini yuksalishini ta’minlaydi. Qolaversa, xorijiy davlatlardagi yashil investitsiyalardan samarali foydalanishning yangi tajribalarini o‘rganish mamlakatimizdagi mashinasozlik sanoati tarmog‘idagi mavjud bo‘lgan ko‘plab muammolarni bartaraf etishga qaratilgan yangi innovatsion yechimlarni amaliyotga keng tatbiq etilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. https://think.ing.com/articles/us-manufacturing-outlook-better-times-are-coming/

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-may PQ-5128-son “Mashinasozlik va elektrotexnika maxsus sanoat xabi” maxsus sanoat zonasini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-5435615

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabr PQ-436-sonli “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/ru/docs/-6303230 .

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvar PF-16-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “Yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni https://lex.uz/uz/docs/-7369703

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktyabr 561-sonli “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-6644013

YANGI O‘ZBEKISTONDA ZAMONAVIY MARKETINGNING RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

M.A.Yusupov
TDIU “Marketing” kafedrasi
professori, i.f.n.

Annotatsiya

Maqolada Yangi O‘zbekistonda zamonaviy marketing tizimini rivojlantirish, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanganligi ko‘rsatilgan. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar, innovatsion usullar va xalqaro tajribalardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif mazkur maqolada iste’molchilar ehtiyojlarini chuqur o‘rganish va ularga mos takliflar yaratish masalalarini yoritib bergan. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekistonda zamonaviy marketing tizimi fan va san’atga aylanganligi har tomonlama yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: marketing, zamonaviy marketing, samarali marketing, marketing tizimi, marketing strategiyasi, marketing konsepsiyasi, marketing usullari.

Аннотация

В статье показано, что развитие современной маркетинговой системы в Новом Узбекистане рассматривается как одно из приоритетных направлений экономических реформ. Освещены пути внедрения цифровых технологий, инновационных методов и международного опыта. Автор акцентирует внимание на важности глубокого изучения потребностей потребителей и создания соответствующих предложений. Также подчёркивается, что современный маркетинг в Новом Узбекистане превратился в науку и искусство.

Ключевые слова: маркетинг, современный маркетинг, эффективный маркетинг, маркетинговая система, маркетинговая стратегия, маркетинговая концепция, маркетинговые методы

Abstract

The article highlights that developing a modern marketing system is one of the key priorities of economic reforms in New Uzbekistan. It outlines the application of digital technologies, innovative methods, and international practices. The author emphasizes the importance of deeply understanding consumer needs and creating suitable offers. Moreover, the article reflects how modern marketing in New Uzbekistan has evolved into both a science and an art.

Keywords: marketing, modern marketing, effective marketing, marketing system, marketing strategy, marketing concept, marketing methods

Yangi O‘zbekistonning erkin bozor iqtisodiyotini yaratish davrida tovarlarni ishlab chiqarishni va sotishni hamda xizmatlarni ko‘rsatishni boshqarishni bozor konsepsiyasi hisoblangan marketingga bo‘lgan qiziqish keskin oshgan. Yurtimizni barqaror rivojlantirish bo‘yicha dasturiy hujjat bo‘lgan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan va amalga oshirilishi davom etayotgan, o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish ko‘zda tutilgan [1].

Mazkur maqsadlarga erishish barcha soha va tarmoqlardagi korxonalarda zamonaviy marketing tizimini, ular amaliyotiga tatbiq etish orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda dunyo bo‘yicha marketing sohasi mutaxassislari, olimlar, yirik kompaniyalar rahbarlari, menejerlar, iqtisodchilar va tadbirkorlar tomonidan «marketing» tushunchasiga turlicha ta’riflar berilyapti. Bu bir tomondan, bu tushunchaning murakkabligi hamda ko‘p qirraligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan esa marketing bo‘yicha turli oqimdagi maktablar, biznes guruhlari va jamoatchilikning mavjudligini ko‘rsatadi.

Ammo, shuni ta’kidlash lozimki, marketing ta’rifining turli-tumanligidan qat’iy nazar, ularning ko‘pchiligi uchun marketing bu – xaridorlarning aniq guruhlari ehtiyojlarini qondirish, bozor muammolarini yechishga har tomonlama yondashish, ehtiyojlarni ayirboshlash yordamida qondirishga qaratilgan faoliyat turi, shaxsiy foyda olish va boshqa bir qancha umumiy qoidalar kiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, barchasining mazmuni, umuman olganda, xaridor va iste’mol sohasini kompleks tadqiqot qilishga borib taqaladi. Bu esa, bozor iqtisodiyotidagi raqobat kurashi sharoitida, korxona ishi sifati bo‘yicha o‘z raqobatchilariga nisbatan iste’molchilar muhtojligini qondirishga yo‘naltirilgan faoliyatda doimo ustunlikka erishishni taqozo etadi.

Jahonning marketing bo‘yicha yetakchi ekspertlari “yangi iqtisodiyot” haqida gapirib, u korxona, tashkilot va kompaniyalarni bugungi kunda marketingning maqsadlari va metodlari haqidagi avvalgi tasavvurlarini qayta ko‘rishga majbur qilishi to‘g‘risida so‘zlashmoqdalar. Ya’ni, kechagi mag‘lubiyatsiz hisoblangan strategiyalar, bugungi kunda o‘z dolzarbligini yo‘qotmoqda. Menejment klassigi Piter Drukerning fikricha, bugungi kun biznesining muvaffaqiyat formulasi avvalgi muvaffaqiyatli formulalardan butunlayin voz kechishdir. Kompaniyalar bugungi kundagi o‘zgarishlarga tezkor moslashsa, ular raqobatchilarga nisbatan kuchli ustunliklarga ega bo‘ladilar.

Piter Drukerning fikricha, «Bugungi kunda kompaniyalarning bajarishi kerak bo‘lgan ikkita haqiqiy zarur funksiyasi bor, u ham bo‘lsa marketing va innovatsiyalardir. Shuningdek, u sof marketing konsepsiyalardan o‘quv qo‘llanmada keltirilgan qolgan to‘rtta konsepsiyadan ustunligini ta’kidlagan. Mashhur amerikalik marketolog Filipp Kotler ham uning bu fikrlarini qo‘llab-quvvatlaydi va tasdiqlaydi [2].

Bugungi kunda mamlakatimiz korxona va tashkilotlari faoliyatida uchraydigan muammolarni zamonaviy marketing tizimini samarali tashkil etish orqali hal etish vazifasi turibdi.

Marketing strategiyasi – korxona imkoniyatlarining tahlili, maqsadlarni tanlash, rejalarni ishlab chiqish, marketing chora-tadbirlarini amalga oshirish va ularni ro‘yobga chiqarishni nazorat qilish jarayonidir.

Zamonaviy sharoitlarda marketing integratsiyalashgan tizimga aylanishi kerak. Bu degani, tizim faoliyati natijasi yuqori bo‘lishi uchun u faqatgina marketing bo‘limi faoliyatigina bo‘lib qolmay, u yoki bu darajada korxonaning barcha bo‘limlarini

qamrab olishi lozim. Korxonaning raqobatdosh bo‘lmog‘i uchun faqatgina marketing uning biznes-strategiyasini harakatga keltiruvchi kuch bo‘lishi kerak.

Hozirgi vaqtda zamonaviy biznesning asosiy muammosi bu tovarlar defitsiti emas, balki iste’molchilar defitsitidir. Shu sababli zamonaviy marketing tizimining asosiy vazifasi – bu mizojlar uchun zarur bo‘lgan qiymatni (iste’mol qimmatini) yaratish va mijozlar bilan foydali bo‘lgan munosabatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Demak, zamonaviy marketingning predmeti faqat mijoz uchun oliy iste’mol qimmatiga ega bo‘lgan tovarni yaratish va mijozlar bilan foydali munosabatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Zamonaviy marketingning ishi – iste’molchi uchun qimmat yaratish, uni iste’molchiga berish va u haqida axborot yig‘ishdir.

Marketing – bugungi kunda eng avvalo, iste’molchilarni qidiruvchi, yaratuvchi va ushlab qoluvchi fan hamda san’atga aylandi [3].

Marketing – bu alohida shaxslar va shaxs guruhlari muhtojligi va ehtiyojlarini tovarlar hamda iste’mol qimmatlari orqali ayirboshlashga qaratilgan ijtimoiy va boshqaruv jarayonidir.

Zamonaviy marketing iste’molchilarning xohish va muhtojliklarini aniqlashdan boshlanib, ushbu korxona qaysi maqsadli bozorlarga samarali xizmat ko‘rsatishi va ajoyib qiymatni taklif etishi, korxona maqsadli iste’molchilarni egallab hamda ushlab qolishi, shuningdek, sonini ko‘paytirishga erishish bo‘yicha qaror qabul qilishidir. Agar korxona mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli yechsa, u ma’lum miqdordagi bozor ulushiga, foydaga va mijoz kapitalini egallashga erishadi.

Yangi O‘zbekistonning raqobat bozori sharoitida tadbirkorlarimiz tomonidan korxonalar amaliy faoliyatining muhim bo‘lagi hisoblangan marketing tizimiga bo‘lgan qiziqish keskin oshgan. Ammo, shu vaqtgacha ishbilarmonlar (tadbirkorlar) orasida va jamiyatda marketing tizimi to‘g‘risida noto‘g‘ri tushuncha hukmronlik qilmoqda. Ular marketingning asosiy vazifasi ishlab chiqarishning mahsulotini sotishga yordam berish deb biladilar. Haqiqatda esa hammasi buning aksidir, ya’ni ishlab chiqarish marketingga yordam berish uchun mavjuddir.

Marketing bu ishlab chiqarilgan mahsulotni yengil sotish san’ati emas, balki u iste’molchiga qimmatli bo‘lgan narsani yetkazib, uning hayotini yaxshilashga yordam berishdir.

Mahalliy tadbirkorlar marketing tizimi sohasi bo‘yicha yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lmaganligi sababli, ular xo‘jalik, tijorat hamda boshqaruv vazifalarini yechishda tor doiradagi yondashuvlardan foydalanmoqdalar. Bu esa korxonalar faoliyati samaradorligini pasayishiga olib kelmoqda.

Iqtisodiyotning barcha sohalari bo‘yicha tayyorlanayotgan mutaxassisliklar uchun marketing kursi bozor faoliyatining uslubiy asoslarini o‘rgatadigan asosiy fandir. Marketing, eng avvalo, uni o‘rganuvchilarni bozor faoliyati tizimi sifatida jalb etadi. U korxonalarning bozordagi harakati va holatini o‘rganadi. Marketing – bu aktiv assortiment siyosati, narx, oldi-sotdi, reklama, iste’molchilarni o‘rganish, tomonlar bilan doimiy ravishda munosabatlarga kirishish, tijorat qaltisligi va raqobatchilarni o‘rganadigan fandir [4].

Faqat marketing fanigina hammamiz uchun juda murakkab bo‘lgan raqobat tushunchasini to‘g‘ri yoritib beradi. Bugungi kundagi shiddatli rivojlanish va kuchli raqobat sharoitida raqobatning mohiyatini tushunib yetishimiz va u mavjud hollarda ishlashni o‘rganishimiz zarurdir. Shu bilan bir qatorda, marketing fani iste’molchi xulqini modellashtirish, tovar sifati, raqobatbardoshligi, rag‘batlantirish, reklama va bozorni chuqur o‘rganadi.

Marketing fani bozorni xo‘jalik faoliyatining sohasi, tashqi muhiti, ya’ni ularni u yerda namoyon bo‘lib,harakat qiladigan joyi sifatida ko‘radi. Shu tufayli, barchamiz bozorni xo‘jalik faoliyatimiz sohasi sifatida qabul qilib, u yerda harakat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lishimiz kerak.

Shuni qayd etish lozimki, marketing bo‘yicha xorijiy tajribani korxonalar va tashkilotlarimiz amaliyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etish juda cheklangandir. Bizning korxonalarimizda marketing funksiyalarini to‘liq holda, ya’ni korxonalarimiz va rivojlangan xorijiy mamlakatlar firmalari faoliyati o‘rtasidagi prinsipial farqlar bo‘yicha tatbiq etish mumkin emasdir. Bu masalaga milliy iqtisodiyotimizning o‘ziga xos xususiyatlarini va mahalliy shart – sharoitlarni hisobiga olsak holda yondashish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2023-yil 11-sentyabr PF-158-son. “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Farmoni https://lex.uz/ru/docs/6600413
2. Kotler F. Marketing ot A do Ya: 80 konsepsiy, kotorыe doljen znat kajdыy menedjer / Filip Kotler; Per. s angl. — M.: Alpina Pablisherz, 2010. — 211 s.
3. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Yusupov M. Marketing: Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2024. — 596 b.
4. Yusupov M.A. Marketing asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2024. — 288 b.

YASHIL MARKETING ORQALI MINTAQAVIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH YO‘LLARI

Yunusov Baxodir Marisovich
TDIU izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil marketingning hududiy raqobatbardoshlikni oshirishdagi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Yashil strategiyalar orqali ekologik imidj yaratish, sarmoyalarni jalb qilish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkoniyatlari yoritilgan. Kontseptual yondashuv asosida bosqichli ta’sir modeli ishlab chiqilgan. Natijalar yashil marketingning strategik ahamiyatini ko‘rsatadi va amaliy takliflar bilan boyitilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil marketing, hududiy raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, ekologik imidj, strategik yondashuv, investitsion jozibadorlik.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы повышения региональной конкурентоспособности через инструменты зеленого маркетинга. Анализируется влияние экологических стратегий на формирование имиджа региона, привлечение инвестиций, рациональное использование ресурсов и устойчивый рост. Представлена концептуальная модель пошагового воздействия. Полученные выводы подтверждают стратегическую значимость зеленого маркетинга и сопровождаются практическими рекомендациями.

Ключевые слова: зеленый маркетинг, региональная конкурентоспособность, устойчивое развитие, экологический имидж, стратегический подход, инвестиционная привлекательность.

Abstract

This article explores the theoretical foundations of enhancing regional competitiveness through green marketing strategies. It examines how ecological initiatives contribute to building a positive image, attracting investment, improving resource efficiency, and ensuring sustainable growth. A step-by-step conceptual model is proposed. The findings confirm the strategic importance of green marketing and offer practical recommendations.

Keywords: green marketing, regional competitiveness, sustainable development, ecological image, strategic approach, investment attractiveness.

Atrof-muhit muammolarining chuqurlashuvi, ekologik inqiroz va iqlim o‘zgarishlari zamonaviy marketing strategiyalarida mutlaqo yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bunday sharoitda yashil marketing tushunchasi nafaqat ekologik mas’uliyat mezoni sifatida, balki iqtisodiy raqobat ustunligini shakllantiruvchi strategik vosita sifatida ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yondashuv ekologik qadriyatlarni iqtisodiy manfaatlar bilan uyg‘unlashtirib, hududlar uchun yangi turdagi farqlanish imkonini yaratadi.

Yashil marketingni joriy etish orqali mahalliy brendlar ekologik yo‘nalishni aks ettirgan holda o‘z hududining imidjini shakllantiradi. Bu esa aholining e’tibori va

ishonchini oshiribgina qolmay, tashqi investorlar uchun ham jozibador muhitni yuzaga keltiradi. Ekologik barqarorlik tamoyillariga asoslangan marketing strategiyalari hududlarning ichki resurslaridan samarali foydalanishga, yashil infratuzilmani rivojlantirishga va umumiy iqtisodiy faoliyatni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Shu orqali hududlar innovatsion yechimlarni faol joriy eta boshlaydi, bu esa ularning global raqobat muhitida muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlaydi.

Bu jarayonda marketing faqatgina mahsulot yoki xizmat targ‘ibotchisi emas, balki ekologik va ijtimoiy mas’uliyat tashuvchisiga aylanadi. Yashil yondashuv hududlarning iqtisodiy siyosatida ham ustuvor yo‘nalishga aylanib, strategik rejalashtirish va boshqaruvda o‘z o‘rnini topmoqda. Ayniqsa, barqaror rivojlanish kontsepsiyasi doirasida bu yondashuv ijtimoiy-iqtisodiy tizimda yaxlit integratsiyani ta’minlashga xizmat qiladi. Yashil marketing orqali ekologik mahsulotlar, eko-brendlar, ekologik reklama va barqaror ishlab chiqarish texnologiyalari nafaqat iste’molchilar xatti-harakatini o‘zgartiradi, balki hududlarni farqlovchi strategik indikator sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu maqola nazariy xususiyatga ega bo‘lib, asosiy e’tibor mavjud ilmiy yondashuvlar tahliliga qaratilgan. Tadqiqot davomida konseptual tahlil asosida yashil marketingning hududiy raqobatbardoshlikka qanday bosqichlarda ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Bu yondashuv asosida strategik elementlar: ekologik imidj, investitsion jozibadorlik, resurslardan foydalanish samaradorligi, innovatsion transformatsiya va iqtisodiy mustahkamlik tizimli tarzda o‘zaro bog‘langan.

Tahlillar natijasida shakllantirilgan kontseptual model maqolaning keyingi qismida (1-rasm) taqdim etilgan bo‘lib, u yashil marketing strategiyalaridan boshlab hududiy raqobatbardoshlikning ortishigacha bo‘lgan jarayonni bosqichma-bosqich ifodalaydi. Bu yondashuv orqali hududlar ekologik ustunlikni iqtisodiy raqobatga aylantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Yashil marketing konsepsiyasining hududiy raqobatbardoshlikka ta’siri bo‘yicha olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, u nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy mas’uliyatli yondashuv, balki iqtisodiy-siyosiy tizimda hududiy ustunlikni shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Tahlil qilinayotgan 12 ta xalqaro ilmiy manba asosida bu konsepsiya ko‘p qatlamli tizimda — ya’ni ekologik, iqtisodiy va institutsional darajalarda — o‘zaro ta’sir va natijalarni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlanmoqda. Tahlil natijalari konseptual yondashuv asosida strukturaviy tahlil qilinib, uchta asosiy strategik yo‘nalish bo‘yicha umumlashtirildi: yashil marketing va iqtisodiy strukturaviy transformatsiya; ekologik brending va strategik farqlanish; barqaror rivojlanish bilan tizimli integratsiya.

Birinchi yo‘nalish — yashil marketingning hududiy iqtisodiy strukturalarga ta’siri. Nazariy manbalar asosida aniqlanishicha, yashil marketing konsepsiyasi hududiy siyosat va boshqaruv tizimlariga faol integratsiyalashmoqda. Masalan, Shapoval [4] yashil marketing vositalarining hududiy rivojlanish rejalashtiruvidagi ahamiyatini ochib bergan holda, bu vositalarni ijtimoiy-iqtisodiy potensialni ochib beruvchi strategik element sifatida tahlil qiladi. Ayniqsa, mintaqaning o‘ziga xos ekologik resurslari va yashil tashabbuslari marketing kommunikatsiyalari orqali

taqdim etilganda, hududiy farqlanish va tanlov omili kuchayadi. Bu pozitsiyani Nikonova va Mottaeva [5] ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ular yashil tashabbuslarni regional imidj shakllanishida omil sifatida ko‘rib, yashil marketing orqali investorlar, aholining ishonchi va mahalliy iste’molchilar xatti-harakatiga ta’sir ko‘rsatish mexanizmini ochib beradi. Domazet va Kovačević [6] esa yashil marketingni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy boshqaruvda ham strategik vosita sifatida baholab, uni regional siyosiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlovchi instrument deb ta’riflaydi.

Ikkinchi yo‘nalish — ekologik brending orqali raqobat ustunligini shakllantirish. Yashil marketing kontsepsiyasi zamonaviy marketingning transformatsiyasini aks ettirib, kompaniya yoki hudud o‘zining ekologik qadriyatlariga asoslangan differensial strategiyasini shakllantirishga imkon beradi. Chen va Lin [7] tomonidan ishlab chiqilgan “yashil marketing-strategik uyg‘unlik” matritsasi bu jarayonni tushuntiradi. Unga ko‘ra, korxonalar o‘z raqobat pozitsiyasini aniqlab, yashil marketing yondashuvini tanlashi lozim: narx ustunligi, farqlanish yoki fokuslash. Bu model korxonaning strategik moslashuvchanligini oshiradi va ularning marketing faoliyatini barqarorlik paradigmasi bilan uyg‘unlashtiradi. Shu bilan birga, Annamacharya [11] yashil marketingni rivojlanayotgan mamlakatlar misolida tahlil qilgan holda, unda institutsional to‘siqlar — qonunchilik, madaniy ruxsatlar, infratuzilma yetishmovchiligi — marketing strategiyasining to‘liq joriy qilinishiga to‘sqinlik qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shunday bo‘lsa-da, yashil marketing vositalarining ijodiy qo‘llanilishi ushbu to‘siqlarni yengib o‘tishga imkon beradi, bu esa mintaqaviy innovatsion yondashuvlarni kuchaytiradi.

Uchinchi yo‘nalish — yashil marketing va barqaror rivojlanish paradigmasi o‘rtasidagi o‘zaro integratsiya. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil marketing strategiyalari barqaror rivojlanishning har uch yo‘nalishini — iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy — birlashtiruvchi ko‘prik vazifasini bajarmoqda. Li va hammualliflari [3] tomonidan olib borilgan statistik tahlil natijalariga ko‘ra, yashil marketing indikatorlarining hududiy barqarorlik ko‘rsatkichlariga bevosita va ijobiy ta’siri mavjud. Ular fsQCA va DEA modellaridan foydalangan holda turli mintaqalarda yashil marketing va barqarorlik o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni empirik asosda isbotlaydi. Bu holat Kouskoura va boshqalar [2] tomonidan ham tasdiqlanadi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan regional raqobatbardoshlik modeli doirasida yashil innovatsiyalar va ekologik strategiyalar strategik resurs sifatida ajratib ko‘rsatilgan. Shu bilan birga, Alafi va Hasoneh [10] yashil marketingni global ekologik tahdidlarga qarshi samarali choralar tizimi sifatida baholab, uni barqaror rivojlanish strategiyasining ajralmas komponenti deb hisoblaydi. Katrandjiev [8] esa ushbu strategiyani axloqiy jihatdan asoslaydi, ya’ni yashil marketingning ijtimoiy mas’uliyat, shaffoflik va jamiyat bilan ekologik hamkorlik mezonlariga mosligini asoslaydi.

Yuqoridagi nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing konsepsiyasi mintaqaviy siyosat yurituvchilar, iqtisodiy ishtirokchilar va jamiyat a’zolari o‘rtasida yangi turdagi o‘zaro ta’sirlar tizimini shakllantiradi. Bu tizim orqali mintaqalar o‘z ekologik salohiyatini marketing vositasiga aylantirib, resurslardan oqilona foydalanadi, ekologik farqlanishni joriy qiladi va raqobat ustunligini

shakllantiradi. Uzoq muddatda esa bu jarayon mintaqaviy barqarorlik, investitsion jozibadorlik va aholining yashash sifati ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi.

Shu asosda, tahlil natijalari kelgusi bo‘limlarda amaliy tavsiyalar shakllanishi uchun puxta nazariy zamin yaratadi. Ular mintaqaviy siyosatchilar, tadbirkorlar va strategik rejalashtirish organlari uchun ekologik jihatdan asoslangan marketing yondashuvlarini ishlab chiqishda yo‘l xaritasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.



1-rasm. Yashil marketing va hududiy raqobatbardoshlik o‘rtasidagi bog‘liqlik[1]

Yashil marketing zamonaviy hududiy rivojlanishda nafaqat ekologik barqarorlikni ta’minlovchi, balki iqtisodiy raqobatbardoshlikni shakllantiruvchi muhim strategik vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yashil marketing strategiyalari hududning ekologik imidjini yaratish, sarmoyalarni jalb qilish, ichki resurslardan samarali foydalanish va innovatsion faoliyatni faollashtirish orqali raqobatbardoshlikni oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hududlar o‘zining yashil brendini shakllantirgan sari ularning jahon bozorida tanilishi, turizm salohiyati, eksport imkoniyatlari va aholining yashash sifati ortadi. Bu esa, o‘z navbatida, hududni barqaror iqtisodiy o‘sishga olib boradi. Yashil marketing orqali mahalliy aholining ekologik ongini oshirish, bizneslarda ijtimoiy mas’uliyatni kuchaytirish va ekologik innovatsiyalarni joriy qilish mumkin.

Mazkur nazariy tahlil natijasida quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

[1] Muallif ishlanmasi

1. Hududiy strategik rejalarda yashil marketingga alohida o‘rin ajratish lozim. Bu yondashuv marketing faqatgina reklama emas, balki strategik rivojlanish vositasi sifatida qaralishini ta’minlaydi.

2. Yashil brendni shakllantirishda ekologik xususiyatlar bilan birga ijtimoiy va madaniy qadriyatlar ham e’tiborga olinishi kerak. Bu orqali hududlar o‘zining noyobligini yanada chuqurroq ifodalashi mumkin.

3. Mahalliy tadbirkorlikni yashil marketingga yo‘naltirish bo‘yicha grantlar va preferensiyalar tizimi joriy etilishi hududdagi innovatsion rivojlanishni rag‘batlantiradi.

4. Yashil marketingni o‘quv dasturlariga kiritish orqali kelajak avlodlarda ekologik va ijtimoiy mas’uliyat hissi shakllantiriladi.

5. Tadqiqot institutlari va universitetlar ishtirokida hududiy yashil marketing indikatorlari ishlab chiqilishi strategik baholash va monitoringni takomillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, yashil marketing hududlar uchun ekologik barqarorlik va iqtisodiy raqobatbardoshlikni uyg‘unlashtiruvchi muhim konsepsiyadir. U strategik yondashuv bilan qo‘llanilganda, uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va jahon miqyosidagi ijobiy imidjni shakllantirish imkonini beradi. Shu bois, yashil marketingni hududiy siyosatning ajralmas qismiga aylantirish davr talabi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Pandey, K. K., & Uniyal, R. (2012). Green marketing: Policies and practices for sustainable development. Integral Review - A Journal of Management, 5(1). https://www.researchgate.net/publication/338690653

2. Kouskoura, A., Kalliontzi, E., Skalkos, D., & Bakouros, I. (2024). Assessing the key factors measuring regional competitiveness. Sustainability, 16(6), 2574. https://doi.org/10.3390/su16062574

3. Li, W., Zhang, J., Zhu, H., Hao, T., Mei, L., & Su, Y. (2024). Green marketing and the path to realizing local sustainable development. Sustainability, 16(11), 4644. https://doi.org/10.3390/su16114644

4. Shapoval, Y. (2017). The marketing role in improving the competitiveness of the region. Baltic Journal of Economic Studies, 3(4), 289–291.

5. Nikonova, N., & Mottaeva, A. (2023). The role of green marketing in regional sustainability. E3S Web of Conferences, 402, 08042. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340208042

6. Domazet, I., & Kovačević, M. (2019). The role of green marketing in achieving sustainable development. Institute of Economic Sciences, Serbia. https://www.researchgate.net/publication/336886926

7. Chen, C.-S., & Lin, L.-Y. (n.d.). A new framework: Make green marketing strategy go with competitive strategy. National Taipei University & Aletheia University. https://www.researchgate.net/publication/326074263

8. Katrandjiev, H. (2016). Green marketing: A marketing impulse for sustainable development. Economic Alternatives, 3, 401–410. https://www.unwe.bg/eajournal/en/journalissues/article/9250

9. Singh, S., & Sharma, S. (2017). Green marketing – A means for sustainable development. International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences, 6(10), 96–104. http://www.garph.co.uk/IJARMSS/Oct2017/9.pdf

10. Alafi, K., & Hasoneh, A. B. (2012). Green marketing and sustainable development: Challenges and opportunities. International Journal of Academic Research in Business and Social Sciences, 2(1), 1–11. http://hrmars.com/admin/pics/971.pdf

11. Annamacharya, M. (2017). Green marketing: Opportunities and challenges. International Journal of Marketing and Business Communication, 6(3), 10–17. https://www.researchgate.net/publication/333964097

12. Eltiti, A. (2019). Green marketing: An approach to achieve sustainable development. Journal of Marketing Development, 39(1), 105–115. https://www.ajmr.org/index.php/ajmr/article/view/45

OLIY TA’LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o‘g‘li
“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,
o‘quv bo‘limi uslubchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda akademik avtonomiyani kuchaytirish, natijaviylikka asoslangan moliyalashtirish modeli, innovatsion boshqaruv texnologiyalarini joriy etish, ilmiy salohiyatni rag‘batlantirish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarurligi asoslab berilgan. Mazkur mexanizmlar uyg‘un holda qo‘llanilganda oliy ta’lim sifatini oshirish, professor-o‘qituvchilar samaradorligini kuchaytirish va ilmiy natijadorlikni yaxshilashga imkon yaratadi. Tahlil natijalari oliy ta’lim tizimida barqaror boshqaruv va raqobatbardoshlikni ta’minlash uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: akademik faoliyat, boshqaruv mexanizmlari, moliyalashtirish, innovatsiyalar, KPI, oliy ta’lim, ilmiy salohiyat, xalqaro hamkorlik

Аннотация

В статье рассмотрены вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов управления академической деятельностью в вузах Узбекистана. Обоснована необходимость укрепления академической автономии, внедрения модели финансирования на основе результативности, применения инновационных управленческих технологий, стимулирования научного потенциала и расширения международного сотрудничества. Комплексная реализация этих направлений способствует повышению качества образования, эффективности преподавательского состава и научной результативности. Полученные результаты могут служить практической основой для обеспечения устойчивого управления и конкурентоспособности высшего образования.

Ключевые слова: академическая деятельность, механизмы управления, финансирование, инновации, KPI, высшее образование, научный потенциал, международное сотрудничество

Abstract

This article analyzes the improvement of organizational and economic mechanisms for managing academic activities in higher education institutions of Uzbekistan. The study substantiates the need to strengthen academic autonomy, introduce performance-based funding models, implement innovative management technologies, promote scientific potential, and expand international cooperation. The integrated application of these mechanisms enhances education quality, academic staff efficiency, and research productivity. The findings provide a practical basis for ensuring sustainable management and competitiveness of the higher education system. **Keywords:** academic activity, management mechanisms, funding, innovation,

KPI, higher education, scientific potential, international cooperation

O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim sifatini oshirish, uni xalqaro andozalar darajasiga ko‘tarish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish kabi vazifalar belgilangan. Bu jarayonda oliy ta’lim tashkilotlarida akademik faoliyatni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta’lim va ilmiy faoliyat sifatini oshirish, samaradorlikni ta’minlash mumkin.

Avvalambor akademik faoliyat tushunchasi va uni boshqarish zarurati haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Akademik faoliyat — bu professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va talabalar tomonidan amalga oshiriladigan ta’lim, ilmiy-tadqiqot, innovatsion va tarbiyaviy faoliyatlar majmuidir. Uni samarali boshqarish uchun zamonaviy menejment uslublari, iqtisodiy tahlil vositalari va tashkilotni strategik rejalashtirish usullaridan foydalanish talab etiladi.

Hozirgi kunda oliy ta’lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishda qator muammolar mavjud:

- boshqaruvda markazlashganlikning ustunligi;
- moliyalashtirish mexanizmlarining samarasizligi;
- o‘qituvchilar mehnatiga haq to‘lashda adolatli tizim yo‘qligi ilmiy faoliyatni rag‘batlantirishning yetishmasligi.

Ko‘pgina qarorlar markaziy darajada qabul qilinadi, bu esa tashabbus va innovatsion yondashuvlarni cheklaydi.

Akademik faoliyat ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq moliyaviy rag‘batlantirish tizimi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Oliygohlarda professor-o‘qituvchilarning natijaviyligi (tadqiqotlar soni, ilmiy maqolalar, grantlar) hisobga olinmaydigan holatlar mavjud.

Akademik faoliyatni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari deganda, tashkiliy mexanizmlar va iqtisodiy mexanizmlar tushuniladi.

Tashkiliy mexanizmlarda idoraviy tuzilma, vakolatlar taqsimoti, boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ichki nazorat va hisobot tizimlaridan iborat bo‘ladigan bo‘lsa, iqtisodiy mexanizmlarga resurslarni taqsimlash, moliyaviy rag‘batlantirish, byudjet va grant mablag‘larini samarali boshqarish, ish samaradorligiga bog‘langan mehnat haqi tizimidan iborat bo‘ladi.

Akademik faoliyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif etilgan yo‘nalishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy, mustaqil va natijaviy faoliyat yurituvchi tashkilotlarga aylantirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

1-jadval

OTMlarda akademik faoliyatni samarali boshqarish uchun o‘zaro bog‘liq va zarur mexanizmlar[1]

№	Yo‘nalish	Mazmun	Kutilgan natija
1	Akademik avtonomiyani kuchaytirish	Oliy ta’lim muassasalariga ta’lim mazmuni, ilmiy yo‘nalish va byudjetni mustaqil belgilash huquqini berish	Universitetlar mustaqilligi ortib, innovatsion yondashuv va raqobatbardoshlik ta’minlanadi
2	Natijaviylikka asoslangan moliyaviy model	KPI, maqola soni, grantlar va patentlarga qarab moliyaviy rag‘bat tizimini joriy etish	Ilmiy va ta’limiy faoliyat samaradorligi oshadi, kadrlar ishga motivatsiyalanadi
3	Innovatsion boshqaruv texnologiyalari	Raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan boshqaruv, elektron hisobot va KPI monitoring tizimlari	Boshqaruv samaradorligi, shaffoflik va tezkor qaror qabul qilish imkoni yaratiladi
4	Ilmiy salohiyatni rag‘batlantirish	Moddiy va nomoddiy rag‘batlar: mukofotlar, stajirovkalar, imtiyozlar va boshqalar	Ilmiy izlanishlarga qiziqish ortib, kadrlar salohiyati saqlanadi va rivojlanadi
5	Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish	Xalqaro loyihalar, reytinglar, tajriba almashinuvi va standartlarni joriy etish	Akademik faoliyat xalqaro talablarga moslashadi, reytingdagi o‘rni yaxshilanadi

1-jadvalda keltirilgan beshta yo‘nalish akademik faoliyatni samarali boshqarish uchun o‘zaro bog‘liq va zarur mexanizmlar hisoblanadi. Akademik avtonomiya universitetlarga mustaqil qaror qabul qilish imkonini berib, innovatsion yondashuvlarni rag‘batlantiradi. Natijaviylikka asoslangan moliyaviy model esa ta’lim va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion boshqaruv texnologiyalari boshqaruvni raqamlashtirish orqali shaffoflik va tezkorlikni ta’minlaydi. Ilmiy salohiyatni rag‘batlantirish professor-o‘qituvchilarni faol tadqiqotchilikka undasa, xalqaro hamkorlik akademik faoliyatni global talablarga moslashtiradi. Bu yo‘nalishlar kompleks ravishda amalga oshirilganda, oliy ta’lim sifatini oshirish va uni jahon standartlari darajasiga olib chiqish mumkin.

Akademik avtonomiyani kuchaytirish orqali har bir universitet o‘z ta’lim mazmuni, ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishi va moliyaviy siyosatini mustaqil belgilay olishi, bu esa raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijaviylikka asoslangan moliyaviy modelni joriy etish esa professor-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlarning samaradorligini oshirishga, sifatli ilmiy natijalarga erishishga rag‘batlantiradi. Buning uchun KPI va boshqa baholash mezonlari asosida moliyaviy resurslarni taqsimlash tizimi joriy etilishi zarur.

Innovatsion boshqaruv texnologiyalarining joriy etilishi, xususan raqamlashtirish vositalari, avtomatlashtirilgan platformalar va monitoring dasturlari akademik faoliyatni tahlil qilish, boshqarish va shaffoflikni ta’minlash imkonini beradi. Ilmiy salohiyatni rag‘batlantirish esa ta’lim muassasalarida kadrlar salohiyatini saqlab qolish, ularni ilmiy izlanishlarga jalb etish va tajriba almashinuvini kuchaytirish uchun

[11] Muallif ishlanmasi

muhim mexanizm hisoblanadi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro reytinglar va standartlarga moslashish, chet el universitetlari va tashkilotlari bilan hamkorlikda loyihalar amalga oshirish orqali akademik faoliyatning sifatini yanada oshirish mumkin. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur yo‘nalishlar zamonaviy ta’lim boshqaruviga o‘tish, ilmiy natijadorlikni oshirish va global ta’lim makonida munosib o‘rin egallash uchun zarur va o‘rinli islohotlar hisoblanadi.

Tezisda quyidagi yechimlar taklif etilgan:

- akademik avtonomiyani kengaytirish;
- KPI (natiyjaviylik ko‘rsatkichi) asosida moliyalashtirish;
- innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- ilmiy salohiyatni rag‘batlantirish;
- xalqaro tajriba va hamkorlikni kuchaytirish.

Oliy ta’lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirish — bu nafaqat ta’lim sifatini, balki mamlakatning umumiy intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish, professor-o‘qituvchilar mehnatini munosib rag‘batlantirish va talabalarga sifatli ta’lim berish imkoni yaratiladi. Shu boisdan, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar davomli va tizimli ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PQ-5847-sonli qarori “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. https://lex.uz/docs/4545884

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning milliy strategiyasi” doirasida ta’lim sohasiga qaratilgan islohotlar” Farmoni. https://lex.uz/docs/5085999

3. Vahobov A.V., Aripov Sh.Sh. “Iqtisodiyotda boshqaruv nazariyasi”, Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2021.

4. Tojiboyev Sh.T. “Oliy ta’lim tizimida boshqaruvni takomillashtirish masalalari”, Toshkent, 2020.

5. Alimov Sh.Sh. “Oliy ta’limda menejment va ta’lim sifatini boshqarish”, Toshkent: “Fan”, 2022.

6. https://doi.org/10.1787/9b91c231-en

7. Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2009). Trends *in Global* Higher Education*:* Tracking an Academic Revolution. UNESCO.

8. Salmi, J. The Challenge of Establishing World-Class Universities. (2009). The World Bank.

QURILISH SOHASIDA “YASHIL TEXNOLOGIYALAR”NI JORIY ETISH VA ULARNI STRATEGIK BOSHQARISH MASALALARI

Ortiqxo‘jayeva Yulduz Azatovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada qurilish sohasida “yashil texnologiyalar”ni joriy etish zarurati, ularning iqtisodiy va ekologik afzalliklari hamda strategik boshqaruv mexanizmlarining shakllanishi tahlil qilingan. Qurilish korxonalarida ekologik standartlarni joriy etish, energiya tejamkor materiallardan foydalanish, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimini tashkil etish hamda raqamli boshqaruv texnologiyalarini qo‘llash orqali innovatsion rivojlanish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil texnologiyalar, qurilish sohasida innovatsiyalar, strategik boshqaruv, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, ekologik xavfsizlik.

Аннотация

В данной статье анализируется необходимость внедрения «зелёных технологий» в строительной отрасли, их экономические и экологические преимущества, а также формирование механизмов стратегического управления. Обоснованы возможности инновационного развития строительных предприятий за счёт внедрения экологических стандартов, использования энергоэффективных материалов, организации безотходного производства и применения цифровых технологий управления.

Ключевые слова: зелёные технологии, инновации в строительстве, стратегическое управление, устойчивое развитие, энергоэффективность, экологическая безопасность.

Abstract

This article analyzes the necessity of introducing “green technologies” in the construction sector, their economic and environmental advantages, and the formation of strategic management mechanisms. The study substantiates the opportunities for innovative development of construction enterprises through the implementation of environmental standards, the use of energy-efficient materials, the organization of waste-free production, and the application of digital management technologies.

Keywords: green technologies, construction innovations, strategic management, sustainable development, energy efficiency, environmental safety.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanish konsepsiyasi global miqyosda asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, ekologik barqarorlik, resurslardan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish masalalari har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida muhim o‘rin tutmoqda. Shu nuqtai nazardan, qurilish sohasi “yashil iqtisodiyot” tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda

asosiy drayver tarmoqlardan biri hisoblanadi, chunki ushbu sohada tabiiy resurslar iste’moli yuqori, atrof-muhitga ta’sir esa sezilarli darajada.

O‘zbekiston Respublikasida ham “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi asosida iqtisodiyot tarmoqlarini ekologik innovatsiyalar yo‘nalishida modernizatsiya qilish choralari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish, chiqindilarni kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash milliy maqsadlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategik yondashuv qurilish tarmog‘ida ham innovatsion boshqaruv tizimlarini takomillashtirishni taqozo etadi, chunki ekologik me’yorlarga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlarini yo‘lga qo‘yish faqat texnologik emas, balki boshqaruv jihatdan ham kompleks yondashuvni talab qiladi.

“Yashil texnologiyalar” deganda, ishlab chiqarish jarayonida energiya, suv, xomashyo va boshqa tabiiy resurslardan samarali foydalanish, zararli chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish hamda ekologik xavfsiz qurilish materiallaridan foydalanishni ko‘zda tutuvchi innovatsion yechimlar tushuniladi. Ushbu texnologiyalarni joriy etish qurilish korxonalarining raqobatbardoshligini oshiradi, ularning ijtimoiy mas’uliyatini kuchaytiradi va xalqaro ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ammo bu jarayon samaradorligini ta’minlash uchun aniq strategik boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki “yashil texnologiyalar”ni faqat texnik yangilik sifatida qabul qilish yetarli emas – ularni korxona strategiyasiga integratsiyalash, moliyaviy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash zarur. Shu boisdan, qurilish sohasida ekologik innovatsiyalarni strategik boshqarish tizimini takomillashtirish bugungi kunda ilmiy izlanishlar markazida turibdi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida “green building”, “smart construction”, “eco-innovation” kabi konsepsiyalar asosida qurilish loyihalari amalga oshirilmoqda. Bu tajribalar ko‘rsatadiki, yashil texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat energiya sarfi 20–30 foizga kamayadi, balki binolarning ekspluatatsiya xarajatlari ham 15–25 foizga qisqaradi. Shu sababli, ushbu yondashuvni O‘zbekiston sharoitida amaliy jihatdan tatbiq etish, uni strategik boshqaruv bilan uyg‘unlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ekologik xavflarni kamaytirish va milliy qurilish tarmog‘ining innovatsion salohiyatini kuchaytirish imkonini beradi.

Qurilish sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda resurslardan samarali foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash masalalari strategik ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda global miqyosda “yashil texnologiyalar”ga o‘tish jarayoni kengayib, ular qurilish korxonalarining ishlab chiqarish siyosati va boshqaruv tizimining ajralmas elementi sifatida qaralmoqda.

“Yashil texnologiyalar”ni joriy etish qurilish tarmog‘ida uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

1. Resurslardan tejamli foydalanish (energiya, suv, xomashyo) – energiya samarador qurilish materiallari, issiqlik izolyatsiyasi kuchaytirilgan texnologiyalar, quyosh panellari va suvni qayta ishlash tizimlari qo‘llaniladi.

2. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash – atmosferaga chiqindilarni kamaytirish, ekologik toza sement, g‘isht, plastmassa va boshqa materiallardan foydalanish.

3. Innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish – raqamli texnologiyalar, “aqlli qurilish” (smart construction), BIM-modellar va monitoring tizimlari orqali loyihalarni boshqarish.

Mazkur yo‘nalishlarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, strategik boshqaruv tizimining mukammalligiga bog‘liq. Qurilish korxonalarida “yashil texnologiyalar”ni tatbiq etish jarayoni tasodifiy emas, balki strategik rejalashtirish, tashkiliy transformatsiya va innovatsion boshqaruv mexanizmlari asosida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Qurilish sohasida “yashil texnologiyalar”ni joriy etishning samaradorligi, avvalo, ushbu jarayonni strategik boshqarish tizimi orqali kompleks asosda tashkil etishga bog‘liqdir. Strategik boshqaruvning zamonaviy konsepsiyasiga ko‘ra, har qanday innovatsion o‘zgarishlar tahliliy yondashuvdan boshlanadi. Shu nuqtai nazardan, “yashil texnologiyalar”ni tatbiq etishning birinchi bosqichi – bu tahliliy bosqich bo‘lib, unda korxonaning mavjud ishlab chiqarish jarayonlari, energiya sarfi, chiqindilar hajmi, resurslardan foydalanish samaradorligi va ekologik xavfsizlik darajasi batafsil o‘rganiladi. Ushbu bosqichda “yashil auditi” o‘tkazilishi maqsadga muvofiq bo‘lib, u orqali korxonada mavjud ekologik muammolar, energiya tejamkorlik imkoniyatlari hamda ishlab chiqarish tizimining zaif jihatlari aniqlanadi. Mazkur tahlil natijalari keyingi strategik rejalashtirish uchun asosiy axborot bazasini yaratadi.

Tahliliy natijalarga asoslanib, strategik rejalashtirish bosqichi amalga oshiriladi. Bu bosqichda “yashil texnologiyalar”ni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari, maqsadli ko‘rsatkichlari, investitsion ehtiyojlari hamda moliyaviy manbalari aniqlanadi. Rejalashtirish jarayonida korxonaning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan ekologik maqsadlar uyg‘unlashtiriladi. Shu bilan birga, “triple bottom line” tamoyiliga asoslanish, ya’ni iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarur bo‘ladi. Strategik rejalashtirishda davlatning ekologik siyosati, xalqaro standartlar va “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining asosiy talablari ham inobatga olinadi.

Keyingi bosqich – integratsiya va amaliyotga tatbiq etish bosqichi bo‘lib, bunda ekologik innovatsiyalarni ishlab chiqarish tizimiga bevosita kiritish amalga oshiriladi. Qurilish jarayonida energiya tejamkor issiqlik tizimlari, quyosh panellari, suvni qayta ishlash texnologiyalari, chiqindisiz ishlab chiqarish uskunalari hamda ekologik toza materiallardan foydalanish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanadi. Shu bilan birga, “aqlli qurilish” (smart construction) texnologiyalarini qo‘llash orqali resurslardan foydalanishni avtomatlashtirilgan tarzda nazorat qilish imkoniyati yaratiladi. Ushbu

bosqichda inson kapitalining roli alohida ahamiyat kasb etadi, chunki “yashil texnologiyalar”ni joriy etish yuqori malakali muhandislar, ekologik mutaxassislar va loyiha menejerlarining faol ishtirokini talab qiladi.

Strategik boshqaruvning muhim tarkibiy qismi monitoring va baholash tizimidir. Bu bosqichda amalga oshirilgan “yashil” chora-tadbirlarning samaradorligi muntazam tahlil qilinadi. Energiya sarfini qisqartirish darajasi, suv va xomashyo tejalishi, chiqindilar hajmining kamayishi, ishlab chiqarish xarajatlarining pasayishi va ekologik imijning yaxshilanishi kabi ko‘rsatkichlar monitoring obyekti sifatida olinadi. Baholash natijalari asosida strategik rejalar qayta ko‘rib chiqiladi, yangi texnologik yechimlar joriy etiladi va korxonaning ekologik barqarorligi oshiriladi. Shunday qilib, monitoring tizimi “yashil boshqaruv”ning barqaror ishlashini ta’minlovchi doimiy teskari aloqa mexanizmini yaratadi.

O‘zbekiston sharoitida “yashil texnologiyalar”ni joriy etish samaradorligini oshirish uchun integratsion boshqaruv modeli muhim ahamiyatga ega. Bu model davlat siyosati, korxona strategiyasi, innovatsion infratuzilma, axborot tizimi va xalqaro hamkorlik elementlarini o‘z ichiga oladi. Davlat tomonidan ekologik imtiyozlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari va “yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash choralari amalga oshirilishi zarur. Korxonalar esa o‘z navbatida “yashil maqsadlar”ni umumiy biznes strategiyasiga integratsiyalab, ekologik innovatsiyalarni rivojlantirish uchun texnoparklar, ilmiy markazlar va startaplar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi lozim. Axborot texnologiyalari esa ekologik hisobotlarni shakllantirish, resurslardan foydalanishni tahlil qilish va “smart monitoring” tizimlarini joriy etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur integratsion yondashuv natijasida qurilish korxonalari ishlab chiqarish xarajatlarini 10–25 foizgacha qisqartirishi, energiya sarfini 20–30 foizgacha kamaytirishi, chiqindilar miqdorini sezilarli darajada kamaytirishi va xalqaro ekologik sertifikatlarga ega bo‘lishi mumkin. Eng muhimi, bunday strategik boshqaruv tizimi korxonaning raqobatbardoshligini oshiradi, investitsion jozibadorligini kuchaytiradi hamda mamlakatning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonini jadallashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 04-oktyabr PQ-4477 qarori “2019–2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”– https://lex.uz/docs/4539502

2. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi rasmiy portali. uzbekistan2030.uz .

3. Нуримбетов Р. И. Маҳаллий хом ашёлар асосида қурилиш материалларини ишлаб чиқаришда инновацион технологияларни жорий этиш масалалари //xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar. – 2025. – Т. 1. – №. 5. – С. 186-198.

4. Нуримбетов Р., Ходжаева Н. Перспективы и предпосылки развития зеленной экономики в Республике Узбекистан //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. 45-51.

5. Мэтякубов, А. Д., Матризаева, Д. Ю. Экономический анализ эффективности управления инвестициями в промышленности. Бюллетень науки и практики, – 2020 – 6(7), – 251-256.

O‘ZBEKISTONNING YANGI IQTISODIY MUHITIDA BIZNES RIVOJLANISHI UCHUN INNOVATSION MARKETING KONTSEPTSIYALARIDAN FOYDALANISH

Adilova Zulfiya Djavdatovna
TDIU “Marketing” kafedrasi professori i.f.d., prof.

Annotatsiya

Bu biznes rivojlanishining asosiy savollaridan biri — nega o‘zbek korxonalarining marketing faoliyati transformatsional (o‘zgaruvchan) jarayonlarga bag‘ishlanayotganligidir. Chuqur bozor hayotidagi strategik o‘zgarishlar natijalari — mingdan ortiq miqdoriy va sifat jihatlariga ega iqtisodiy omillar tomonidan shakllantiriladi. Ushbu tadqiqot siyosiy qo‘llab-quvvatlashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri regressiya asosidagi ta’sirlari, shuningdek faol iste’molchi ishtirokining vositachilik roli — ishonch mezonlari va axborot ochiqligi kabi o‘lchanadigan o‘zgaruvchilar orqali, mazkur munozaraga hissa qo‘shadi. Biz AHP (Analitik Giyohlar Jarayoni) asosidagi baholash usullarini rivojlanish iqtisodiyoti konsepsiyalari bilan birlashtirib, O‘zbek iqtisodiyotida firmalarning innovatsion marketing amaliyotlari o‘sishining mahalliy darajadan mintaqaviy bosqichga o‘tish yo‘nalishidagi kommunikatsiya kanallari samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatganini miqdoriy (quantitative) usulda tahlil qilamiz. Metodologik nuqtai nazardan, liberalizatsiyadan keyingi davrdan bozor barqarorligining bazasiga qadar bo‘lib o‘tgan vaqt seriyaviy (time-series) ma’lumotlariga asoslangan multi-mezonli AHP–regressiya tahlili yordamida, hozirgi kunda korxona darajasida ikkita yetakchi marketing va faol tuzilmalar profilini aniqladik hamda bashoratlovchi — predictive modelni yaratdik. Umumiy statistik ko‘rsatkichlardan kanal tizimlarining samaradorlik profillarini, iste’molchi javoblarining o‘zgaruvchanligi asosida ajratib oldik. Bozorlar o‘sishda davom etar ekan, biz media mavjudligi, ishonch va innovatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy davrlar bo‘yicha ta’sirini baholadik. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, uzoq muddatli tendensiyalar — nisbatan barqaror shaklni takrorlaydi; institution (institutsional) tuzilmalar bilan bog‘liq davriy buzilishlar esa bu barqarorlikka ta’sir ko‘rsatadi. Marketing kanallari va ularning axborot oqimi elementlarining faol strukturalar o‘zgarishlariga sezgir ekanligi aniqlanadi; regressiya ma’lumotlaridan iste’molchilar afzalliklari va biznes strategiyalarining markazdan periferiyaga ko‘chish modelini modellashtirilgan holda bashorat qilish mumkin. Globalizatsiya bosimi kuchayishda davom etar ekan, O‘zbekistonda iqtisodiy rejalashtirishdagi islohotlar tezlashuvi kontekstida, bizning tadqiqot natijalarimiz nafaqat siyosatchilar va mahalliy xususiy aktorlarga, balki O‘zbek bozorida ishtirok etishni istagan, yaqin orada ishtirok etishga majbur bo‘lishi mumkin bo‘lgan xorijiy investorlar uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Ular korxonalarning moslashuvchan potensialiga yangi yondashuvlarni ochib beradi, biznes modellarning o‘sib borayotgan talabga qanchalik mos javob bera olishini miqdoriy baholash imkoniyatini beradi, hamda qiymatni yetkazish va taqsimlashni mumkin bo‘lgan yuksalayotgan yangi sharoitlarga optimallashtirishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: innovatsion marketing, biznes rivojlanishi, iste’molchi ishtiroki, ishonchdagi tebranish (volatility), siyosiy ochiqlik (transparency), AHP–regressiya modeli, O‘zbekiston iqtisodiyoti.

Аннотация

Один из ключевых вопросов развития бизнеса — почему маркетинговая деятельность узбекских предприятий всё больше направлена на трансформационные процессы. Глубокие стратегические изменения в рыночной среде формируются совокупностью более чем тысячи количественных и качественных экономических факторов. Данное исследование вносит вклад в дискуссию, анализируя прямые регрессионные эффекты политической поддержки и медиаторную роль активного участия потребителей — через измеряемые переменные, такие как доверие и информационная прозрачность. Комбинируя методы оценки на основе AHP (аналитического иерархического процесса) с концепциями экономики развития, мы количественно анализируем влияние инновационных маркетинговых практик фирм в экономике Узбекистана на эффективность коммуникационных каналов при переходе от локального к региональному уровню роста. С методологической точки зрения, с использованием временных рядов — от периода либерализации до современного этапа рыночной устойчивости — проведён многокритериальный AHP–регрессионный анализ, позволивший выявить два ведущих профиля маркетинговых и активных организационных структур на уровне предприятия и построить предсказательную (predictive) модель. На основе статистических данных определены профили эффективности каналов и вариативность потребительских ответов. По мере продолжения рыночного роста оценено влияние медиа-присутствия, доверия и инноваций в контексте социально-экономических циклов. Результаты показывают, что долгосрочные тенденции воспроизводят относительно устойчивую форму, тогда как институциональные нарушения оказывают влияние на эту стабильность. Установлено, что маркетинговые каналы и их информационные потоки чувствительны к структурным изменениям, а регрессионные данные позволяют моделировать миграцию потребительских предпочтений и бизнес-стратегий от центра к периферии. В условиях усиливающегося давления глобализации и ускорения реформ в сфере экономического планирования в Узбекистане результаты исследования представляют практическую ценность как для политиков и частного сектора, так и для иностранных инвесторов, заинтересованных в участии на узбекском рынке. Они открывают новые подходы к оценке адаптационного потенциала предприятий, количественному анализу способности бизнес-моделей отвечать растущему спросу и оптимизации процессов создания и распределения ценности в новых экономических условиях. **Ключевые слова:** инновационный маркетинг, развитие бизнеса, участие потребителей, волатильность доверия, политическая

прозрачность, АНР–регрессионная модель, экономика Узбекистана.

Abstract

One of the central questions in business development is why the marketing activities of Uzbek enterprises are increasingly dedicated to transformational processes. Profound strategic shifts in market dynamics are shaped by a multitude of quantitative and qualitative economic factors — numbering over a thousand. This study contributes to the discourse by examining the direct regression-based effects of political support and the mediating role of active consumer participation, through measurable variables such as trust metrics and information transparency. Integrating AHP (Analytic Hierarchy Process)–based evaluation methods with development economics concepts, we quantitatively analyze how firms' innovative marketing practices in Uzbekistan's economy affect the efficiency of communication channels in their transition from the local to the regional stage of growth. From a methodological perspective, using time-series data spanning from the post-liberalization period to the foundation of market stability, a multi-criteria AHP–regression analysis was conducted. This allowed the identification of two leading enterprise-level profiles of marketing and structural activity, and the development of a predictive model. Statistical indicators revealed channel efficiency profiles and variability in consumer responses. As markets continue to grow, we assessed the influence of media presence, trust, and innovation across socio-economic cycles. The results indicate that long-term trends tend to reproduce relatively stable forms, while institutional disruptions affect that stability. Marketing channels and their informational flow elements are found to be sensitive to structural changes; regression data enables modeling the migration of consumer preferences and business strategies from center to periphery. As globalization pressures intensify and economic planning reforms accelerate in Uzbekistan, the findings of this research have practical significance not only for policymakers and domestic private actors but also for foreign investors aiming—or soon required—to engage in the Uzbek market. The study offers new insights into firms' adaptive potential, quantitative evaluation of how business models respond to rising demand, and optimization of value creation and distribution under emerging economic conditions.

Keywords: innovative marketing, business development, consumer participation, trust volatility, political transparency, AHP–regression model, economy of Uzbekistan.

KIRISH

Ishbilarmonlik iqtisodiyotidagi liberallashtirish yo‘nalishi va institutlar tuzilmasining qayta shakllanishi natijasida, O‘zbekiston iqtisodiyoti akademik va siyosiy doiralarda katta e’tibor qozongan bo‘lib, yangi iqtisodiy muhitda innovatsion marketing amaliyotlarining tatbiq etilishi masalasi tadqiq etilmoqda (Popova va boshq., 2021; Mustafakulov, 2021; Akhmedov, 2023). Yaqinda chop etilgan adabiyotlarda, ko‘pchilik tadqiqotchilar implementatsiya chegaralarini siyosat–bozor oqimidagi asimmetriyalar orqali tahlil qilganlar, bu g‘oya Zhehus va boshq.dan olingan (2023).

Iste’molchi ishonchining ko‘p qirrali tabiatini tashkil etgan konseptual murakkablikni alohida ko‘rib chiqish zarur: xususan, institutsional (tashkiliy) va

shaxslar-aro ishonch, marketing transformatsiyasi kontekstida zamondosh ravishda yuzaga kelgan (hatto aniq nomlar ostida bo‘lmasa ham). Masalan, Ergashxodjaeva va Kurpayanidi (2022) ishonchni funksional va tuzilma jihatlariga ko‘ra farqlashgan. Ishonch neytral bozor sharoitlarida asosiy maqsad iqtisodiy almashinuv bo‘lsa, ushbu maqolada ko‘rib chiqilayotgan ishtirokka asoslangan marketing ekotizimlarida asosiy interfeys — axborot tarqalish tizimi: kommunikatsiya kanallari va feedback uzatish zanjirlaridir.

Kutilmagan kanal tebranishi (volatilitesi) O‘zbekiston kabi o‘tish iqtisodiyotlarida hamda marketingning parchalanib ketgan sohalarida mavjud bo‘lgan tuzilmaviy xavf hisoblanadi. Ushbu miqdoriy tadqiqotda, siyosat zarbasidan keyin strategik muvofiqlikni yo‘qotmaslik — ya’ni korxonaning marketing samaradorligini pasayish yoki hatto to‘xtashi xavfini qanday bartaraf etish mumkinligi muhim savol sifatida ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, reglament strategiyalarining uzoq muddatga ta’siri va faol o‘zgarish jarayonidagi marketing modellari ustidagi mexanizmlar hanuz kam tushunilmoqda (Yulchieva, 2024; Burenin, 2021).

Shu bois, “Resurs cheklangan, texnologiyaga cheklangan kirish imkoniga ega bo‘lgan, rasmiy tarafdori bo‘lmagan korxonalar nimadir bilan yaqin va talabchan iste’molchilar guruhlariga ixtiyoriy ravishda, tashqi rag‘batlarsiz ham eksperimental bosqichda bardavom marketing kanallarini rivojlantirishga nima turtki bo‘lib xizmat qilmoqda?” degan muammo, moslashuvchanlikni biznes modeliga kiritmoqchi bo‘lgan manfaatdor tomonlar uchun katta ahamiyatga ega (Toshboev va boshq., 2021).

Biroq, marketing kanallarining uzoq muddatli evolyutsiyasini bashorat qiluvchi mustahkam model hozircha mavjud emas. Buning sabablari: iste’molchi ishtiroki oqimlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchash ma’lumotlarining yo‘qligi (Ergashxodjaeva va boshq., 2023; Ramazonovma, 2022), sun’iy intellekt bilan integratsiyalashgan marketing narrativlarining tarqalishi to‘g‘risidagi tushunmovchilik (Saidov, 2021; Tulagan-Ugli, 2021; Narinbaeva va boshq., 2021), hamda auditoriya reaksiyasini kvantifikatsiyalashga imkon beruvchi taqsimlangan (disaggregatsiyalangan) ma’lumotlar bazasining mavjud emasligi, ayniqsa regional feedback tizimlarining ayrim joylarda ishlamasligi bilan bog‘liq (Jamoliddinova, 2022; Mustafakulov, 2021). Turli tahliliy sharhlarda, aksariyat sanoat tarmoqlarida marketing samaradorligi chetlashib ketishi va pasayish tendensiyalari umuman xavotir uyg‘otayotganligi qayd etilgan (masalan, Hayitboyeva, 2021; Popova va boshq., 2021; Zhehus, 2023). Kanalning tezkor javob berish qobiliyatining ortib borayotgan ahamiyati, aqlli kommunikatsiya protokollarining mazmuni va ma’lumot shaffofligining obro‘-etika axborotini himoya qilishdagi roli bo‘yicha asosiy savollarni yuzaga keltiradi. Strategik ishonch va brend rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik har doim siyosat–marketing sohasida bevosita emas, lekin adabiyotlarda bu ishonch odatda jamoatchilik ishonchi sifatida, tizimli darajada operatsionlashtiriladi (Popova va boshq., 2021; Yulchieva, 2024; Burenin, 2021).

Agar siyosatdagi noaniqlik va post-regulyator deformatsiya ta’siri e’tiborga olinmasa, xaritaga asoslangan umumiy ma’lumotlardan tarqalish dinamikasini

tushunish imkonsizdir — chunki ular uzoq muddatli javob ma’lumotlarini va uzoq

zanjirli qiymat operatorlarini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkin. Oldingi baholashlar vaqt o‘tishi bilan kanal ishonchi asta-sekin pasayishini ko‘rsatganiga qaramay (Popova va boshq., 2021; Zhehus, 2023), ba’zi modellarda bu pasayish kontekstual qayta tiklanish sifatida ko‘rilgan. Darhaqiqat, bir dalillar O‘zbekistonda iste’molchi ishonchi darajasi siklik tarzda o‘zgarib turganini, ma’lumot asimmetriyalari mavjud bo‘lgan va barqaror platformani tashkil etmaydigan davrlar bilan ajralib turganini ko‘rsatadi (Hayitboyeva, 2021; Ramazonovma, 2022; Yulchieva, 2024).

Regressiya asosidagi ma’lumotlar bozor kuzatuv oynasi barqaror yoki yaqinda shakllangan davrda samarali bo‘lishi mumkin — bunda keyingi narrativ to‘ldirishning ta’siri kam bo‘ladi. Ammo bu sharoit mavjud bo‘lmasa, chiqish signali faol kanal o‘zaro ta’siri qatlamining aniq vakili bo‘lmasligi mumkin. Afsuski, ba’zi tahliliy yondashuvlar marketing tebranishlari iste’molchi inersiya (tartibsizlik) sababli yuzaga kelayotganini sezmaydi. Xususan, tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida faol rivojlanayotgan kanal tizimlariga transformativ strategiyalarning uzoq muddatli samaradorligini boshqaruvchi ichki shartlar hanuz yetarli darajada o‘rganilmagan (Mustafakulov, 2021; Tulagan-Ugli, 2021).

Shu sababli, bizning tadqiqotimizning maqsadi — bozorga kirish va korxona rivojlanishida turli kommunikatsiya tuzilmalarini faollashtirish orasidagi asosiy naqshlar va korrelyatsiyalarni aniqlash, bu esa sarmoyadorlar va ichki qaror qabul qiluvchilar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Mazkur izlanishda biz O‘zbekiston institutsional kontekstida vaqt va makon doirasida kanal-siyosat o‘zaro ta’sirni kvantifikatsiya qilish uchun AHP-regressiya gibrid modellardan foydalanamiz (Akhmedov, 2023).

uchun qulaylik darajasi — onlayn, oflayn, yetkazib berish xizmati va bir tomonlama reklama emas, balki ikki tomonlama muloqot — mijoz bilan fikr almashish, munosabat qurish imkonini berishini isbotlab bergan.

T. Levittning Marketing Myopia asarida mahsulot sotish emas, mijoz muammosini hal qilish zarur deb ta'kidlagan. U "Aksariyat kompaniyalar o'z faoliyatini mahsulot ishlab chiqarish deb o'ylaydi, lekin aslida ular mijoz ehtiyojini qondirish bilan shug'ullanishi kerak" degan fikrni ilgari suradi[1].

Sh.Dj.Ergashxodjayeva o'zining darsligida "har bir mintaqa va mamlakat o'ziga xos bozor xususiyatlariga ega va kichik biznesda marketing strategiyasini ishlab chiqishda bu xususiyatlarni inobatga olish zarur"ligini uqtirib o'tgan[2].

D.N.Muxammedova tomonining "Kichik biznes subyektlari faoliyatida marketing strategiyalarini takomillashtirish yo'nalishlari"mavzusida olib borgan ilmiy tadqiqot ishidan ko'rish mumkinki, O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish uchun oddiy reklama yoki sotuv emas, balki zamonaviy marketing strategiyalarini joriy etish talab etiladi, ya'ni, kichik korxona faqat mahsulot ishlab chiqarish bilan cheklanmasdan, bozorni o'rganishi, mijoz ehtiyojini tahlil qilishi va raqobatchilardan farqlanishi kerak deb ta'kidlanadi[3]. Muxammedovaning fikricha, kichik biznes o'z raqobatchilaridan sifatli va tez xizmat ko'rsatishi, mahsulot ishlab chiqarishdagi individual yondashuv, arzon narxda yuqori qiymat yaratish va mijozlar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatishi bilan o'z ustunligiga ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan.

A.U. Burxanov **"**Innovatsion iqtisodiyotda kichik tadbirkorlik rivojlanishida marketingning roli" nomli maqolasida "Innovatsion iqtisodiyot sharoitida kichik biznes faqat mahsulot ishlab chiqish bilan cheklanib qolmasdan, texnologik yangiliklarni bozor ehtiyojlariga moslashtirishi kerak" deb ta'kidlaydi[4] Burxanovning fikriga ko'ra, kichik tadbirkorlikda marketing faqat sotuv vositasi emas, balki innovatsiyalarni bozorga olib chiquvchi "ko'prik" hisoblanishi kerak.

Sh.Qurbonov va A.Rahimovlarning «Kichik biznesda raqamli marketing va onlayn savdo tizimlari" nomli maqolasida[5] raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes raqamli marketing vositalarisiz samarali faoliyat yurita olmasligi va bugungi kunda kichik biznes uchun Instagram, Telegram va Facebook orqali onlayn savdo - eng arzon va tez foyda beruvchi kanal hisoblanishini inobatga olib, ijtimoiy tarmoqlarda marketing, onlayn to'lov va yetkazib berish tizimlari, targeting va analitikalar marketing xarajatlarini kamaytirishi va natijani tez ko'rsatishi bilan alohida xususiyat kasb etishini ochib berganlar. Qurbonov va Rahimovlarning tadqiqotiga ko'ra, raqamli marketing joriy etilgan kichik bizneslarda sotuv hajmi o'rtacha 25–30% ga oshishi, mijoz bazasining esa ikki barobarga kengayyishini isbotlab berganlar.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida xalqaro va milliy manbalarga asoslangan adabiyotlar sharhi hamda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Jumladan, AQSH, Yevropa Ittifoqi, Rossiya, O'zbekiston va boshqa mamlakatlarda chop etilgan ilmiy maqolalar, konferensiya materiallari hamda rasmiy tadqiqot hisobotlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda, kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishni cheklovchi omillar orasida moliyaviy resurslar yetishmovchiligi va investitsiyalarni jalb etish qiyinchiliklari mavjud bo'lib, bunda, bozor infratuzilmasining rivojlanmaganligi, yuqori raqobat darajasi va boshqa omillar salbiy ta'sir ko'rsatayotganligini ko'rish mumkin. Jumladan, kichik biznes subyektlari faoliyati qo'llab-

[1] Levitt, T. (1960). Marketing myopia. Harvard Business Review, 38(4), 45–56.
[2] Ergashxo'jayeva, Sh. (2014). Marketing: darslik. Toshkent: Iqtisodiyot.
[3] Muxammedova D.N. (2021). Kichik biznes subyektlari faoliyatida marketing strategiyalarini takomillashtirish yo'nalishlari. Toshkent: TDIU.
[4] Burxanov A.U. (2022). Iqtisodiyot va ta'lim, №3, 25–31.
[5] Qurbonov Sh., Rahimov A. (2021). Marketing va menejment amaliyoti, №2, 40–48.

quvvatlash infratuzilmasining yetarli shakllanmagani muhim muammo bo‘lib, bu boradagi kamchiliklar kichik korxonalarning professional bilim va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘liq qondirishga to‘sqinlik qilmoqda.

Bizga ma’lumki, kichik biznes subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash infratuzilmasi bu ushbu soha subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi va ularga ta’lim, konsalting hamda boshqa zarur xizmatlarni ko‘rsatuvchi davlat va nodavlat, ta’lim va tijorat tashkilotlari majmuasi demakdir.

Xalqaro tajribalardan shuni ko‘rish mumkinki, davlat va mahalliy hokimiyat organlarining har tomonlama sohani qo‘llab-quvvatlamas ekan, bunday infratuzilmani kompleks va samarali tarzda shakllantirib bo‘lmaydi. Shu bois, kichik biznesni yuksaltirish uchun uni boshqarishning zamonaviy uslub va konsepsiyalarini o‘zlashtirish, xususan, marketingga doir ilg‘or yondashuvlarni amaliyotga joriy etish o‘ta muhim hisoblanadi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida marketingcha konseptual yondashuvlarni qo‘llashda beshta asosiy konsepsiyani keltirib o‘tish mumkin.



1-rasm. Marketingcha konseptual yondashuvlarning besh konsepsiyasi[1].

Sohaga ishlab chiqarish konsepsiyasini qo‘llashda bozordagi talab taklifdan ustunlik holatini tanlab olishimiz va bunda korxonaning asosiy e’tiborini mahsulotning ko‘proq va arzonroq ishlab chiqarilishiga qaratish lozim. Kichik biznes subyektlari faoliyatida bu yondashuvdan foydalanish orqali iste’molchilar arzon va keng tarqalgan tovarlarni ko‘proq xarid qilishga ega bo‘ladi. Mahsulot konsepsiyasida esa xaridorlar yuqori sifati va xususiyatlarga ega mahsulotlarni afzal ko‘rishini inobatga olib, kompaniyalar uzluksiz mahsulot takomillashtirishga e’tiborni qaratish lozim. Sotish konsepsiyasida esa, yoki“agressiv marketing konsepsiyasi”da kichik biznes subyektlari faoliyatida reklama va sotuvni rag‘batlantirish orqali iste’molchilarda mahsulotga bo‘lgan talabini uyg‘otishga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan yondashuvlarni kuzatish natijasida marketing konsepsiyasining zamiri yaratiladi va bunda kichik biznes subyektlari avvalo bozorni o‘rganadi, maqsadli segmentlarni tanlaydi va o‘sha segment mijozlarining ehtiyojlarini raqiblardan afzalroq tarzda qondirishga intiladi[2]. Ijtimoiy-marketing konsepsiyasida esa, kichik biznes subyektlarining marketing strategiyasi nafaqat mijoz talabini qondirish balki, o‘z foydasini maksimallashtirish, balki jamiyat manfaatlariga xizmat qilish tamoyiliga asoslanadi. Bugungi ekologik muammolar va ijtimoiy mas’uliyat trendlari sharoitida kichik korxonalar ham o‘z faoliyatida barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya etishi, atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy jamiyat farovonligiga hissa qo‘shish kabilarni inobatga olishi

[1] Kotler, P. (1991). Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control (7th ed.). Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

[2] Kotler, P. (1991). Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control (7th ed.). Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

lozim. Bunda, kichik biznes subyektlarining faoliyatida inson va jamiyat oldidagi mas'uliyati tobora ortib boradi.

Kichik biznes subyektlari faoliyatida marketing konsepsiyasini amalga oshirish samaradorligi uning zamonaviy tamoyillar asosida yuritilishiga bog‘liq.

Jahon amaliyotida kichik korxonalar mijozlar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan "bozorga yo‘nalgan" marketing konsepsiyasini joriy etib, o‘z raqobatbardoshligini oshirishga erishmoqda[1]. 1980-yillarda G‘arb mamlakatlarida shakllangan "o‘zaro aloqalar marketingi" (relationship marketing) konsepsiyasi mijozlar bilan bir martalik savdodan ko‘ra uzoq muddatli aloqani qadrlaydi; unda xaridorni jalb qilish bilan birga, uni saqlab qolish va kompaniyaga sodiq mijozga aylantirish maqsad qilinadi.

Xalqaro tadqiqotlarda ko‘rsatilishicha, yangi mijoz jalb qilish xarajatlari mavjud mijozni saqlab qolishdan bir necha baravar qimmatga tushadi, shuning uchun kichik biznes subyektlarida cheklangan marketing byudjetini samarali sarflash uchun eski mijozlar bilan ishlashni yo‘lga qo‘yish afzal ekanligi isbotlangan. Bunday yondashuv, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznes subyektlari uchun mos keladi. Bunda doimiy ravishda mijozlar ulushini oshirishga qaratilgan siyosat olib boriladi va ularga maxsus imtiyozlar beriladi.

O‘zaro aloqalar marketingi konsepsiyasining yana bir tarkibiy qismi – hamkorlik marketingi bo‘lib hisoblanadi.



2-rasm. Hamkorlik marketingining o‘zaro aloqalari[2].

Bu marketing konsepsiyasida o‘zaro foydaga asoslangan hamkorlik munosabatlari o‘rnatiladi. Jahon amaliyotidan ma'lumki, kichik biznes subyektlari faoliyati klasterlarga birlashib, hamkorlikda faoliyat olib boradi va marketing faoliyati va eksport faoliyatini amalga oshirishi ko‘p uchraydi. Bular bir-biriga raqobatchi emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi mahsulot ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlari faoliyatida qo‘shimcha imkoniyatlar eshigini ochish orqali marketingning turli usullarini qo‘llab, tashqi bozorga chiqish yo‘llari izlab topadi. Masalan, Italiyaning Toskana viloyatidagi mebel ishlab chiqaruvchi kichik sexlar birlashib "Toskana mebeli" degan jamoaviy brend ostida eksport qiladi va xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etadi – bu ularga yakka holda harakat qilganda erishishi qiyin bo‘lgan bozor ko‘lami va reklama samaradorligini beradi[3].

Kichik biznes subyektlari faoliyatida va ayniqsa, tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan raqobatlar muhiti yaratilgan bir sharoitda mijozga yo‘nalgan marketing konsepsiyasi eng ma'qul model sifatida qaraladi. Bunda, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, yangicha yondashuvlar yuzaga keladi. Shuning uchun kichik biznes subyektlari faoliyatida marketing ilm-fani va amaliyotidagi yangiliklardan doimo xabardor bo‘lish lozim. Bu – tadbirkorlik faoliyatida raqobatbardosh mahsulotlarni yaratish va iste'molchi xohish istagini amalga oshirilgan holda mahsulotlarni yaratishda, muntazam ravishda iste'molchi talablarini o‘rganishga qaratilgan qo‘shimcha bilim olish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu maqsadda mamlakatimizdagi tadbirkorlar uchun maxsus biznes-

[1] Kotler, P. (1991). Marketing Management: Analysis, Planning, Implementation, and Control (7th ed.). Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.

[2] Muallif ishlanmasi

[3] Becattini, G. (1991). "Italian Industrial Districts: Problems and Perspectives." International Studies of Management & Organization, 21(1), 83–90

maorif (business education) dasturlarini kengaytirish, marketing bo‘yicha master-klass va seminarlar tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Zero, kelajakda faqat bozordagi o‘zgarishlarga tez moslashgan va yangicha marketing konsepsiyalarini jadal qo‘llay olgan kichik biznes subyektlarigina raqobatda jon saqlay oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarda marketingga oid komponentlarni nazardan qochirmasliklari lozim. Biz tahlil qilgan xorijiy mamlakatlar tajribalarida ko‘rish mumkinki, kichik biznes subyektlariga moliyaviy yordam berish bilan birga, ularni har tomonlama yetarli bilim va ko‘nikmasini oshirib borishga sharoit yaratish va maxsus yo‘naltirilgan resurslar bilan ta’minlashga qaratilgan resurs yo‘naltirilsa va ayniqsa, yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari faoliyati uchun biznes va marketing bo‘yicha mentorlik dasturlari tashkil etish o‘z samarasini beradi. Bunda tajribali marketologlar yoki tadbirkorlar yosh kompaniyalarga muayyan muddat sherik sifatida maslahatlar berib borishadi va ularning bozorda mustahkam o‘rnashib olishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, mamlakatimizda kichik biznes subyektlari faoliyatiga alohida e’tibor qaratilishi orqali eksportbop mahsulotlar ulushini oshirishga erishiladi. Bunda, kichik biznes subyektlarining xalqaro marketing ko‘nikmalarini oshirish ham muhim: masalan, eksportbop mahsulotlar sertifikatsiyasi, xalqaro brend yaratish, tashqi bozor talablariga moslashish kabi vazifalarda metodik yordam berish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ta’kidlash lozimki, kichik biznes subyektlari faoliyatining global qiymat zanjirlariga qo‘shilishi uchun marketingning rolini tushuntirish va bu boradagi mashg‘ulotlarni kuchaytirish zarur – zero, mahsulotni chetga sotish faqat mahsulot sifatiga emas, uning chet el mijoziga qanchalik to‘g‘ri taqdim etilganiga ham bog‘liq. Shunday ekan, davlat siyosati darajasida kichik biznes subyektlari faoliyatiga marketing bo‘yicha maslahat markazlari xizmatlar ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish, shu sohada xususiy sektorni (maslahatchi va agentliklarni) rivojlantirishni rag‘batlantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев, Ш. М. (2020, 29 декабрь). Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси – 2020. Retrieved from https://president.uz/uz/lists/view/4057
2. Голиков Д. Э., Чаусов Н. Ю. Специфика маркетинга малых предприятий // Экономика и бизнес (Россия). – 2021. – №7(77). – С. 45–52.
3. Семенова Н. С. Развитие маркетинга взаимодействия в практике зарубежных компаний // Экономика и социум (Россия). – 2016. – № 3 (22). – С. 1929–1932.
4. Шчепакин, М. Б., Хандамова, Э. Ф., Глазырина, Э. О., и Еремеев, А. В. (2020). Развитие концепций маркетинга в условиях усиления влияния субъективного фактора. Экономика, предпринимательство и право, 10(5), 1365–1388.
5. Биленко А. В. Реализация концепции маркетинга взаимодействия в сфере телекоммуникаций: Автореф. дисс. канд. экон. наук. – Москва: МЭСИ, 2007. – 24 с.
6. Котлер Ф. Основы маркетинга. – Москва: Прогресс, 1991. – 736 с.
7. Ламбен Ж.-Ж. Стратегический маркетинг. – Санкт-Петербург: Наука, 2009. – 800 с.
8. Эргашхўжаева, Ш. (2014). Маркетинг: дарслик. Тошкент: Иқтисодиёт.
9. Мустафакулов Ш. И., Ҳакимов З. А. Кичик бизнес учун маркетинг. – Тошкент, 2019. – 180 с.
10. Касимова Ф. Т. Маркетинг в условиях развития конкурентных рынков в малом бизнесе и предпринимательстве // Иқтисодиёт ва Таълим (Узбекистан). – 2021. – № 1. – С. 74–78.
11. Кутбитдинова М. И., Матризаева Д. Ю. Маркетинг в малом бизнесе в условиях модернизации экономики // Маркетинг илмий журнали (Узбекистан). – 2024. – № 3. – URL: https://marketingjournal.uz

UCHINCHI SHO‘BA- IJTIMOIY TA’SIRLAR VA ISTE’MOLCHILARNING XULQIY TRANSFORMATSIYASI

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI TAKOMILLASH-TIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ibragimova Shaxlo Alimbayevna
O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi raisi o‘rinbosari

Annotatsiya

Ushbu maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida marketing faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, mazkur maqolada raqobat sharoitida banklarda yangi mijozlarni jalb qilish va eski mijozlarni saqlab qolish masalalari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, tijorat banklari, bank innovatsiyalari, marketing faoliyati, innovatsion marketing, moliyaviy texnologiyalar, elektron bank, onlayn bank, internet banking.

Аннотация

В статье представлены предложения и рекомендации по совершенствованию и повышению эффективности маркетинговой деятельности коммерческих банков в условиях «зелёной» экономики. Также в статье подробно рассматриваются вопросы привлечения новых и удержания старых клиентов в банках в условиях конкуренции.

Ключевые слова:«Зелёная» экономика, коммерческие банки, банковские инновации, маркетинговая деятельность, инновационный маркетинг, финансовые технологии, электронный банкинг, онлайн-банкинг, интернет-банкинг.

Abstract

This article provides suggestions and recommendations for improving and increasing the effectiveness of marketing activities in commercial banks in the context of a green economy. Also, this article discusses in detail the issues of attracting new customers and retaining old customers in banks in a competitive environment.

Keywords: Green economy, commercial banks, banking innovations, marketing activities, innovative marketing, financial technologies, electronic banking, online banking, internet banking.

Yashil iqtisodiyot sharoitida moliyaviy globallashuv milliy bank tizimidagi transformatsiya jarayonlarini belgilovchi vektorga aylangan. Ushbu hodisaning mohiyati innovatsion moliyaviy vositalar va mahsulotlarni ishlab chiqish, kapitallar va moliyaviy texnologiyalarni bir-biriga transformatsiyalashuv jarayonlarini kuchayishi, ichki moliya bozorlarini tartibga solish, Xalqaro banklarni rivojlantirish, milliy iqtisodiyot tarmoqlari, jahon moliya markazlari va institutlari o‘rtasidagi aloqalarni va integratsiyani mustahkamlashdan iborat. Natijada zamonaviy moliyaviy arxitekturada xalqaro bank biznesining yangi shakllari yuzaga chiqmoqda.

Xalqaro bank biznesini rivojlanishi va tuzilish tabiatining tezkor o‘zgarishi, moliya tizimining globallashuvi va jahon iqtisodiy aloqalarining intensivlashishi sharoitida uning yangi paradigmasining shakllanishi ushbu jarayonning innovatsion

tarkibiy qismini faollashtirishni talab qiladi. Innovatsiya, moliya va tashqi iqtisodiy muhitning chambarchas bog‘liqligi "yangi iqtisodiyot" hodisasini xarakterlovchi eng muhim omillardan biridir. Shuning uchun mahalliy bank tizimi raqobatbardoshligini oshirishga yo‘naltirilgan innovatsion usullarni o‘rganish dolzarb ahamiyatga egadir.

Moliyaviy globallashuv jarayonining shubhasiz afzalliklaridan biri bu bank sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishni rag‘batlan-tirishdir. G‘arb amaliyotida jahon moliya bozorida tijorat banklarining raqobatbardosh ustunligiga erishish uchun harakatlarni amalga oshirish mamlakatlar alohida strategik yo‘nalish sifatida qaraydi. Bank sektoriga nisbatan qo‘llaniladigan innovatsiyalarning yakuniy natijasi bu bozorda sotiladigan butunlay yangi yoki takomillashtirilgan bank mahsuloti va amalda qo‘llaniladigan texnologik jarayonlarda aks etadi. Asosiy maqsad ilgari taklif qilinganlarga nisbatan yanada jozibador iste’mol xususiyatlariga ega bo‘lgan bank mahsulotini (bank texnologiyasini) yaratish asosiy strategik yo‘nalish sifatida qaraladi. Bank innovatsiyalaridan foydalanish korxonalarni rivojlanishi-ning yangi yo‘nalishlarini ochish qobiliyatini oshirishga qaratilgan. Ularning asosiy maqsadi — bank xizmatlari bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda, yangi mijozlarni jalb qilish va mavjud mijozlarni saqlab qolishdir, bu asosan taqdim etilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirish va ularni joriy etish texnologiyalarini takomillashtirishda ifodalanadi.

Mavjud resurs cheklovlari sharoitida innovatsion faoliyat tijorat banklarining ajralmas qismi bo‘lgan milliy iqtisodiyotning umuman raqobatbardoshligini ta’minlovchi eng muhim vositaga aylanib boradi. Ushbu holatlar jahonda bank biznesi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida o‘z isbotini topgan. Faoliyat samaradorligini oshirish va tijorat banklarining barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun innovatsiyalar alohida ahamiyatga ega. Bugungi kunda bank bozorida kuzatilayotgan tobora kuchayib borayotgan ichki raqobat sharoitida tijorat bandlari uchun yangi va mavjud bank mahsulotlarini takomillashtirish uchun qulay vositalar bo‘lishi juda muhimdir, buning natijasida ular erishilgan raqobat pozitsiyasini saqlab qolish va yaxshilash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shunday qilib, banklar innovatsion faoliyati va ular bilan bog‘liq masalalar banklarning o‘zlari va umuman makroiqtisodiy tizim uchun dolzarb va ustuvor masalaga aylangan. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bank sektorini modernizatsiya qilmoqda, zamonaviy bank qiyofasini, uning vositalarini, mijozlar bilan aloqa usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Bank yangiliklarini faol va tezkor ravishda amalga oshirish ushbu banklarning raqobatbardoshligini oshirishga, ularning xalqaro moliyaviy muhitga uyg‘un kirib borishiga yordam beradi.

Bank sohasidagi yangiliklarning o‘ziga xos tasnifi Oslo(havola) qo‘llanmasida belgilangan an’anaviy innovatsiyalar tasnifi (ya’ni mahsulot, jarayon, tashkiliy yoki marketingga yo‘naltirilgan innovatsiyalar) bank sohasida ham qo‘llanilishi mumkin. Ushbu innovatsion guruhlarning xar biri uchun bank amaliyotidan alohida misollarni ko‘rsatish mumkin. Biroq, so‘nggi yillarda banklar yangi texnologiyalarni shu darajada tatbiq etishdiki, bank biznesi raqamli texnologiyalarga deyarli o‘tkazilmoqda. Natijada,

hozirgi kunda innovatsiyalarning yuqorida aytib o‘tilgan tasnifi yetarli emas.

Elektron bank bu yerda yaxshi namuna bo‘lishi mumkin, chunki u quyidagi mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy yangiliklarni qabul qilishi mumkin va ularni faqat raqamli transformatsiya bilan bog‘lashga majbur qiladi. Shuning uchun bank faoliyatidagi innovatsion rivojlanish xususiyatlari ularning rivojlanishini belgilovchi omillarni o‘z ichiga olgan xolda kengaytirilishi kerak.

Moliyaviy xizmatlarda qo‘llaniladigan texnologiyaning dastlabki namunalari XIX asrning birinchi yarmidan kelib chiqqan. Aynan o‘sha paytda telegraf ishlab chiqilgan va telegraf kabeli Atlantika okeanidan o‘tib, Yevropa va Amerikani birlashtirgan. Ushbu voqealar ikki qit’a o‘rtasida doimiy aloqani o‘rnatishga olib keldi, bu esa moliyaviy xizmatlarni yanada xalqarolashtirishga imkon berdi. Moliyaviy texnologiyalarning bosqichma- bosqich evolyutsiyasi nazariyasiga ko‘ra, o‘sha lahzada "FinTech 1.0" davri boshlangan. An’anaviy bozor tuzilishi tufayli o‘sha davrda yetakchi rolni an’anaviy institutlar, asosan mavjud texnologiyalardan foydalangan banklar egallab, shu bilan o‘z mavqelarini mustahkamladilar.Ushbu bosqichning keyingisi "FinTech 2.0" deb nomlangan bo‘lib, 1967 yilda Buyuk Britaniyaning eng yirik banklaridan birida umumiy foydalanish uchun bankomatni joriy qilish bilan bog‘liq edi.

XIX asrning birinchi o‘n yilligida bozorning asta-sekin o‘zgarib borayotgan tuzilishi ham, global moliyaviy inqiroz boshlanishi ham moliyaviy texnologiyalar evolyutsiyasining yana bir uchinchi bosqichini - FinTech 3.0 ni keltirib chiqargan. Moliyaviy inqiroz natijasida investorlarni bank sohasi holati, butun dunyodagi fond birjalarida bank aksiyalariga *narxlarning keskin* pasayishi va institutsional qoidalarning haddan tashqari ko‘pligi banklarning risk darajasini oshirishgan. Shuning uchun ular o‘zlarining qiziqishlarini rivojlanayotgan moliyaviy startaplar sektoriga qaratib, yangi investitsiya maqsadlarini qidirishni boshladi.

FinTech 3.0 davrida moliya bozorida innovatsiyalarni rivojlan-tirish yuki amaldagi davlatlar deb nomlangan ushbu sektorning an’anaviy institutlaridan texnologiyani ishga tushiradigan boshlang‘ich korxonalarga o‘tkazildi. Ushbu davrda "FinTesh"ning o‘zi ta’rifiga aniqlik kiritildi, chunki hozirgi paytda u texnologiya va moliya dunyosining chekkalarida ishlaydigan startaplarni tavsiflash uchun ishlatilgan.

Moliyaviy "start-up" bozorining rivojlanishi ushbu kompaniyalar va amaldagi rahbarlar o‘rtasida mustahkam bog‘lagan tarmoq yaratilishiga olib keldi. Shu sababli, bozor rivojlanishining navbatdagi bosqichini ajratib olishga ehtiyoj tobora ortib bormoqda, uni qabul qilingan terminologiyaga ko‘ra FinTech 4.0. deb atash kerak. Ta’riflangan rivojlanishning yangi bosqichini aniqlash uchun asosiy dalil FinTech kompaniyalari, banklari va boshqa raqamli xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar tomonidan yaratilgan *raqamli ekotizimlarning paydo bo‘lishi hisoblanadi*. Ular *banklarni tashqi* dunyo uchun ham biznes, ham texnologiya nuqtai nazaridan ko‘proq ochiq bo‘lishga majbur qilgan o‘zgarishlarni tahlil qildilar. Ikkinchi sohada banklarning faoliyati ochiq infraqizil bank deb nomlandi, bu bank infratuzilmasiga keng qo‘llaniladigan dasturiy axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali kirishga asoslangan.

Bozorning yangi konfiguratsiyasi, bir tomondan, moliyaviy xizmatlarda, shu jumladan bank xizmatlarida yangi biznes-holatlar va biznes modellarni (ya'ni platformadagi biznes model) ishlab chiqish va yaratish uchun ko'plab imkoniyatlarni anglatadi, ammo boshqa tomondan -raqobatning kuchayishi va bozordagi yangi subyektlar nafaqat banklarning o'ziga, balki ularning mijozlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Natijada hozirda maqbul darajada yangi tizimli xavf aniqlandi. Shunga qaramay, yaqin kelajakda xatarlarni yanada yaxshiroq boshqarish, bozorning barcha subyektlaridan bir qator harakatlarni talab qiladi va bu bozor nazorati organlarining rolini ko'rsatib beradi.

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlari eng rivojlangan mamlakatlar hisoblangan AQSh, Xitoy, Braziliya, Yaponiya va Hindiston kabi mamlakatlarda dunyodagi bankomatlarning 50% dan ortig'i joylashgan bo'lib, onlayn bank tendensiyalari o'sishini aynan bankomatlar soniga bog'liq degan xulosaga kelinmoqda. Xitoyda 2011-yildan 2019-yilgacha bo'lgan davrda onlayn-bank xizmatlari ko'rsatish bo'yicha bozor statistikasiga ko'ra, onlayn bank operatsiyalarning yillik qiymati 597 trillion yuandan 6,4 kvadrillion yuanga yetgan.

Onlayn bank xizmatlaridan foydalanuvchilarning jami bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soniga nisbati bo'yicha Yevropada 2024-yilda shvedlar yuqori pog'onaga ko'tarilib 91 foizni tashkil etgan. Mamlakat 2026-yil martigacha sayyoradagi birinchi naqdsiz jamiyati bo'lishi kutilmoqda. 2017-yildan 2026 *yilgacha mobil aloqa vositalariga javob beradigan saytlar* ***yoki*** ilovalar orqali amalga oshirilgan bank operatsiyalari soni 121 foizga ko'payishi kutilmoqda, bu dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlaridagi bankomatlardan foydalanish tendensiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Internet-banking statistikasining so'rovi natijalariga ko'ra iste'molchilarning 73 foizi 30 kunda kamida bir marta onlayn bank kanalidan, 59 foizi mobil bank dasturidan foydalanishi aniqlangan. Onlayn va mobil bank statistikasiga ko'ra 2026 yilgacha iste'molchilar bilan banklarning o'zaro aloqalarining 88% smartfonlar orqali amalga oshiriladi degan prognozlar mavjud. Onlayn bank xizmatlariga iste'molchilar demografik omilining yuqori ta'siri mavjudligi "Venmo" brendining marketing tadqiqotlari tasdiqlangan. "Venmo" brendi bo'yicha mobil to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi iste'molchilarning 55 va undan yuqori yoshdagilarning 12%, undan yoshlarning 30 foizi onlayn to'lovlardan foydalanishgan.

Bank sohasidagi innovatsiyalar shakliga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Eng muhimi, ko'p marta ta'kidlanganidek texnologik determinantlar bo'lib, banklar tomonidan texnologik yechimlardan foydalanishni ko'p yillik tarixi ularning hozirgi kunda an'anaviy xizmat ko'rsatish sohalari orasida eng yaxshi innovatsion biri sifatida tan olinishiga sababdir. Bu ularga ushbu yo'nalishda yanada rivojlanish uchun mustahkam asos yaratdi. Buni butun dunyo bo'ylab bank bozori vakillari yangi texnologiyalarni yaratish va rivojlantirishda faol ishtirok etishlarini ko'rsatadigan ko'plab amaliy tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Sinergiya samaralari bu yerda nafaqat operatsion samaradorlik nuqtai nazaridan (ya'ni jarayonlarni avtomatlashtirish), balki savdo imkoniyatlari (ya'ni

shaxsiylashtirilgan taklif) nuqtai nazaridan xam ko‘rinadi. Sun’iy intellekt, tarqatilgan daftarlar (ayniqsa blokcheyn) va bulutli texnologiyalardan keng foydalanish asosiy innovatsiyalardir. Bunday innovatsiyalar banklar tomonidan amalga oshirilayotgan so‘ngi innovatsion tendensiyalardir. Shuni ta’kidlash kerakki, bu ma’noda texnologiyalar asosan moliyalashtirish imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyatiga bog‘liq va shuning uchun banklar ularni amalga oshirishning tabiiy texnologiyalari bo‘lib ko‘rinishi kerak. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich tashkilotlar va yirik texnologik kompaniyalar orasida zamonaviy yechimlarning moslashuvi yanada tezroq. Bu birinchi navbatda bank menejmenti xodimlarining mentaliteti natijasidir.

Ko‘p asrlik tarixga ega an’anaviy muassasalar sifatida ular texnologiya sohasidagi o‘zgarishlarga moslashuvchan munosabatda bo‘lish va dadil qarorlar qabul qilishga odatlanmaganlar. Shunday qilib, banklar nafaqat texnologik transformatsiyalar, balki mentalitet o‘zgarishlari nuqtai nazaridan yangi turdagi muammolarga duch kelishlari kerak. Texnologik yangiliklarga sarmoya kiritishdan va o‘z tuzilmalari doirasida samarali tatbiq etish amaliyotini yo‘lga qo‘yishdan qo‘rqmaydigan banklar o‘zlarining bozor mavqeyini saqlab qolishlari va hattoki noyob raqobatbardosh ustunlik yaratishlari mumkin bo‘ladi.

Bunday afzalliklarga ega bo‘lish demografiya bo‘lgan bank sohasida innovatsiyalarni rivojlanishini belgilovchi yana bir omil bilan juda bog‘likdir. Kelgusi yillarda moliyaviy xizmatlar bozoriga kiradigan keyingi avlod bank mijozlarining eng daromadli segmentlaridan biriga aylanadi. Ushbu avlod texnika asrida voyaga yetmoqda. Bugungi kunda mijozlar kutishlarining o‘zgarishi allaqachon yildan yilga muhim ahamiyat kasb etadigan kuchli omil hisoblanadi. Mijozlar o‘z banklaridan har kuni foydalanadigan boshqa raqamli xizmatlar taklif qiladigan standartlarni kutmoqdalar. Moliyaviy menejment, ularning fikriga ko‘ra, har qanday ijtimoiy tarmoqdagi akkauntdan foydalanish kabi sodda va intuitiv bo‘lishi kerak.

Raqamli davrda mijozlar tajribasining o‘zgarishi, banklar tomonidan talab qilinadigan xavfsizlik darajasini o‘zgartirmadi, ular jamoat ishonch institutlari sifatida ta’minlashi shart. Yuqori tartibga solinadigan muhitni saqlash banklar tomonidan joriy qilingan texnologiyalar ustidan tizimli nazoratni kafolatlaydi. Bank faoliyatidagi yangiliklarning xavfsiz rivojlanishi ishonchga asoslangan. Shu sababli, aholiga taqdim etilayotgan moliyaviy xizmatlar to‘g‘risida ma’lumot berish va bank sektori xavfsizligi to‘g‘risida xabardorlikni shakllantirish rolini ta’kidlash muhim ko‘rinadi. Bunday tadbirlar tizimli bo‘lishi, xususan ta’lim tizimining barcha darajalarini qamrab olishi kerak.

Eng yangi texnologiyalar bu mijozlarning ehtiyojlarini qondirish-ning bir usuli. Shubhasiz, texnologiya, ayniqsa, moliya bozoriga kirib kelayotgan yangi avlod mijozlari va ularning yoshligidanoq shakllangan xatti-harakatlari sharoitida banklarga mijozlar e’tiborini jamlash va shaxsiy takliflarni tayyorlashga imkon berib, bank sektorida tobora muhim rol o‘ynaydi. Biroq, shu bilan birga, banklar o‘z mijozlari tomonidan jamoat ishonch institutlari sifatida qabul qilinadi. Bu shuni anglatadiki, o‘zgarishlardan so‘ng ular o‘zlarining faoliyatiga qo‘yiladigan yangi turdagi xatarlarni tan olishlari va ularga qarshi turishlari kerak. Shu sababli, kiberxavfsizlik banklar

uchun juda muhim muammo bo‘ladi.

Bank faoliyatining innovatsion xarakterining navbatdagi hal qiluvchi omili *bu bozor o‘yinchilarining eng yangi texnologiyalardan* foydalanishga undaydigan yuqori darajadagi raqobatidir. Bir tomondan, innovatsiyalar, amalga oshirish bosqichida moliyaviy sarmoyalarni talab qilishiga qaramay, odatda jarayonlarni optimallashtirishga olib keladi va uzoq muddatda tejamkorlik hosil qiladi. Boshqa tomondan, jozibali va zamonaviy mahsulot turlarini tayyorlash tufayli ular yuqori saqlanishni ta’minlaydi va yangi xaridorlarni jalb qilishga imkon beradi. Aynan mijozlar bazasining kattaligi jihatidan shkala allaqachon yuqori bosim sharoitida banklarning rentabelligini belgilovchi hal qiluvchi omilga aylandi.

Bundan tashqari, banklarning raqobat muhitini tahlil qilishda bozorga tobora samarali kirib kelayotgan startaplar va boshqa texnologik kompaniyalarni kiritish muhimdir. Bank sektoridan tashqaridagi moliyaviy xizmatlar uchun innovatsion muhit xam banklarning texnologiyalar bilan tajriba o‘tkazishga tayyorligini sezilarli darajada rag‘batlantirishi mumkin. Masalan, Avstraliyada va Singapurda FinTech kompaniyalarining rivojlanishi uchun qulay sharoit banklarning faol munosabatiga ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu bozorlarda bank sektoridan tashqaridagi moliyaviy yangiliklarni osonlashtiradigan tartibga soluvchi yechimlar mavjud, masalan, tartibga solinadigan qum muhiti konsepsiyasi (bozor ma’murlari nazorati ostida maxsus muhit yaratish g‘oyasi) boshlang‘ich tashkilotlarda sinovlarni amaliyot o‘tkazishga va ularning yechimlarini tekshirishga imkon beradi.

An’anaviy banklar bir necha bor bozor mexanizmlari va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini tushunib yetishdi. Shuning uchun xam bugungi kunda ular nafaqat innovatsiyalarni o‘z ichida rivojlantirish orqali faol ravishda amalga oshiradilar, balki tashqi manbalardan xam foydalanadilar, texnologik kompaniyalar va startaplar bilan hamkorlik o‘rnatadilar. Bundan tashqari, ular moliyaviy boshlang‘ich tashkilotlarning rivojlanishini rag‘batlantirish, shu jumladan, maxsus investitsiya fondlarini tashkil etish yoki tezlashtirish yoki inkubatsiya dasturlarini tashkil etish maqsadida ko‘plab tashabbuslarni boshlaydilar. Ushbu harakatlar banklarning tajribasi va ularning nafaqat tartibga solish o‘zgarishlariga, balki yangi bozor talablariga ham moslashish qobiliyatini isbotlaydi. Buni Polshadagi yangi yechimlar bilan tajriba qilishdan qo‘rqmaydigan va o‘z tajribalari natijasida ichki boshlang‘ich bozorni shakllantirishda faol rol o‘ynaydigan, shu asosda raqobatbardosh ustunliklarini yaratadigan banklar ko‘rsatmoqda.

Biroq, bank faoliyatida innovatsiyalarni rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bu qonunchilikdir. Bank sohasida yangi texnologiyalar sohasidagi tartibga soluvchi omil ko‘p qirrali. Avvalo, xavfsizlik darajasi yetarli emasligi sababli ba’zi texnologiyalardan foydalanishni tizimli cheklash mavjud. Bunga dunyoning ba’zi qismlarida banklarga qo‘yilgan bulutga asoslangan yechimlardan foydalanishga qo‘yilgan cheklovlar misol bo‘la oladi. Boshqa tomondan, bank sohasida innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan tartibga solish choralari ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, Buyuk Britaniya nafaqat moliyaviy boshlang‘ich tashkilotlarning rivojlanishini, balki neo-banklar yoki chaqiruvchilar (masalan,

Starling Banlc, Atom Banlc va Monzo) deb nomlanadigan zamonaviy banklarni ham rag‘batlantiradigan ekotizim yaratdi.

Xorijiy olimlarning ilmiy adabiyotlarini o‘rganish natijalari bizga rivojlangan mamlakatlar tijorat banklari amaliyotida quyidagi bank xizmatlari va mahsulotlari keng taraqqiy topayotganligini aniqlash imkonini berdi (1-jadval)

1-jadval

Jahon mamlakatlari tijorat banklarida ko‘rsatiladigan zamonaviy bank xizmatlari tasnifi[1]

№	Zamonaviy bank xizmatlari	Tasnifi
1.	Privat-banking	Banklar tomonidan VIP mijozlarga taqdim etiladigan moliyaviy va moliyaviy bo‘lmagan bank xizmatlari kompleksi.
2.	Internet banking (internet banking)	Internet tarmog‘i orqali Veb brauzer amalga oshiriladigan masofaviy bank xizmati turi
3.	Bank mijoz-tizimi (RS banking, home banking, telephone banking)	Banklarda mijoz bilan interaktiv va raqamli texnologiyalar asosida amalga oshiriladigan maxsus ishlash usuli bo‘lib, mijoz bank bilan raqamli texnologiyalar asosida kommunikatsiyalarni amalga oshiradi. Bunda mijoz bank bo‘limi bilan doimiy aloqani boshqa bo‘limisiz amalga oshirish imkoniyati mavjud
4.	Mobil-banking tizimlari: SMS-banking, STK-banking, Java-banking, WAR-banking	Mijoz tomonidan bank operatsiyalarini mobil aloqa vositalari orqali masofadan turib amalga oshirish imkonini beruvchi xizmat turlari.

Yuqoridagilar bilan birga AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Kanada, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda metall tangalar muomalasi uchun "Penny Arcade" bank avtomatik qurilmasi xizmatlari, pochta bo‘limlarining moliyaviy va bank xizmatlari, moliyaviy kompaniyalar xizmatlari keng yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida hozirda Privat-banking amaliyotidan foydalanish bo‘yicha yetarlicha tajribalar mavjud emas. Biroq ushbu tizim xorijiy mamlakatlar banklarida keng qo‘llanilayotgan samarali xizmat turlaridan biridir.

Privat-banking Shveysariyada paydo bo‘lib, MDH davlatlaridan asosan, Rossiyada bank tizimida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu xizmat turlaridan foydalangan banklar esa borgan sari ko‘proq mijozlarni jalb etmoqda. Ushbu tizim banklarda o‘zlari tanlab olgan mijozlar bilan ishlashning o‘ziga xos bo‘lgan shakllariga tayanadi.

Privat-bankingni mijoz bilan yanada yaqindan va uni xar tomonlama qo‘llab quvvatlash va hamkorlik qilishni nazarda tutadi. Aslini olganda, bu xususiy sarmoyani

[1] Muallif ishlanmasi

boshqarish va hozirgi chakana biznesni rivojlantirish yo‘nalishlaridan biridir. Bank mutaxassislari MDH mamlakatlaridagi privat-bankingning asosiy vazifasi boshqaruvni optimallashtirish hamda, asosan, jismoniy shaxslardan iborat VIP toifali mijozlarning u yoki bu moliyaviy operatsiyalarini amalga oshirish chog‘ida sarmoyani xatardan himoyalash bo‘yicha maslahatlar berishdan iborat.

Ko‘pgina banklar qoshida elita mijozlarga xizmat ko‘rsatish uchun alohida bo‘linmalar tuzilmoqda. Rossiyada privat-bankning, asosan, ikkita xizmatlar blokini o‘z ichiga oladi. Birinchisi - mijozning mablag‘larini boshqarish, ularni Rossiya va xalqaro bozorlarda joylashtirish. Ikkinchisi - mijoz va uning oilasi muammolarini hal etish. Bank mutaxassislarining fikricha, eng asosiy mijozda tug‘ilgan ixtiyoriy masalalar bo‘yicha maksimal ko‘mak berilishi asosiy jihatlardan biridir. Banklarda VIR-mijozlarga xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xosligi aynan shundaki, bankirlar xar doim mijozlar oldida turishi mumkin bo‘lgan ixtiyoriy muammoni yechishga tayyor bo‘lib, ushbu muammolarni yechish davomida yangi moliyaviy bank xizmatlarini yaratilishiga asos solingan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, rivojlangan tijorat banklari amaliyotida asosiy birlamchi o‘rnini ko‘rsatilayotgan moliyaviy va boshqa turdagi bank xizmatlari egallagan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bank mijozlari hohishlarini bajarish davomida yangi bank xizmatlarini yaratilishi, yangi bank xizmatlarini joriy qilish borasida g‘oyalar shakllanadi.

Internet bankingni rivojlanishi yetarli darajada istiqbollidir. Aksariyat banklar internet orqali mijozlar bilan hamkorlik qilishga imkon beruvchi tizimlarni tatbiq etmoqdalar. Mutaxassislarning fikricha, bunday tizimli bank mijozlarining asosiy qismi internetning global jahon tarmog‘ini banklar bilan hamkorlik uchun foydalanadilar. Internet- bankingning pioneri AQSh hisoblanib, 1995-yili birinchi internet-bank sifatida "Security Frist Network Bank" tashkil etilgan.

Masofadan bank xizmatlari ko‘rsatishni ta’riflash uchun bir qator asosiy omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin, lekin, bizning nazarimizda, bankning mijoz talablariga darhol munosabat bildirishi eng muhim omildir. Ushbu omil asosida xizmatlarni darajalab, banklar masofadan bank xizmati ko‘rsatish doirasida amalga oshiradigan hamma operatsiyalarini ikkita asosiy toifaga: onlayn (off-line) rejimida va onlayn (on-line) rejimida o‘tadigan operatsiyalarga ajratish mumkin. Bugungi kunda, xalqaro moliyaviy-iqtisodiy globallashuv jarayonida O‘zbekistan Respublikasida banklar masofadan xizmat ko‘rsatishning onlayn rejimi jadal rivojlanib kelmoqda. Buning natijasida mijozlarga qulay imkoniyatlar, ya’ni, vaqt unumdorligi, ortiqcha ovoragarchilik, qog‘ozbozlik kamayishiga olib kelmoqda.

Xorijiy olimlarning aksariyat manbalariga e’tibor beradigan bo‘lsak yangi bank xizmatlarini joriy etishda asosiy e’tibor masofadan xizmat ko‘rsatish texnologiyasini yangi shakllarini kiritish bo‘yicha tadqiqotlar ommalashgan. Bular esa quyidagilar: on-line banking, remote banking, direct banking, home banking, Internet-banking, PC-banking, phone-banking, mobile banking, WAP-banking, SMS-banking, GSM-banking. Bank texnologiyalariga bugungi kunda jahon bank tizimida qo‘llanilayotgan “Bank-mijoz” dasturlari, xalqaro pul to‘lovlari tizimi, SWIFT to‘lov tizimi, bank

plastik kartochkalar, bankomatlar, terminallar va boshqa bir qancha bank faoliyatini yuritish uchun qo‘llaniladigan texnologiyalari ham shular jumlasidandir.

Quyidagi 2-jadval ma’lumotiga ko‘ra, interaktiv texnologiyalar asosida ko‘rsatiladigan bank xizmatlari turlicha bo‘lib, jahon amaliyotida deyarli barchasidan samarali foydalanilmoqda. Tijorat banklari tomonidan masofali xizmat ko‘rsatuvchi tizimlarning asosiylari esa "Bank-mijoz" dasturi, internet-banking, SMS-banking va mobil banking tizimlari hisoblanadi. Zamonaviy banklar murakkab moliya institutlari sifatida moliyaviy bozor va umuman iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yuritadi. Shuning uchun banklarda yangi xizmatlarni joriy etish, diversifikatsiya qilish banklar faoliyatining eng muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bu holda, yangi bank mahsuloti va xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish o‘ta dolzarb muammolar sifatida jahon ilmiy tadqiqotlarida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

2-jadval

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ko‘rsatiladigan bank xizmatlari tavsifi[1]

Bank xizmatlari	**Xizmatlarning qisqacha tavsifi**
Internet-banking	Mijoz bank bilan o‘zaro aloqaga kirishish uchun standart Internet- brauzerdan foydalanadi, bu brauzer o‘z navbatida tizimni mustaqil platformaga aylantirgan holatda har qanday internet tarmog‘iga ulangan kompyuter bilan ushbu tizimda bemalol ishlash imkoniyatini yaratadi
Mobile-Banking	Bank kartalari yoki hisob varaqalarni kommunikatorlar va smartfonlar orqali onlayn tizimida boshqarish hisoblanadi
Phone-banking	Bank hisob varaqalariga hamda bank kartalariga telefon orqali kirish dasturi
Video-Banking	Videokonferensiya, ya’ni bankdagi xodim bilan mijozning interaktiv muloqot tizimi
Web-Banking	Internet-Bankingning yengillashtirilgan ko‘rinishi bo‘lib, elektron raqamli imzo mexanizmiga ega emas, bank kartalari hamda hisob varaqlariga kirish imkonini Internet orqali hamda istalgan Web-brauzer orqali berishga mo‘ljallangan
WAR-Banking	Bank kartalari xamda hisob varaqlariga kirishni mobil aloqa vositasidagi WAR orqali amalga oshirish imkonini beruvchi xizmat.
SMS-Banking	SMS yordamida bank kartalari hamda hisob varaqlariga kirish xizmati
RS-Banking	Oflayn tizimida bank kartalari hamda hisobvaraqlarini boshqarish xizmati
“Bank-mijoz” dasturi	Bank hisob varaqlariga masofadan xizmat ko‘rsatish tizimi bank va uning mijozi o‘rtasidagi munosabatlarni avtomatlashtirishga mo‘ljallangan.
SWIFTto‘lov tizimi	Xalqaro banklararo telekommunikatsiyalar jamiyati va a’zo banklar o‘rtasida ma’lumot yuboruvchi vosita xizmatini bajaradi

[1] Muallif ishlanmasi

Bank xizmatlarini keng miqyosda diversifikatsiya qilish banklarga eski mijozlarni saqlab qolish va ularning yangi texnologiyalar hisobiga ularning sonini ko‘paytirish imkonini beradi.

Darhaqiqat, bir qancha sabablar banklarni diversifikatsiya qilishga undaydi. Buning asosiy sababi an’anaviy bank sohasida raqobat kuchayib borishi natijasida foiz marjasining pasayishi hisoblanadi. Yana bir muhim sabab — bu risklarni kamaytirish. Katta diversifikatsiya qilingan moliyaviy tuzilmalar investitsiyalarni turli (moliyaviy bo‘lmagan) tarmoqlarga taqsimlash orqali xavfni kamaytirishi, qimmatroq va murakkab risklarni boshqarish tizimlarini izlab topish asosiy yo‘nalishlardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sayfiddinova, S. (2025). The role of commercial banks in the transition to a green economy. International Journal of Artificial Intelligence. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/download/108466/110089

2. Nusratovich, S. K., & Shermatov, X. (2022). Economic development in Uzbekistan: Transition to digital and green economy. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. https://www.researchgate.net/publication/359758463

3. O’tkirbek o‘g‘li, R. B. (2025). The role of the banking and financial system in promoting the green economy in Uzbekistan. Scientific Information Bulletin. https://inlibrary.uz/index.php/ifx/article/download/83111/84722

4. Rakhimberdiev, I. U., Urakov, R. F., & Artikova, R. A. (2024). Efficiency of the green economy: Monitoring based on international experience and prospects for improvement in Uzbekistan. In E. Popkova (Ed.), Overcoming uncertainty of institutional environment as a tool of global crisis management (Vol. 33B). Emerald Publishing. https://doi.org/10.1108/s1877-636120240000033b028

5. Sangirova, U., Shadieva, D., & Raimjanova, M. (2024). Green economy development in the Republic of Uzbekistan. BIO Web of Conferences, 80, Article 08028. https://www.bio-conferences.org/articles/bioconf/pdf/2024/49/bioconf_bft2024_08028.pdf

6. Adkhamova, D. (2024). An assessment of Uzbekistan’s progress towards green economy [Master’s thesis, Istanbul Technical University]. ITU Repository. https://polen.itu.edu.tr/bitstreams/2501a25e-3cb7-4c5e-b2f3-e6952f6d890e/download

7. Akhunova, S. (2024). Sustainable economic expansion: Unlocking Uzbekistan’s green economy potential and navigating influencing factors. Web of Humanities: Journal of Social Science and Education, 4(2), 41–56. https://webofjournals.com/index.php/9/article/download/1144/1113

8. Isakulova, B., & Usmanova, L. (2024). Transition to a green economy in Uzbekistan: Prospects and challenges for the development of renewable energy. E3S Web of Conferences, 482, Article 01004. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/pdf/2024/104/e3sconf_congreentax2024_01004.pdf

9. Otto, M., & Thornton, J. (2023). An overview of green banking practices in Uzbekistan. Qo‘qon Universiteti Ilmiy Nashrlari, 2(1), 15–22. https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/download/851/630

10. Abduvahobov, S. (2025). Green banking initiatives: A qualitative study on the

banking sector. Finance and Banking Journal of Uzbekistan, 3(1), 75–82. https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/download/267/203

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОНЦЕПЦИИ МАРКЕТИНГА В УСТОЙЧИВОМ УПРАВЛЕНИИ ОТХОДАМИ

Асаул Анатолий Николаевич
докт. эконом. наук,
профессор, профессор-консультант Санкт-Петербургского архитектурно-строительного университета,
заслуженный строитель РФ, заслуженный деятель науки РФ.

Турбова Хулкар Рустамовна
PhD, заведующий кафедрой зелёной экономики и агробизнеса Бухарского государственного университета

Аннотация

Рассмотрены ключевые аспекты применения маркетинга в устойчивом управлении отходами. Показано как благодаря реализации основных концепций маркетинга сфера переработки отходов из низкомаржинального превращается в доходный вид экономической деятельности, где отходы становятся ресурсами для производства новой продукции, что способствует развитию экономики замкнутого цикла.

Ключевые слова: устойчивое управления отходами, концепции маркетинга, экологический маркетинг, комплексы переработки отходов, рынок вторичных материалов.

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda barqaror chiqindilarni boshqarishda marketingni qo‘llashning asosiy jihatlari ko‘rib chiqilgan. Marketingning asosiy konsepsiyalarini amalga oshirish orqali chiqindilarni qayta ishlash sohasi past rentabellikli faoliyatdan daromadli iqtisodiy faoliyatga aylanayotgani ko‘rsatilgan, bunda chiqindilar yangi mahsulot ishlab chiqarish uchun resurslarga aylanadi, bu esa aylanish iqtisodiyotining rivojlanishiga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: barqaror chiqindilarni boshqarish, marketing konsepsiyalari, ekologik marketing, chiqindilarni qayta ishlash majmualari, ikkilamchi materiallar bozori.

Abstract

The key aspects of marketing in sustainable waste management are considered. It i s shown how, through the implementation of fundamental marketing concepts, the waste recycling sector is transforming from a low-margin activity into a profitable type of economic activity, where waste becomes a resource for manufacturing new products, thereby contributing to the development of a circular economy.

Keywords: sustainable waste management, marketing concepts, environmental marketing, waste recycling complexes, secondary materials market.

Эволюция мировой экономики в сторону целей устойчивого развития и ресурсосбережения в начале XXI века оформилась в доктрину «зелёной

экономики». Её генеральным вектором стал переход промышленности на использование возобновляемого сырья, прежде всего получаемого из отходов

Raqamli marketing — bu mahsulot va xizmatlarni targ‘ib qilish hamda sotish maqsadida veb-saytlar, mobil ilovalar, mobil qurilmalar, ijtimoiy tarmoqlar, qidiruv tizimlari va boshqa raqamli vositalardan foydalanish jarayonidir. Raqamli marketing an’anaviy marketingning ko‘plab tamoyillariga asoslanadi va ko‘pincha kompaniyalar uchun mijozlarga yangicha usulda murojaat qilish hamda ularning xatti-harakatlarini o‘rganish vositasi sifatida qaraladi. Ko‘plab kompaniyalar o‘z strategiyalarida an’anaviy va raqamli marketing usullarini uyg‘unlashtirib qo‘llaydilar. Biroq, raqamli marketingning o‘ziga xos qiyinchiliklari ham mavjud. Bu soha internetning 1990-yillarda keng tarqalishi bilan ommalasha boshlagan.

Avvallari kompaniyalar faqat gazeta-jurnallar, televideniye va radio orqali marketingga e’tibor qaratishardi, chunki mavjud imkoniyatlar shular bilan cheklangan edi. Hozirgi kunda bu uslublar hanuz qo‘llanilsa-da, internet kompaniyalarga mijozlarga yetib borishning yangi yo‘lini ochib berdi va raqamli marketingning rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi texnologiyalarga asoslangan dunyoda raqamli marketing biznes o‘sishi uchun juda muhim hisoblanadi. Hozirgi zamonda iste’molchilar har kuni soatlab internetda vaqt o‘tkazishadi — elektron pochta tekshirishadi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishadi, yangilik o‘qishadi va onlayn xarid qilishadi.Raqamli marketing esa daromad salohiyatini oshirish va o‘sishga erishish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli marketingning faqat auditoriyani nishonga olish bilan cheklanmaydigan yana bir nechta muhim afzalliklari mavjud:

• Tejamkorlik: Kichik va o‘rta bizneslar ko‘pincha yirik brendlar bilan raqobatlashishda qiynaladi. Raqamli marketing esa bu borada imkoniyatlarni tenglashtiradi. To‘g‘ri tuzilgan strategiya orqali hatto kichik byudjet bilan ham mijozlar oqimini oshirish mumkin.

• Oson o‘lchanadi: Ba’zi marketing kampaniyalari foyda keltirsa-da, aynan qaysi reklama sotuvga ta’sir qilganini aniqlash qiyin bo‘ladi. Ammo raqamli marketingda xaridorning butun xarid jarayoni bo‘ylab kuzatuv olib borish mumkin, bu esa nima ishlayotganini va nimani yaxshilash kerakligini ko‘rsatadi. Statistikaga ko‘ra, yuqori samaradorlikka ega marketing jamoalarining 72% natijalarni real vaqtda tahlil qiladi.

• Mijozlar bilan aloqani kuchaytiradi: Raqamli marketing yordamida brendlar mijozlar bilan ular xarid qilish yo‘lining istalgan bosqichida muloqotda bo‘la oladi. Masalan, mijozni xabardor qilish, savollariga javob berish yoki xizmat ko‘rsatishni birgina platforma orqali amalga oshirish mumkin.

• Shaxsiylashtirilgan yondashuv: Raqamli marketing yordamida mijozlar ularning qiziqishlari va faoliyatiga qarab segmentlarga ajratiladi. Bu orqali har bir

mijoz uchun individual yondashuv yaratish mumkin bo‘ladi — bu esa ularni har bosqichda hayratda qoldirish imkonini beradi.

• Tezkor tahrirlash imkoniyati: Agar billboard o‘rnatilgan yoki pochta orqali reklama yuborilgan bo‘lsa, uni o‘zgartirishning iloji bo‘lmaydi. Biroq raqamli marketingda esa sarlavhani sinab ko‘rish, imloviy xatolarni tuzatish yoki reklama matnini bir necha tugma bosish orqali yangilash va darhol natijani ko‘rish mumkin.

Raqamli marketing vositalari turlari:

1. Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing (Social Media Marketing). Bu usul Facebook, Instagram, TikTok, X (Twitter), LinkedIn kabi platformalar orqali brendni targ‘ib qilishga asoslanadi. Kontent yaratish, auditoriya bilan aloqada bo‘lish va reklama orqali mijozlar oqimini oshirish imkonini beradi.

2. Qidiruv tizimlari uchun optimallashtirish (SEO – Search Engine Optimization). SEO — bu veb-saytni Google kabi qidiruv tizimlarida yuqori o‘rinlarga olib chiqishga qaratilgan strategiyadir. Kalit so‘zlardan to‘g‘ri foydalanish, sifatli kontent yaratish va texnik optimallashtirish orqali saytga organik (bepul) tashriflar sonini oshirish mumkin.

3. Klik uchun to‘lov asosidagi reklama (PPC – Pay Per Click). Bu pullik reklama turi bo‘lib, unda reklama joylashtirgan kompaniya foydalanuvchi reklama ustiga bosganda to‘lov amalga oshiradi. Google Ads yoki ijtimoiy tarmoq reklamalari bu usulga misol bo‘ladi. Natijani tez olishni xohlovchilar uchun juda foydali.

4. Elektron pochta orqali marketing (Email Marketing). Bu strategiya orqali mijozlarga xabarnomalar, yangiliklar, chegirmalar yoki maxsus takliflar yuboriladi. To‘g‘ri tuzilgan email kampaniyalari mijozlar sodiqligini oshiradi va savdo hajmini ko‘paytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing (Social Media Marketing). Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing — bu Facebook, Instagram, TikTok, LinkedIn, X (Twitter) kabi platformalar orqali mijozlar bilan aloqa o‘rnatish, ularning ishonchini qozonish va savdoni oshirishga qaratilgan strategiyadir.

O‘zbekiston sharoitida ham raqamli marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlari tobora kengayib bormoqda. Korxonalar uchun Facebook, Instagram, Telegram, YouTube kabi platformalarda maqsadli auditoriyaga yo‘naltirilgan reklama kampaniyalari tashkil qilish, Google va Yandex qidiruv tizimlarida ko‘rinish qamrovini oshirish, influencerlar orqali brendni ommalashtirish va email marketing orqali sodiq mijozlar bilan aloqa o‘rnatish mumkin.

Umuman olganda, raqamli marketing vositalaridan kompleks va strategik foydalanish korxonalar uchun nafaqat reklama samaradorligini oshirish, balki bozorda mustahkam o‘rin egallash, brend imijini kuchaytirish va mijozlar bilan barqaror munosabat o‘rnatishning asosiy omilidir. Ushbu vositalarning texnologik rivojlanishi esa yaqin kelajakda marketing jarayonlarini yanada avtomatlashtiradi, shaxsiylashtiradi va interaktivlashtiradi. Shu bois, korxonalar uchun bu sohaga sarmoya kiritish – bugungi va ertangi muvaffaqiyat garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.A.Tillaxodjayev, M.A. Yusupov, N.G. Akbarov. Marketing. O‘quv qo‘llanma. TDIU 2019.

2. L.T. Abduxalilova. Internet marketing. O‘quv qo‘llanma. TOSHKENT-2021.

3. Philipp Kotler, Iwan Setiawan, H. Kartajaya. Marketing 4.0 Moving from traditional to digital. 2021

4. Ryan D. Understanding Digital Marketing. – Kogan Page, 2020. – 384 p. 5. Chaffey D., Ellis-Chadwick F. Digital Marketing. – Pearson Education,

20216. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.

7. Solomon M.R., Marshall G.W., Stuart E.W. Marketing: Real People, Real Choices. 10th ed. Boston: Pearson, 2020.

STRATEGIC MANAGEMENT MECHANISMS OF INVESTMENT FLOWS IN REDUCING INTERREGIONAL INEQUALITY

Ibragimov Bakhrom Bakhodirovich
Researcher of Urganch State University

Abstract

This study provides an in-depth examination of the conceptual and methodological foundations of strategic management of investment flows aimed at mitigating interregional socio-economic disparities. In the context of Uzbekistan, regional economic imbalances, uneven distribution of investment resources, and disparities in economic activity directly influence the sustainability of national growth dynamics. Therefore, the paper explores the potential of integrating digital governance, indicator-based analytical systems, and strategic modeling mechanisms into the regulation of investment flows to reduce territorial inequalities. Based on theoretical analysis, empirical evaluation, and panel data modeling, the study develops a composite approach termed the Balanced Investment Governance Model (BIGM). This model is designed to assess investment efficiency, reallocate resources, and accelerate convergence in regional development rates. The results demonstrate that when strategic governance mechanisms are harmonized with digital indicators and differentiated investment policies, the level of interregional inequality can be substantially reduced.

Keywords: investment flows, regional inequality, strategic management, composite model, panel analysis, convergence.

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot investitsiya oqimlarini strategik boshqarishning kontseptual va metodologik asoslarini, ularning mintaqalararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishdagi rolini chuqur tahlil qiladi. O‘zbekiston sharoitida hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik, investitsiya resurslarining teng taqsimlanmaganligi va iqtisodiy faollikdagi tafovutlar milliy o‘sish barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maqolada hududiy tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan investitsiya oqimlarini boshqarish jarayoniga raqamli boshqaruv, indikatorlarga asoslangan tahliliy tizimlar va strategik modellashtirish mexanizmlarini integratsiyalash imkoniyatlari o‘rganiladi. Teoretik tahlil, empirik baholash va panel ma’lumotlar modeli asosida “Muvozanatli investitsiyani boshqarish modeli” (BIGM) ishlab chiqilgan. Ushbu model investitsiya samaradorligini baholash, resurslarni qayta taqsimlash va hududlar rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirishni tezlashtirishga xizmat qiladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, strategik boshqaruv mexanizmlari raqamli indikatorlar va differensial investitsiya siyosati bilan uyg‘unlashtirilganda, mintaqalararo tengsizlik sezilarli darajada kamaytirilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: investitsiya oqimlari, hududiy tengsizlik, strategik boshqaruv, kompozit model, panel tahlil, yaqinlashuv.

Аннотация

В данной статье исследуются концептуальные и методологические основы стратегического управления инвестиционными потоками в контексте снижения межрегионального социально-экономического неравенства. На примере

Узбекистана показано, что асимметрия в распределении инвестиционных ресурсов, различия в уровне экономической активности и пространственная неоднородность развития оказывают прямое влияние на устойчивость экономического роста. Автор обосновывает необходимость интеграции цифрового управления, индикаторных аналитических систем и стратегического моделирования для оптимизации инвестиционных потоков и достижения региональной сбалансированности. На основе теоретического анализа, эмпирического моделирования и панельных данных разработана составная модель «Balanced Investment Governance Model», позволяющая оценивать эффективность инвестиций, перераспределять ресурсы и ускорять процессы региональной конвергенции. Результаты показывают, что при согласованности стратегического управления с цифровыми индикаторами и дифференцированной инвестиционной политикой степень межрегионального неравенства заметно снижается.

Ключевые слова: инвестиционные потоки, региональное неравенство, стратегическое управление, составная модель, панельный анализ, конвергенция. Interregional inequality is one of the most complex and persistent macroeconomic challenges of modern economies, emerging as a consequence of the uneven distribution of resources, infrastructure, production factors, and investment flows. In Uzbekistan's economy, sharp differences in investment activity among regions, unequal capital accumulation, and discrepancies in investment efficiency have slowed the pace of regional convergence. Economically dominant centers such as Tashkent city, Navoi, and Bukhara regions enjoy high levels of investment attractiveness, while peripheral regions — including Sirdarya, Jizzakh, and Kashkadarya — suffer from capital shortages and limited production capacity, which hinder their development. This process deepens social stratification and undermines balanced national growth.

Strategic investment management thus becomes a critical instrument for transforming such structural disparities into sustainable growth. Coordinating investment flows, channeling them toward priority sectors, and applying digital management tools to resource distribution can significantly reduce spatial inequality. Evidence from developed countries indicates that relying solely on market mechanisms for investment allocation is insufficient to achieve equity and efficiency. Lessmann[1], for example, demonstrated through empirical analysis of Germany and Italy that foreign direct investments are typically concentrated in already-developed regions, thereby intensifying inequality rather than mitigating it. Similarly, the OECD [2]emphasizes that aligning public investment with climate change adaptation, demographic transitions, and digital transformation enhances regional resilience and inclusiveness. Fitjar[3]further argues that the concentration of public R&D expenditures in wealthier areas reinforces innovation and technological gaps, which in turn

[1] Lessmann, C. (2012). Foreign direct investment and regional inequality. CESifo Working Paper No. 4037.
[2] OECD. (2022). Making the most of public investment to address regional inequalities, megatrends and future shocks. OECD Regional Development Papers, No. 29.
[3] Fitjar, Rune Dahl. "Does public R&D funding reinforce regional disparities? Exploring the changing geography of

public and business R&D expenditure in Europe." Research Policy 54.9 (2025): 105312.

perpetuate inequality. Collectively, these findings reveal that not the volume but the directional governance of investment flows determines their long-term socio-economic impact.

In the context of Uzbekistan, the persistence of regional disparity stems largely from the centralized nature of fiscal flows, the uneven allocation of state resources, and limited support for local initiatives. According to Khudoykulova et al. [1], regional investment activity between 2013 and 2021 varied by a factor of 2.5 across the country's regions. Using panel data, Bakhromovna[2] confirmed that investment potential in Tashkent city and Navoi region demonstrates sustained growth, while regions such as Surkhandarya and Sirdarya lag significantly behind. Khudoykulova[3], in her convergence analysis based on β-models, found that although disparities among regions narrowed temporarily during 2010–2018, the trend was not structurally stable over the longer term. These empirical results indicate that existing mechanisms for strategic investment governance in Uzbekistan remain underdeveloped.

To address these systemic challenges, this study formulates a conceptual framework referred to as the Balanced Investment Governance Model (BIGM). The core idea of this model is to balance investment flows across regions through the integration of digital indicators, panel data analysis, and differentiated policy mechanisms. Each region is assigned an Investment Strategic Index (ISI) composed of several key variables: per capita investment, infrastructure adequacy, human capital index, digital transformation level, and governance efficiency. The weights of these indicators (w_i) are determined using the Analytic Hierarchy Process (AHP) and aggregated via the formula ISI = Σ(w_i * normalized indicator_i). A higher ISI value thus reflects stronger investment activity and more efficient regional governance.

Empirical analysis based on panel regression models reveals a significant positive relationship between the investment strategic index and regional development levels (measured by per capita GRP): $\beta = 0.45$ ($p < 0.01$). This implies that a one-unit increase in strategic investment management is associated with a 0.45-unit rise in regional development outcomes. Furthermore, control variables such as employment rates, export volumes, and infrastructure quality also exhibit positive and statistically significant effects. The σ-convergence test indicates that regional disparities in variance temporarily declined but widened again during periods of external shock. The β-convergence models confirm the presence of slow yet consistent convergence across regions. These results suggest that reducing interregional inequality requires not merely increasing investment volumes but restructuring their governance frameworks toward strategic efficiency.

The BIGM framework proposes a three-stage mechanism for the strategic regulation of investment flows. In the diagnostic stage, each region's ISI is calculated

[1] Khudoykulova, Hurriyat. "Initial Statistical Analysis Of Regional Development: Case Study Uzbekistan." Available at SSRN 4325271 (2021).
[2] Bakhromovna, Matyakubova Yulduzkhon. "REGIONAL INVESTMENT ANALYSIS: A PANEL DATA EVIDENCE FROM UZBEKISTAN." Central Asian Journal of Education and Innovation 3.2-1 (2024): 174-186.
[3] Khudoykulova, Hurriyat. "Initial Statistical Analysis Of Regional Development: Case Study Uzbekistan." Available at SSRN 4325271 (2021).

to evaluate investment capacity. In the differentiation stage, underdeveloped regions receive preferential access to credit, tax incentives, grants, and subsidies to stimulate local investment. In the digital monitoring stage, real-time data platforms track investment performance, efficiency, and reallocation needs, creating a self-correcting governance cycle based on feedback loops. Such a system transforms investment management into a dynamic process of continuous evaluation and policy refinement.

The results of the study affirm that strategic management of investment flows, when embedded within digital monitoring, governance culture, regional cooperation, and human capital development, can reduce interregional inequality by up to 1.5 times by 2030. Consequently, the article argues for the transition from a centralized to a differentiated investment governance structure, aligned with regional specificities and supported by real-time digital decision-making systems.

From a theoretical standpoint, these findings signify the emergence of a new conceptual paradigm at the intersection of strategic management, regional economics, and investment policy — namely, smart investment governance. This paradigm redefines investment not merely as a capital flow but as a dynamic instrument for achieving socio-economic equilibrium. The integration of digital analytical tools, composite indices, and indicator-based monitoring mechanisms ensures the practical realization of this paradigm. Therefore, strategic regulation of investment flows serves not only as a driver of regional equity but also as a foundational pathway toward an inclusive, digital, and sustainable model of national economic development.

REFERENCES

1. Lessmann, C. (2012). Foreign direct investment and regional inequality. CESifo Working Paper No. 4037.
2. OECD. (2022). Making the most of public investment to address regional inequalities, megatrends and future shocks. OECD Regional Development Papers, No. 29.
3. Fitjar, R. D. (2025). Does public R&D funding reinforce regional disparities? Research Policy.
4. Yuan, H. (2024). Influence of capital allocation on interregional inequality. Regional Studies.
5. Ruzmetov, B., Avezov, M., Babadjanov, J., & Eshniyazova, Y. (2023). Regional features of investment activeness in the Republic of Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 410(04004).
6. Bakhromovna, M. Y. (2024). Regional Investment Analysis: A Panel Data Evidence from Uzbekistan. CyberLeninka.
7. Khudoykulova, H. (2025). Regional Economic Growth and Convergence in Uzbekistan. ResearchGate.
8. Krasniqi, I. (2019). Strategic Management for Regional Economic Development and Business Sustainability: Countries in Transition. International Journal of Economics and Business Administration, 7(2), 156–168.

ZAMONAVIY MARKETINGNING ASOSIY TURLARI

N.A. Abdurashidova
TDIU “Marketing” kafedrasi
katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya

Maqolada muallif tomonidan zamonaviy marketingning asosiy turlari bozorda raqobatni kuchaytirish va iste’molchilar ehtiyojini samarali qondirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi, ular qatoriga an’anaviy marketing, raqamli marketing, ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing, kontent va inflyuyenser marketingi masalalari ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, har bir marketing turining o‘ziga xos usullari va qo‘llanish sohalari, ular korxonalarning marketing strategiyasini to‘g‘ri yo‘naltirishiga xizmat qilishi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: mobil marketing, to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing, SMM, raqamli marketing, kontent marketing, Internet marketing.

Аннотация

В статье автором рассмотрены основные современные виды маркетинга, играющие важную роль в усилении конкуренции на рынке и эффективном удовлетворении потребностей потребителей. В частности, освещены такие направления, как традиционный маркетинг, цифровой маркетинг, маркетинг в социальных сетях, контент-маркетинг и инфлюенсер-маркетинг. Также представлены особенности, методы и области применения каждого типа маркетинга, а также их роль в корректной настройке маркетинговой стратегии компании.

Ключевые слова: мобильный маркетинг, прямой маркетинг, SMM, цифровой маркетинг, контент-маркетинг, интернет-маркетинг

Abstract

The article explores the main types of modern marketing that play a significant role in enhancing market competition and effectively meeting consumer needs. It highlights various areas such as traditional marketing, digital marketing, social media marketing, content marketing, and influencer marketing. The author also describes the specific methods and application areas of each type, emphasizing their importance in shaping effective marketing strategies for businesses.

Keywords: mobile marketing, direct marketing, SMM, digital marketing, content marketing, Internet marketing

KIRISH

Bugungi kunda zamonaviy marketingning tarkibiy tuzilishi haqida fikr yuritilganda, uning quyidagi keltirilayotgan turlari mavjudligini alohida ta’kidlash zarur.

Mobil marketing – ularni amalga oshirishda uyali aloqa (mobil) telefoni, smartfon yoki cho‘ntak portativ kompyuteri foydalaniladigan kommunikatsiyalar interaktiv marketing vositasi.

Mobil marketingning asosiy afzalliklari – reklama kampaniyasiga boshqa media vositalarni integratsiya qilish hisobiga reklama imkoniyatlarini kengaytirish, samaradorlik [1].

To‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing (direct-marketing) – iste’molchidan javob olishga – yoki mahsulotga buyurtma ko‘rinishida, yoki axborotga keyingi buyurtma ko‘rinishida, yoki bevosita ta’minotchiga murojaat shaklida javob olishga qaratilgan har qanday tadbir.

Ijtimoiy tarmoqlardagi marketing (Social Media Marketing — SMM) – bu maqsadli auditoriyalar bilan munosabatlarni shakllantirishga va tovarlarni ijtimoiy tarmoqlarda siljitishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. U o‘z ichiga mijozlarni ijtimoiy tarmoqlarda qo‘llab- quvvatlash tovarlarni siljitish va korxona obro‘sini boshqarish monitoringini oladi.

Raqamli marketing (Digital Marketing) – bu iste’molchilar bilan o‘zaro munosabatlarda bo‘lish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi marketingdir [2]. Bunda na faqat global tarmoqdan va offlayn kanallardan, masalan offlayndagi QR – kodlardan yoki POS – terminlardan foydalaniladi.

Ichki (ichki firma) marketingi – bu shunday marketing vositalaridan foydalanish orqali mijozlarni korxona faoliyatining markaziga qo‘yuvchi (mijozlarni qoniqishiga xodimlar ishi orqali erishish) korporativ madaniyatni yaratishdir.

Direkt-marketing bu – korxona ular yordamida o‘z tovar va xizmatlarining har bir iste’molchisi bilan shaxsiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing kommunikatsiyalari yo‘lga qo‘yadigan va ular bilan uzoq muddatli o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatadigan chora-tadbirlar kompleksidir. Bunda kommunikatsiyalar ikki taraflama xarakterga ega bo‘ladi, samarali qaytuvchan aloqa o‘rnatiladi.

Ular orasida quyidagi vositalarni ajratib ko‘rsatish mumkin: direct mail, kuryer yordamida yetkazib berish, telemarketing, faks orqali jo‘natish, e-mail orqali jo‘natish. Ommaviy kommunikatsiyalaridan farqli ravishda direkt-marketing eng nazorat qilinadigan vosita hisoblanadi. O‘z marketing amaliyotida undan foydalanib, direkt-marketing alohida vositalarini qo‘llashda yoki kompleksli direkt-marketing kampaniyasining har qanday bosqichini o‘tkazishga xarajatlarni to‘liq nazorat qilish mumkin.

Direkt-marketingning asosiy vazifalaridan biri – faqat maqsadli muloqot doirasi vakillari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri kommunikatsiya o‘rnatish hisoblanadi.

Strategik marketing - bu avvalo jismoniy shaxslar va tashkilotlar ehtiyojlarining tahlilidir. Marketing nuqtai nazaridan qaraganda xaridor tovarning o‘ziga emas, balki shu tovar yordamida yechiladigan muammoning hal qilinishiga muhtojdir.

Innovatsion marketing yangi g‘oyani tadqiq etib, talab va ehtiyojni ayirboshlash yo‘li orqali qondirishga qaratilgan inson faoliyatining bir turi hamda bozor bilan korxonani bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib, o‘zgarib turadigan bozorga doimo moslashib borish tizimini tashkil etganligi bois, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarning xo‘jalik faoliyatiga innovatsion marketingni joriy etilishi tadbirkorlik samarasini oshirishga asos bo‘ladi. Innovatsion marketing faoliyatini tashkil etish bu birinchi

o‘rinda bozor talabini tadqiq etish va korxona faoliyatini unga yo‘naltirishdan iborat.

Bunda pirovard maqsad bozorni har tomonlama o‘rganish, tahlil qilish, konyunktura o‘zgarishini oldindan bilish va xaridorlar talabini to‘la qondirish orqali yuqori daromad olish hisoblanadi.

Innovatsion marketing — bu korxonaning bozor sharoitlarini tadqiq etish asosida uning innovatsion va ishlab chiqarish, sotish faoliyatini optimallashtirishga qaratilgan ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatining bir turi hisoblanadi [3]. Boshqacha qilib aytganda, innovatsion marketing – bu korxonada an’anaviy marketingning usul va shakllarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga qaratilgan marketing konsepsiyasidir.

XX asrning oxirlarida fan va texnikaning rivojlanishi internet – marketing, ijtimoiy tarmoqlardagi marketing, raqamli marketing va neyromarketing kabi marketingning yangi turlarini paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Internet marketing bu — internet tarmog‘idagi korxona qatoriga kiradigan mijozlar va sotuv miqdorining barqaror o‘sishini ta’minlaydigan boshqaruv qarorlari va funksiyalari kompleksidir. Ya’ni, u Internet tarmog‘ida tovarlarni siljitish uchun foydalaniladigan vositalar kompleksidir. Bundan tashqari, internet tomonidan bajariluvchi rol faqat kommunikativ funksiyalar bilan cheklanib qolmasdan, bitim tuzish, xarid qilish va to‘lovni amalga oshirish imkoniyatini ham qamrab oladi va unga global elektron bozor jihatlarini namoyon etadi.

Neyromarketing – bu iste’molchilarni (xaridorlarni) miya (aqliy) faolligi (aktivligi), ularning anglashilmagan (tushunib yetilmagan) xohishlari (istaklari) va nazorat etilmaydigan reaksiyasi (ta’sirlanishi) bo‘yicha axborotlardan foydalanish hisobiga marketing chora-tadbirlari samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan marketing turidir. Neyromarketing bu marketing, psixologiya, neyrobiologiya va xulq-atvor iqtisodiyoti ulanishida bo‘lgan marketingning yangi turidir.

Neyromarketingning vazifasi bu – xaridorning marketing jarayoniga ta’sirini tushunish va bu orqali marketing usullari samarasini oshirish.

Marketing nazariyasini rivojlanishi shuningdek, marketing tomonidan turli – tuman va murakkab amaliy vazifalarni yechishni ko‘payishi o‘z ichiga an’anaviy marketing, o‘zaro munosabatlar marketingi, ichki marketing va ijtimoiy — etik (javobgar) marketingi tushunchalarini olgan “xolistik marketing” (lot. Holos – jami, yaxlit) deb atalgan yangi tushunchani paydo bo‘lishiga olib keldi.

Xolistik marketingning tarkibiy qismi bo‘lgan ichki marketing turida tashkilotning barcha xodimlari, eng muhimi uning rahbariyati tomonidan korxonada marketing prinsiplarini tatbiq etishni ta’minlash muhim bo‘lib hisoblanadi. Agar korxona ishchilari uni ta’minlashga tayyor bo‘lmasa, ularga a’lo darajadagi xizmat ko‘rsatishni va’da berishning ma’nosi yo‘qdir. Ichki marketingda faqatgina marketing bo‘limi emas, balki boshqa bo‘limlar ham o‘zaro bog‘liq holda mijozlarga ta’sir ko‘rsatishi zarur bo‘ladi.

Xolistik marketingning tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy – etik (javobgar) marketingda ekologiya, axloqiy, huquqiy va ijtimoiy mazmundagi marketing chora–tadbirlari va dasturlari inobatga olinadi. Ijtimoiy javobgar marketing konsepsiyasi, marketing amaliyotida ijtimoiy va axloqiy masalalarni hisobga olishni talab etadi. Bu

o‘rinda marketologlar korxonaning foyda olishini, iste’molchilarning ehtiyojlarini qondirishni va jamiyat qiziqishlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni topishi zarur bo‘lib hisoblanadi. Ijtimoiy marketing iste’molchilar va ushbu tovar o‘rtasida ayirboshlashga ijobiy ta’sir etadigan va oqibatda korxona oladigan foydaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan notijorat harakatlarini o‘z ichiga oladigan marketing faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidan iborat bo‘ladi. Ijtimoiy marketingdan oldin ijtimoiy-axloqiy marketingi mavjud bo‘lgan bo‘lib, uning uchun birlamchi vazifa uzoq muddatli istiqbolda iste’molchi uchun qulaylik izlab topish va korxona uchun foyda topishdan iborat bo‘lgan. Ijtimoiy marketingga yaqin yondashuv – jamoatchilik marketingi va ekologiya marketingi bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

5. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Yusupov M. Marketing: Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2024. — 596 b.

6. Котлер Ф. Маркетинг от А до Я: 80 консепсий, которыэ должен знат каждый менеджер / Филип Котлер; Пер. с англ. — М.: Алпина Паблишерз, 2010.
— 211 с.

7. Yusupov M. Xizmatlar marketingi : Darslik. – T.: Ma’naviyat, 2021.- 361 b.

ICHKI BOZORNI OZIQ-OVQAT TOVARLARI BILAN TO‘LDIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH

Akramov Toxir Abdiraxmonovich
TDIU “Marketing” kafedrasi professori., DSc

Annotatsiya

Maqolada iste’mol tovarlari bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirish marketingdan foydalanish, aholining sifatli iste’mol tovarlariga bo‘lgan talablarini to‘laroq qondirishda iste’molchilar xulq-atvorini boshqarish modelini ishlab chiqish va undan foydalanish asosida iste’mol tovarlari bozorini yanada rivojlantirish masalalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: iste’mol tovarlari bozori, oziq-ovqat tovarlari, marketing, marketing strategiyasi, talab, taklif, iste’molchi, aholi daromadlari.

Аннотация

В статье изучаются вопросы развития рынка потребительских товаров на основе использования маркетинга для насыщения его продовольственными товарами, более полного удовлетворения потребностей населения в качественных потребительских товарах, а также разработки и применения модели управления потребительским поведением.

Ключевые слова: потребителский рынок, продоволственные товары, маркетинг, маркетинговая стратегия, спрос, предложение, потребител, доходы населения.

Abstract

The article examines the issues of developing the consumer goods market through the use of marketing to increase the supply of food products, more fully meet the population’s demand for high-quality consumer goods, as well as the development and application of a consumer behavior management model aimed at further advancing the consumer goods market.

Keywords: consumer goods market, food products, marketing, marketing strategy, demand, supply, consumer, population income.

Globallashuv sharoitida iste’mol tovarlarini ishlab chiqarish hamda bozorni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan sifatli mahsulotlar bilan to‘ldirish, jamiyat hayoti uchun zarur mahsulotlarga bo‘lgan talabni qondirish har qanday davlat uchun muhim masala va aholi farovonligining asosi hisoblanadi.

Aholining iste’mol tovarlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, ichki iste’mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirish darajasi davlatning ijtimoiy siyosatini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Shu boisdan ham, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirishda marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish yo‘llarni tadqiq etish bugungi kun uchun dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Har kanday oziq-ovqat sanoati korxonasi bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali harakat qilishi uchun o‘z marketing strategiyasini tanlab olishi lozim. Marketing strategiyasi korxonaning imkoniyatlari bozor talablariga muvofiqlashtirilib, bozorni

tadqik qilish va istiqbolini belgilash, tovar va iste’molchilarni o‘rganish asosida ishlab chiqiladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida marketing strategiyasini shakllantirishda Maykl Porter tomonidan e’tirof etilgan bazaviy marketing strategiyalaridan foydalanish muhim amaliy axamiyat kasb etadi(1-rasm).

Bazaviy marketing strategiyalari xarajatlarni pasaytirishdagi yetakchilik, differensiatsiyalash va ixtisoslashuvni qamarab olib, ishlab chiqarish korxonalarining raqobat ustunligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Har kanday oziq-ovqat sanoati korxonasi bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali harakat qilishi uchun o‘z marketing strategiyasini tanlab olishi lozim. Marketing strategiyasi korxonaning imkoniyatlari bozor talablariga muvofiqlashtirilib, bozorni tadqik qilish va istiqbolini belgilash, tovar va iste’molchilarni o‘rganish asosida ishlab chiqiladi.

Ichki iste’mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to‘ldirishda korxonalarning marketing strategiyasini shakllantirish raqobat ustunligini (xarajatlar bo‘yicha ustunlik, bozor imkoniyatlari bo‘yicha ustunlik va boshq.) tanlashdan boshlanadi. Ayni paytda korxona tanlagan raqobat ustunligi yordamida o‘z oldiga qo‘ygan strategik maqsadlarga erishishni ko‘zlaydi. O‘z navbatida, muayyan ustunlik asosida bazaviy marketing strategiyasi tanlanadi. Bunda, marketing strategiyasi o‘z mohiyati jihatidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan va amaldagi joriy strategiyani qayta baxolashga, solishtirishga asoslanadi.



1-rasm. Bazaviy marketing strategiyalari va ularning amalga oshirish yo‘nalishlari[1].

Iqtisodiyotda raqobat kuchayib borayotgan sharoitida ishlab chiqarishni rejalashtirishning asosi ishlab chiqarish imkoniyatlarini bozor talablari bilan uyg‘unlashtirishdir. Har qanday ishlab chiqaruvchining oldida bunday vazifani hal etish zaruriyati turadi. Lekin bu vazifani hal etish yo‘llari turlicha bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, ishlab chiqarishga asoslangan yondoshuv tarafdorlari bunday vazifani mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalangan holda amalga oshiradilar;

Ikkinchidan, sotuv bilan shug‘ullanuvchi xizmatlar oldiga ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish vazifasi qo‘yiladi;

Uchinchidan, marketingga asoslangan yondoshuvda esa ishlab chiqarish dasturlarini shakllantirish asosida sotuvni (rejani) bashorat qilish ko‘zda tutiladi.

Marketinga asoslangan yondoshuvda marketing xizmati tomonidan bozorni o‘rganish, bozorni segmentlash, iste’molchilarning xulq-atvorini tadqiq qilish asosida olingan ma’lumotlardan foydalaniladi. Zamonaviy marketingning asosiy maqsadi qondirilmagan talabni aniqlash va shu asosda ishlab chiqarishni aynan shu talabni qondirishga qaratish, xaridorlarning haqiqatda talabi bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda sotishni ta’minlashdir.

Fikrimizcha, ishlab chiqaruvchi korxonalar biznesda muvaffaqiyatga erishishlarida iste’molchining roli beqiyosdir. Sotuv va ishlab chiqarish hajmlari, shuningdek, tovarlar assortimenti ularning talablariga ko‘ra shakllantiriladi. Bozorda o‘z o‘rnini topish, ishlab chiqarish va savdo siyosatini olib borish uchun iste’molchilarning ehtiyoj va talablarini tadqiq qilish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot bozorning qaysi segmentiga yo‘nlatirilganiligi ham bilish maqsadga muvofiq. Aholining xarid qobiliyati uning daromadlari bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqadiki, marketingning vazifasi xaridorlarni xulq-atvorini, ularning imkoniyatlarini o‘rganish va shu asosda ishlab chiqarishni shunga yo‘naltirishdir.

Hozirgi davrda xaridorlarni xulq-atvorlarini belgilovchi omillarning ta’siri turlicha bo‘lib, ularning ichida eng ta’siri kuchli bo‘lgani daromadlardir. Shundan kelib chiqadiki, xaridorlarni xulq-atvorini o‘rganish, ularning qarorlariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, bu sohada uslubiy ishlanmalarni yaratish bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan bo‘lib hisoblanadi.

Fikrimizcha, har qanday muammoni, masalani hal etish, ularni uslubiyatini shakllantirish va usullarni ishlab chiqishni talab etadi. Ular asosida esa amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Lekin biror bir masalani uslubiyatini ishlab chiqishdan avval tadqiqotning asosiy yo‘nalishlarini belgilovchi konsepsiya yaratiladi.

Respublikamizda hozirgi paytda iste’molchilar xulq-atvorlarini marketing tadqiqotlarini o‘tkazish uslubiyatini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Lekin, bunday vazifani amalga oshirishda fikrimizcha, avval iste’molchilar xulq-atvorini boshqarishning marketing tadqiqotlari konsepsiyasini

[1] Muallif ishlanmasi

yaratish zarur deb hisoblaymiz va ular quyidagilardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiqdir:

1. Oziq-ovqat tovarlari bozorini rivojlantirish maqsadida iste’molchilarning xulq-atvorlarini o‘rganish zarurligini va marketing tadqiqotlarining ahamiyatini asoslab berish;
2. Iste’molchilarni u yoki bu oziq-ovqat mahsulotini xarid qilishga undovchi mezonlarni belgilash;
3. Xaridor tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari majmuasini ularning har bir shaxs uchun muhimligiga ko‘ra guruhlarga ajratish;
4. To‘lovga qobillik darajasiga ko‘ra aholini guruhlarga ajratish;
5. Xaridorlarning har bir guruhi tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilishning tartibini aniqlash;
6. Iste’molchilar hulq-atvorini boshqarishning imitatsion modelini yaratish.

Yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarga rioya qilgan holda marketing tadqiqotlarini amalga oshirish kelgusida xaridorlarning hulq-atvorlari to‘g‘risida aniq tasavvurlarga ega bo‘lish va ularga asoslangan holda iste’mol bozorini tartibga solish va rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). Marketing Management (15th ed.). Pearson Education.
2. Ergashxodjayeva Sh.Dj. Strategik marketing: darslik. –T.: Iqtisodiyot 2019. - 234 b.
3. Багиев Г.Л., Тарасевич В.М., Анн Х. Маркетинг. Учебник. –СПб.: Питер, 2014. — 560 с.
4. Umurzoqov, Sh. (2022). “Oziq-ovqat bozorini rivojlantirishda marketing strategiyalari samaradorligi.” Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №4, 35–42.
5. Axmedov, B. (2021). Ichki bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlashda marketingning ahamiyati. Toshkent: Fan va texnologiya.

MARKETING AMALIYOTIDA NEYRO YONDASHUVLARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

N.E. Alimxodjayeva
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Marketing kafedrasi dotsenti
A.T. Agzamov
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Soliq va soliqqa tortish kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Mazkur tezisda neyromarketing tushunchasi hozirgi vaqtda iste'molchi xulq-atvorini o'rganadigan akademik fan va marketologlarga miyada sehrli "sotib olish tugmasi"ni (buy button) va'da qiladigan mashhur tushunchalar o'rtasidagi farqlarni aks ettiradi, uni o'zlashtirish inson qarorlarini boshqarish imkoniyatini ochishga oid muhim jihatlar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Neyromarketing, to'qimachilik bozori, eksport, modernizatsiya, brend, dizayn, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, moda sanoati, mehnat bozori.

Аннотация

В тезисе рассматривается нейромаркетинг как важное направление для глубокого анализа поведения потребителей. Показаны отличия между нейромаркетингом и традиционными концепциями маркетинга, а также возможности влияния на подсознательные решения людей. Также проанализировано значение нейромаркетинга для повышения экспортного потенциала, оптимизации дизайна и усиления бренда в текстильной промышленности.

Ключевые слова: нейромаркетинг, текстильный рынок, бренд, экспорт, дизайн, цифровая трансформация, индустрия моды, устойчивое развитие, рынок труда.

Abstract

This paper explores neuromarketing as a key approach for gaining deeper insights into consumer behavior. It highlights the differences between neuromarketing and traditional marketing concepts, emphasizing the mechanisms through which subconscious decision-making can be influenced. The study also analyzes how neuromarketing contributes to enhancing brand value, optimizing product design, and increasing export potential in the textile industry.

Keywords: neuromarketing, textile market, brand, design, export, digital transformation, fashion industry, sustainability, labor market.

"Neyromarketing" atamasining tijorat kompaniyalari faoliyati bilan bog'liq salbiy ma'nolari bir qator tadqiqotchilarni bozor munosabatlarida ishtirok etish bilan bog'liq qaror qabul qilish jarayonlarini o'rganish uchun neyrologiya vositalari va nazariyalaridan foydalanadigan ilmiy fanni belgilash uchun "Iste'molchi neyrologiyasi" (Consumer neuroscience) atamasidan foydalanishga majbur qildi.

Xususan, X.Plassman va Journal of Marketing Research jurnalidagi dasturiy maqolaning boshqa mualliflari bozordagi xatti-harakatlarni o‘rganish uchun neyroilmiy nazariyalar va usullarni qo‘llash neyrologiyaning o‘zida va unga bog‘liq sohalarda ijobiy qabul qilinganligiga e’tibor qaratdilar, ammo yangi yo‘nalishning aniq tadqiqot salohiyati va ixtisoslashgan tijorat kompaniyalari tomonidan neyromarketingga katta sarmoya kiritilishiga qaramay, marketingda ekzotika bo‘lib qolmoqda[1]. Mualliflar iste’molchilar xulq-atvorini tushunish va marketing nazariyalarini rivojlantirish uchun neyron ilmiy usullardan foydalanish muhim bo‘lgan beshta aniq sohani sanab o‘tadilar:

1. Mexanizmlarni aniqlash. Neyroilmiy usullar xulq-atvorning muhim shakllari, masalan, impulsiv xaridlarni amalga oshirish shartlarini tushunish uchun muhim bo‘lgan o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati asosida yotgan mexanizmlarni aniqlash orqali marketing nazariyalarini aniqlashtirish va takomillashtirishga qodir.

2. Implitsit jarayonlarni o‘rganish. An’anaviy marketing tadqiqot usullari yashirin istak va niyatlarni aniqlash uchun kam yaroqli bo‘lgan respondentlarning o‘z-o‘ziga hisobot berishiga asoslanadi, neyrologiya esa ularni yuqori ishonchlilik bilan aniqlash va o‘lchash imkonini beradi.

3. Psixologik jarayonlarni chegaralash. Muayyan xulq-atvor natijalari turli xil psixologik jarayonlarning natijasi bo‘lishi mumkin va an’anaviy usullar har doim ham ular o‘rtasidagi farqlarni aniqlashga qodir emas. Batafsil neyrofiziologik jarayonlar haqidagi ma’lumotlar ko‘plab psixologik modellar, xususan, klassik dual model, sezilarli darajada soddalashtirilishi mumkinligini taxmin qilish imkonini beradi.

4. Individual farqlarni tushunish. Neyroanatomiya va neyrofiziologiyada individual farqlarni aniqlash orqali marketing rag‘batlariga javob va bozor sharoitidagi xatti-harakatlardagi farqlarni samarali o‘rganish mumkin.

5. Xulq-atvorni bashorat qilish sifatini oshirish. Qaror qabul qilish nazariyasi va modeliga asab jarayonlari haqidagi ma’lumotlarni kiritish marketing uchun muhim bo‘lgan vaziyatlarda ularning bashorat qilish kuchini sezilarli darajada oshirishga qodir.

Neyromarketing rivojlanishining hozirgi bosqichidagi boshqa ko‘plab nazariyotchilar singari, bu tadqiqot yo‘nalishlari, qisman mavjud tadqiqotlar bilan mustahkamlangan bo‘lsa-da, ko‘proq istiqbolni belgilaydi. Neyromarketing salohiyatini amalga oshirish ko‘plab muammolar bilan bog‘liq. Mualliflar quyidagilarni asosiy deb hisoblaydilar. Birinchidan, ular miya va asab jarayonlarini yaxshiroq tushunish hali iste’molchilarning xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunishni anglatmasligini to‘g‘ri ta’kidlaydilar. Bunda aynan kuzatilayotgan xulq-atvor marketing uchun asosiy va bevosita qiziqish predmeti bo‘lib qoladi. Ikkinchidan, neyron ilmiy ma’lumotlarni to‘g‘ri talqin qilish oddiy bo‘lmagan vazifadir, xususan, neyromarketing tadqiqotida ma’lum psixologik holatlar qayd etilgan asab jarayonlaridan kelib chiqishi bilan bog‘liq noto‘g‘ri talqin qilish xavfi mavjud. Uchinchidan, neyroilmiy tadqiqot ma’lumotlari umumlashtirilishi jihatidan an’anaviy

[1] Plassmann H. et al. Consumer neuroscience: applications, challenges, and possible solutions // Journal of Marketing Research. 2015. Vol. LII. P.427-435.

marketing usullariga nisbatan kamroq ishonchlidir. Ushbu metodologik muammolar 1.3-bandda batafsil tahlil qilinadi. Ushbu muammolarga qaramay, mualliflar marketingda neyroilmiy usullarni qo‘llash u ishlaydigan nazariyalar va modellarning sifatini sezilarli darajada oshirishga qodir ekanligiga ishonch bildiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni . https://lex.uz/uz/docs/-5841063

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413

3. Aaker D. 1991. Managing Brand Equity: Capitalizing on the Value of a Brand Name. New York, NY: Free Press.

4. Aaker D. A. Building strong brands. – Simon and Schuster, 2012.

5. Aaker D. A., Joachimsthaler E. (2000). The brand relationship spectrum: The key to the brand architecture challenge. California Management Review.

NEYROMARKETINGNING GENEZISI VA UNING MARKETING, NEYROBIOLOGIYA HAMDA PSIXOLOGIYA FANLARI BILAN BOG‘LIQLIGI

N.E. Alimxodjayeva
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Marketing kafedrasi dotsenti

Annotatsiya

Mazkur tezisda neyromarketing tushunchasi hozirgi vaqtda iste’molchi xulq-atvorini o’rganadigan akademik fan va marketologlarga miyada sehrli "sotib olish tugmasi"ni (buy button) vaъda qiladigan mashhur tushunchalar o’rtasidagi farqlarni aks ettiradi, uni o’zlashtirish inson qarorlarini boshqarish imkoniyatini ochishga oid muhim jihatlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Neyromarketing, to‘qimachilik bozori, eksport, modernizatsiya, brend, dizayn, raqamli transformatsiya, barqaror rivojlanish, moda sanoati, mehnat bozori.

Аннотация

В данной тезисной работе рассматривается понятие нейромаркетинга как современного инструмента изучения поведения потребителей. Освещены различия между нейромаркетингом и другими популярными концепциями, обещающими маркетологам «волшебную кнопку покупки». Также анализируются ключевые аспекты, связанные с возможностью влияния на принятие решений человеком.

Ключевые слова: нейромаркетинг, текстильный рынок, экспорт, модернизация, бренд, дизайн, цифровая трансформация, устойчивое развитие, индустрия моды, рынок труда.

Abstract

This thesis examines the concept of neuromarketing as a modern approach to analyzing consumer behavior. It explores how neuromarketing differs from popular theories that claim to offer marketers a "buy button" in the brain, and highlights key aspects related to influencing human decision-making processes.

Keywords: neuromarketing, textile market, export, modernization, brand, design, digital transformation, sustainable development, fashion industry, labor market.

Neyromarketing tushunchasi hozirgi vaqtda yetarlicha keng qo’llanilishiga qaramay, u ziddiyatli bo’lib qolmoqda, jumladan, iste’molchi xulq-atvorini o’rganadigan akademik fan va marketologlarga miyada sehrli "sotib olish tugmasi"ni (buy button) vaъda qiladigan mashhur tushunchalar o’rtasidagi farqlarni aks ettiradi, uni o’zlashtirish go’yoki inson qarorlarini boshqarish imkoniyatini ochadi. Oliy asab faoliyatini o’rganishning yangi usullariga, birinchi navbatda, neyroimaging texnologiyalariga qiziqishning umumiy tendentsiyasining bir qismi bo’lgan neyromarketingni XX-XXI asrlar chegarasida neyron fanlarining jadal rivojlanishi insonning kundalik hayotini idrok etishiga, ijtimoiy amaliyotlarga, turli hodisalarni tavsiflash va tushuntirishga qanday taъsir qilganligini aks ettiruvchi umumiy "neyro-

madaniyat"ning bir qismi sifatida ko'rib chiqish mumkin[1]. "Neyro-" old qo'shimchasining qo'llanilishi ko'plab ijtimoiy fanlarda yangi yo'nalish va yondashuvlar manbai bo'lib, tadqiqotchilar, mutaxassislar va keng jamoatchilik e'tiborini tortmoqda. Shunga qaramay, yangi atamalar va akademik moda ortida turgan to'g'ri ilmiy mazmunni aniqlash, bu sohalarda haqiqatan ham yangi bilim va texnologiyalar manbai bo'lishi mumkin.

Chakana savdo sohasida reklama va marketing faoliyati ayniqsa katta rol o‘ynaydi: iste’molchilarning ongiga ekologik qadriyatlarni singdirish, brendni barqaror imij bilan bog‘lash va raqobat afzalligini yaratish mumkinligi katta ehtimolga ega. Shu bilan birga, reklama innovatsiyalari — masalan, raqamli platformalar, ma’lumotga asoslangan personalizatsiya, ekologik belgilar va sertifikatlar — bu yo‘nalishda muhim vosita bo‘lishi mumkin.

Ammo, reklama faoliyatida “yashil” shakllar qo‘llanilayotganda bir qator xatarlar ham paydo bo‘ladi: greenwashing, ya’ni “ekologik da’vo”larning haqiqatga mos kelmasligi, noto‘g‘ri targ‘ibot, iste’molchilarning chalg‘itilishi va qonunchilik jihatidan javobgarliklar. Masalan, AQShdagi FTC Green Guides reklamda ekologik da’volar foydalanishda halollik va haqiqatga moslik prinsiplari qo‘llanishini tavsiya qiladi. Shuningdek, global darajada greenwashingga qarshi qonunchilik va tartibga solish tendensiyalari tez o‘smoqda[1].

O‘zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha jadal chora-tadbirlar ishlab chiqmoqda. Masalan:

- 2019-yil 4-oktabrda PQ-4477-sonli qaror bilan 2019–2030-yillar uchun “yashil iqtisodiyotga o‘tish va yashil o‘sishni ta’minlash” dasturi qabul qilingan[2].
- Davlat strategiyasida 2022–2026-yillar uchun mo‘ljallangan chora-tadbirlar rejalari hamda konsepsiyalar tasdiqlangan.
- 2023-yil 12-mayda Prezidentning PQ-156 qarori bilan “yashil iqtisodiyot platformasi”ga oid hujjatlar ishlab chiqilishi nazarda tutilgan.
- Shuningdek, hukumat O‘zbekistonda milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini joriy etish qarorini qabul qilgan[3].
- 2025-yil “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilingan.

Mazkur hujjatlar va tashabbuslar mamlakatda ekologik qadriyatlar va barqarorlik tamoyillarini iqtisodiyotga integratsiyalashga yo‘l ochmoqda. Biroq, asl muammo – bu chora-tadbirlarga korxona darajasida tatbiq — reklama va marketing sohasida yashil innovatsiyalarni samarali joriy etishdir.

Shu munosabat bilan, quyidagilarga urg‘u berish o‘rinlidir:

1. Yashil biznes model konsepsiyasi va uning reklama faoliyatiga ta’siri;

---

[1] *Alexander B. Simkin ,* Eileen M. Falk. Greenwashing Legislation Trends: Key Takeaways for Businesses. Viewpoints. September 2, 2025.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori. “O‘zbekiston Respublikasida 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-4539502

[3] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.10.2023 yildagi 561-son

2. Reklama innovatsiyalarining shakllanishi va reklama vositalarida ekologik yondashuvlar;

3. Reklama innovatsiyalari orqali yashil imij yaratish va iste’molchilarning ekologik ongini rag‘batlantirish;

4. Greenwashing xatarlari va qonunchilik talablariga rioya qilish muammolari.

Yashil biznes modeli — bu iqtisodiy faoliyatni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan boshqaruv konsepsiyasidir. Bunday modelning markazida foyda olish bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirish tamoyili yotadi.

An’anaviy biznes modellardan farqli ravishda, yashil biznesda kompaniyalar o‘z mahsulotlari, ishlab chiqarish jarayoni, logistika, marketing va reklama siyosatini ekologik mezonlarga moslashtiradi. Masalan, barqaror ishlab chiqarish zanjiri, energiya tejamkor texnologiyalar, qayta ishlanadigan qadoqlash va yashil reklama kampaniyalari orqali korxonalar nafaqat raqobat ustunligini qo‘lga kiritadi, balki ijtimoiy ishonchni ham oshiradi.

Shu nuqtai nazardan, reklama yashil biznes modelining eng muhim elementlaridan biri sanaladi. Chunki aynan reklama vositasida korxonaning ekologik qadriyatlari, ijtimoiy mas’uliyati va barqaror yondashuvi keng jamoatchilikka yetkaziladi. Reklama iste’molchilarning ongini shakllantiruvchi va ularning xarid qarorlariga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy kommunikatsiya vositasidir.

So‘nggi yillarda reklama sohasi raqamli texnologiyalar ta’sirida tubdan o‘zgarib bormoqda. Yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni bu o‘zgarishlarni yanada jadallashtirmoqda. Innovatsion reklama texnologiyalari — bu sun’iy intellekt (AI), ma’lumotlar tahlili (Big Data), kengaytirilgan reallik (AR/VR), shuningdek, blokcheyn asosidagi kuzatuv tizimlari — reklama jarayonlarini yanada shaffof, maqsadli va ekologik jihatdan samarali qiladi.

Masalan, kompaniyalar raqamli platformalar orqali qog‘ozli reklama materiallari hajmini kamaytirib, ekologik izni qisqartirmoqda. Shuningdek, onlayn reklama kampaniyalari orqali aniq auditoriyani qamrab olish imkoniyati ortmoqda, bu esa ortiqcha resurs sarfini kamaytiradi.

O‘zbekistonda ham ayrim yirik chakana savdo tarmoqlari (masalan, “Korzinka”, “Makro”, “Havas” brendlari) o‘z reklama siyosatida ekologik mas’uliyatni namoyon etmoqda. Ular qayta ishlanadigan mahsulot qadoqlarini targ‘ib etuvchi, plastikdan voz kechishga undovchi aksiyalarni ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda faol qo‘llamoqda.

Bundan tashqari, veb-brauzer reklama bannerlarida energiya sarfini kamaytiruvchi kodlash texnologiyalari yoki kam ma’lumotli videoroliklar orqali ekologik izni minimallashtirish bo‘yicha xalqaro tajriba kengaymoqda. Masalan, Google Ads “Sustainable Marketing” tashabbusi orqali reklamachilarga ekologik mezonlarga asoslangan strategiyalarni joriy etishni taklif qilmoqda.

Yashil reklama nafaqat mahsulotni targ‘ib qiladi, balki iste’molchining qadriyat tizimini o‘zgartiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iste’molchilar tobora ko‘proq “mas’uliyatli brendlar”ga e’tibor qaratmoqda. Xususan, 2024-yilgi “NielsenIQ

Sustainability Report” ma’lumotlariga ko‘ra, global xaridorlarning 73 foizi ekologik jihatdan mas’uliyatli mahsulot uchun yuqoriroq narx to‘lashga tayyorligini bildirgan.

Shu bois, reklama orqali ekologik qadriyatlarni ilgari surish — bu nafaqat ijtimoiy missiya, balki iqtisodiy foyda keltiruvchi strategiyadir. O‘zbekiston sharoitida ham bu tendensiya kuchayib bormoqda: yosh avlod, xususan, Z-avlod vakillari ekologik ongli xaridni afzal ko‘rmoqda.

Shunday ekan, korxonalar o‘z reklama mazmunini nafaqat mahsulot xususiyatlarini, balki ularning atrof-muhitga ta’sirini, energiya tejamkorligini va ijtimoiy foydasini yoritishga yo‘naltirishi lozim.

Bu jarayonlarda Yashil marketing bilan bog‘liq muhim muammo — bu “greenwashing”, ya’ni kompaniyalarning o‘zini ekologik mas’uliyatli sifatida ko‘rsatib, aslida bunday talablarga javob bermasligi. Bu holat nafaqat iste’molchilar ishonchini pasaytiradi, balki reklama sohasining axloqiy mezonlariga ham ziddir.

O‘zbekiston Respublikasi “Reklama to‘g‘risida”gi qonunining 5-moddasida noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi axborot tarqatish man etilgan. Shu asosda, yashil da’volarni asossiz keltirish (masalan, “100% ekologik” yoki “atmosferaga zarar yetkazmaydi” degan, ammo ilmiy isbotlanmagan iboralar) qonunbuzarlik sifatida baholanadi.

Xalqaro amaliyotda esa, Yevropa Ittifoqining 2024-yilgi “Green Claims Directive” loyihasi greenwashingga qarshi qat’iy me’yorlarni belgilab, kompaniyalardan ekologik da’volarni ilmiy asoslar bilan tasdiqlashni talab qilmoqda. Shu kabi yondashuvlarning joriy etilishi O‘zbekiston reklama bozorida ham shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Demak, bulardan anglashiladiki, kelajakda yashil reklama sohasi texnologik va madaniy transformatsiya bilan yanada rivojlanadi. Raqamli platformalarda uglerod izini kuzatish tizimlari, AR (kengaytirilgan reallik) asosida ekologik ta’sirni vizual tarzda ko‘rsatish, va sun’iy intellekt yordamida ekologik xulqni tahlil qilish kabi yechimlar keng qo‘llaniladi.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda “Yashil iqtisodiyot yili” doirasida chakana sektorni qo‘llab-quvvatlash uchun reklama va marketingda ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlari, grant dasturlari va imtiyozlar joriy etilishi istiqboli mavjud. Bu esa milliy biznesni xalqaro “barqaror brendlar” darajasiga ko‘tarishga yordam beradi.

Shunday qilib, yashil biznes modeli doirasida reklama innovatsiyalarining qo‘llanilishi nafaqat korxona raqobatbardoshligini oshiradi, balki jamiyatda ekologik ongni shakllantirish, barqaror iste’mol madaniyatini rivojlantirish va iqtisodiyotni ekologik izdan chiqmasdan o‘sishini ta’minlaydi.

Hozirgi davrda yashil iqtisodiyotga o‘tish masalasi nafaqat ekologik, balki strategik-iqtisodiy zarurat sifatida qaralar ekan, bunday sharoitda reklama faoliyati faqatgina mahsulotni targ‘ib etish vositasi bo‘lib qolmay, balki barqaror rivojlanish madaniyatini shakllantiruvchi muhim kommunikatsiya mexanizmiga aylanmoqda.

O‘rganish va izlanishlar natijasida qilingan tahlillarga binoan xulosa qilib aytish mumkinki:

1. Yashil biznes modeli — bu foyda, ekologik mas’uliyat va ijtimoiy manfaatlar muvozanatini ta’minlovchi boshqaruv konsepsiyasi bo‘lib, reklama uning amaliy qismi sifatida ekologik qadriyatlarni jamiyatga yetkazishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

2. Reklama innovatsiyalari — raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, AR/VR, data-tahlil, ekologik dizayn va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish kabi yechimlar orqali reklama jarayonlarini resurs tejovchi, ekologik xavfsiz va maqsadli qiladi.

3. Greenwashing xavfi — reklama sohasida dolzarb muammo bo‘lib, korxonalar tomonidan asossiz ekologik da’volar bildirilishi ishonchni pasaytiradi. Shu bois reklama siyosatini milliy qonunchilik va xalqaro me’yorlarga muvofiqlashtirish zarur.

4. O‘zbekiston sharoitida yashil reklama innovatsiyalarini keng joriy etish uchun “Yashil iqtisodiyot strategiyasi” va “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” (2025-yil) doirasidagi davlat dasturlari muhim huquqiy va iqtisodiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur mulohazalarga tayangan holda, an’anaviy reklama va yashil reklama innovatsiyalari o‘rtasidagi farqlarni qiyosiy tahlil qilish imkoni tug‘iladi:

1-jadval

An’anaviy reklama va yashil reklama innovatsiyalari o‘rtasidagi farqlarning qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	An’anaviy reklama modeli	Yashil reklama innovatsion modeli
Asosiy maqsad	Mahsulotni sotish va daromad olish	Barqaror iste’molni rag‘batlantirish, ekologik ongni oshirish
Reklama vositalari	Televizion roliklar, plakatlar, bannerlar	Raqamli platformalar, ekologik dizayn, AR/VR, interaktiv eko-kontent
Resurs sarfi	Yuqori (qog‘oz, siyoh, energiya)	Past (raqamli, qayta ishlanadigan materiallar)
Xabar mazmuni	Tijorat maqsadiga yo‘naltirilgan	Ijtimoiy-axloqiy va ekologik qadriyatlarni o‘z ichiga olgan
Iste’molchi ishonchi	Vaqtinchalik e’tibor	Uzoq muddatli brend sodiqligi va ishonch
Monitoring va baholash	An’anaviy ko‘rsatkichlar (sotuv hajmi)	Ekologik ta’sir, barqarorlik indeksi, yashil reputatsiya
Normativ asos	“Reklama to‘g‘risida”gi Qonun, tijorat qoidalari	“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi, ekologik sertifikatlash talablari

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagicha taklif va tavsiyalarni keltirish o‘rinli deb topildi:

1. Milliy reklama siyosatida “yashil reklama kodeksi”ni ishlab chiqish va unda ekologik da’volar uchun aniq mezonlarni belgilash.

2. Chakana savdo korxonalari uchun “eko-brending” standartlarini joriy etish — mahsulot, qadoqlash, reklama dizayni va axborot mazmunining ekologik mosligini sertifikatlash.

3. Universitet va tadbirkorlik markazlarida “yashil marketing” fanini keng joriy etish, reklama mutaxassislari uchun ekologik kommunikatsiya bo‘yicha trening dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

4. Raqamli reklama platformalarida uglerod izini kamaytirish mexanizmlari (masalan, energiya tejamkor formatlar, ma’lumotni optimallashtirish)ni ishlab chiqish va joriy etish.

5. Davlat-xususiy sheriklik asosida yashil reklama innovatsiyalarini moliyalashtirish uchun grant va soliq imtiyozlarini yaratish.

Umuman olganda, yashil biznes modelida reklama innovatsiyalari iqtisodiy samaradorlikni ekologik mas’uliyat bilan uyg‘unlashtiradi. U nafaqat korxonaning brend imijini mustahkamlaydi, balki jamiyatda ekologik madaniyatni rivojlantirish, mas’uliyatli iste’molni shakllantirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILDAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ–4477-son qarori. “O‘zbekiston Respublikasida 2019–2030-yillarda yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori https://lex.uz/docs/-4539502

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-maydagi PQ–156-son qarori. “Yashil iqtisodiyot platformasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/docs/-6464655 .

3. O‘zbekiston Respublikasi “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-6052631 (Yangi tahriri, 2022-yil 30-iyul).

4. European Commission. (2024). Directive on Green Claims: Empowering consumers for the green transition. – Brussels: Official Journal of the European Union.

5. Federal Trade Commission (FTC). (2023). Green Guides for the Use of Environmental Marketing Claims. – Washington D.C.: U.S. Government Publishing Office.

6. Ginsberg, J. M., & Bloom, P. N. (2004). Choosing the right green marketing strategy. // MIT Sloan Management Review, 46(1), 79–88.

7. Kotler, P., & Keller, K. L. (2022). Marketing Management (16th ed.). – Pearson Education. – 832 p.

8. Leonidou, C. N., Katsikeas, C. S., & Morgan, N. A. (2013). “Greening” the marketing mix: Do firms do it and does it pay off? // Journal of the Academy of Marketing Science, 41(2), 151–170.

9. NielsenIQ. (2024). Sustainability Report: Global consumer trends toward eco-friendly brands.

10. OECD. (2023). Green Innovation and Sustainable Growth. – Paris: OECD Publishing. – 174 p.

11. World Bank. (2023). Green Growth and Sustainable Development in Central Asia. – Washington, D.C.: World Bank Group. – 118 p.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA MARKETING STRATEGIYALARI VA KORPORATIV MADANIYATNING KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI

Matrizayeva Dilaram Yusupbayevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Marketing"kafedrasi dotsenti, PhD
Mirzayeva Mohinur G'ulom qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Marketing"kafedrasi magistranti

Annotatsiya

Ushbu tezisda yashil iqtisodiyot sharoitida marketing strategiyalari va korporativ madaniyatning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil qilingan. Xalqaro tajribalar asosida yashil marketing konsepsiyalari, innovatsion yondashuvlar va iste'molchilar xulqidagi transformatsiyalar o'rganilgan. O'zbekiston sanoat korxonalarida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda marketing strategiyalari va korporativ qadriyatlarning uyg'unligi asosiy ustuvor yo'nalish ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil marketing, korporativ madaniyat, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi, innovatsiya, boshqaruv samaradorligi

Аннотация

В данной диссертации проанализировано влияние маркетинговых стратегий и корпоративной культуры на конкурентоспособность предприятий в условиях «зеленой» экономики. На основе международного опыта изучены концепции «зеленого» маркетинга, инновационные подходы и трансформация поведения потребителей. Показано, что для промышленных предприятий Узбекистана согласование маркетинговых стратегий с корпоративными ценностями является ключевым приоритетом в развитии «зеленой» экономики.

Ключевые слова: зелёная экономика, зелёный маркетинг, корпоративная культура, конкурентоспособность, маркетинговая стратегия, инновации, эффективность управления.

Abstract

This thesis analyzes the impact of marketing strategies and corporate culture on the competitiveness of enterprises in the context of the green economy. Based on international experience, green marketing concepts, innovative approaches, and transformations in consumer behavior have been examined. It is demonstrated that, for industrial enterprises in Uzbekistan, the alignment of marketing strategies with corporate values is a key priority in advancing the green economy.

Keywords: green economy, green marketing, corporate culture, competitiveness, marketing strategy, innovation, management efficiency

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy barqarorlik va ekologik xavfsizlikni ham ta'minlashning muhim omili sifatida

qaralmoqda. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDGs) yashil iqtisodiyotga

o‘tish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lib, bu jarayonda korxonalarning marketing strategiyalari iste’molchilar xulqini shakllantirishda, innovatsion mahsulotlarni targ‘ib qilishda va ekologik qadriyatlarni keng yoyishda muhim vosita vazifasini bajaradi.

Jahon xo‘jalik tizimida barqaror rivojlanish tamoyillari tobora dolzarb bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalarida yashil konsepsiyalarning ustuvorligi oshmoqda [1]. Yashil iqtisodiyot sanoat korxonalaridan chiqindilarni kamaytirish, energiya tejamkor texnologiyalarni qo‘llash, qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashni talab qiladi [2]. Shu jarayonda marketing strategiyalari korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [3].

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki Markaziy Osiyo davlatlari tajribasida ham yashil iqtisodiyot va marketing strategiyalarining uyg‘unligi sezilarli ahamiyat kasb etmoqda. Masalan, Qozog‘istonda qayta tiklanadigan energiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash doirasida mahsulotlarni eko-markirovka qilish jarayonlari yo‘lga qo‘yilmoqda. Rossiya Federatsiyasida esa ekologik sertifikatlash tizimi va iste’molchilar orasida “eko-brend” tushunchasi shakllanmoqda. Bu tajribalar O‘zbekiston uchun ham qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali mexanizmlarni ko‘rsatib beradi.Yevropa Ittifoqida ekologik mahsulotlarni sertifikatlash va eko-markirovka iste’molchilar ishonchini oshirish vositasi sifatida keng qo‘llanmoqda [4]. AQSHda yashil marketing ko‘plab kompaniyalar tomonidan korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) dasturlari bilan integratsiya qilinib, korxonalarga uzoq muddatli imij va brend qiymatini oshirish imkonini bermoqda [5]. Sharqiy Osiyo mamlakatlari - Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoyda esa energiya samarador mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bir qatorda raqamli marketing vositalari orqali yashil qadriyatlarni keng auditoriyaga yetkazish mexanizmlari samarali yo‘lga qo‘yilgan [6].

O‘zbekiston sanoat korxonalari uchun marketing strategiyalarini takomillashtirish uch asosiy ustunlikni beradi:

1. Mahsulotlarni global bozor talablari asosida eko-sertifikatlash va eko-brendlash[7].

2. Raqobatbardoshlikni oshirish uchun innovatsion marketing yondashuvlarini (raqamli platformalar, yashil reklama, ijtimoiy marketing) qo‘llash[8].

3. Iste’molchilarda ekologik qadriyatlar va mas’uliyatli iste’molchilik xulqini shakllantirish[9].

Sanoat korxonalarida boshqaruv samaradorligi bevosita ichki madaniyat bilan bog‘liq. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, korporativ madaniyatga yashil qadriyatlarni singdirgan korxonalar resurslardan samaraliroq foydalanadi va bozorda barqaror imijga ega bo‘ladi. Masalan, O‘zbekiston sement sanoatida energiya tejamkor pechlar joriy etilishi ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish bilan birga xodimlarda ekologik mas’uliyatni oshirdi. Shu kabi misollar yashil marketing va korporativ qadriyatlar uyg‘unligi sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Yashil qadriyatlarga asoslangan korporativ madaniyat:

- xodimlar motivatsiyasini oshiradi,

• innovatsion tashabbuslarni rag‘batlantiradi,
• resurslardan oqilona foydalanishga undaydi,
• uzoq muddatli barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan strategiyasi sanoat tarmoqlarida innovatsion marketing, ekologik standartlarga mos boshqaruv mexanizmlari va korporativ qadriyatlarni uyg‘unlashtirishni ko‘zda tutadi. Shu nuqtai nazardan, milliy sanoat korxonalari uchun yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

• marketing strategiyalarini xalqaro tajribaga moslashtirish;
• korporativ boshqaruvda ekologik qadriyatlarni singdirish;
• barqaror innovatsiyalarni milliy sharoitga tatbiq etish.

Kelgusida yashil iqtisodiyot tamoyillarini keng tatbiq etish sanoat korxonalarining nafaqat ichki samaradorligini, balki eksport salohiyatini ham oshiradi. Ekologik standartlarga mos marketing strategiyalari xorijiy bozorlar talabiga javob beradigan mahsulotlarni ilgari surish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, yosh iste’molchilar orasida ekologik mas’uliyatli brendlar ustuvor tanlovga aylanib borayotgani O‘zbekiston korxonalari uchun yangi raqobat afzalliklarini shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda yashil iqtisodiyot sharoitida marketing strategiyalari va korporativ madaniyat uyg‘unligi sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning asosiy omilidir. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, yashil marketing vositalaridan foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki ijtimoiy mas’uliyat va ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi. O‘zbekiston sharoitida esa marketing strategiyalarini takomillashtirish va korporativ madaniyatni ekologik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish sanoatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. OECD. *Green Growth Indicators*. Paris, 2023.
2. Ottman, J. *The New Rules of Green Marketing*. Berrett-Koehler, 2011.
3. Denison, D. *Organizational Culture and Effectiveness*. IMD, 2000
4. Porter, M. *The Competitive Advantage of Nations*. Macmillan, 1990.
5. Kotler, P., Keller, K. *Marketing Management*. Pearson, 2016.
6. Peattie, K., Crane, A. *Green Marketing: Legend, Myth, Farce or Prophesy?* Qualitative Market Research Journal, 2005.
7. Schein, E. *Organizational Culture and Leadership.* Jossey-Bass, 2010.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5853-son, 2020-yil 6-oktyabr - “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Qarori
9. “Sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi bo‘yicha milliy hisobot”, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, 2023.

TASHQI BOZORLARDA ZAMONAVIY MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH

Meliqulov Abduhalil Norinovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada tashqi bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish imkoniyatlari, ularning afzalliklari va korxonalarga ta’siri tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarga asoslangan vositalar – SMM, CRM, kontent-marketing, targeting reklama, AI-assistentlar orqali korxonalar xalqaro bozorda brendini mustahkamlashi, mijozlar ehtiyojini aniq tahlil qilib, daromadni oshirishi mumkin. Tahliliy yondashuv asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy marketing, raqamli reklama, CRM, xalqaro savdo, SMM, targeting, analitika.

Аннотация

В статье рассматриваются современные маркетинговые инструменты для выхода на внешние рынки. Проанализированы возможности и преимущества SMM, CRM, таргетированной рекламы, контент-маркетинга и цифровых платформ. Показано, что их поэтапное внедрение способствует укреплению бренда, повышению конкурентоспособности и устойчивому росту продаж. На основе анализа предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, CRM, внешние рынки, таргетинг, аналитика, продвижение, стратегия.

Abstract

This article analyzes the use of modern marketing tools in international markets. It highlights how digital solutions—such as SMM, CRM, targeted advertising, and content marketing—enhance brand visibility, customer engagement, and competitiveness. The study offers practical recommendations for businesses seeking to grow through strategic digital marketing integration.

Keywords: digital marketing, CRM, international trade, SMM, targeting, analytics, brand strategy.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste’molchilar talabi markaziy o‘rinni egallaydi va barcha ishlab chiqarish, sotish, reklama va xizmat ko‘rsatish jarayonlari aynan mijozlarning ehtiyojlariga muvofiq yo‘naltiriladi. Bunday sharoitda an’anaviy marketing usullari yetarli samara bermasligi mumkin. Shu boisdan ham, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, raqamli tahlilga suyangan va tezkor muloqotni ta’minlaydigan marketing hamda kommunikatsiya vositalari bugungi talabga javob beradigan asosiy qurolga aylanmoqda.

Zamonaviy marketing vositalariga kontent marketing, elektron pochta marketingi (email marketing), ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM), axborotni qidirishga mo‘ljallangan tizimlar optimallashuvi (SEO), internet-reklama (Google Ads, YouTube Ads, tizimli targetinglar), CRM (customer relationship management) platformalari, chat-botlar, inflyuenser marketingi, reklama avtomatizatsiyasi va boshqa usullar kiradi.

Ushbu vositalar orqali korxonalar mijozlar bazasini aniq belgilashi, ular bilan individual munosabatlarni yo‘lga qo‘yishi, ehtiyojlarini baholash va raqobat muhitida o‘z o‘rnini mustahkamlash imkoniga ega bo‘ladi.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda iqtisodiyotni raqamlashtirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash, marketing va reklama sohalarida yangi huquqiy-me’yoriy hujjatlarni qabul qilish orqali ushbu yo‘nalishlarda rivojlanish kuzatilmoqda. Ayniqsa, xususiy sektorda kichik va o‘rta biznes subyektlarining raqamli marketing platformalariga qiziqishi ortib, “target reklama”, “bloger orqali marketing”, “videokontent marketingi” kabi vositalar keng qo‘llanmoqda.

Bugungi global raqobat sharoitida har qanday korxona marketing faoliyatini raqamlashtirish va samaradorlikni oshirish maqsadida zamonaviy marketing vositalaridan keng foydalanishi shart. Zamonaviy marketing vositalari an’anaviy reklama, fokus-gruppalar va sotuvni rag‘batlantirish bilan cheklanib qolmay, balki raqamli platformalar, ma’lumotlar tahlili, CRM tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar marketingi kabi texnik imkoniyatlar orqali bozordagi pozitsiyani mustahkamlashni nazarda tutadi.

Quyidagi jadvalda zamonaviy marketing vositalari ularning paydo bo‘lgan vaqti, asosiy vazifalari, afzalliklari va qo‘llanish sohalarini batafsil ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

Zamonaviy marketing vositalari va ularning rivojlanishi[1]

№	Vosita nomi	Paydo bo‘lgan yili	Asosiy vazifasi	Afzalliklari	Qo‘llanish sohasi
1	TV va radio reklama	1930-1950 y.	Katta auditoriyaga keng qamrovli ta’sir qilish	Imij yaratish, yuqori ta’sir, taniqlilik	Brend yaratish, savdo, bank, avtosanoat
2	BTL targ‘ibot	1960-y.	Oflayn shaxsiy aloqa– degustatsiya, namoyishlar, taqdimot	Jonli taassurot, brending, mahalliy ishonch	FMCG, ichiluvchi mahsulotlar, kosmetika
3	Email-marketing	1978 y.	Elektron pochta orqali axborot va takliflarni yuborish	Arzon, avtomatlashtirish oson, shaxsiylashtirish mumkin	B2B va B2C, servislar, onlayn savdo, ta’lim
4	CRM	1990-y.	Mijozlar bilan munosabatni saqlash va tahlil qilish	Mijoz sodiqligi oshadi, ma’lumotlar tizimlashtiriladi	Avtomobil, bank, sug‘urta, e-commerce
5	SEO	1997 y.	Veb-saytni qidiruv tizimlarida yuqori o‘ringa chiqarish	Tabiiy trafik, uzoq muddatli foyda, ishonch uyg‘otadi	Veb-saytlar, internet do‘konlar, bloglar
6	Google Analytics	2005 y.	Veb-sayt trafigini kuzatish, tahlil qilish	Real vaqtda tahlil, kanal samaradorligini o‘lchaydi	Barcha veb-saytlar, kontent platformalar

[1] Muallif tomonidan tuzilgan.

№	Vosita nomi	Paydo bo‘lgan yili	Asosiy vazifasi	Afzalliklari	Qo‘llanish sohasi
7	Mobile Marketing	2007 y. (iPhone)	Smartfonlar orqali push-xabar, SMS, mobil ilova orqali reklama yuborish	Joyida va real vaqtda aloqa, geo-targeting imkoni	Retail, xizmat ko‘rsatish, yetkizib berish xizmatlari
8	PPC (Google Ads)	2000 y.	Klik uchun pul to‘lab, maqsadli auditoriyaga reklama yetkazish	Tez natija, targetlash imkoni, ROI aniq hisoblanadi	Internet do‘konlar, xizmatlar, startaplar
9	Kontent marketing	2000-y.	Foydali, qiziqarli materiallar orqali mijozni jalb qilish	Uzoq muddatli ishonch, SEOni qo‘llab-quvvatlaydi, bilimli brend imiji	Barcha sohalar: ta’lim, savdo, xizmat ko‘rsatish
10	SMM	2004 y. (Facebook)	Ijtimoiy tarmoqlarda brendni targ‘ib qilish va auditoriya bilan aloqa o‘rnatish	Aniq targeting, interaktiv aloqa, virusli tarqalish imkoni	Instagram, Facebook, TikTok, Telegram, YouTube
11	Marketing Automation	2006 y.	Marketing jarayonlarini avtomatik ravishda boshqarish	Sog‘lom A/B testlash, vaqt tejash, integratsiya imkonlari	Onlayn do‘konlar, yirik mijoz bazalari
12	Influencer Marketing	2010 y.	Mashhur shaxslar orqali mahsulot yoki brendni targ‘ib qilish	Ishonch uyg‘otadi, virusli targ‘ibot, personal ta’sir	Moda, kosmetika, turizm, texnologiyalar
13	QR-kodli bukletlar	2010 y.	Offlayn reklamaga raqamli kanalni qo‘shish	Tez o‘tish, tezkor faoliyat, AR va mobil integratsiya	Turizm, ko‘rgazma, ta’lim, restoran va h.k.
14	Growth Hacking	2010 y.	Kreativ va arzon usullar bilan auditoriyani tez kengaytirish	Startaplar uchun samarali, tez ta’sir	“Software as a Service”, ya’ni “Xizmat sifatida taqdim etiladigan dasturiy ta’minot”, tech-startup, mobil ilovalar
15	Omni-channel Marketing	2012 y.	Barcha kanallarda uyg‘un tajriba yaratish	Barqarorlik, mijozda yaxshi taassurot qoldiradi	Retail, kafelar, onlayn, offlayn xizmatlar
16	Gamification	2013 y.	O‘yin elementlari orqali qiziqish uyg‘otish va ishtirokni oshirish	Interfaollik, motivatsiya, fidbek oshadi	Til o‘rganish, ta’lim, sog‘liq, mobil ilovalar
17	Personalization	2014 y.	Mijozga shaxsiy taklif va kontent taqdim etish	Ishonchni oshiradi, smodiqlikni kuchaytiradi	Onlayn savdo, striming, bilim, xizmat ko‘rsatish
18	Hotjar, Heatmaps	2014 y.	Foydalanuvchi qaysi sahifada, qaerda ko‘proq klik qilganini ko‘rish	Foydalanuvchi tajribasini tahlili, sayt dizaynini optimallashtirishda yordam beradi	Veb-dizayn, internet do‘konlar

№	Vosita nomi	Paydo bo‘lgan yili	Asosiy vazifasi	Afzalliklari	Qo‘llanish sohasi
19	Chatbot’lar	2016 y.	24/7 avtomatik javob berish va xizmat ko‘rsatish	Xizmat tezligi, inson resursini tejaydi, har doim ishlaydi	E-commerce, bank, ta’lim, xizmatlar
20	AI-assistentlar (ChatGPT)	2020 y.	Kontent yaratish, savollarga avtomatik javob berish	Samaradorlik, vaqt tejamkorlik, shaxsiylashtirish imkoni	Ta’lim, marketing, xizmat ko‘rsatish, veb-saytlar

Korxonada xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishni quyidagi yo‘llar orqali amalga oshirish mumkin:

1. Marketing strategiyasini raqamlashtirish. Birinchi navbatda korxonada marketing strategiyasi raqamli dunyo talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Bu — maqsadli auditoriyani aniqlash, raqobatchilarni o‘rganish va raqamli kanallar orqali brend strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Misol uchun, B2C sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalar Instagram va TikTok kabi vizual platformalarda faol bo‘lishi kerak, B2B kompaniyalar esa LinkedIn va elektron pochta marketingiga e’tibor qaratishi kerak.

2. CRM tizimlarini joriy etish. Korxona o‘z mijozlari bilan munosabatlarini yaxshilash va shaxsiylashtirilgan marketingni tashkil etish uchun CRM tizimlarini joriy etishi zarur. CRM orqali mijozlarning xarid tarixi, qiziqishlari va aloqa ma’lumotlari yig‘iladi. Bu sotuv hajmini 25-40% gacha oshirishi mumkin.

3. Kontent-marketingni rivojlantirish. Kontent-marketing zamonaviy marketingning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bu vosita orqali korxona o‘z mijozlariga bilim, qiymat va ishonch yetkazadi. Bloglar, videoroliklar, infografikalar, podkastlar — barchasi auditoriya bilan barqaror munosabat o‘rnatish vositasi hisoblanadi.

4. Ijtimoiy tarmoqlar marketingi (SMM). Korxona o‘z mahsuloti va xizmatlarini keng auditoriyaga yetkazish uchun Facebook, Instagram, Telegram va TikTok tarmoqlaridan faol foydalanishi kerak. SMM orqali mijozlar bilan bevosita muloqot, fikr-mulohazalar yig‘ish, tanlovlar va aksiyalar o‘tkazish mumkin.

5. Raqamli reklama kanallaridan foydalanish. Google Ads, Meta Ads (Facebook/Instagram), YouTube va Telegram botlari orqali maqsadli reklama joylashtirish imkonini beradi. Bu orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarid qilishga tayyor auditoriyani jalb qilish mumkin. Raqamli reklamada targeting, retargeting, A/B testlash, klik va konversiya tahlili kabi vositalar orqali natijadorlikni oshirish mumkin.

6. Email marketing va avtomatlashtirilgan aloqa tizimlari. Email marketing — arzon, tez va yuqori ROI (Return on Investment) beradigan kanallardan biri. Korxona mijozlarga yangiliklar, maxsus takliflar, tavsiyalar va hisobotlarni avtomatik ravishda yuborishi mumkin.

7. Analitika va marketing samaradorligini baholash. Zamonaviy marketing vositalaridan foydalanishda natijalarni baholash juda muhim. Google Analytics, Facebook Insights, Yandex Metrica kabi platformalar orqali har bir marketing

harakatining oxirgi samarasi, trafik manbalari, mijozlarning quyi oqimi tahlil qilinadi. Bu asosda strategik qarorlar qabul qilinadi va mablag‘lar samarali kanallarga yo‘naltiriladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy marketing vositalaridan amalda samarali foydalanish — bu raqobatdoshlikni ta’minlash, mijozlarga yaqinlashish va daromadni oshirishning asosiy omilidir. Bunday vositalarni korxonaga bosqichma-bosqich, aniq strategiya asosida joriy etish lozim. Ularning har biri nafaqat mahsulotni reklama qiladi, balki mijozlarning ehtiyojlarini chuqur o‘rganish, shaxsiylashtirish va uzoq muddatli munosabatlar o‘rnatishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

11. Bekmurodov A.Sh. — Marketing nazariyasi va amaliyoti, Toshkent, 2021.

12. Ergashxodjaeva Sh.Dj., Yusupov M. Marketing. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot — matbaa uyi”, 2024, 372 bet.

13. Philip Kotler, Hermawan Kartajaya, Iwan Setiawan Marketing 6.0: AI for Human Wellbeing Wiley Publishing, 2024.

14. Chaffey, Dave Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice, 9th Edition Pearson Education, 2024.

15. Lemon, Katherine N. & Verhoef, Peter C. Customer Experience Management in the Age of AI Harvard Business Review Press, 2025 (expected).

16. Kannan, P. K., & Li, Hongshuang (Alice) AI-Driven Marketing in Global Contexts Springer, 2024.

XARAJATLAR USULIDAN NATIJAGA YO‘NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISHGA O‘TISH SHAROITIDA MARKETINGDAN FOYDALANISH

N.I. Primova
TDIU Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi dotsenti,
ORCID:0000-0003-1423-1013
E-mail: n.primova@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada xarajatlar usulidan natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish tizimiga o‘tish jarayonida marketing yondashuvining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda byudjet jarayonining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda davlat xizmatlari sifatini yaxshilashda marketingning tadqiqot, kommunikatsiya va sodiqlikni boshqarish funksiyalari ochib beriladi. Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish davlat boshqaruvida strategik yondashuv sifatida talqin etilib, marketing uning samarali tarkibiy qismi sifatida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: natijaga yo‘naltirilgan byudjet, xarajat modeli, marketing, samaradorlik, davlat boshqaruvi, KPI.

Аннотация

В статье рассматривается роль маркетинга в переходе от затратного метода бюджетирования к бюджетированию, ориентированному на результат. Раскрываются функции маркетинга в повышении эффективности бюджетного процесса, рациональном использовании ресурсов и улучшении качества государственных услуг. Подчеркивается, что маркетинг становится стратегическим инструментом управления, направленным на достижение измеримых целей и повышение прозрачности деятельности государственных органов.

Ключевые слова: бюджетирование по результатам, затратная модель, маркетинг, эффективность, государственное управление, KPI.

Abstract

This article examines the role of marketing in the transition from cost-based to results-oriented budgeting. The study highlights how marketing functions—such as research, communication, and loyalty management—enhance public sector efficiency, optimize resource allocation, and improve service quality. Results-oriented budgeting is viewed as a strategic management approach, where marketing acts as an essential tool to ensure accountability, transparency, and measurable performance outcomes.

Keywords: results-oriented budgeting, cost model, marketing, efficiency, public management, KPI.

Zamonaviy iqtisodiy voqelik davlat va mahalliy moliyadan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini taqozo etmoqda. Byudjetlashtirishning mablag‘lar sarflanishini rejalashtirish va nazorat qilishga asoslangan an’anaviy, xarajatli modeli o‘zining cheklanganligini tobora ko‘proq ko‘rsatmoqda. U asosiy savolga javob

bermaydi: ajratilgan mablag‘lar hisobidan qanday aniq ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishildi?

Ushbu chaqiriqqa javob aniq, o‘lchanadigan maqsadlarga erishish va ma’lum sifatdagi ommaviy xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishga (NYB) o‘tish bo‘ldi. Ushbu o‘tish nafaqat moliyaviy sohada, balki marketing kabi tegishli sohalarda ham boshqaruv paradigmasini tubdan o‘zgartiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, 46-maqsadida “Fiskal barqarorlikni ta’minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish” belgilangan. Ushbu maqsadga erishish uchun 5 ta samaradorlik ko‘rsatkichlaridan biri 2030-yilgacha “Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish” amaliyotiga to‘liq o‘tish ko‘zda tutilgan [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining asosiy maqsadlaridan biri bu o‘rta muddatli byudjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik byudjetni shakllantirishning yangi “natijaga yo‘naltirilgan byudjet” (Dasturiy byudjetlashtirish) tizimini joriy etish hisoblanib, mazkur maqsad bo‘yicha quyidagilar amalga oshirildi [2].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, marketing bozorni boshqarish falsafasi va vositasi sifatida NYB tamoyillarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muhim element bo‘lib xizmat qiladi. Agar ilgari byudjet tashkilotlarida marketing ko‘pincha rasmiy yoki bilinar-bilinmas xususiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, endi u jamiyat (xizmatlar iste’molchilari) talablarini tashkilot faoliyati natijalari bilan bog‘laydigan zaruriy bo‘g‘inga aylanmoqda.

Byudjetlashtirishga yangi yondashuvlarni joriy etish davlat sektorini boshqarish tizimini isloh qilishning ajralmas elementi bo‘lib, boshqaruv biznes-texnologiyalarini davlat apparati faoliyatiga yoyishga qaratilgan. Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish (NYB) — bu davlat xizmatlarining samaradorligi va samarasini oshirishga qaratilgan byudjet jarayonidagi zamonaviy yondashuvdir. AQSHda natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab amaliyotga joriy etila boshlangan. AQSHlik iqtisodchi Allen Shik (Allen Schick) o‘z ishlarida NYBning amaliyotiga doir muhim tahlillarni taqdim etgan. U 2003-yilda chop etgan “The Performing State: Reflection on an Idea Whose Time Has Come but Whose Implementation Has Not” maqolasida NYBning nazariya va amaliyotdagi muammolarini yoritib bergan [3]. Rossiyalik iqtisodchi V.V. Klimanov 2010-yilda e’lon qilgan “Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish: nazariya va amaliyot” nomli maqolasida [4] Rossiyada NYBning rivojlanishi va muammolarini yoritib bergan. O‘zbekistonlik iqtisodchilardan Sh.T. Hojiyeva 2020-yilda e’lon qilgan “Byudjet tashkilotlari faoliyatini natijalar bo‘yicha baholash metodikasi” nomli tadqiqotida [5] NYBning amaliyotida qo‘llaniladiki baholash kriteriylarini ishlab chiqqan.

Bizning tadqiqotlarimizda “natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish” texnologiyasini byudjetni shakllantirish va ijro qilishning zamonaviy shakli deb aytish mumkin. Mazkur texnologiya byudjet xarajatlari va mazkur xarajatlardan kutilayotgan

samara o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, byudjet xizmatlarini ko‘rsatish bilan erishilgan natijani va ularning ijtimoiy, iqtisodiy samaradorligini va natijadorligini ifodalaydi[6]. Xarajatlarni byudjetlashtirish: Rejalashtirish va nazorat qilishning asosiy obyekti — xarajat moddalari (ish haqi, kommunal xizmatlar, asbob-uskunalar sotib olish). Muvaffaqiyat mezoni — mablag‘larni to‘liq hajmda va smetaga muvofiq o‘zlashtirish. Bunday tizimda marketing noishlab chiqarish xarajatlarining moddalaridan biri sifatida qabul qilinadi, agar kerak bo‘lsa, uni qisqartirish mumkin. Uning samaradorligi yoki o‘lchanmaydi, yoki miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan baholanadi, ammo sifat ko‘rsatkichlari bilan emas (masalan, fuqarolarning qoniqish darajasi emas, balki joylashtirilgan yangiliklar soni).

Natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish: E’tibor maqsadlar va natijalarga qaratiladi. Byudjet strategik maqsadlardan kelib chiqqan holda shakllantiriladi, ular o‘z navbatida aniq vazifalar va ularga erishish ko‘rsatkichlariga (KPI — Key Performance Indicators) bo‘linadi. Xarajatlar samaradorligi “xarajat-natija” nisbati orqali baholanadi. Bu tizimda marketing xarajatlar markazidan maqsadga erishish vositasiga aylanadi.

Ilgari iqtisodiyotni boshqarishning markazlashtirilgan tizimi mavjud bo‘lgan mamlakatlar, shuningdek, ko‘plab G‘arb mamlakatlari byudjetni tuzishda xarajatli yondashuvdan (input budgeting) foydalanadilar. Ushbu yondashuv resurslarni rejalashtirish va taqsimlashning shunday usuli bilan tavsiflanadiki, unda resurslar va ulardan foydalanishning bevosita natijalari, shu jumladan davlat muassasalari faoliyati natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik juda zaif, ya’ni xarajatlarni byudjetlashtirish birinchi navbatda mavjud resurslarga yo‘naltirilgan (1-rasm).

O‘z navbatida, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirish davlat tashkilotlari (vazirlik va idoralar) faoliyatining strategik maqsadlari va taktik vazifalari, kutilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Bu tegishli dasturlar orqali resurslarni safarbar qilish orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, natijaga yo‘naltirilgan byudjetlashtirishning boshlang‘ich nuqtasi byudjet mablag‘larini sarflashning to‘g‘ridan-to‘g‘ri va yakuniy natijalari hamda ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘lib, ular asosida qo‘yilgan maqsadlarga erishish darajasi haqida fikr yuritish mumkin (1-rasm).

1-jadval

“Xarajat” modeli va NYB modelining qiyosiy tavsifi[1]

Taqqoslash mezoni	**“Xarajatli” model**	**NYB modeli**
Rejalashtirish obyekti	Byudjet xarajatlari	Byudjet xarajatlari va natijalar
Moliyalashtirish uchun “yangi” xarajatlarni tanlashning asosiy tamoyili	Siyosiy qarorlar, o‘zaro kelishuv, tanlov tartibi neprozrachna	Kutilayotgan natija va samaradorlikka qarab
Rejalashtirish faoliyati	Yuqori	Nisbatan past
Rejalashtirish davri	Bir yil	O‘rta muddatli davr (3-5 yil)
Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchining vakolatlari	Nisbatan tor — mablag‘larni reja va	Kengroq — eng yaxshi natijaga erishish uchun resurslarni, shu

[1] Muallif ishlanmasi

Taqqoslash mezoni	“Xarajatli” model	NYB modeli
	belgilangan tartiblarga muvofiq sarflash	jumladan byudjet mablag‘larini boshqarish
Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchining ma’suliyati	Byudjet mablag‘laridan belgilangan tartibda maqsadli foydalanish	Faoliyat natijalari
Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchining iqtisodiy manfaatdorligi	Mavjud emas	Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchi byudjet resurslarini samarali boshqarishdan manfaatdor
Nazorat obyekti	Byudjet mablag‘laridan maqsadli foydalanish	Byudjet mablag‘larini bosh taqsimlovchi faoliyati natijalari, natijadorlik, byudjet mablag‘larini sarflash samaradorligi
Nazorat organlari	Tashqi nazorat organlari	Tashqi nazorat organlari, ichki nazorat

Xorijiy tajriba dasturiy-maqsadli tamoyillar asosida qurilgan byudjet jarayoniga o‘tishning ikkita ehtimoliy varianti mavjudligidan dalolat beradi. Birinchi variant byudjet jarayonining barcha ishtirokchilari (eng avvalo, vazirlik va idoralar) byudjet jarayoniga dasturiy-maqsadli tamoyillar elementlarini bosqichma-bosqich joriy etishdan iborat. Ikkinchi variant quyidagilarni nazarda tutadi:

1) dasturiy-maqsadli byudjetlashtirishning barcha asosiy elementlari bir vaqtning o‘zida joriy etiladigan bir nechta pilot vazirliklarni tanlash;

2) olingan natijalar tahlili;

3) islohotlarning dastlabki rejalariga tuzatishlar kiritish;

4) tuzatilgan rejalarni boshqa vazirlik va idoralarga tatbiq etish.

NYB sharoitida marketing quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

1. Tadqiqot funksiyasi: Maqsadli auditoriyalarning (fuqarolar, biznes) ehtiyojlari, kutilmalari va qoniqish darajasini tizimli ravishda o‘rganish. Olingan ma’lumotlar o‘lchanadigan maqsadlar va samaradorlik ko‘rsatkichlarini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, shunchaki “xizmat haqida xabardorlikni oshirish” emas, balki “maqsadli auditoriyaning 80 foizi yil oxirigacha yangi elektron xizmat haqida xabardor bo‘lishiga erishish”.

2. Pozitsiyalash va kommunikatsiya funksiyasi: Tashkilot va uning xizmatlari haqida aniq va jozibali tasavvurni shakllantirish. Ishning maqsadi, vazifasi va aniq natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamiyatga yetkazish. Bu NYBning asoslaridan biri bo‘lgan shaffoflik va hisobdorlikni oshiradi.

3. Talab va sodiqlikni boshqarish funksiyasi: Xizmatlarga murojaatlar oqimini optimallashtirish (masalan, elektron xizmatlarni rivojlantirish orqali), fuqarolar uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish uchun teskari aloqa bilan ishlash.

4. Byudjetni asoslash funksiyasi: NYB tizimida marketing byudjeti aniq natijalarga erishish rejasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi kerak. Har bir marketing tadbiri aniq asosga ega bo‘lishi kerak: u maqsadli KPIga erishishga qanday ta’sir

koʻrsatadi (masalan, davlat xizmatlari portalidan foydalanuvchilar sonini koʻpaytirish, shikoyatlar sonini kamaytirish va boshqalar).

Bugungi kunda NYB tizimiga marketingni joriy etishda baʼzi bir muammolar mavjud. Ular sarasiga qoʻyidagilarni kiritish mumkin:

- Har qanday yangilik va oʻzgarishlarga qarshilik. Boshqaruv apparatining konservativligi, yangi sharoitlarda ishlashga tayyor emasligi.
- Malakaning yetishmasligi: xodimlarda zamonaviy marketing, maʼlumotlar tahlili va samaradorlikni baholash boʻyicha bilim va koʻnikmalarning yetishmasligi.
- Natijaviylikni oʻlchashning murakkabligi: Barcha ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarni miqdoriy koʻrsatkichlarda osonlikcha oʻlchab boʻlmaydi (masalan, hokimiyatga boʻlgan ishonchning oshishi).
- Rasmiylashtirish xavfi: KPI bilan ishlash haqiqiy boshqaruv vositasiga emas, balki "koʻz boʻyamachilikka" aylanib qolish xavfi mavjud.

NYBga amaliy misol sifatida qoʻyidagilarni koʻrib chiqamiz:

Byudjet jarayonini NYB tamoyillari asosida isloh qilish — bu oʻz-oʻzidan maqsad emas, balki davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularni oʻz-oʻziga xizmat koʻrsatishga emas, balki kuch-gʻayratni jamiyat uchun ustuvor yoʻnalishlarga qaratishga ragʻbatlantirish vositasidir.

Bu aynan nimani anglatadi? Masalan, 12 yillik taʼlimga oʻtish zarurligi va, binobarin, bunday islohotni moliyalashtirishning maqsadga muvofiqligi toʻgʻrisidagi masalani hal etish:

- taʼlim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan kelib chiqib;
- boshqa sohalardagi, masalan, fan, madaniyat, sogʻliqni saqlash sohasidagi ustuvorliklarning ijtimoiy ahamiyati bilan taqqoslaganda;
- ushbu va muqobil islohotlarning kutilayotgan natijalarini puxta baholash asosida;
- taʼlimning avvalgi islohotlari, eng avvalo, 11 yillik taʼlimga oʻtish boʻyicha islohot qanday samara berganini sinchkovlik bilan har tomonlama baholash asosida. Yaʼni, 11 yillik taʼlimni isloh qilishning haqiqiy natijalarini u rejalashtirilgan davrda kutilgan natijalar va haqiqatda talab qilingan xarajatlar bilan yetarlicha aniqlik bilan oʻlchash imkonini beradigan maʼlumotlar asosida.

Esmaelnezhad va boshqalar tomonidan taqdim etilgan indikatorlar tizimi esa yashil marketing strategiyalarining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natijalarini o‘lchash imkonini beradi [8]. Bu tizim kichik bizneslar uchun strategiyalarni baholash, tahlil qilish va doimiy takomillashtirib borishda amaliy vosita sifatida muhim hisoblanadi.

Materiallar ta’minoti va ishlab chiqarish bosqichida yashil tamoyillarni qo‘llash borasida Dzikriansyah va hamkorlarining tadqiqotlari e’tiborga molikdir. Ular kichik ishlab chiqaruvchilarda yashil ta’minot zanjiri elementlarini qo‘llab, ekologik samaradorlikka erishish mumkinligini ko‘rsatgan [4]. Ushbu yondashuv ishlab chiqarishdan tortib yetkazib berishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda ekologik yondashuvni talab qiladi.

Nihoyat, Agrawal va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan yashil moliyaviy model kichik bizneslar uchun ekologik investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy asos va yo‘l xaritasi rolini bajaradi [5]. Bu model, aylanma iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan holda, ekologik barqarorlik va moliyaviy foyda o‘rtasida muvozanat yaratishga yordam beradi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda mavjud yozma manbalarni o‘rganish asosiy usul sifatida tanlandi. Buning uchun so‘nggi yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Maqolalar dunyodagi eng yirik ilmiy bazalar — Scopus va Web of Science orqali tanlab olindi. Ular asosan yashil marketing, ekologik texnologiyalar, kichik biznesdagi boshqaruv va barqarorlik mavzulariga oid. Tanlangan adabiyotlar mavzuga aloqadorligi, so‘nggi yillardagi chop etilganligi va amaliy foydasi bo‘yicha saralandi. Har bir maqola mazmunan o‘rganilib, ularning umumiy yo‘nalishlari asosida muhim g‘oyalar ajratib olindi. Shu asosda tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari aniqlashtirildi va muallifiy umumlashtirish orqali natijaviy model ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan adabiyot tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, yashil marketing strategiyalari kichik biznes subyektlari uchun raqobatbardoshlikni oshirish, resurslardan samarali foydalanish va barqarorlik tamoyillarini ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlariga tatbiq etishda muhim vosita hisoblanadi. Tadqiqotlar asosida yashil marketingning kichik biznesdagi ahamiyati ko‘p qirrali bo‘lib, u faqat ekologik samara emas, balki mijozlar bilan ishonch asosidagi aloqalarni kuchaytirish, brend qadriyatlarini shakllantirish va yangi bozor segmentlarini qamrab olish imkonini beradi.

Ko‘plab manbalar kichik bizneslarning strukturaviy va moliyaviy jihatdan yirik korxonalarga nisbatan cheklangan bo‘lishini e’tirof etadi. Shunga qaramay, ularning moslashuvchanlik darajasi yuqori bo‘lgani sababli yashil marketing strategiyalarini amaliyotga tez va nisbatan kam xarajat bilan joriy etish imkoniyatiga egadirlar [3]. Masalan, Meksikadagi kichik firmalar misolida olib borilgan tadqiqotlarda ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan xizmatlar ko‘rsatish va yashil kommunikatsiya vositalaridan foydalanish samaradorligi aniq qayd etilgan.

Yashil marketing samaradorligining yuqori bo‘lishi uchun marketing strategiyalari va ekologik innovatsiyalar o‘rtasida mustahkam aloqa mavjud bo‘lishi kerakligi alohida ta’kidlangan [1]. Wang va hamkorlari tomonidan taqdim etilgan modelda yashil bilimlarni boshqarish orqali tashkilotda ekologik innovatsion salohiyatni oshirish mumkinligi nazariy asosda bayon etilgan. Bu kabi yondashuv kichik bizneslar uchun dolzarb, chunki ular cheklangan resurslar sharoitida ko‘proq intellektual salohiyatdan foydalanishga majbur bo‘ladi.

Rehman va boshqalar tomonidan o‘rganilgan holatlarda yirik ishlab chiqaruvchilarda yashil innovatsiyalarni tatbiq etish orqali kichik bizneslar uchun amaliy model yaratilgan [2]. Bu modelda chiqindilarni kamaytirish, energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etish va ekologik dizayn asosida mahsulot yaratish asosiy komponentlar sifatida keltirilgan. Kichik bizneslar bu elementlarni o‘z hajmiga moslashtirish orqali strategik yondashuvni shakllantirishi mumkin.

Yashil marketing strategiyalarining samaradorligini oshirishda iste’molchilarning ekologik ong darajasi ham muhim omil sifatida ajralib turadi. Chen va hamkorlari yashil brend assotsiatsiyalari va mijozlarning xarid qilish niyatlari o‘rtasidagi munosabatni empirik tahlil qilib, mahsulot yoki xizmatga ekologik imij bog‘lash orqali mijozlar ishonchini mustahkamlash mumkinligini aniqlaganlar [10]. Bu kichik biznes uchun foydali xulosa, chunki ular iste’molchilar bilan bevosita va yaqin aloqada bo‘lganligi sababli, bunday kommunikatsion strategiyalarni tezda sinab ko‘rish va moslashtirish imkoniyatiga ega.

Davis tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa kichik bizneslarda yashil marketing strategiyalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi korxonaning ichki qadriyatlari, rahbariyat yondashuvi va xodimlarning tayyorgarlik darajasiga bog‘liq ekani ko‘rsatib o‘tilgan [11]. Bu xulosadan kelib chiqib, strategiyalarni amaliyotga joriy qilishda tashqi omillar bilan bir qatorda ichki madaniyat va korporativ qadriyatlar ham hisobga olinishi zarurligi aniqlanadi.

Ismail va boshqalar ekologik barqarorlik va yashil marketing o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganar ekan, yashil bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyati hal qiluvchi omil sifatida ajratib ko‘rsatadilar [9]. Bu esa kichik biznes uchun amaliy xulosa: strategiyani joriy qilishdan avval, xodimlar va rahbariyat ekologik bilimlar va yondashuvlar bilan tanishtirilishi, qisqacha aytganda, ekologik bilimlar transformatsiyasi tashkil etilishi lozim.

Yashil marketing strategiyalarining barqaror rivojlanishga hissa qo‘shish darajasini tizimli ravishda baholashda indikatorlar tizimi katta ahamiyatga ega. Esmaelnezhad va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan tizimda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash uchun mezonlar taklif etilgan bo‘lib, ular kichik bizneslar uchun monitoring va strategik qarorlar qabul qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi [8]. Bu model kichik biznes subyektlarining o‘z resurslarini tahlil qilish, natijalarga asoslangan strategik rejalashtirish olib borishiga yordam beradi.

Dzikriansyah va boshqalar yashil ta’minot zanjiri komponentlarini kichik ishlab chiqaruvchilarda qo‘llash natijasida ekologik samaradorlikka erishish mumkinligini empirik asosda isbotlaganlar [4]. Bu tadqiqotlar kichik bizneslar uchun ekologik mezonlarga mos materiallar tanlovi, tashish va saqlash bosqichlarida energiya tejash, chiqindilarni kamaytirish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar beradi.

Yashil marketing faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarning mavjudligi kichik bizneslar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Agrawal va hamkorlari yashil moliyalashtirish va yashil innovatsiyalarni uzviy integratsiya qilgan holda, aylanma iqtisodiyot modeli orqali ekologik va iqtisodiy samarani muvozanatli tarzda ta’minlash imkoniyatlarini tahlil qilganlar [5]. Ushbu yondashuv kichik biznesga investitsiyalar jalb qilish, davlat grantlari yoki ekologik kreditlardan samarali foydalanish imkonini beradi.



1-rasm. Yashil marketing strategiyalari va barqaror rivojlanish modeli[1]

[1] Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib, 1-rasmdagi konseptual model ishlab chiqildi. Bu model kichik biznes subyektlari uchun yashil marketing strategiyalarining qanday shakllanishi, qanday omillar ta’sirida rivojlanishi va ularning barqaror rivojlanishga qanday ta’sir qilishini tushuntirildi.

Ushbu model nazariy jihatdan adabiyotlarda aniqlangan asosiy tushunchalarni ifodalaydi. Unga ko‘ra, kichik bizneslar yashil marketing strategiyalarini ichki madaniyat va tashqi talablar asosida shakllantiradi, innovatsiyalarni joriy qiladi va mijozlar bilan ekologik jihatdan ongli aloqani rivojlantiradi. Bu esa ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan barqarorlikka olib keladi. Model real strategik qarorlar qabul qilishda konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlari yashil marketing strategiyalarini amaliyotga joriy etish orqali o‘z faoliyatini ekologik va iqtisodiy jihatdan foydaliroq yo‘nalishga burish imkoniyatiga ega. Tanlab olingan ilmiy manbalar asosida aniqlanishicha, yashil marketing nafaqat ekologik manfaat keltiradi, balki mijozlar ishonchini mustahkamlash, brend obro‘sini oshirish va yangi bozor imkoniyatlarini ochish vositasi ham hisoblanadi.

Strategiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun, avvalo, korxona ichida ekologik qadriyatlarni shakllantirish, xodimlarni tegishli bilimlar bilan ta’minlash va rahbariyat tomonidan ekologik yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir. Tashqi omillar — mijozlar talabi, qonunchilik talablariga moslashish va ekologik axborotlardan foydalanish ham asosiy rol o‘ynaydi.

Yashil innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, chiqindilarni kamaytirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish kichik bizneslar uchun uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi. Bunda mijozlar bilan ochiq va ishonchli ekologik aloqa o‘rnatish strategiyaning samaradorligini yanada oshiradi.

Shunga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Ichki madaniyatni mustahkamlash: Kichik bizneslarda yashil qadriyatlarni xodimlar ongiga singdirish va ekologik tafakkurni rivojlantirish maqsadida muntazam trening va targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish zarur.
2. Yashil bilimlarni oshirish: Ekologik texnologiyalar, qonunchilik va iste’molchilar xatti-harakati haqidagi bilimlarni muntazam yangilab borish, bu borada maxsus o‘quv materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi.
3. Moliyaviy va texnik ko‘makni jalb etish: Yashil tashabbuslarni amalda qo‘llash uchun grantlar, ekologik kreditlar yoki davlat dasturlaridan faol foydalanish tavsiya qilinadi.
4. Innovatsiyalarni joriy etish: Energiya tejovchi texnologiyalar, ekologik qadoqlash, qayta ishlanadigan resurslar asosida mahsulot ishlab chiqarish orqali strategik farqlanishga erishish mumkin.
5. Mijozlar bilan aloqani mustahkamlash: Ekologik faoliyat natijalari haqida ochiq ma’lumot berish, yashil sertifikatlar va ramzlardan foydalanish orqali mijozlar ishonchini kuchaytirish mumkin.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, kichik biznes subyektlari uchun yashil marketing strategiyalarini shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish ekologik mas'uliyatni kuchaytirish bilan birga, raqobatbardoshlikni ham oshirishga xizmat qiladi. To'g'ri yo'naltirilgan va asosli strategik yondashuv orqali har bir kichik korxona barqaror taraqqiyot sari dadil qadam qo'yishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Wang, S., Abbas, J., Sial, M. S., Álvarez-Otero, S., & Cioca, L.-I. (2022). Achieving green innovation and sustainable development goals through green knowledge management. Journal of Innovation & Knowledge, 7, 100272. https://doi.org/10.1016/j.jik.2022.100272

2. Rehman, S. U., Kraus, S., Shah, S. A., Khanin, D., & Mahto, R. V. (2021). Analyzing the relationship between green innovation and environmental performance in large manufacturing firms. Technological Forecasting and Social Change, 163, 120481. https://doi.org/10.1016/j.techfore.2020.120481

3. Cuevas-Vargas, H., Esparza-Durón, M. R., & González-Acolt, R. (2022). Sustainable marketing orientation and sustainability performance of Mexican small firms. Procedia Computer Science, 214, 1237–1245. https://doi.org/10.1016/j.procs.2022.11.188

4. Dzikriansyah, M. A., Masudin, I., Zulfikarijah, F., Jihadi, M., & Jatmiko, R. D. (2023). The role of green supply chain management practices on environmental performance. Cleaner Logistics and Supply Chain, 6, 100100. https://doi.org/10.1016/j.clscn.2023.100100

5. Agrawal, R., Agrawal, S., Samadhiya, A., Kumar, A., Luthra, S., & Jain, V. (2024). Adoption of green finance and green innovation for achieving circularity. Geoscience Frontiers, 15, 101669. https://doi.org/10.1016/j.gsf.2023.101669

6. Firdiansyah, R., Mohamed, M., Yusliza, M. Y., Saputra, J., & Muhammad, Z. (2021). A review of green marketing strategy literature: Mini-review approach. 11th Annual Int. Conf. on Industrial Engineering and Operations Management. http://ieomsociety.org

7. Sugandini, D., Muafi, M., Susilowati, C., Siswanti, Y., & Syafri, W. (2020). Green supply management and green marketing strategy on green purchase intention: SMEs cases. Journal of Industrial Engineering and Management, 13(1), 78–95. https://doi.org/10.3926/jiem.2795

8. Esmaelnezhad, D., Lagz i, M. D., Antucheviciene, J., Hashemi, S. S., & Khorshidi, S. (2023). Evaluation of green marketing strategies by considering sustainability criteria. Sustainability, 15, 7874. https://doi.org/10.3390/su15107874

9. Ismail, I. J., Amani, D., & Changalima, I. A. (2023). Strategic green marketing orientation and environmental sustainability in sub-Saharan Africa: Does green absorptive capacity moderate? Heliyon, 9, e18373. https://doi.org/10.1016/j.heliyon.2023.e18373

10. Chen, Y.-S., Chang, T.-W., Li, H.-X., & Chen, Y.-R. (2020). The influence of green brand affect on green purchase intentions: The mediation effects of green brand

associations and green brand attitude. International Journal of Environmental Research and Public Health, 17(11), 4089. https://doi.org/10.3390/ijerph17114089

11. Davis, J. (2020). Successful marketing strategies for small business sustainability (Doctoral dissertation, Walden University). ProQuest Dissertations Publishing.

12. Tien, N. H., Hiep, P. M., Dai, N. Q., Duc, N. M., & Hong, T. T. K. (2020). Green entrepreneurship understanding in Vietnam. International Journal of Entrepreneurship, 24(2). https://www.researchgate.net/publication/340903536

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA JAHON TENDENSIYALARINING O‘RNI

Xabibullaev Anvar Shovkat o‘gli
TDIU Savdo ishi kafedrasi katta o‘qituvchi
Email: khabibullaevanvar707@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishida xizmat ko‘rsatish sohasining jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish tendensiyalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot xizmat sektorining global YaIMdagi ulushi, turli mamlakatlar tajribasi va raqamli texnologiyalarning transformatsiyasini ta’siri qamrab oladi. Har bir jadvalga kengaytirilgan tahlil berilgan bo‘lib, unda statistik ma’lumotlarning qiyosiy tahlili, tendensiyalari o‘rganilgan va O‘zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: xizmat ko‘rsatish sohasi, jahon tendensiyalari, raqamli transformatsiya, sun’iy intellekt, xizmat iqtisodiyoti, bulutli texnologiyalar, eksport, raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация

В данной статье проведен комплексный анализ роли и тенденций развития сферы услуг в мировой экономике. Исследование охватывает долю сектора услуг в мировом ВВП, опыт различных стран и трансформационное влияние цифровых технологий. В каждой таблице представлен расширенный анализ, в котором проведен сравнительный анализ статистических данных, изучены тенденции и разработаны практические рекомендации для Узбекистана.

Ключевые слова: сфера услуг, мировые тенденции, цифровая трансформация, искусственный интеллект, экономика услуг, облачные технологии, экспорт, цифровизация, инновационные технологии, экономическое развитие.

Abstract

This article comprehensively analyzes the role and development trends of the service sector in the global economy. The study covers the share of the service sector in global GDP, the experience of different countries, and the transformational impact of digital technologies. Each table provides an expanded analysis, in which a comparative analysis of statistical data, trends are studied, and practical recommendations for Uzbekistan are developed.

Keywords: service sector, global trends, digital transformation, artificial intelligence, service economy, cloud technologies, export, digitalization, innovative technologies, economic development.

XXI asrda xizmat ko‘rsatish sohasi jahon iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanib, global iqtisodiy tizimda o‘zining strategik ahamiyatini tobora mustahkamlayapti. Jahon Banki ma’lumotlariga ko‘ra, xizmat sektori global yalpi ichki mahsulotning 63,97 foizini tashkil etadi (Statista, 2023). Rivojlangan mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 70-80 foizga yetadi va ish kuchi resurslarining asosiy qismini o‘zida mujassamlashtiradi (World Bank, 2024).

Jahon Savdo Tashkilotining eng so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda xizmatlar savdosi 10 foiz o‘sish bilan kuchli dinamikani namoyish etdi va global savdodagi ulushi 27,2 foizga yetib, 2005-yildan boshlab eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi (WTO, 2024). Bu xizmatlar savdosining tovarlar savdosidan tezroq rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Hozirgi davrda xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi bir qator muhim omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, raqamli texnologiyalarning jadal sur’atlarda rivojlanishi xizmat ko‘rsatish usullarini tubdan o‘zgartirmoqda. Sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, bulutli hisoblash texnologiyalari va blokcheyn kabi innovatsion yechimlar xizmat sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi biznes-modellarni yaratish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Ikkinchidan, jahon aholisining demografik tarkibi o‘zgarishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi xizmat sohasiga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. Aholining turmush darajasining yaxshilanishi, o‘rta tabaqa vakillarining ko‘payishi sog‘liqni saqlash, ta’lim, moliya, turizm va professional xizmatlar sohasidagi talabni kuchaytirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti prognozlariga ko‘ra, 2030-yilga kelib jahon aholisining 60 foizdan ortig‘i shahar hududlarida yashaydi va bu esa xizmat sohasining yanada kengayishiga olib keladi (UN DESA, 2022).

Uchinchidan, COVID-19 pandemiyasi xizmat ko‘rsatish sohasida tezkor transformatsiyaga turtki bo‘ldi. Kontaktsiz xizmat ko‘rsatish, masofaviy ish rejimi, onlayn ta’lim va teletibbiyot kabi yo‘nalishlar yangi reallikka aylanib, an’anaviy biznes-modellarni qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Tadqiqotlariga ko‘ra, pandemiya davrida raqamli xizmatlardan foydalanish 3-4 yilga mo‘ljallangan o‘zgarishlarni atigi bir necha oyda amalga oshirishga olib keldi (McKinsey, 2020).

To‘rtinchidan, barqaror rivojlanish va ekologik mas’uliyat prinsiplari xizmat sohasida yangi standartlarni shakllantirmoqda. “Yashil” texnologiyalar, energiya samaradorligi, chiqindilarni qayta ishlash va ijtimoiy javobgarlik zamonaviy xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillarga aylanmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlari xizmat sohasini shakllantirishda muhim yo‘naltiruvchi rol o‘ynamoqda.

Xizmatlar sektoridagi xalqaro raqobat kuchayishi, global zanjirlarning murakkablashuvi va savdo to‘siqlarining kamayishi xizmat ko‘rsatish sohasida yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. 2024-yilda Osiyo mintaqasida transport xizmatlari eksporti 32 foizga oshdi, Xitoyda 47 foiz, Singapurda esa 40 foiz o‘sish qayd etildi (WTO, 2025). Mamlakatlar uchun xizmat eksporti qobiliyatini oshirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va innovatsion ekotizimni yaratish muhim ustuvor vazifaga aylanmoqda.

O‘zbekiston uchun xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish strategik ahamiyatga ega. Mamlakatimiz iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, zamonaviy ish o‘rinlarini yaratish, aholining hayot sifatini yaxshilash va xalqaro bozorlarga integratsiyalashuvni chuqurlashtirish uchun xizmat sektorining salohiyatini to‘liq ishga solish zarurdir. Jahon tendensiyalarini o‘rganish va ilg‘or xorijiy tajribani milliy sharoitlarga

moslashtirilgan holda joriy etish bu vazifani hal etishning muhim yo‘li hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi raqamlar sohaning iqtisodiyotdagi o‘rni nihoyatda ahamiyatli ekanligini ko‘rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi

Mamlakat/Mintaqa	YaIMda ulushi (%)	Bandlikdagi ulushi (%)	Yillik o‘sish sur’ati (%)	Eksportdagi ulushi (%)
AQSh	77,6	79,5	2,3	43,2
Buyuk Britaniya	79,2	83,1	1,8	51,7
Yaponiya	69,4	71,2	1,2	35,6
Germaniya	68,6	71,8	1,5	39,4
Hindiston	54,3	31,5	7,8	38,9
Xitoy	54,5	47,4	5,4	21,3
Braziliya	63,5	67,8	2,1	18,7
Janubiy Koreya	58,2	69,7	2,8	29,4
Singapur	73,1	85,3	3,2	68,5
O‘zbekiston	45,8	52,1	6,2	12,8

Manba: World Bank (2024), WTO Statistics (2024), IMF World Economic Outlook (2024), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari yordamida mallif tomonidan shakllantirildi.

Taqdim etilgan statistik ma’lumotlar xizmat ko‘rsatish sohasining turli mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rni va rivojlanish dinamikasi o‘rtasidagi sezilarli farqlarni ko‘rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda xizmat sektorining dominant mavqeyi yaqqol namoyon bo‘lmoqda — AQSh, Buyuk Britaniya va Singapurda bu ko‘rsatkich 70 foizdan yuqori bo‘lib, postindustrial jamiyatga xos xususiyatlarni aks ettiradi.

Buyuk Britaniyaning 79,2 foizlik YaIMdagi ulushi va 83,1 foizlik bandlikdagi ulushi mamlakatning moliya, biznes-xizmatlari, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalaridagi kuchli pozitsiyasini ko‘rsatadi (OECD, 2023). London jahonning yetakchi moliya markazlaridan biri sifatida xalqaro xizmatlar savdosida muhim rol o‘ynaydi. Eksportdagi 51,7 foizlik ulush Britaniyaning xizmat sohasidagi raqobatbardoshligini tasdiqlaydi.

Singapurning 73,1 foizlik YaIMdagi ulushi va 85,3 foizlik bandlikdagi ulushi bilan birga 68,5 foizlik eksport ulushi mamlakatning strategik joylashuvi, yuqori texnologiyali infratuzilma va xalqaro biznes muhiti yaratishdagi muvaffaqiyatini aks ettiradi. Singapur transport-logistika, moliya xizmatlari, IT va professional xizmatlar markaziga aylanib, mintaqaviy xizmat ko‘rsatish xabiga aylanganligini namoyish etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida Hindiston alohida e’tiborga sazovordir. 54,3 foizlik YaIMdagi ulush nisbatan past bo‘lsa-da, 7,8 foizlik yillik o‘sish sur’ati mamlakatning xizmat sohasidagi dinamik rivojlanishini ko‘rsatadi (Reserve Bank of India, 2024). Hindiston IT-xizmatlari, dasturiy ta’minot ishlab chiqish, biznes-protsesslarni autsorsing qilish va tibbiy turizm sohasida jahon yetakchilaridan biriga

aylandi. Bandlikdagi nisbatan past ulush (31,5%) qishloq xo‘jaligida hali ham ko‘p aholi band ekanligini ko‘rsatadi, bu esa kelgusida xizmat sohasining kengayishi uchun katta salohiyat mavjudligidan dalolat beradi.

Xitoyning 54,5 foizlik YaIMdagi ulushi va 5,4 foizlik o‘sish sur’ati mamlakatning ishlab chiqarish iqtisodiyotidan xizmat iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tishini aks ettiradi (National Bureau of Statistics of China, 2024). Xitoy hukumati xizmat sohasini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish deb e’lon qilgan va elektron tijorat, fintech, telekommunikatsiya va professional xizmatlar sohasida tezkor o‘sishga erishmoqda. 21,3 foizlik eksport ulushi mamlakatning asosan ichki bozorga yo‘naltirilgan xizmat sektoriga ega ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston 45,8 foizlik YaIMdagi ulush va 6,2 foizlik o‘sish sur’ati bilan o‘tish davri iqtisodiyotining xususiyatlarini namoyon etadi (Stat, 2024). Mamlakatimizda xizmat sohasining ulushi so‘nggi yillarda o‘sib kelmoqda. 12,8 foizlik eksport ulushi xizmat sohasida xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Turizm, IT-xizmatlar, transport-logistika va ta’lim sohasini rivojlantirish orqali bu ko‘rsatkichni sezilarli darajada oshirish mumkin.

Umumiy tendensiya shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish darajasi oshgan sari xizmat sohasining ulushi ortib boradi. Biroq, rivojlanish sur’ati rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori bo‘lib, bu mamlakatlar strukturaviy o‘zgarishlar jarayonida ekanligini anglatadi. Xizmat ko‘rsatishda xorij tajribasi shuni ko‘rsatadiki ko‘p rivojlangan korxonalar raqamli texnologiyalardan faol joriy etish natijasida yuqori foydaga erishmoqdalar (2-jadval).

2-jadval

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi asosiy raqamli texnologiyalar va ularning ta’siri

Texnologiya	Joriy etilish darajasi (%)	Samaradorlik oshishi (%)	Investitsiyalar hajmi (mlrd $)	Foyda
Sun’iy intellekt (AI)	45,2	35-40	154,8	42% yillik
Bulutli texnologiyalar	67,8	25-30	312,5	18% yillik
Internet of Things (IoT)	38,6	20-25	248,7	26% yillik
Blokcheyn	18,4	15-20	67,4	38% yillik
Katta ma’lumotlar tahlili	52,3	30-35	198,3	22% yillik
5G texnologiyalari	28,7	40-45	287,9	35% yillik
Robotlashtirish (RPA)	34,5	25-30	89,6	28% yillik
Kiberxavfsizlik yechimlari	71,2	15-18	223,1	12% yillik
Virtual/Kengaytirilgan reallik	22,1	20-25	45,8	31% yillik

Manba: Gartner (2024), IDC Digital Transformation Report (2024), Deloitte Technology Trends (2024), McKinsey & Company (2024), World Economic Forum (2024).

Raqamli texnologiyalar xizmat ko‘rsatish sohasida transformatsion rol o‘ynamoqda va ularning joriy etilish darajasi turli yo‘nalishlarda farqlanadi. Eng yuqori joriy etilish darajasiga ega texnologiyalar kiberxavfsizlik yechimlari va bulutli texnologiyalarda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning xavfsizlik va infratuzilma ehtiyojlarini qondirishning muhimligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt 45,2 foizlik joriy etilish darajasi bilan o‘rta pozitsiyani egallasa ham, 35-40 foizlik samaradorlik oshishi va 42 foizlik yillik prognoz o‘sish bilan eng istiqbolli texnologiyalardan biridir (McKinsey & Company, 2024). AI mijozlar bilan muloqot avtomatlashtirish, prognozli tahlil, personallashtirilgan tavsiyalar berish va biznes-jarayonlarni optimallashtirish uchun keng qo‘llanilmoqda.

Bulutli texnologiyalar 67,8 foizlik joriy etilish darajasi va korxonalar 312,5 milliard AQSh dollarlik investitsiyalar bilan eng keng tarqalgan raqamli yechim hisoblanadi (Deloitte, 2024). Bulutli infratuzilma xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarga moslashuvchanlik, miqyoslilik va xarajatlarni optimallashtirish imkoniyatlarini beradi. 25-30 foizlik samaradorlik oshishi operatsion xarajatlarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishda muhim rol o‘ynaydi.

Katta ma’lumotlar tahlili ham 52,3 foizlik joriy etilish va 30-35 foizlik samaradorlik oshishi bilan strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega. Mijozlar ma’lumotlarini to‘plash, tahlil qilish va ulardan foydalanib biznes-strategiyalarni ishlab chiqish zamonaviy xizmat ko‘rsatishning ajralmas qismiga aylandi.

Blokcheyn texnologiyasini qo‘llash 18,4 foizlik eng past joriy etilish darajasiga ega, lekin 38 foizlik yuqori prognoz o‘sish sur’ati uning kelajakdagi salohiyatini ko‘rsatadi (Gartner, 2024). Moliya xizmatlari, ta’minot zanjiri boshqaruvi, sog‘liqni saqlash va raqamli identifikatsiya sohasida blokcheyn shaffoflik va xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Robotlashtirish va jarayonlarni avtomatlashtirish 34,5 foizlik joriy etilish va 25-30 foizlik samaradorlik oshishi bilan takrorlanuvchi vazifalarni avtomatlashtirish, xatolarni kamaytirish va xodimlarni yuqori qiymatli ishlarga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko‘rsatish sohasidagi jahon tendensiyalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu sektor global iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchisiga aylanib, doimiy transformatsiya jarayonida. Raqamlashtirish, texnologik innovatsiyalar, globallashtirish va iste’molchilar talablarining o‘zgarishi xizmat sohasining rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardir.

O‘zbekiston uchun jahon tajribasini o‘rganish va ularni iqtisodiyotga joriy qilish strategik ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha mamlakatimiz quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi lozim:

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar tahlili sohasida investitsiyalarni oshirish.

Inson kapitalini rivojlantirish ya’ni IT-mutaxassislar, data-analitiklar va raqamli marketing mutaxassislarini tayyorlash tizimini yaratish.

Innovatsion ekotizimni shakllantirish yo‘li bilan startaplar, texnoparklar va raqamli innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish.

Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish yordamida yetakchi xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalar bilan strategik sheriklik o‘rnatish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Xizmat ko‘rsatish sohasining samarali rivojlanishi O‘zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasi, ish o‘rinlarining yaratilishi va aholining turmush darajasini

yaxshilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etish samarali natijalarni olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Deloitte (2024). Technology Trends 2024: Cloud Computing and Digital Transformation. Deloitte Consulting LLP.
2. Gartner (2024). Top Strategic Technology Trends for 2024. Gartner, Inc.
3. IMF (2024). World Economic Outlook, April 2024. International Monetary Fund.
4. McKinsey & Company (2020). How COVID-19 has pushed companies over the technology tipping point. McKinsey Global Institute.
5. McKinsey & Company (2024). Technology Trends Outlook 2024. McKinsey & Company.
6. National Bureau of Statistics of China (2024). China Statistical Yearbook 2024. Beijing: China Statistics Press.
7. OECD (2023). OECD Services Trade Restrictiveness Index: Policy Trends and Recent Developments. Paris: OECD Publishing.
8. Stat (2024). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (2024). O‘zbekiston statistik yilligi 2024. Toshkent.
9. Reserve Bank of India (2024). Annual Report 2023-24. Mumbai: Reserve Bank of India.
10. Statista (2023). Share of economic sectors in the global gross domestic product from 2013 to 2023. Hamburg: Statista GmbH.
11. UN DESA (2022). World Urbanization Prospects: The 2022 Revision. New York: United Nations Department of Economic and Social Affairs.
12. World Bank (2024). Services, value added (% of GDP). World Development Indicators. Washington, DC: The World Bank.
13. WTO (2024). World Trade Statistics 2024. Geneva: World Trade Organization.
14. WTO (2025). Services trade growth hits new highs in third quarter of 2024. WTO Statistics News. Geneva: World Trade Organization.

O‘ZBEKISTONDA ISTE’MOLCHILARNING XARIDORLIK XULQ-ATVORINI O‘RGANISHNI TASHKIL ETISH

Xotamova Aziza Shovkat qizi
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Annotatsiya

Mazkur tezisda O‘zbekiston iste’molchilari xarid xulq-atvorining asosiy omillari, raqamli texnologiyalar ta’siri va marketing strategiyalari bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Internet reklama, ijtimoiy tarmoqlar va elektron savdo vositalarining iste’mol qarorlariga ta’siri amaliy misollar asosida ko‘rsatib berildi. Tadqiqot natijalari iste’molchilarning motivatsiyasi va bozor muhitiga moslashuvini aniqlash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: iste’molchi xulq-atvori, raqamli marketing, internet reklama, O‘zbekiston, elektron savdo.

Аннотация

В тезисе рассматриваются ключевые факторы потребительского поведения в Узбекистане, влияние цифровых технологий и связь с маркетинговыми стратегиями. Показано, как интернет-реклама, социальные сети и электронная торговля влияют на принятие решений. Полученные результаты помогают определить мотивацию потребителей и адаптацию к рыночной среде.

Ключевые слова: потребительское поведение, цифровой маркетинг, интернет-реклама, Узбекистан, электронная торговля.

Annotation

This thesis explores the main factors influencing consumer behavior in Uzbekistan, focusing on the impact of digital technologies and marketing strategies. It highlights the role of online advertising, social media, and e-commerce tools in shaping consumer decisions. The findings help to identify consumer motivation and adaptation to market conditions.

Keywords: consumer behavior, digital marketing, online advertising, Uzbekistan, e-commerce.

O‘zbekistonda iste’molchilarning xaridorlik xulq-atvori — bu odamlarning mahsulot yoki xizmatlarni sotib olish, tanlash, foydalanish va baholash jarayonidagi psixologik, ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy omillar ta’siri ostidagi harakatlaridir. Ushbu xatti-harakatlar bozorning holatini, marketing strategiyalarini va tadbirkorlikni chuqur tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Globallashuv va raqamlashtirish davrida iste’molchilarning xatti-harakati sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Tez o‘sib borayotgan iqtisodiyoti va kengayib borayotgan o‘rta sinf bilan O‘zbekiston iste’mol modellarida sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Iste’molchilarning qaror qabul qilishini tushunish marketing strategiyalarini samarali ishlab chiqishga, raqobatbardoshlikni oshirishga va o‘zgaruvchan bozor talablariga javob berishga intilayotgan korxonalar uchun juda muhimdir.

1. Iste’molchilar xatti-harakatlarida raqamli texnologiyalarning o‘rni

Onlayn bozorlar, mobil ilovalar va ijtimoiy media kabi raqamli vositalar sotib olish jarayonining markaziga aylandi. O‘zbekistonda elektron tijorat platformalari va elektron to‘lov tizimlarining ko‘tarilishi an’anaviy xarid qilish odatlarini, ayniqsa raqamli yechimlarga ochiqlikni namoyish etadigan yosh iste’molchilar orasida o‘zgartirmoqda.

Masalan, Uzum Market, Goodzone kabi elektron savdo platformalari O‘zbekiston bozorida yetakchi o‘rin egallamoqda. Bundan tashqari, Payme, Click va Uzum Bank kabi raqamli to‘lov tizimlari iste’molchilarga qulaylik yaratib, xarid qilish jarayonini tezlashtirmoqda.

2. Ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy omillar

O‘zbekistonda iste’molchilar xatti-harakatiga kuchli madaniy an’analar, oilaga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilish va daromadlarning turlicha darajasi ta’sir ko‘rsatadi. Yosh avlod brendga ko‘proq moyil va global mahsulotlarga moyil, keksa avlod esa an’anaviy xarid qilish usullariga tayanadi. Iqtisodiy rivojlanish va urbanizatsiya mamlakatning turli mintaqalarida iste’mol modellarini yanada diversifikatsiya qiladi. O‘zbekistonning o‘sib borayotgan o‘rta sinfi brendlar, sifat va xizmat ko‘rsatish darajasiga ko‘proq e’tibor qaratmoqda.

Shuningdek, xalqaro savdo markazlari va brend do‘konlarining kengayishi iste’molchilarning global tendensiyalarga moslashuvchanligini kuchaytirmoqda.

3. Qiyinchiliklar va istiqbollar

Taraqqiyotga qaramay, asosiy muammolar saqlanib qolmoqda: ayrim guruhlar orasida raqamli savodsizlik, qishloq joylarda cheklangan internet infratuzilmasi va logistika tizimlarining rivojlanmaganligi. Shu bilan birga, mobil internetning kirib borishi va raqamlashtirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash biznes uchun iste’molchilar bilan aloqani kuchaytirish va bozordagi ishtirokini kengaytirish uchun istiqbolli imkoniyatlarni yaratadi.

Kelajak istiqbollari orasida elektron tijoratning yanada rivojlanishi, keshbek va sodiqlik dasturlarining keng tarqalishi, shuningdek, mahalliy startaplar va texnologik kompaniyalarning bozordagi faolligining ortishi qayd etilishi mumkin.

Psixologik va segmentatsiya yondashuvlari.

Iste’molchilarni segmentlarga ajratish ularning xatti-harakatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi:

- Yoshlar: texnologiyaga tez moslashadi, impulsiv xarid qilish ehtimoli yuqori.
- O‘rta yosh: narx va sifat muvozanatini izlaydi.
- Keksa avlod: an’anaviy do‘konlarga sodiq.

Shuningdek, psixologik omillar, xususan onlayn ishonch darajasi, reklamalarning ta’siri va ijtimoiy tarmoqlardagi sharhlar xarid qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish, ijtimoiy-madaniy dinamika va iqtisodiy o‘sish ta’siri ostida O‘zbekistonda iste’molchilar xulq-atvori jadal rivojlanib bormoqda. Biznes uchun ushbu o‘zgarishlarni tushunish, samarali strategiyalarni ishlab chiqish va raqobatbardosh bozorda barqaror muvaffaqiyatni ta’minlash juda muhimdir.

Bundan tashqari, O‘zbekiston iste’mol bozori — o‘ziga xos madaniy va iqtisodiy omillarga tayanadigan, dinamik rivojlanayotgan segment bo‘lib, xaridorlik xulq-atvori doimiy o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, yosh avlodning xarid madaniyati va bozor sharoitlari bu xulq-atvorni shakllantirishda asosiy omillar bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kotler, P. va Keller, K.L., 2016. Marketingni boshqarish. 15th ed. Harlow: Pearson Education.

2. Solomon, M.R., 2018. Iste’molchi xatti-harakatlari: Sotib olish, ega bo‘lish va bo‘lish. 12th ed. Harlow: Pearson Education.

3. Jahon banki, 2023. O‘zbekiston iqtisodiy yangiliklari. [onlayn]

4. Quyidagi manzilda mavjud: https://www.worldbank.org [2025 yil 24 sentyabrda qabul qilingan].

5. Statista, 2024. Elektron tijorat O‘zbekistonda. [onlayn] Quyidagi manzilda mavjud: https://www.statista.com [2025 yil 24 sentyabrda qabul qilingan].

HUDUDIY SOLIQ SALOHIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR VA ULARNING DAVLAT BYUDJETI BARQARORLIGINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Ergashev Umidjon Ibragimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali assistent,

Annotatsiya

Mazkur ilmiy ishda hududiy soliq salohiyatini belgilovchi omillar va ularning davlat byudjeti barqarorligidagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida soliq siyosatining hududiy xususiyatlari, ularni optimallashtirish yo‘llari hamda davlat byudjetining daromad qismini mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: hududiy soliq salohiyati, soliq bazasi, davlat byudjeti, byudjet barqarorligi, soliq yig‘imchanligi, iqtisodiy imkoniyatlar, ishlab chiqarish hajmi, aholi daromadlari, investitsion muhit, tadbirkorlik faolligi, tabiiy resurslar, fiskal siyosat.

Аннотация

В данной научной работе анализируются факторы, определяющие налоговый потенциал территории, и их роль в обеспечении устойчивости государственного бюджета. В ходе исследования разработаны рекомендации по территориальной специфике налоговой политики, путям ее оптимизации и укреплению доходной части государственного бюджета.

Ключевые слова: налоговый потенциал территории, налоговая база, государственный бюджет, бюджетная устойчивость, собираемость налогов, экономические возможности, объем производства, доходы населения, инвестиционная среда, предпринимательская активность, природные ресурсы, налогово-бюджетная политика.

Abstract

This scientific work analyzes the factors determining the territorial tax potential and their role in the stability of the state budget. During the study, recommendations were developed on the territorial characteristics of tax policy, ways to optimize them, and strengthening the revenue part of the state budget.

Keywords: territorial tax potential, tax base, state budget, budget stability, tax collection, economic opportunities, production volume, population income, investment environment, entrepreneurial activity, natural resources, fiscal policy

Mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda soliq tizimining o‘rni beqiyosdir. Davlat byudjeti tushumlarining asosiy manbai bo‘lgan soliqlar hajmi ko‘p jihatdan hududlarning iqtisodiy imkoniyatlariga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan soliq salohiyati tushunchasi davlat moliyaviy resurslarining nazariy jihatdan maksimal miqdorini ifodalovchi muhim ko‘rsatkich sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq salohiyati faqatgina amaldagi soliq qonunchiligi natijasi emas, balki hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda tabiiy sharoitlari uyg‘unligida shakllanadigan ko‘p omilli jarayon hisoblanadi.

Soliq salohiyatining nazariy asoslari bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida turlicha yondashuvlar uchraydi. Masalan, R. Musgrave va P. Samuelson asarlarida davlat byudjeti barqarorligini ta’minlashda soliqlarning fiskal va tartibga soluvchi vazifalari birlamchi ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi [1-2]. R. Bird va M. Cnossen tadqiqotlarida esa soliq salohiyati hududlarning iqtisodiy imkoniyatlari va soliq bazasini aniqlash bilan bevosita bog‘liq ekani qayd etilgan [3].

Mahalliy tadqiqotchilar ichida Z. Abdullayev, S. Xudoyqulov, Z. Axrorov va boshqalar O‘zbekistonda hududiy soliq salohiyatini baholash masalasini chuqur o‘rgangan [4-6]. Ularning fikricha, soliq salohiyatini shakllantirishda nafaqat qonunchilik va soliq stavkalari, balki demografik, investitsion hamda infratuzilmaviy omillar ham alohida o‘rin tutadi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalarda soliq salohiyatini shakllantirishda turli omillar o‘rni yoritilgan bo‘lsa-da, ularning hududiy kesimda tahlili hamon dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois O‘zbekiston sharoitida tashqi va ichki omillarni kompleks baholash, soliq ma’muriyatchiligini samarali tashkil etish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish orqali soliq salohiyatini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

O‘zbekiston mintaqasining soliq salohiyatini shakllantirish ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat soliqqa oid qonunchilikka, balki hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy sharoitlariga ham bevosita bog‘liqdir. Soliq salohiyatining hajmi va dinamikasiga ta’sir etuvchi omillarni shartli ravishda bir nechta guruhlarga ajratish mumkin: doimiy va o‘zgaruvchan, asosiy va ikkilamchi, tashqi va ichki. Bunda doimiy omillar hududning soliq bazasini barqaror ta’minlasa, o‘zgaruvchan omillar qisqa muddatli iqtisodiy vaziyatga qarab o‘zgarib turadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, soliq salohiyati faqat barcha omillar kompleks tarzda ishtirok etgandagina to‘laqonli shakllanadi.

Tashqi omillar jumlasiga O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, davlat tuzilishi va boshqaruv shakli, makroiqtisodiy prognozlar, siyosiy barqarorlik, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, shuningdek tabiiy-iqlimiy va geografik sharoitlar kiradi. Masalan, mamlakatning davlat tizimi qanday tuzilganligi bevosita soliq tushumlarining markazlashuv darajasini belgilaydi. Shuningdek, inflyatsiya jarayonlari soliqqa tortiladigan bazaga sezilarli ta’sir ko‘rsatib, narxlar o‘sishi bilan birgalikda hududlarning soliq tushumlari ham ortib boradi. Bu esa soliq salohiyatining mutanosib ravishda kengayishiga olib keladi.

Ichki omillar esa hududning iqtisodiy resurslari, ishlab chiqarish quvvati, tadbirkorlik faoliyati darajasi, investitsion muhit va soliq boshqaruvining samaradorligi bilan belgilanadi. Geografik joylashuv esa alohida ahamiyatga ega bo‘lib, mintaqaning transport-logistika imkoniyatlari va resurs ta’minoti darajasini ko‘rsatadi. Tabiiy-iqlimiy omillar esa tadbirkorlik subyektlari uchun qulay yoki noqulay sharoitlar yaratadi. Shu tariqa, soliq salohiyati – bu faqatgina qonunchilik natijasi emas, balki hududning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati, ishlab chiqarish imkoniyatlari va tashqi sharoitlarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadigan ko‘p omilli kompleksdir.

O‘zbekistonning amaldagi qonunchiligi mintaqalarning soliq salohiyatiga bevosita ham, bilvosita ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ya’ni, huquqiy me’yorlar soliq bazasining hajmi, soliq solish obyekti va qo‘llaniladigan stavkalarga ta’sir etish orqali soliq salohiyatining oshishi yoki pasayishiga olib keladi. Shu jihatdan qaralganda, soliq stavkalari, soliqqa tortiladigan baza va soliq solish obyektining aniqlanishi soliq salohiyatining hajmini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Ayniqsa, turli xil soliq imtiyozlari va preferensiyalar mintaqaning soliq resurslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Hududiy soliq salohiyatiga ta’sir qiluvchi omillardan yana biri — bu siyosiy omillardir. Hokimiyat institutlari faoliyati, siyosiy tizimning tabiati, mamlakatdagi partiyalar soni va ularning faoliyati soliq siyosatining samaradorligini belgilab beradi. Davlat moliya tizimida soliq siyosatining barqarorligi ko‘p jihatdan turli boshqaruv darajalari o‘rtasida shakllanadigan aniq va konstruktiv hamkorlikka bog‘liq. Siyosiy omillar, shuningdek, byudjetlararo munosabatlar va moliyaviy resurslarning taqsimlanish mexanizmlari orqali ham o‘z ifodasini topadi.

Shuningdek, makroiqtisodiy omillar ham mintaqalarning soliq salohiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bular jumlasiga xorijiy investitsiyalar hajmi, qisqa muddatli kapital oqimlari, mehnat resurslari harakati, aholi sonining o‘zgarishi, xalqaro texnologiya transferi, jahon iqtisodiyoti konyunkturasi, tashqi savdo aloqalari va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish prognozlari kiradi. Bu omillar soliqqa tortiladigan bazaning hajmi va sifati, demakki, soliq salohiyatining o‘sish yoki pasayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ichki omillar esa hududning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular mintaqa iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish quvvati, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faolligi va soliq boshqaruvi samaradorligini qamrab oladi. Ushbu omillarning o‘ziga xos jihati shundaki, hokimiyat organlari ularning mintaqa iqtisodiyotiga ta’sirini tartibga solishi va kerak bo‘lsa, muayyan islohotlar orqali soliqqa tortish bazasini kengaytirishi yoki qisqartirishi mumkin. Shu bois ichki omillarni samarali boshqarish hududlarning soliq salohiyatini oshirishning muhim vositasi sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasining soliq salohiyatini shakllantirishda ichki omillar alohida o‘rin tutadi. Bunday omillar qatoriga hududiy qonunchilik, ijtimoiy-demografik jarayonlar, resurs va xomashyo bazasi, infratuzilma rivoji, “yashirin iqtisodiyot”, innovatsiyalar, ekologik va investitsion sharoitlar, shuningdek soliq ma’muriyatchiligi hamda soliq madaniyati kiradi. Har bir omil o‘z navbatida mintaqa va mamlakat soliq bazasining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Hududiy qonunchilik omillari jumlasiga soliqlarni joriy etish, soliq stavkalarini o‘zgartirish yoki ko‘tarish, soliq imtiyozlarini belgilash hamda qonunbuzarliklar uchun moliyaviy sanksiyalarni qo‘llash kiradi. Mazkur omillar hududning fiskal barqarorligi va soliq tushumlarining hajmiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-demografik omillar esa aholining turmush darajasi va inson kapitalini belgilab beradi. O‘lim darajasining pasayishi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohaning

rivojlanishi, aholining ijtimoiy himoyasi, munosib mehnat sharoitlari va migratsiya jarayonlarini tartibga solish soliq bazasining kengayishiga olib keladi.

Resurs va xomashyo omillari mintaqaning iqtisodiy raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy manbalardan biridir. Tabiiy resurslarga boy hududlar investitsion jozibadorlik va iqtisodiy o‘sish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, resurslardan foydalanish va ularni qayta ishlash xarajatlari ham soliq tushumlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Infratuzilma omillari mintaqaning transport-geografik joylashuvi, moddiy-texnik bazasi, temir yo‘l va avtomobil magistrallari, aloqa va transport xizmatlarining rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Rivojlangan infratuzilma hududning raqobatbardoshligini oshiradi va soliq salohiyatini kengaytiradi.

Yashirin iqtisodiyot omili esa soliq salohiyatini pasaytiruvchi eng muhim salbiy omillardan biridir. Yashirin iqtisodiy faoliyat ko‘lami ortgani sari soliq tushumlarini prognozlash va nazorat qilish qiyinlashadi. Shu bois yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, unga qarshi samarali mexanizmlarni joriy etish mamlakat soliq salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

